# O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

## Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal


***BOSH MUHARRIR*** –
**SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich** –
Tarix fanlari nomzodi, professor

***Bosh muharrir o'rinbosari*** –
**YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –**
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

***Tahrir hay'ati***
**ISMOILOV Abdurahim Isroilovich** –
O'zbekiston san'at arbobi, professor
**TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna** –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor
**QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna** –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor
**ALIMASOV Viktor Aleksandrovich** –
Falsafa fanlari doktori, professor
**UMAROV Absalom Adilovich** –
Sotsiologiya fanlari doktori, professor
**ABDULLAYEVA Munavvara** –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor
**MAXMUDOVA Xamida Axyulovna** –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor
**TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna** –
Falsafa fanlari doktori, professor v.b.
**RIZAYEV Amanulla Zufarovich** –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
**RASHIDOV Temur Maxmudovich** –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
**FAYZIYEVA Feruza Xodjimuratovna** –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.
**XALIKULOVA Go'zal Erkinovna** –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.
**KOSHELEVA Antonina Fyodorovna** –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
**ISMOILOV Hamdam** –
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
**NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna** –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
**ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich** –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
**MAXMUDOV Mirali Xaydarovich** –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
**SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich** –
O'zbekiston xalq hofizi, professor
**NASIMOV Hilol To'lqinovich** –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent
**XUDOYEV G'ani Muhammadovich** –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.
**DAVLATOV Oybek G'aniyevich** –
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**TOSHMATOV O'rozali Gafurovich** –
Professor

**JAMOATCHILIK KENGASHI**
**NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich** –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti
**XASANOV Otabek Abdurashidovich** –
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori, siyosiy fanlari doktori (DSc)
**Sirojiddin SAYYID** –
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq shoiri
**RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich** –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi
**ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich** –
O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi
**SAGDIYEV Yodgor Xabibovich** –
O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti
**MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna** –
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i
**MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich** –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori, arxitektura fanlari doktori (DSc), professor
**KASIMOV Nodir Ulug'ovich** –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i
**AKILOVA Kamola Boltaboyevna** –
O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'zBA akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi
**ISMOILOVA Jannat Xamidovna** –
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor
**TESHABOYEVA Umida Alimdjanovna** –
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi 245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.


*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*


O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181-8932

**2024/3(30)**

# MUNDARIJA


1. **N.Sayfullayev.** Imkoniyat va natija uyg‘unligi san’at va madaniyat sohasi timsolida....................3

## I. TEATR VA KINO

1. **F.Fayziyeva.** Televideniyening reproduktiv va produktiv xususiyati....................6
2. **Sh.Abdurasulov.** O‘zbek teatrida jadid ma’rifatparvarlari obrazi....................9
3. **O.Shobilolova.** O‘zbek Milliy akademik drama teatrining ijodiy taraqqiyoti (1930–1945-yillar)....................13
4. **M.Tajimuradov.** Nur va soya: ekranda badiiy obraz yaratish....................17

## II. MUSIQA SAN’ATI

1. **С.Балтаниязов.** Роль и развитие слуха....................20
2. **G‘.Xudoyev.** Buxoro Shashmaqomi turkum nashrlarining ikkinchi guruh sho‘balari xususida....................23
3. **A.Sharipov.** Kompozitor Mustafo Bafoyev asarlarida maqom ohanglari....................31
4. **Ch.Ergasheva.** “Ushshoq” maqomining fenomeni xususida....................34

## III. SAN’AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. **Z.Fazliyeva.** O‘zbek xalq raqsining kelib chiqish va rivojlanish tarixi....................36
2. **E.Jabborov.** Sharq miniatyura san’ati va uning pedagogik tayyorgarlik jarayonidagi o‘rni....................40
3. **M.Karimova.** Folklor-etnografik jamoalarni shakllantirishda professional rejissura va rejissyor mahorati....................43
4. **Z.Shukurova.** Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixi Rashidiy” asari va uning qo‘lyozmalari....................46

## IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. **О.Васильченко.** Роль и значение репертуара в интеллектуальном развитии студентов в процессе занятий в классе хорового дирижирования....................49
2. **S.Mahmudova.** Filologik fanlar va oliy ta’lim: maqsadlar uyg‘unligi ....................52
3. **O.Alimbekova.** “Teatr san’ati” yo‘nalishi talabalariga vokaldan ta’lim berishning ayrim masalalari....................55
4. **Д.Мамирова.** Интенсивность мышечной активности и разновидность способов снятия напряжения при занятиях физической деятельностью....................58

## V. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. **Т.Байтураев.** Библиографическая деятельность национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои....................61
2. **Y.Mannonov.** Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish....................65
3. **N.Shamuratova.** Maktab kutubxonachisining bugungi axborot asridagi ijtimoiy vazifalari....................68
4. **Н.Усманова.** Современные тенденции: медиа образование и искусственный интеллект в сфере библиотеки....................71

## VI. MADANIYATSHUNOSLIK

1. **T.Fayziyev.** Madaniyat sohasida boshqaruv mexanizmlari va madaniyat muassasasining vazifalari....................74
2. **X.Abdullayeva.** Yangi O‘zbekistonning hududlarini ijtimoiy-madaniy rivojlantirish strategiyasi....................78
3. **D.Qurbonova.** Sharq mutafakkirlarining merosida oilaviy tarbiya masalalari....................81
4. **U.Tursunov.** Boysun madaniy muhiti – YUNESKO e’tirof etgan durdona ....................84

## VII. YOSH TADQIQOTCHI

1. **J.To‘ychiyev.** Yangi ma’naviy makon va uning tarkibiy qismlari....................87
2. **G.Shavkatova.** O‘zbekistondagi yosh tomoshabinlar teatrlari bilan maktab hamkorligining professionallashuv davri....................90
3. **U.Axmedxodjayeva.** O‘zbekiston rangtasvirida natyurmort janrining obrazli-ifodaviy yechim tamoyillari....................93
4. **M.Turobova.** O‘zbek Qo‘g‘irchoq teatri rivojida ijodiy eksperimentlarning ahamiyati....................97

## VIII. E’TIROF

1. **С.Маликова.** Жемчужины музыки (Статья посвящена к 80-летию Зумрад Туйчиевой)....................100
2. **Т.Седых.** «Восходящая звезда»....................103
3. **F.Xakimova.** Ustoz va usta (Professor Tohir Yuldashevning hayoti va ijodiga bir nazar)....................106
4. **N.Arzimurodova.** O‘zbek musiqasining betakor “Kommuna”si....................109

**Nodirbek SAYFULLAYEV,**
**O‘zDSMI rektori,**
**Tarix fanlari nomzodi, professor**

# IMKONIYAT VA NATIJA UYG‘UNLIGI SAN’AT VA MADANIYAT SOHASI TIMSOLIDA

**Dunyo tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ma’naviyat va ma’rifat, xususan, adabiyot va san’atning rivoji bevosita boshqa sohalarning, umuman olganda, davlat va jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta’sir etishiga guvohi bo‘lamiz. Negaki, adabiyot va san’at o‘z oldiga axloqiy, ruhiy va jismoniy tomondan yetuk bo‘lgan komil shaxsni tarbiyalashni maqsad qiladi. O‘z navbatida bunday fazilatga ega bo‘lgan inson qaysi sohada faoliyat olib bormasin, iqtidori orqali jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi, shubhasizdir.**

**2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida muhtaram Prezidentimiz: *“Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”*, – deya bu sohalarning ahamiyatini ko‘rsatib bergan edilar.**




Shu ma’noda, bugungi kunda jahonga yangicha qarash, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini sarbaland tutgan holda yuzlanayotgan Yangi O‘zbekistonning san’ati va madaniyati ham tarixiy an’analar va zamonaviy qarashlar uyg‘unligida shakllanib, yangi rivojlanish bosqichiga chiqib bormoqda. Ushbu jarayonda davlatimiz rahbari tomonidan mazkur sohalarning rivojiga berilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni alohida e’tirof etish o‘rinli.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor 2021-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning sohaga oid 60ga yaqin farmon va qarorlari, hukumatning 150dan ortiq qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Natijada soha moddiy va huquqiy jihatdan yanada takomillashdi.

Mamlakatimizda 15-aprel sanasini Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilanishi ham tarixiy hodisa bo‘ldi. Shuningdek, o‘tgan 8 yil davomida “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 11ta yangi muzey, 2ta teatr, 28ta bolalar musiqa va san’at maktabi tashkil etildi. 2022-2023-yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida baxshichilik san’ati milliy ekspozitsiyalari tashkil etilib, mazkur san’at turiga tegishli bo‘lgan 500ga yaqin qadimiy eksponatlar va boshqa ma’lumotlar joylashtirildi.

Yurtimizda muntazam ravishda Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa, “Lazgi” xalqaro raqs kabi ko‘plab nufuzli festivallar tashkil etilib, ushbu san’at durdonalari butun dunyo e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Ushbu tadbirlarda, o‘zbek san’atkorlari, ayniqsa, yosh ijodkorlar o‘z mahoratlarini jahon darajasida namoyon qilib, o‘zbek san’atini yanada yuksaltirmoqdalar. Shuningdek, boshqa yurt vakillarining ham san’atidan bahramand bo‘lib, tajriba orttirishmoqda.

Ma’lumki, har qanday sohaning taraqqiy etishida uning moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi va soha xodimlariga yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda, 2023-yilda birgina madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan besh karra oshdi.

Ayni paytda yurtimizda madaniy-ma’rifiy sohaning moddiy ta’minotiga ko‘mak berayotgan, turli ko‘ngilochar muassasalar, kutubxonalar, ilm-fan va ijodga ixtisoslashgan ko‘plab to‘garaklar tashkil etayotgan vatandoshlarimiz tobora ko‘payib borayotganligini qayd etish lozim. Bunday metsenatlar, shubhasiz, ma’rifatli davlat qurish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik muhitini

yaratishga munosib hissa qo'shishmoqda. Milliy an'ana va qadriyatlarimizni avaylab-asrash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Ushbu jarayonlar orqali xalqimiz turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylangan bu kabi umriboqiy san'at turlarining yanada ommalashishi uchun zamin yaratilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi, shubhahasiz, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan. Ushbu g'oyaning san'atdagi tarannumi esa uning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Aynan mazkur ezgu g'oya asosida har yil 40ta yangi spektakl, 40ta yangi musiqa asarlari, 100ta yuksak badiiy saviyadagi internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish, milliy kuylardan iborat musiqiy albomlarni tayyorlash va ommalashtirish ishlariga hamda atoqli ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlarini tashkil etishga davlat buyurtmasi berilmoqda. O'z-o'zidan bu o'zgarishlar bir tomondan yurtdoshlarimizni sifatli san'at asarlari bilan xushnud etsa, ikkinchi tomondan sohaning yanada rivoji, eng muhimi, ko'plab ish o'rinlari yaratilishi, ijodkorlarning yanada qo'llab-quvvatlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi.

Yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun aniq belgilangan reja asosida "Madaniyat karvoni" shaklida konsert-tomosha tadbirlari va teatr jamoalarining gastrollari tashkil etilmoqda. Natijada yurtimizdagi har bir hudud, har bir xonadonga san'at bilvosita internet, televideniye va radio orqali emas, balki bevosita jonli tarzda kirib borishiga zamin yaratildi. Bu jarayon yurtimiz madaniyati va san'ati tarixiy rivojlanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Jamiyat taraqqiyotiga, kishilar ijtimoiy ongiga, pirovard natijada insoniyat taqdiriga madaniyat kabi kuchli ta'sir etuvchi omil bo'lmasa kerak. Chunki madaniyat insonning intellektual va ruhiy holatini tartibga keltiruvchi, uni jamiyat ijtimoiy va madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa hisoblanadi. Qolaversa, madaniyat inson, uning ongli faoliyati, mehnat yaratuvchanligi, odamlar orasidagi faollik darajasi bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini qayd etish lozim.

Jamiyat rivojlanib borar ekan, madaniyat va san'atning o'rni va roli ham shunga mos ravishda oshib boraveradi. Bugun muhtaram yurtboshimiz rahnamoliklari ostida Yangi O'zbekistonda ma'rifatli davlat barpo etmoqdamiz. Bunday davlatning poydevori esa, hech shubhasiz, madaniyat va ma'rifat, shuningdek, san'at bilangina mustahkam bo'lishi mumkin. Bu islohot va yangilanishlardan asosiy maqsad ham Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash va ma'rifatli davlat barpo etishdir.

Ayrimlar madaniyat va san'atni asosan o'yin-kulgidan, va ko'ngilxushlikdan iborat, deb biladilar. Biroq madaniy hordiq faqat ko'ngilxushlikdan iborat emas. Madaniy hordiq har bir insondagi ijodiy qiziqishlar, uning tobora ortib boradigan madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan ham bog'liq. Shu ma'noda, madaniyat va san'atning jamiyat a'zolarini ijtimoiylashtiruvchilik vazifasini ham alohida qayd etish kerak.

Madaniyat va san'at, xususan, teatr tomoshasi, kino mahsulotlari, kuy-qo'shiqlar har birimizning ruhiyatimiz va kayfiyatimizga ta'sir etadi. Masalan, teatrning asosiy vazifasi bu, insonlarni larzaga solish orqali poklash, ya'ni katarsisdir. Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bejiz "Teatr ibratxonadur", deb aytmagan. Demak, san'atning ta'sir kuchi va ko'lami juda keng. U, avvalo, inson ruhiyatini tarbiyalaydi.

Bugun Yangi O'zbekistonning jahondagi salobati-yu salohiyatiga monand yangi san'ati va madaniyatini yaratish, ayniqsa, yosh iste'dod egalarini kashf etishda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ham alohida o'rni bor. Zero, ushbu ta'lim dargohi yurtimizda aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik, madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasasidir. Bu yerda o'z ijodiy va ilmiy faoliyati bilan nafaqat yurtimiz, balki jahon san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz san'atkorlar va yosh umidli professor-o'qituvchilar talabalarga san'at sirlaridan saboq berib kelmoqdalar.

2023/2024-o'quv yilida respublika va xalqaro darajada o'tkazilgan fan olimpiadalari, festivallar va ko'rik-tanlovlarda institutda tahsil olayotgan 40dan ziyod talaba g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, 50dan oshig'i faxrli o'rinlarga ega bo'ldi. Xususan, bir nafar iqtidorli talaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga, yana bir talaba Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasiga, ikki nafar talaba esa, Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi. Yana bir iqtidor egasi Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti, Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Azizbek Sobirov "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bo'lg'usi ijodkorning institutga birinchi qadami, albatta, kirish imtihonlarida qo'yiladi. Shuni inobatga olgan holda, 2024/2025-o'quv yili qabulida institut jamoasi ushbu jarayonni adolatli va shaffof o'tishi uchun barcha choralarni ko'rdi. Imtihon o'tkazish uchun mo'ljallangan auditoriyalar ta'mirlanib, zaruriy jihozlar bilan ta'minlandi. Kasbiy-ijodiy imtihonlar institutyning rasmiy veb-saytida onlayn tarzda namoyish etildi. Abituriyentlarning ota-onalari va yaqinlari uchun alohida joy ajratilib, jarayonni kuzatib borishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Abituriyentlarning ijodiy, amaliy ishlarini baholashga komissiya raisi sifatida taniqli san'atshunos olimlar, faxriy unvonga ega bo'lgan mashhur teatr va kino rejissyorlari, aktyorlar, xonandalar, sozandalar, kinoteleoperatorlar jalb etildi. Imtihon natijalari shu kunning o'zida institut-ning veb-sayti orqali e'lon qilib borildi. Eng asosiysi, qabul jarayonlarida korrupsiya, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlar kuzatilmasligi uchun

institut tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda barcha zaruriy choralar ko‘rildi.

Sir emaski, har qanday sohada zamon bilan hamnafas bo‘lish, jamiyat ehtiyojlariga javob bera olish muhim ahamiyat kasb etadi. San’at va madaniyat sohasi ham bugun tinimsiz rivojlanib, yangilanib bormoqda. Ushbu ehtiyoj va talablarni inobatga olib, joriy o‘quv yilida institutda San’at jurnalistikasi, Turizm va mehmondo‘stlik, Inson resurslarini boshqarish kabi yangi yo‘nalishlar ochildi.

Barcha sohalar rivoji uchun xalqaro hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish va kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday san’at va madaniyat ham milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi va xalqaro aloqalarga ehtiyoj sezadi. Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: ***“Zero, hamkorlik, savdo, ijod, ilm-fan va san’at, insoniy g‘oyalar ustuvor bo‘lgan joyda ezguliklar ko‘payadi, xalqlar farovon va o‘zaro ahil yashaydi”.***

Bugungi kunga kelib, institutning Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Gruziya, Ozarbayjon, Belorussiya, Qozog‘iston, Tojikiston kabi mamlakatlarning 60dan ortiq Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari, kelishuv memorandumlari mavjud. Xususan, Rossiya teatr san’ati instituti, Qozon davlat madaniyat instituti, Sankt-Peterburg kino-televedeniye instituti va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Koreya Respublikasi hamda Qozog‘iston Respublikasidan professor-o‘qituvchilar institutda faoliyat olib borib, talabalarga ta’lim berish barobarida o‘z mamlakatlari tajribalari bilan ham o‘rtoqlashmoqda. Shuningdek, institutning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, soha bo‘yicha tadqiqotlarni yanada jadallashtirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Oliy ta’lim muassasasi huzurida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash faoliyat olib bormoqda.

Institutda asosiy e’tibor ijodiy yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lsa-da, pedagog kadrlarning o‘z soha muammolari, dolzarb masalalar hamda ilmiy-ijodiy taklif, mulohazalari aks etgan maqola, tezislar muntazam ravishda respublika va xorijiy nashrlarda e’lon qilib kelinmoqda. Google Scholar tizimida institut professor-o‘qituvchilarining xalqaro ilmiy nashrlariga iqtiboslik darajasi yildan yilga o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish, institut ilmiy salohiyatini yanada oshirish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ham belgilab olindi. Zeroki, har qanday sohaning taraqqiyoti uning ilmiy-nazariy asosining mustahkamligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Umuman olganda, institutda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda munosib faoliyat yuritish, ushbu islohotlarni yurakdan his eta oladigan, ularni ijodi orqali tarannum eta oladigan yosh ijodkor kadrlarni tarbiyalash har bir xodimning maqsadiga aylangan, desak yanglishmaymiz. Bu maqsadlarni amalga oshirish, institutni nafaqat yurtimiz, balki jahon darajasidagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari qatoriga kiritish uchun kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham belgilab olindi. Jumladan, sohaga oid yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali har yil professor-o‘qituvchilarning 10-15 foizini xorijda stajirovka o‘tash va malaka oshirishlarini ta’minlash rejalashtirilmoqda. Kelgusida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yoshlarning ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish va rag‘batlantirish maqsadida dissertatsiya himoyasi binar (ikkitalik) himoya tizimi asosida o‘tkaziladi.

“Ijodiy parvoz” media markazi, maxsus ovoz yozish hamda animatsion multfilmlar yaratish uchun maxsus o‘quv laboratoriyasi, badiiy-dekorativ jihozlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ustaxona tashkil etish, aynan san’at va madaniyat sohasi talablari asosida IT yo‘nalishidagi kadrlar tayyorlash rejalashtirilmoqda. Bularni amalga oshirish orqali yana bir muhim vazifa – milliy kontent yaratish jarayoni ham yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bundan tashqari iqtidorli yoshlarni izlab topish va rag‘batlantirish, shuningdek, ularni jahon sahnalariga olib chiqish, ijrochilik mahoratlarini yanada oshirish uchun har ikki yilda bir marotaba talabalar o‘rtasida Xalqaro teatr, musiqa, raqs va folklor san’ati tanlovlarini o‘tkazish maqsad qilingan. Bularni hayotga tatbiq etish talabalarning o‘z ijodiy yo‘nalishini topishlari va yetuk ijodkor kadr bo‘lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tom ma’noda inson kamoloti uchun qayg‘urgan, adolatli jamiyat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan har qanday davlatda madaniyatga katta umid bilan qaralgan. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida ilm-fanning rivoj topishi, ijtimoiy hayotning jonlanishi, adolat tamoyillarining o‘rnatilishi jamiyatda madaniyat va san’atga alohida o‘rin berilgani bilan izohlanadi.

O‘zbek san’ati va madaniyatida, hattoki, uning tarkibidagi bitta sohada ro‘y berayotgan salmoqli o‘zgarishlarni, xususan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va ular natijasida yaratilayotgan ulkan imkoniyatlarni bitta maqolada qamrab olish mushkul. Zeroki, so‘nggi sakkiz yil mobaynida umumbashariy va milliy an’analarni birlashtirgan, xalqimizning orzu-umidlarini mujassam etgan Yangi O‘zbekistonning yangi madaniyati va san’ati shakllanib bormoqda. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir o‘zgarish va yangilanish, xalqimizning xohish-istaklari asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, san’at va madaniyat sohasida bo‘layotgan bugungi jarayonlar ham aynan xalqimizning ehtiyoji va talabi mahsulidir.

Bir so‘z bilan aytganda, san’at va madaniyat bugun yanada ommalashib, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda rivoj topib, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga teranroq yetib borishi uchun xizmat qiluvchi muhim bo‘g‘inga aylanmoqda.

# I BO'LIM

# TEATR VA KINO

**Feruza FAYZIYEVA,**
**O'zDSMI "Kino,televideniye va radio rejissyorligi" kafedrasi dotsenti**

## TELEVIDENIYENING REPRODUKTIV VA PRODUKTIV XUSUSIYATI

**Annotatsiya.** *Maqolada, televideniyeda reproduktivlik va produktivlik xususiyati va o'zining xususiy mahsulotlari yuzaga kelishi borasida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *televideniye, operator, rejissyor, montaj, kamera.*

## РЕПРОДУКТИВНЫЕ И ПРОДУКТИВНЫЕ ФУНКЦИИ ТЕЛЕВИДЕНИЯ

**Аннотация.** *Телевидение размышляет о природе репродуктивности, продуктивности и появлении собственных продуктов*

**Ключевые слова:** *телевидение, оператор, режиссёр, монтаж, камера.*

## REPRODUCTIVE AND PRODUCTIVE FUNCTIONS OF TELEVISION

**Abstract.** *Television reflects on the nature of reproduction, productivity and the emergence of its own products.*

**Key words:** *films, directing, screen, , montaj, camera.*

Televideniye o'z funksiyasidan kelib chiqib, reproduktivlik hamda produktivlik faoliyatini olib boradi. Reproduktivlik televideniyening kommunikativ funksiyasini oshirib, targ'ibotchilik rolini kuchayishi hamda tomoshabinning estetik didini shakllantirishiga muhim shart-sharoit yaratib beruvchi imkoniyatdir.

Reproduktivlik deyilganda kinofilm, teatr spektakli, konsert zallaridagi tomoshalar, joylardan olib ko'rsatilgan sport musobaqalari kabi tayyor mahsulotini teleekranga uzatilish tushunilib, ularni to'g'ridan-to'g'ri yoki yozib olib efirga uzatish nazarda tutiladi.

Produktivlik deyilganda esa, televideniyening o'z bazasida yaratilgan mahsulotlar tushuniladi. Garchi televideniye kommunikatsiya vositasi sifatida axborot uzatish, voqea joyidan reportaj olib berish singari yo'nalishida faol produktivlikka e'tibor qaratsa-da, aynan badiiy shakl imkoniyatlarida san'at turiga aylanadi. Badiiy televideniyening produktivligi kino, teatr singari san'at namunalarini teleekran imkoniyatidan kelib chiqib yaratilgan yangi turini dunyoga keltiradi. Produktivlik xususiyati, badiiy televideniyening san'at sifatida shakllantiradi.

O'tgan asrning 60-yillaridan ommaviy kommunikatsiya va axborot manbai bo'lmish televideniye jamiyat hayotiga jadal kirib, ijtimoiy va ma'naviy ong shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylandi. Shuningdek, televideniye axborot uzatuvchilik funksiyasi bilan birga texnik vositalar asosida badiiyat namunalari yaratishga e'tibor qaratdi. "*Televideniye – texnika bazasidagi siyosat va ijod. U xodimining zimmasiga katta mas'uliyat qo'yadi. O'z o'rnida teleijodkor bu bazadagi siyosat va ijod barqarorligini ta'minlashda yetakchi kuch, vosita bo'ladi. Uning milliy g'oya, milliy mafkura targ'ibotchisi sifatidagi o'rni ham shunda*"[1].

Reproduktiv shaklda sahna asari o'zgartirilmay translyatsiya qilinadi.

Toshkentda televideniye ham o'z faoliyatini reproduktivlikdan boshladi.

1956-yildagi Toshkent studiyasi dasturi ko'zdan kechirilganda, unda reproduktivlik asosiy omil bo'lgani kuzatiladi. Bu borada quyidagi ilk televizion dastur fikrimiz dalilidir:

[1] Tojiboyea O. Maqsud Yunusov. Men avvalo yonishim kerak. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-y. 26-b.

TTSning 1957-yil 3-yanvarda bo'ladigan eshittirishlar programmasidan:

"TASDIQLAYMAN"
O'z SSR Ministrlar Soveti huzuridagi
radioeshittirish va televideniye
komiteti raisining o'rinbosari
______________M.Miragzamov

19.15-19.29 Televizion moslashtirish (настройка)

Musiqa

19.29-19.30 Позывные

19.30-19.50 Assalomu alaykum, qadrli o'rtoqlar. Televizion eshittirishlarni boshlaymiz. Bugungi programmada kinojurnal va "Turli taqdirlar" degan badiiy film.

Hozir kinojurnalni tomosha qiling.

19.50-19.55 Biz kinojurnalni namoyish etdik. Endi besh minutlik tanaffus e'lon qilamiz. Tanaffusdan so'ng "Turli taqdirlar" degan badiiy filmni tomosha qilasiz.

Tekst, musiqa.

19.55-21.40 Televizion eshittirishlarni davom ettiramiz.

"Turli taqdirlar" badiiy filmini tamosha qiling.

21.40-21.42 Siz "Turli taqdirlar" nomli badiiy filmni tomosha qildingiz. Shuning bilan bugungi eshittirishlarimizni yakunlaymiz. Navbatdagi eshittirishlarimizni 5-yanvar kuni soat 19:00dan 30 minut o'tganda boshlanadi. Unda "Ona" degan badiiy film namoyish etiladi.

Xayr, o'rtoqlar![2].

Dasturdan ma'lum bo'lishicha, 2 soatdan iborat bo'lgan efir vaqtida asosiy o'rinni kinofilm egallagan. Bu tariqa dasturlarda filmlarga asosiy vaqtning ajratilishi o'sha davrda endigina faoliyat boshlagan telestudiyada soha xususiyatlarini o'rganish, auditoriyani o'ziga jalb qilish borasida ahamiyatli edi.

Toshkent telestudiyasiga KTSning kirib kelishi reproduktivlik faoliyatini yanada kengaytirdi. Mazkur jarayon Toshkent teatrlari spektakllarini reproduksiya qilish amaliyotini yo'lga qo'ydi.

60-yillarga borib ilk produktiv mahsulotlar, ya'ni teleko'rsatuvlar shakllanishi maxsus ssenariylar yozilishi borasida muhim qadam bo'ldi. Ssenariy yozishga jalb etilgan muharrirlarning aksariyati radioda shakllangani uchun ham bu mahsulotlar eshittirish, deb atalar edi. Toshkent telestudiyasining o'sha yillar dasturlariga e'tibor qaratilganda, ularda dastlabki televizion jurnallar nomlarini uchratish mumkin. Quyida ilova etilayotgan 1960-yilda "Qizil O'zbekiston" gazetasida chop etilgan teledastur fikrimiz dalilidir:

"1960-yil 9-iyulda

19.00. "Kostyor" televizion jurnali

19.40. Kinojurnal

19.50. So'nggi axborot

20.10. O'zbek tilida sport eshittirish

20.30. Rus estrada ustalarining konserti

21.10. Badiiy film "Tinch kvartira"

22.35 O'zbek kuylaridan konsert"[3].

Dasturdan ko'rinadiki, izlanishlar bosqichiga yo'l ochilgan bu davrda asosan reproduktiv (kinojurnal, badiiy film, konsert) ko'rsatuvlar bilan birga produktivlik faoliyatiga ham qisman qo'l urildi. Jarayon rivojlanib borarkan, kinojurnallar soni va yo'nalishlari kengayishi kuzatildi. Teledasturda ijtimoiy-siyosiy, maishiy, sport, qishloq xo'jaligi, bolalar, musiqiy, dramatik yo'nalishlardagi ko'rsatuvlar tayyorlandi.

Teleko'rsatuvlar qator sahifalardan iborat bo'lgan telejurnal shaklida kechib, ular qishloq xo'jaligi, agrar, maorif, tibbiyot masalalari kabi respublika ijtimoiy hayotining turli jabhalarini qamrab ola boshladi. Telejurnallar bilan bir qatorda tomoshabin e'tiborini o'ziga tortish maqsadida ilk shakllanish yillaridan yo'lga qo'yilgan turli san'at namunalarini (kino, teatr, musiqa, adabiyot, tasviriy san'at) reproduktiv tarzda namoyish qilish faoliyati davom etdi. Televideniye tabiatidagi o'ziga xoslik uning reproduktiv funksiyasi bo'lib, u bir tomondan sohaning keng madaniyat tarqatuvchi, ziyokorlik xarakterini belgiladi.

San'at asarlarini reproduksiya qilish faoliyati badiiy ko'rsatuvlar yaratilishida ahamiyatini ko'rsatdi. Respublikada badiiy televideniye rivojida bu yo'nalish ko'rsatuvlari o'z o'rniga ega bo'lib, hozirga qadar mavqeini yo'qotgan emas. San'atning barcha sohasi, tur va yo'nalishlari televideniyening badiiy ko'rsatuvlari e'tiboridan chetda qolmadi. Musiqa, teatr, kino, raqs, sirk singari barcha jabhalarga bag'ishlangan ko'rsatuvlar shu soha mutaxassislarini jalb etgan tarzda yaratilishi ularning yuqori sifatini ta'minladi. O'z navbatida badiiy ko'rsatuvlar san'at turlari rivojiga xizmat qildi, muammolarni bartaraf etilishida ahamiyat kasb etdi. Ushbu masalalar alohida dissertatsiyalarga mavzu bo'lishi muqarrar. Mazkur dissertatsiyada badiiy televideniyening alohida shakli bo'lgan postanovka qilingan asarlarga murojaat etilishining boisi ham san'at turi sifatidagi qonuniyatlarini tadqiq etish maqsadlariga qaratildi.

Badiiy postanovka namunalarini yaratilishida reproduktivlik funksiyasi birinchi va muhim qadam bo'ldi. *"Reproduktivlik funksiyasi sabab, televideniye adabiyot va qator san'at turlari badiiy an'analari bilan uyushtiruvchi "muloqoti" uning plastik san'atning yangi shakli sifatida o'ziga xos badiiy asar yaratish imkoniyatlari va tilini shakllantirdi"*[4]. Shu tariqa kino va teatr badiiy xususiyatlarini o'rganish televideniye bu mahsulotlarni o'z bazasida yaratishiga zamin yaratdi. Kinodan kirib kelgan montaj, rakurs yirik, o'rta, umumiy, panorama planlari kabi shakl va usullar, televizion teatr, badiiy kino tili rivojini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Televideniyening produktivlik faoliyati esa badiiy til va vositalarni ishlab chiqish hamda shu tariqa o'z mahsulotlarini yaratishga yo'l ochdi. Buning natijasida televizion teatrda telespektakl, bir aktyor teatri, badiiy kompozitsiya, telenovella, keyinchalik videofilm, televizion kinoning hujjatli film, badiiy film, ko'p qismli badiiy film turlarini yuzaga kelishiga

---

[2] ЎзДА Фонд 1618,опись 4,370-иш, 6 с.

[3] "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1960-yil, iyul №184.

[4] Rasulov S. Badiiy TV. "Teleteatr" janrining "teleserialga "aylanishidagi" tasviriy yechim. – T.: "Fan", 2023-y. 6-b.

asos bo'ldi. Bunday shaklda badiiy yoki dramatik asar ekran tiliga, voqea va harakat bir meyorda, yagona syujet liniyasida davom etishi uchun tasvirga ko'chiriladi. Bu esa teledramaturgiyani vujudga keltiradi. "*Teledramaturgiya mustahkam ijod turi bo'lib, televideniye uchun yozilgan asar teatr pyesasidan, kinossenariydan farqlanib, maxsus spetsefik talablarga javob berishi zarur*"[5].

O'zbekiston badiiy televideniyesida teledramaturgiya sust ravishda rivojlandi. Dastlabki jarayonda televideniye ifoda vositalari imkoniyatini bilmagani bois, maxsus ssenariy yozadigan ijodkorlar bo'lmagan. Shu tufayli bu faoliyatni rejissyorlarning o'zi bajarishga to'g'ri kelgan. Televideniyeda badiiy ko'rsatuvlarni yuzaga kelishida teleijodkorlar zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun ma'lum bir tajriba orttirish davrini bosib o'tishi kerak bo'lsa, teleinssenirovkalarni tayyorlash yo'lidagi qadamlar 50-yillarning oxirida qo'yilgan. Bunda televideniye o'zining kommunikativ vosita sifatidagi xususiyatlari bilan cheklanmay, balki badiiy adabiyot poydevorida yaratilgan original asarlar bilan boyidi. Adabiy asarni ekranga ko'chirish juda murakkab va mashaqqatli mehnat. Adabiyot nafaqat dramaturgiya, balki she'riyat, va ayniqsa, nasr televizion teatrga hayotiy materiallarga e'tibor qaratish imkonini yaratdi. Bunda fikr adabiy asarning asl holicha ko'chirilishi uning interpretatsiyasi yoki unga taqlid xususida emas, balki so'z san'ati va tasvirning murakkab va uzviy aloqasi haqida boryapti.

Televizion teatrning barcha shakllarida teatr san'atining qonuniyati va tajribasini kuzatish mumkin. Televideniyeda faoliyat yurituvchi rejissyorlarning ko'pchiligi teatrlardan tajriba olgan yoki teatr oliygohining bitiruvchilari edi. Ijrochilar teatrning yetakchi aktyorlari bo'lib, ularning nazariy bilimi va tajribasi teatr amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan. Badiiy jarayonlar tur va yo'nalishlarni yuzaga keltirar ekan, televideniye tili, ifoda vositalari rejissyorlarning amaliy faoliyatlarida shakllandi. Undagi plan va rakurslar xarakteri, montaj imkoniyatlari aynan badiiy jarayonlarda namoyon bo'ldi. Voqealarning mantiqan bir joyda, faqat studiya pavilyonida rivojlanib borishi, tasviriy vositalarda ko'proq yirik plandan foydalanish televideniyega xosdir. "*Televideniye bu – kichik ekran san'ati, yirik plan san'ati. Insonning yuzi, ko'zi, kayfiyati, ruhiyati bizga qiziq. Televideniye umumiy, cheksiz planlarni yoqtirmaydi, uning ko'lami, ta'siri boshqacha. Katta ekranda ko'rilgan jang sahnalarining ta'siri kichik ekranda ko'rilgan tomosha ta'siridan farqi bor*"[6].

Televideniye aktyor uchun kichik sahna yaratdi. Bu "kichik sahna" mizanssenalari telekamera, chiroqlar va mikrofon imkoniyatlari bilan bog'liq edi. Efirning jonli kechishi turli noqulaylik va nuqsonlarga ham sabab bo'lar edi. Bunda goh chiroq bexosdan o'chib qolishi, yoki mikrofon ishlamay qolish holatlari kuzatilardi. Teleteatr ana shu qiyinchiliklar fonida rivojlana boshladi. Televizion spektaklning asosiy kompozitsion qurilishni, stilistik boshqa xususiyatlarni asosan teatr va kinodan oldi. "*Televideniyeda hali yozib olish degan narsa bo'lmaganligi, barcha efirlar jonli ketganligi uchun televizion spektakllar yaratish borasidagi ish boshqalarga qaraganda ancha murakkab edi. Telerejissyor xuddi teatr rejissyori singari qo'liga olgan asar ustida oylab ishlardi. Asar shu tariqa obdon pishgach, u jonli efirga chiqardi*"[7].

Teatr shakllarining televideniye ekraniga ko'chirishning ikkita turini kuzatish mumkin: birinchisi reproduktiv-translyatsiya qilish, ikkinchisi produktiv-televideniye pavilyonida yaratilgan shakllarni kuzatish mumkin. Teatr spektakllari reproduktiv usulda teleekranga ko'chirilganida yirik plan va montaj teatrdagi mezanssena o'rnini bosadi. Televizion teatrning taraqqiyoti va orttirgan tajribalari davomida teatr spektakllarining translyatsiya an'anasi bugungi kunga qadar davom etyapti. Videoplenkaga muhrlangan teatr spektakllari ("Boy ila xizmatchi", "Qutlug' qon", "Nurxon", "Vatan ishqi", "Inqilob tongi", "G'ariblar", "Shoshma, quyosh", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Kuyov", "Oltin devor", "Parvona") yangi televizion shaklga ega bo'lish barobarida bir paytning o'zida ko'p millionli tomoshabinni qamrash imkoniyatiga ham ega. O'zbekiston televideniyesining "Oltin xazina"sida saqlanayotgan va san'at arboblari tomonidan sahnalashtirilgan shu kabi spektakllardagi aktyorlar ijro mahoratini keyingi avlod vakillari ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

---

[5] Копилова Р. Контакт. Заметки о феномене телевизионности. – Москва: «Искусство», 1974 г. С.27

[6] Muhamedov. M. Ustozlar izidan. – T.: "Shoakbar" xususiy ishlab chiqarish tijorat firmasi, 2006-y.25-b.

[7] Tojiboyea O. Maqsud Yunusov. Telerejissyor portretiga chizgilar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-y. 14-b.

**Shohrux ABDURASULOV,**
**O‘zR FA San’atshunoslik instituti ilmiy xodimi,**
**san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

# O‘ZBEK TEATRIDA JADID MA’RIFATPARVARLARI OBRAZI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada, istiqlol yillari o‘zbek teatrida jadid ma’rifatparvarlari obrazini yaratish yo‘lidagi izlanishlar tahlil qilinadi. Jadid siymolari aks etgan spektakllarning badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati ochib beriladi. Jadidlar g‘oyasi va qarashlarini keng targ‘ib qilish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazishda teatr san’atining o‘rni va ahamiyati muhim ekani ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *jadid, jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, o‘zbek teatri, dramaturgiya, tarixiy shaxs, sahnaviy talqin, rejissyor.*

# ОБРАЗ ДЖАДИДОВ-ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ

**Аннотация.** *В статье анализируются поиски воссоздания образов джадидов в узбекском театре в годы независимости. Раскрываются художественно-идеологические характеристики, духовно-просветительский смысл спектаклей о судьбах узбекских просветителей-джадидов. Подчеркивается роль и значение театрального искусства в широкой популяризации идей и взглядов джадидов, их важность для современности, особенно для молодого поколения.*

**Ключевые слова:** *джадид, джадидское движение, просветительство, узбекский театр, драматургия, историческая личность, сценическая интерпретация, режиссёр.*

# THE IMAGE OF JADID ENLIGHTENER IN THE UZBEK THEATER

**Abstract.** *The article analyzes the search for recreating the images of the Jadids in the Uzbek theater during the years of independence. The artistic and ideological characteristics, spiritual and educational meaning of performances about the fate of the Uzbek enlightenment Jadids are revealed. The role and importance of theatrical art in the wide popularization of the ideas and views of the Jadids, their importance for modern times, especially for the younger generation, is emphasized.*

**Key words:** *jadid, jadid movement, enlightenment, uzbek theater, drama, historical figure, stage interpretation, director.*

Istiqlol yillari mamlakatimiz teatrlarida jadid ma’rifatparvarlari siymosini gavdalantirish, ularning hurriyat yo‘lidagi orzu-intilishlari, ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini aks ettirish bo‘yicha ijodiy izlanishlar olib borildi. Xususan, milliy dramaturgiya va nasrimizda jadid ziyolilari obrazi yaratildi va ular sahnalashtirildi. Garchi bunday tajribalar ko‘p bo‘lmasa-da, ulug‘ ajdodlarimizning ibratli hayoti, buyuk jasoratini keng targ‘ib qilishda yaxshi samara berdi. Zero, o‘tgan asr tongida millatni isloh qilish taraddudiga tushgan jadidlar ham teatr san’atiga alohida e’tibor qaratishgan, uni “ibratxona” (Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’biri), deya ulug‘lashgan edi.

O‘zbek dramaturgiyasida jadid namoyandalari obrazi muvaffaqiyatli yaratilgan dramalardan biri – O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning ***“Kunduzsiz kechalar”*** asari bo‘lib, unda millatimizning hassos shoiri Cho‘lpon hayotining ziddiyatli, murakkab yillari shoirona ruh va dramatizm uyg‘unligida tasvirlanadi. Pyesa O‘zbek Milliy akademik drama teatrida rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, bir necha yillardan buyon teatr sahnasidan tushmay keladi. San’atshunoslik fanlari doktori, professor S.Qodirova yozganidek: *“Aniq tarixiy shaxslar hayoti voqealarga juda boy bo‘ladi. Muallif mana shu voqealar silsilasidan eng asosiylarini, qahramon qiyofasini to‘laqonli yoritishga xizmat qila oladiganini tanlay bilishi lozim. Zero, mazkur voqealar orqali insonlar xarakteri ochib beriladi. Cho‘lpon – to‘g‘riso‘z, doimo haqiqatning qaror topishiga ishongan, o‘z fikr-o‘ylariga sobit inson. Biroq zamona zayli bilan ana shunday insonni millatchilikda ayblab, xalq dushmaniga chiqarganlar. Spektakl o‘sha qora kunlar haqida hikoya qiladi”* [1].

Asarda Cho‘lpon taqdiri orqali XX asrning 30-yillarida millat ziyolilari boshiga tushgan mash’um hodisalar – qatag‘on siyosati, uning ijtimoiy-mafkuraviy ta’siri, o‘zbek ma’rifatparvarlarining fojiaviy qismati dramatik sahnalarda ochib beriladi. Cho‘lpon chinakam erkparvar shaxs, iste’dodli shoir, jasoratli inson sifatida namoyon bo‘ladi, uning davr qiyofasini fosh etuvchi o‘tli she’riyati zamona korchalonlarini hushyor torttiradi:

*Bunday “Epoxa”ni chekib tugating,*
*Kullari ko‘klarga sovrilib ketsin!*
*Bu tutqini ezilgan o‘zbek bolasi*
*Olovsiz, tutinsiz kunlarga yetsin!*

“Epoxa” sigaretasi qutisiga yozilgan bu alamli misralar shoirning istibdodga bo‘lgan kuchli noroziligi, isyoni tarzida yangraydi. Muallif Cho‘lponning botiniy ruhiyati, dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasini ifodalashda uning she’rlaridan unumli foydalanadi. Bu esa pyesaning badiiyati, ta’sir ko‘lamini oshiradi, shoir iztiroblarini yanada chuqur, teran ochilishini

ta'minlaydi. Drama kuchli psixologik monologlar, ziddiyatli dialoglarga qurilgan bo'lib, bu jihat asardagi dardning ijtimoiyligi, syujetning tomoshabop va ta'sirchan chiqishiga xizmat qiladi. Spektaklda Cho'lpon rolini ustoz san'atkor Muhammadali Abduqunduzov ijro etadi. Uning tashqi ko'rinishi, dramatik va psixologik holati, ma'noli sukutlari shoir siyratiga mos tushgan. *"Istalgan holatda, hatto eng qattol va shafqatsiz vaziyatlarda ham insoniy qadr-qimmatni saqlash – M.Abduqunduzov talqinining leytmotivi sanaladi"* [2.185-b.].

Spektaklning dastlabki sahnasida qo'lida sham tutgan Cho'lpon – M.Abduqunduzov paydo bo'ladi va o'zining mashhur "Adabiyot yashasa, millat yashar" so'zlarini bayon etadi. So'ng, Cho'lponning mo'jazgina hovlisi namoyon bo'ladi. Bu yerda shoir va uning do'stlari yig'ilib, millatning kelajagi, taraqqiyoti haqida suhbat qurishadi. Suhbat asnosida Cho'lponning shogirdi, yosh adib Oybek (F.Ma'sudov) hovliqib kirib keladi va ustozi haqida matbuotda maqola e'lon qilinganini ma'lum qiladi. Maqolada Cho'lpon millatchi sifatida tanqid qilingan, ijodi xalq uchun zararli deb topilgan edi. Yig'ilganlar sarosimaga tushib, birin-ketin hovlini tark etadi, shu sahnada Cho'lponga aslida kim do'stu kim dushman ekani ayonlashadi.

Davr fojiasini ochib berishda sahnalashtiruvchi rassom Baxtiyor To'rayev tomonidan ishlangan dekorasiyalar alohida o'rin tutadi. Rassomning ramziy topilmalari asar ruhiyatiga mutanosib bo'lib, tomoshabinni mushohadaga chorlaydi. *"Xususan, sahnaning chap tomonida turgan bargsiz, qup-quruq, umidsiz, kelajagi mavhum daraxtning holati spektakl yakuniga qadar o'zgarmaydi. Spektaklda to'q, sovuq ranglar ustuvorlik qiladi"* [3.84-b.].

Pyesada Cho'lpondan tashqari Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Botu singari tarixiy shaxslar ham ishtirok etadi. Fitrat va Fayzulla Xo'jayev Cho'lponni qo'llab-quvvatlovchi, uning yaqin do'sti va hammaslagi sifatida ko'rinsa, shoir Botu iste'dodini ko'rolmaydigan, g'arazgo'y raqib sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, pyesada Sezgir, Naganli odam, Zamonqul, Ko'zoynak, Galdir kabi personajlar ham qatnashadi va ular Cho'lpon taqdirida turli darajada rol o'ynaydi.

*"Voqealar nuray boshlagan madrasa fonida kechishida ham ma'joziy ma'no mujassam. Bu avlodlar tomonidan tiklangan ma'naviy boyliklarning, qadriyatlarning sho'rolar davrida yemirilganiga ishora. Spektakl davomida asosiy fon o'zgarmaydi, biroq musiqa, nur va soya vaqtga aniqlik kiritadi. Shoir atrofidagi noxushliklarni aks ettirish maqsadida qo'llangan holatlar – kuz, yaproqlarning to'kilishi Cho'lponning so'nggi kunlariga, shuningdek, uning orzu-umidlari, niyatlari bir-bir to'kilib, qurib borayotganiga ishora"* [4.335-b.].

Dramada Cho'lponning suyukli rafiqasi Soliha obrazi ham mahorat bilan tasvirlangan. Soliha har qanday vaziyatda ham Cho'lponga vafodor, oqko'ngil, e'tiqodi butun ayol timsolida gavdalanadi. Cho'lpon boshiga og'ir kunlar tushganida, ayolini himoya qilish maqsadida uni o'zidan yiroqlashtiradi va Andijonga jo'natib yuboradi. Asarning final sahnasida, ya'ni harbiylar "xalq dushmani"ga aylangan Cho'lponni olib ketayotganida, Soliha qaytib keladi va yoriga bo'lgan cheksiz sadoqatini namoyish etadi. Spektaklda Soliha obrazini ijro etgan aktrisa Shohida Ismoilova qahramonining chinakam ayollik fazilatlari, ma'naviy go'zalligini ochib beradi.

Rejissyor V.Umarov tomosha yakuni uchun juda ta'sirli yechim topadi. Cho'lpon hibsga olinib, sahnani tark etgach, markazga o'rnatilgan monitorda istiqlol davri manzaralari aks etadi. Bu yorug' kunlarga yetib kelishimizda millatimizning Cho'lpon singari ulug' shaxslari shahid bo'lgani ta'kidlanadi – jadid ma'rifatparvarlarining taqdiri shunday edi. Professor Begali Qosimov yozganidek: *"Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi"* [5.4-b.].

Dramaturg Ziyo Najmiyning *"Zanjirband sher" asari ham Cho'lpon hayotining tahlikali yillariga bag'ishlangan bo'lib, asar fojiaviy ruh, chuqur dramatizm bilan e'tiborni tortadi. Pyesani sahnalashtirgan Andijon viloyati Yoshlar teatri jamoasi o'ziga xos sahnaviy talqinni taklif etadi. "Bosh qahramon, ya'ni Cho'lpon o'z boshidan kechgan voqealarni xayolan jonlantirar ekan, ularni shunchaki qayd etmaydi, balki aksincha, ularga faol munosabat bildirib boradi. Bunda unga Hamlet obrazi yordam beradi"* [6.309-b.]. Cho'lpon qismatining Shekspir qahramoniga qiyos qilinishi bejiz emas, albatta. Shoir ham xuddi Hamlet singari razolatga to'lgan dunyoni isloh qilishga intiladi, atrofida bo'layotgan chirkin o'yinlarga munosabat bildiradi. Cho'lponning Hamlet bilan ruhan mushtarakligi drama va spektaklning bosh g'oyaviy negizini belgilaydi. Zero, Cho'lpon ham o'z davrining Hamleti sifatida maydonga chiqdi va jisman yengilgan bo'lsa-da, chinakam ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatdi. Buyuk shoirning "Hamlet" fojiasini ona tilimizga tarjima qilishi ham tasodifiy hodisa emas, balki o'sha ruhiy yaqinlikning natijasi edi, desak ayni haqiqat bo'ladi.

Cho'lpon haqidagi bu ikki dramatik asar avtobiografik janrga mansub bo'lsa-da, asarlarni tom ma'noda ushbu janr qoliplari bilan chegaralab bo'lmaydi. Boisi mualliflar Cho'lpon shaxsiyatiga erkin yondashadi, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ozodlik yo'lidagi o'y-fikrlari, iztiroblari asosiy planga qo'yiladi. Aynan shu jihat asarlarning badiiy estetik ta'sirchanligi, ijtimoiy va g'oyaviy yukini kuchaytiradi.

Jadid adabiyotining yana bir ulug' namoyandasi, milliy romanchiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriy siymosini ham teatr sahnasida aks ettirish bo'yicha muayyan izlanishlarning mavjudligi e'tiborga molik. Jumladan, 1989-yil Hamza nomidagi teatr (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri)da sahna yuzini ko'rgan "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari" nomli spektaklda ilk bor Qodiriy obrazi namoyon bo'lgan edi. Muallif Izzat Sulton Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining

dramabop, keskin ziddiyatlarga to‘la sahifalari, yozuvchilik qismati, insoniy tiynati va fojiaviy taqdirini badiiy yo‘sinda idrok etadi. Shuningdek, mumtoz romani – “O‘tkan kunlar”ni yozish ustidagi izlanishlar, ikkilanishlar, ijod mashaqqatlari va ilhombaxsh onlar shu voqealarga monand tarzda ko‘rsatiladi. “O‘tkan kunlar” romani dunyoga kelgach, endi muallif Qodiriydan biroz chekinib, uning adabiy qahramoni – Otabek turmushini tasvirlashga o‘tadi. Bu xususida san’atshunoslik fanlari doktori, professor Toshpo‘lat Tursunov shunday yozadi: *“Shu tariqa “teatrda teatr” paydo bo‘ladi. Otabek rolini Abdulla Qodiriyning o‘zi bajara boshlaydi. Vaqti-vaqti bilan romanning bayoni bo‘linib, asar mavzusi va mazmuni xususidagi muhokama, bahsga ko‘chiladi”* [7]. Ta’kidlash lozimki, Izzat Sultonning mazkur asari ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

2019-yil mamlakatimizda Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan respublika teatrlarida adib asarlari va shaxsiga bag‘ishlangan spektakllar sahnalashtirildi. Xususan, O‘zbekiston davlat drama teatrida yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz” qissasi asosida taniqli rejissyor, O‘zbekiston san’at arbobi Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirilgan “Jinlar bazmi” (“Yolg‘iz”) spektakli madaniy jamoatchilikda qiziqish uyg‘otdi. Qissada Abdulla Qodiriyning dramatizmga boy, murakkab taqdiri davr manzarasi bilan uzviylikda, mahorat bilan tasvirlanadi. Voqealar rivojini belgilovchi omil sifatida adibning 1926-yil fevral oyida “Mushtum” jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” nomli maqolasi asos qilingan bo‘lib, ayni shu felyeton sabab, Qodiriy boshida qora ko‘lankalar paydo bo‘ladi. Maqolada jamiyatning tanazzulga ketayotgan qator sohalari, shuningdek, o‘z amaliga bepisand qarayotgan rahbarlar faoliyati ayovsiz tanqid qilinadi, bundan esa mustabid korchalonlari yashin urgandek sergak tortadi. Rejissyor va inssenirovka muallifi O.Salimov qissaning o‘q tomirini aniqlab, voqealarni shuning atrofiga quradi.

Sahnalashtiruvchi rassom S.Chufarnov yozuvchi g‘oyasi va rejissyor maqsadini to‘g‘ri anglagan holda, Qodiriy yashagan qattol tuzumning ayanchli qiyofasini aks ettiruvchi mahobatli dekorasiyalar va rang-barang polotnolarga alohida e’tibor qaratadi. Sahnada ramziy minbarlar, temir panjaralar, Ittifoq timsoli bo‘lmish qizil bayroqlar, gohida Lenin, gohida Stalin portretlari namoyon bo‘ladi. Musiqa ham shunga monand – baraban, truba, burma karnay, trambon kabi damli cholg‘u asboblarining vahimali ovozi eshitiladi. Bunga esh bo‘lib harbiy marsh sadolari uzra qatag‘on qilichini yalang‘ochlagan zobitlarning qadam tovushlari quloqqa chalinadi. Xullas, Qizil maydonda bo‘luvchi paradlarni eslatadigan muhit, bunda go‘yo Qodiriy tasvirlagan “Jinlar bazmi” real holatga – sovet davriga ko‘chadi, aniqrog‘i, millatning chinakam ziyolilarini qatl etayotgan, ma’rifat ustidan tantana qilayotgan kimsalar ayni zamonning jinlariga o‘xshab ketadi va ularning bazmi avjiga chiqadi.

Abdulla Qodiriy obrazini gavdalantirgan yosh aktyor Ilhom Berdiyev vazmin tabiati, o‘tkir nigohi, sukutlari, kulgi va fojia qorishiq monologlari bilan ulug‘ adibning ruhiy dunyosiga kirishga, ijodkor va shaxs sifatidagi qirralarini ochishga harakat qilgan. Biroq fikrimizcha, aktyor hali tom ma’noda obraz mohiyatiga yetib borolmagan. Holatdan holatga o‘tishda, xarakterning mantiqiy izchilligini ta’minlashda, nutq rang-barangligi va ta’sirchanligiga erishishda aktyorga birmuncha tajriba yetishmayapti. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun aktyor obraz ustidagi izlanishlarini davom ettirishi lozim.

Qodiriy shaxsiga tuhmat yog‘diruvchi tergovchi Agidulin rolini ijro etgan aktyor Shukrullo So‘fiyevning mahoratini alohida ta’kidlash mumkin. Agi – Sh.So‘fiyevning bachkana xatti-harakatlari, sahna bo‘ylab raqsga tushishi, xursand bo‘lganida mo‘ylovi va ko‘zlarini o‘ynatishi o‘zining fe’l-atvori, qabih qiyofasiga g‘oyat mos tushadi. Aktyor tashqi ifodalar, topilmalar orqali chekistlar vakilining tuban xarakterini ochib beradi. Agining boshlig‘i va siyosiy maslakdoshi Belskiy obrazini ijro etgan taniqli aktyor Bahodir Mirmaqsudov ham o‘z qahramonini mohirlik bilan gavdalantiradi. Belskiy Agidan farqli o‘laroq aqlli, o‘zbekchani ancha-muncha biladi, matbuotni muntazam kuzatib boradi, g‘arazga xizmat qilsa-da, fikrlari birmuncha teran. Aktyor dramatik holatlar va yuz mimikasi orqali qahramoni suratini ishonarli chizib beradi.

Spektaklda Abdulla Qodiriy bilan “Mushtum”da birga ishlagan, pirovardida, Sho‘ro kuychisiga aylangan – Oshqin (I.Ochilov), Shoyusuf (K.Rahmonov), Vose’ (S.Lutfullayev), Mirzarasul (S.Sattorov) kabi ijodkorlar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, aktyor Samiddin Lutfullayev ijrosidagi Vose o‘sha davr xoinlarining tipik vakili sifatida namoyon 145 bo‘ladi. U “Yig‘indi gaplar” e’lon qilingach, majallaning hamma xodimlari qatori javobgarlikdan bo‘yin tovlaydi, Qodiriyga qarshi guvohlik beradi. Spektakl finalida adib ozodlikka chiqib, xonadoniga qaytgach, do‘stlari yana do‘stlik qo‘lini cho‘zadi. Ularning: “Abdulla, sen yolg‘izmisan?” degan savoliga qat’iy nigohlar ila: “Yo‘q, yolg‘iz emasman!” – deya javob beradi. Shundan so‘ng sahnada birin-ketin yozuvchi qalamidan bunyod bo‘lgan qahramonlar – Yusufbek hoji, Otabek, Kumush, Anvar, Ra’no, Kalvak mahzumlar va oila a’zolari paydo bo‘ladi. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy endi yolg‘iz emasdi, shafqatsiz tuzum, manfur kimsalar uni harchand yolg‘izlatishga urinmasin, adib o‘z e’tiqodi va vijdonida sobit turib, haqiqatni baralla kuylay oldi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda jadid ziyolilarining g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, ularning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini o‘rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, teatrlarimizda jadid shaxslariga bag‘ishlangan spektakllar yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Yaqinda O‘zbekiston davlat drama teatrida sahnalashtirilgan “Turkiston bolalari” spektakli ana shunday sahna asarlaridan biri bo‘lib, unda bugungi jamiyatimiz, yoshlar kamoloti uchun juda zarur bo‘lgan g‘oyalar ilgari surilgan. O‘tgan asrning 20-yillarida jadid ma’rifatparvarlarining tashabbusi va sa’y-harakati bilan olmon diyorida tahsil olgan va Turkistonga qaytgach, fojiali tarzda

qatl etilgan millat yoshlarining jasorati bugun har bir insonni hayajonga solishi, Vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirishi tabiiy. Shu ma’noda O‘zbekiston davlat drama teatri jamoasini ayni mavzuga murojaat qilgani bilan qutlasak arziydi.

Drama muallifi Go‘zaloy Matyoqubova Turkiston yoshlari qismatining murakkab, dramatik lavhalarini tasvirlaydi. Xususan, talabalarning Germaniya safari oldidan Vatan haqqiga qasam ichishi, rus mulozimi Meyerson bilan bo‘luvchi suhbati, hibsdagi otashin so‘zlari tomoshabinni mutaassir qiladi.

E’tiborlisi, spektakldagi barcha qahramonlarni asosan yosh aktyorlar ijro etgan. Ular sahnada bir-birini tushunib, yaxlit ansamblga aylanishadi, muallif va rejissyor g‘oyasini ifodalashga harakat qilishadi. Jumladan, Behzod Zokirjonov ijrosidagi Ahmad Shukriy, Nodir Muhammadjonov ijrosidagi Sattor Jabbor, Husniyabonu To‘ramuratova talqinidagi Maryam Sultonmurodova, Sabina Murotova gavdalantirgan Xayriniso Majidxonova obrazlarida e’tiborga molik yutuqlar mavjud. Ayniqsa, matonatli o‘zbek qizi Xayriniso obrazi spektaklning asosiy, yetakchi qahramoniga aylantirilganini qayd etish lozim. Xayriniso – millat xotin-qizlarining chinakam timsoli, fidoyiligi, jasorati, ilmu ma’rifati ila minglab tengdoshlariga o‘rnak bo‘lgan. Vatan taraqqiyoti, hurligi uchun shirin jonini nisor aylagan qahramon ayol. Xayrinisoning qamoqxonada rus zobiti bilan uchrashuvi spektaklning eng ta’sirchan sahnalaridan biri bo‘lib, zaifa bo‘lsa-da, qaddini tik tutib, dushmanning yuziga boqishi, betiga tupurishi va yakunda dahshatli kaltaklariga turib berishini ko‘rib, o‘zbek qizining jasurligi, temir irodasiga tahsin o‘qiysiz.

Shu o‘rinda ijro va talqin masalasidagi ayrim mulohazalarimizni aytib o‘tsak. Spektakldagi dialoglar har qancha ta’sirchan va haroratli bo‘lmasin, aktyorlarning hali yosh ekani, muayyan o‘rinlarda tajribaga muhtojligi sezilib qolgan. Aktyorlar matnni puxta o‘zlashtirgan, biroq o‘sha matn ortidagi dard, iztirob, alam-qayg‘u, fojialar yetarlicha his qilinmagan, aksar sahnalarda ovoz va ehtirosga zo‘r beriladi, ortiqcha pafos, hissiyot ustuvorlik qiladi. Vaholanki, kechinmalarni sukut orqali, hech qanday xatti-harakatlarsiz ham yetkazish mumkin. Shuningdek, jadidlar: Cho‘lpon (Po‘lat Normatov), Fayzulla Xo‘jayev (Sirojiddin Sattorov), Fitrat (Nodir Mirzaahmedov) obrazlarini tajribali aktyorlar talqin etgan bo‘lsa-da, ularning spektakldagi o‘rni deyarli sezilmaydi. Jadidlar Turkiston yoshlari taqdirida hal qiluvchi o‘rin tutganini inobatga olsak, ularning drama va spektakldagi ahamiyatini oshirish darkor. Bu vazifani amalga oshirish uchun yosh rejissyor Rasuljon Tog‘ayqulov aktyorlar bilan izlanishlarni davom ettirishi lozim.

Sahnalashtiruvchi rassom Sergey Chufarnov davr manzarasi va muhitini sahna dekoratsiyalarida ochib beradi. Spektaklda sahnada kechayotgan voqelik bilan parallel tarzda orqa fondagi videotasvir orqali XX asr boshida Turkistondagi hayot, jadid ziyolilarining qiyofalari ko‘rsatiladi. Nazarimizda, bunday yondashuv shartli san’at bo‘lmish teatrning tabiatiga muvofiq emas, sahnada barcha voqealarni jonli ko‘rsatgan ma’qul.

Shu kabi kamchiliklarni istisno etganda, “Turkiston bolalari” spektaklidan ko‘zlangan maqsadga erishilgan, desa bo‘ladi. Va eng muhimi, sahna asari yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, millatga daxldorlik hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston teatrlarida jadid ma’rifatparvarlari obrazini yaratish yo‘lida izlanishlar qilinayotgani alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlodni jadidchilik g‘oyalari bilan yaqindan tanishtirishda teatr san’ati muhim mafkuraviy omil vazifasini bajaradi. Shu bois kelgusida jadidchilikning boshqa namoyandalari haqida ham spektakllar yaratish teatr ijodkorlari zimmasida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Bunda taniqli adiblar, dramaturglar ham faollik ko‘rsatishi, respublika teatrlari bilan muntazam hamkorlik qilishi talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirova S. “Kunduzsiz kechalar”. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1998-yil, 13-fevral.
2. Мухтаров И. «Живое наследие в метафорах сцены». «Дружба народов», 2019, №8. С.180–189.
3. Yakubov B. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-yy). san. fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2019-y. 172-b.
4. Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-y. 364-b.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: “Ma’naviyat”, 2002-y. 400-b.
6. Rizayev Sh. Istiqlol davri o‘zbek tarixiy dramaturgiyasi. // Ozod Vatan saodati (V jild). Adabiy tanqid. – T.: “Adib”, 2003-y. 298–314-b.
7. Tursunov T. “Abdulla Qodiriy sahnada”. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil, 11-son.

**Ozoda SHOBILOLOVA,**
**O‘zDSMI Tahririyat va nashriyot bo‘limi muharriri,**
**mustaqil izlanuvchi**

# O‘ZBEK MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRINING IJODIY TARAQQIYOTI (1930–1945-yillar)

**Annotatsiya.** *Maqolada, bu yil 110 yoshni qarshilagan O‘zbek Milliy akademik drama teatrining o‘tmishi: 1930–1945-yillar tahliliy nigohdan o‘tkaziladi.*

**Kalit so‘zlar:** *teatr, rejissyor, aktyor, dramaturg, pyesa, sahna, spektakl, repertuar, ijro, ijod.*

# ТВОРЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО АКАДЕМИЧЕСКОГО ДРАМАТИЧЕСКОГО ТЕАТРА (1930–1945 гг.)

**Аннотация.** *В статье анализируется история Узбекского национального академического драматического театра, которому в этом году исполняется 110 лет: 1930–1945 годы.*

**Ключевые слова:** *театр, режиссер, актер, драматург, пьеса, сцена, спектакль, репертуар, исполнение, творчество.*

# CREATIVE DEVELOPMENT OF THE UZBEK NATIONAL ACADEMIC DRAMA THEATER (1930–1945)

**Abstract.** *The article analyzes the history of the Uzbek National Academic Drama Theater, which turns 110 years old this year: 1930–1945.*

**Key words:** *theater, director, actor, playwright, play, stage, performance, repertoire, performance, creativity.*

O‘ttizinchi yillar ijodiyotida teatr ham yo‘qotdi, ham topdi. Ijod taraflama nisbat beradigan bo‘lsak, o‘ttizinchi yillar qaltis bir davr bo‘ldi. Bir guruh adabiyot va san’at vakillari partiya zo‘ravonligining tazyiqiga uchradilar. Aniqrog‘i qatag‘on qurboni bo‘ldilar. Teatrning poydevoriga g‘isht qo‘ygan: Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, G‘ulom Zafariy, Ziyo Said kabi adiblar ijod bag‘ridan, adabiyot olamidan ayovsiz yulqib tashlandilar. “Xalq dushmani” tamg‘asi bilan taqdirlari temir panjaraga bog‘landi. Ijod mahsullariga qora chiziq tortildi.

Jarayon bor ekan yangilanish, yosharish bo‘ladi. Teatr jonli muloqot. Tirik hujayra. Qon muttasil aylanib turishi kerak, bu dargohda. Yangi chehra, yangi husnixat, yangi qatlam tarafdori. Teatrning asosini dramaturgiya tashkil etadi. Teatr bag‘riga dramaturglarni jalb etishni va ular bilan ishlashni bilishi kerak. Bu borada Mannon Uyg‘urning ziyrakligiga, oqilligiga, yetukligiga shohid bo‘lamiz. U Komil Yashin, Umarjon Ismoilov, Nazir Safarov, Ziyo Said, Sotti Husayn kabi yosh iqtidorlar bilan ishlashga bel bog‘laydi. Teatr qozonida birga qaynaydi. Hammaslak, hamfikrlikda maydonga original asarlarni yuzaga keltirishga, repertuarni original asarlar bilan bezashga yeng shimaradi.

Bu davrda ham yangi tamoyillar ko‘zga tashlanadi. Zamon ruhi ufurib turgan pyesalar qo‘lga olinadi. Ilk marotaba ispan dramaturgiyasiga murojaat etiladi. Lope De Veganing ***“Qo‘zibuloq”*** (1931-yil, rejissyor: O.Devishev) dramasi repertuarga yangi rang bo‘lib qo‘shiladi. Garchi pyesa sahnaviy talqinda real voqelikdan yiroq, aksincha, rasmiyatchilikka xos shartlilik uslubida hal etilgan bo‘lsa-da, yangilikka intilish mujassam edi. Spektaklda jonlilik, hayotiylik va tabiiylik taqchil kelganligi bois sahnada ko‘p yashamadi.

*“1932-yil boshida Ziyo Said va Nazir Safarovlar teatrga “Tarix tilga kirdi” pyesasi bilan kirib kelishdi. Bu asar o‘zining yangi mavzui jihatidan o‘zbek dramaturgiyasi tarixida alohida o‘rin tutadi”*[1], – deya ma’lumot beradi akademik M.Rahmonov. Asarda M.Uyg‘ur yosh dramaturglar bilan ijodiy tillasha oldi. Pyesaning jon tomirini sahnaviy badiiy hayotga ulay bildi. Har bir ishtirokchiga sahnaviy yuk tashladi. Pyesa g‘oyasiga muvofiq xalq xoinlari obrazini ochib berishga, ularni qo‘poruvchilik faoliyatidagi makrli usullarni siyosiy va psixologik jihatdan mohirona namoyish etishga muvaffaq bo‘ldi. Muhimi, sahna jonli va tabiiy jarayonga to‘ldi. Davrning og‘riqli nuqtasiga tuz sepilgani uchun ham asar tomoshabinlarga manzur bo‘ldi. Talab va taklifga binoan spektakl premyeradan so‘ng yigirma kun davomida muttasil namoyish etildi.

M.Uyg‘urga xos xislat, qalamida cho‘g‘ sezilgan muallifni, albatta, dramaturg sifatida kashf etardi. Dardi bor qalamkashni ijod maydoniga qayta chorlardi. Bu borada yosh dramaturg Zinnat Fatxullin bilan ijodiy ko‘ngil, o‘y-fikrlar uyg‘un keldi. Uning ***“Niqob yirtildi”*** dramasi ham sahnaviy talqinda baxtini topdi. Demoqchimizki, M.Uyg‘ur teatrda ijodiy muhitni barqarorlashtirish, nufuzini oshirishda astoydil izlanishda bo‘ldi. Teatr va tomoshabin o‘rtasida mehr-muhabbatni yuksaltirishda tinim bilmadi. Natijada teatrning yurak ritmi maromida urdi.

[1] Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001-y. 97-b.

Repertuar chiroy ochdi. Tomoshabin oqimi yanada jadallashdi. Ijod, mehnat, izlanish samarasi 1933-yilda Hamza nomli teatrga “Akademik” faxriy unvoni berildi. Truppa tashkil topganidan e’tiboran ijodiy kamarbasta san’atkorlar M.Qoriyeva, M.Kuznetsova, S.Eshonto‘rayeva, Y.Bobojonov, A.Hidayatov, M.Miroqilov “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvon bilan taqdirlandilar.

Albatta, teatr va ijodkorlar rag‘batga, e’tirofga, faxriy unvonga yuz foiz haqli edilar. “Turon” truppasidan e’tiboran Hamza nomli teatr maqomiga yetgunicha bo‘lgan jarayonda ijodiy muhit shakllandi, repertuar badiiy va g‘oyaviy qiyofaga ega bo‘ldi, aktyorlar truppasi ildiz otdi, rejissurada malaka oshdi. M.Uyg‘ur Moskva teatr studiyasi va Hamza teatri o‘rtasida ijodiy ko‘prik bo‘ldi. Rus va o‘zbek teatrlari orasidagi fikriy almashinuv, ijodiy do‘stona munosabat natijasida maskan ob-havosi yangilandi, mo‘tadillashdi, fayz-tarovatga to‘ldi.

Ko‘hna tarix g‘alvirida 1933-yil yaqin o‘tmish. Yaqin o‘tmish tuprog‘ini kaftga olar ekanmiz, ijodiy jarayonga yigirma yil to‘lmasdan turib, “Akademik” faxriy maqomga sazovor bo‘lish oliy ko‘rsatkichdir. Bu “Turon” tuprog‘iga 1914-yil urug‘ qadalgan bo‘lsa, 1933-yilga kelib daraxt anchayin ko‘karganiga, barg yozganiga, hosil berganiga guvoh bo‘lamiz. Respublika hukumatining Hamza teatriga bo‘lgan yuksak e’tirofidan ruhlangan ijodiy jamoa ishonchni oqlash yo‘lida ishga yanada jiddiy sho‘ng‘iydilar.

Teatr M.Uyg‘ur boshchiligida Shekspir ijodiga murojaat etmog‘i ijodiy hayotda yana bir dadil qadam bo‘ldi. ***“Hamlet”*** 1935-yil 11-fevralda sahna yuzini ko‘rdi. Shoh asar teatr hayotida katta burilish sodir etdi. Tomoshabin oqimi eshik zulfini buzdi. Odamlar spektaklni tomosha qilish uchun haftalab navbat kutdi. Xo‘sh, bu qadar zafarning boisi nimada edi? Masala yana rejissuraga borib taqaladi. Tragediya chin ma’noda M.Uyg‘urning yuragida tug‘ildi. Asar maydonga kelgunicha rejissyor ikkiga bo‘lindi. Shekspir va u yashagan davr, asarda ilgari surilgan g‘oya, ko‘tarilgan muammo, ijtimoiy hayotni puxta-pishiq o‘rganish, o‘zlashtirish uchun Moskvada ijodiy tajriba oshirdi. Shekspirshunos olimlar bilan hamsuhbat bo‘ldi, ilmiy asarlarni mutolaa qildi, rus sahnasidagi ***“Hamlet”***ni tahliliy nigohdan o‘tkazdi. Demak, M.Uyg‘ur va Y.Bobojonovning ***“Hamlet”***i o‘qib-o‘rganish, izlanish, malaka oshirish, tinimsiz mehnat natijasida olamshumul zafar quchdi.

Sahnaning qiroli – aktyor. Olqishu qarsaklar aktyor ijrosiga yog‘iladi. Tomoshabin aktyor uchun teatrga tashrif buyuradi. Va aktyor ijrosi uchun spektaklni qayta-qayta tomosha qiladi. Barcha sahnaviy badiiy kuch aktyor ijrosida ochiladi. Ya’ni sahnaviy badiiy ifoda vositalari aktyor ijrosi kesimida birlashadi va omuxtalashadi.

Tarix sahifalarida ***“Hamlet”*** fojiasining yutug‘i, yuksak ijroda namoyonligi alohida e’tirof etiladi. O‘z davrida Hamlet – Abror Hidoyatov, Ofeliya – Sora Eshonto‘rayeva ijrosi rus va o‘zbek teatri munaqqidlarining qalamiga manba bo‘la oldi. San’atkorlar obrazlari talqinida el og‘ziga tushdi. Tarix solnomasiga muhrlandilar. Zero, Hamza teatrining tarixchisi M.Rahmonovning yozishicha ham: *“Hamlet” asarining sahnaga qo‘yilishi butun jamoaning ijodiy imkoniyatlari nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatib berdi. Teatr beqiyos g‘alabaga erishdi. Hamza nomli o‘zbek davlat akademik drama teatri Shekspir tragediyasini sahnalashtirish bilan kichik doiradan katta san’at olamiga chiqdi”*[2].

O‘ttizinchi yillar oxiri teatrga Hamza drama-turgiyasining ikkinchi bor kirib kelishi ijod maydonida yangi tamoyil bo‘ldi. Ilk bor “Turon” truppasida 1918-yil ***“Zaharli hayot”*** pyesasi bilan Hamza dramaturgiyasiga qo‘l urilgan edi. Oradan qariyb yigirma yil o‘tib, yana Hamza dramaturgiyasi varoqlandi. Adibning fojiali o‘limiga 10 yil, tavalludiga 50 yil to‘lishi munosabati bilan teatr ***“Boy ila xizmatchi”*** dramasini sahnaga olib chiqdi. ***“Hamlet”***dan so‘ng chinakam zafar quchgan spektakl bo‘ldi. Mazkur asar rejissyor Y.Bobojonovning ijodiy tarjimai holida muhim va yorqin o‘rin tutdi. Shuningdek, dramadagi markaziy qahramonlar G‘ofir – Shukur Burhonov, Jamila – Sora Eshonto‘rayeva, Solihboy – Obid Jalilov teatr tarixida yulduz misoli porladilar.

***“Boy ila xizmatchi”***ning dovrug‘idan, spektaklga yog‘ilgan yuksak e’tiroflardan ruhlangan Y.Bobojonov yana Hamza dramaturgiyasi bilan ishlashda davom etadi. Bu safar ham rejissyor bilagidagi kuchni ko‘rsata oldi. Uning “Xolisxon”i sahnaviy baxtini topdi. Spektakl 1940-yil 7-avgustda sahnaga chiqdi. Avom dramani ma’nan chanqoqlik bilan qarshi oldi. ***“Xolisxon”*** tomoshabinlarning ayni ko‘nglidagi spektakl bo‘ldi. Har ikki sahna asari Y.Bobojonovga *“Hamzashunos rejissyor”* degan yoqimli ta’rif keltirdi.

Tadqiqotchi M.Rahmonovning ushbu fikrlari Hamza teatri va Hamza dramaturgiyasiga yana bir dalil va dadil chizgilardir: *“Spektaklning badiiy sifati yuksak darajada bo‘lganidan, bu hol tomoshabinlar oqimini kuchaytirdi. O‘nlab spektakllar anshlag bilan o‘tdi. Spektaklga bilet topish eng murakkab masala edi. Odamlar teatr kassasi oldida ertalabdan kechgacha navbat kutardi. Bu ham Hamza asarlariga, Yetim Bobojonov rejissurasiga, teatrning yetuk aktyorlari san’atiga tomoshabinning muhabbati va hurmati edi”*[3].

Tarix darchasidan teatrdagi ijodiy jarayonni kuzatar ekanmiz: ildiz otish, ulg‘ayish, yuksalish bosqichlariga guvoh bo‘lamiz. Teatrning ijodiy qiyofasi bo‘lmish repertuardagi rangin chizgilarni ko‘ramiz. O‘zbek, qardosh, xorij dramaturgiyasi sahnada nafaqat hamdo‘stlikni tarannum etdi, balki millat ob-havosini ijod maydoniga olib kirdi. Teatr badiiy rahbari M.Uyg‘ur yangi chehralarni kashf etdi. Yosh qalamkashlarni ijod davrasiga chorladi. Ular bilan unumli ijod qildi. Natijada sahnada ham dramaturgiya, ham aktyorlik jabhasi chaqmoq kabi chaqnadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan yosh dramaturglardan K.Yashin, U.Ismoilov, Z.Fatxullin, N.Safarov, Z.Said, S.Husaynlar Hamza teatri dargohida, Mannon Uyg‘ur maktabida toblandilar. Bevosita jonli jarayonda qalamlari charxlandi.

[2] O‘sha manba.119-b.
[3] O‘sha manba.169-b.

Dramaturgiya olamida nom qozondilar. Shuningdek, repertuarning faxri, ko'rki bo'lgan spektakllar orqali A.Hidoyatov (Hamlet, Otello), S.Eshonto'rayeva (Ofeliya, Dezdemona, Jamila), O.Xo'jayev (Yago, Alisher Navoiy), Sh.Burhonov (G'ofir), X.Xo'jayeva (Xonzoda), Sh.Mag'zumova (Shirin) sahnada ijodiy chiroy ochdilar. Ta'bir joiz bo'lsa, ijodiy nur sochdilar.

Albatta, o'n yillik teatr uchun katta ijodiy davr. Teatr tuprog'iga 1914-yil urug' qadalgan bo'lsa, 1940-yilga kelib ana shu urug' hosildor daraxtga aylandi. Ya'ni teatr kamolot davriga yetdi. O'z ijodiy qiyofasiga ega bo'ldi. Repertuar siyosatini yo'lga qo'ydi. Teatr oldida endi mashaqqatli va sinovli davr turardi. Bu: teatr urush yillarida.

***"Hamlet"*** asari teatrga o'zi uchun katta imtihon bo'ldi. Ijodiy kuch-qudratini ko'rikdan o'tkazdi. Jahon dramaturgiyasining durdona asari sahnaviy baxtini topgani, teatr jamoasiga bu yo'lda yana ilhom bag'ishladi. Yana Shekspir dramaturgiyasiga murojaat etildi. Manbada yozilishicha: "*Hamlet"dan so'ng "Otello" klassik dramaturgiyani o'zlashtirishda ikkinchi jiddiy qadam bo'lib, haqli ravishda o'zbek teatri madaniyatining yirik yutug'i, deb tan olindi*"[4].

***"Otello"*** spektaklining premyerasi 1941-yil 28-yanvarda bo'lib o'tdi. Rejissyorlar N.Ladigin va M.Uyg'ur pyesaning dilidagini sahna tiliga mahorat bilan o'girdilar. Pyesadagi badiiy shira va jilo sahnaviy qolipga asliyatini saqlagan holda moslashtirildi. Natijada pyesa va sahna uyg'unligida jozibali spektakl maydonga keladi. ***"Hamlet"***dan pishib yetilgan markaziy qahramon talqinchilari endi ***"Otello"***dagi markaziy qahramonlar qiyofasida yashashda davom etadilar. Teatr badiiy rahbarlari uchun Otello – A.Hidoyatov, Dezdemona – S.Eshonto'rayeva eng maqbul tanlov bo'ldi. Shuningdek, Yago – O.Xo'jayev, N.Rahimov jarayon qozonida qaynadilar.

***"Otello"*** spektakli "Hamlet" kabi keng quloch yozdi. El og'ziga tushdi. O'zbekistonga kelgan xorijlik mehmonlarning yuksak e'tiroflariga sazovor bo'ldi. Spektakl o'n yetti yil mobaynida, ya'ni 1941–1945-yillar davomida Abror Hidoyatov ishtirokida 500 marta namoyish etildi. Bu teatr tarixida yuqori ko'rsatkichdir.

Har bir davrning o'z ahamiyati va mohiyati bor. Ikkinchi jahon urushi san'at va madaniyat ahlining gardaniga davr nuqtayi nazaridan yuk tashladi. Bu front va front orti voqealarini aks ettiruvchi sahna asarlari edi. Teatr repertuari zamonga moslashtirildi. Ijod sandig'iga 1942–1945-yillar mobaynida ***"O'lim bosqinchilarga"*** (K.Yashin), ***"Burgutning parvozi"*** (I.Sulton), ***"Hamza"*** (K.Yashin, A.Umariy), ***"Ona", "Qaltis hazil"*** (Uyg'un), ***"Qasos"*** (Sh.Tuyg'un va A.Umariy) kabi asarlar kelib qo'shildi. Ushbu ijod mahsullarini o'sha zamon ijod farzandlari, deb qabul qilish kerak. Qolaversa, tomoshabinlarda ham davr mohiyatiga muvofiq aynan shu mavzuga chanqoqlik bor edi. Sabab, teatr – ko'ngil maskani. Savollarga javob, dardga malham, qalbga nur dargohi.

Demak, teatr urush yillarida madaniy yorqin iz qoldirdi. Ayniqsa, 1943-yil sahnaga chiqqan Hamid Olimjonning "***Muqanna"***si, 1944-yil sahna yuzini ko'rgan Maqsud Shayxzodaning ***"Jaloliddin Manguberdi"*** hamda 1945-yil maydonga kelgan Uyg'un va Izzat Sultonning ***"Alisher Navoiy"*** asarlari davrning salmoqli izlanishlari bo'ldi.

She'riy drama ***"Muqanna"***ni M.Uyg'ur Solomon Mixaylis bilan hamkorlikda sahnalashtirdi. Bilamizki, she'riy drama nazm va nasr uyg'unligidir. Yuksak pafos va hayot ziddiyatlari, xarakterlar to'qnashuvida muvozanatni ushlay bilish kerak. Bunday holatda aktyorda ham shoirona qalb, ham sahnaviy dinamika omuxtalashsa, obrazda yaxlitlik, ya'ni butunlik hosil bo'ladi. She'riy drama aktyorga ham, rejissyorga ham salmoqli yuk tashlaydigan janr. Bu jabhada M.Uyg'ur xorij mumtoz asarlari ***"Hamlet"*** va ***"Otello"***da nazm va nasr mashaqqatlarida toblangan. She'riy drama chig'irig'idan o'tgan. Shu sabab, jarayonda o'zi bilan birga yongan, pishib yetilgan Abror Hidoyatovni Muqanna obraziga munosib ko'radi.

Spektakl o'z davrida dardlarga malham, yaraga giyoh bo'ldi. Asarda Muqanna boshchiligida Movaraunnahrda xalqning arab bosqinchilariga qarshi qo'zg'oloni aks etgan. Bu pyesa Ikkinchi jahon urushi jangchilariga hamohang yozilgan bo'lib, jangovor publitsistik ohang tomoshabinlar ko'ngliga moydek yoqqan edi. Demak, ***"Muqanna"*** davr nuqtayi nazaridan o'z tamoyiliga, o'z tomoshabiniga xizmat qilgan spektakl.

Faylasuf shoir Maqsud Shayxzoda 1944-yil ***"Jaloliddin Manguberdi"*** asari bilan teatrga kirib kelishi katta tarixiy voqea bo'ldi. M.Uyg'ur endi M.Shayxzoda bilan ijodiy do'stona munosabatni davom ettirdi. M.Shayxzoda va M.Uyg'ur ijodiy hamkorligi ham zamon zayli, ham davr tomoyili bo'ldi. Ijodkorlarning asarida vatanparvarlik ruhi yuksak pafosda sahnaviy in'ikosini topdi.

***"Jaloliddin Manguberdi"*** pyesasi 1946-yilning 26-dekabrida sahnaga chiqdi. Undagi markaziy qahramon Jaloliddin Shukur Burhonov siymosida gavdalandi. Mazkur tarixiy asar tomoshabinlarning ko'nglidan joy oldi. Tomoshabin teatrga oqib keldi. Tomoshabin oqimidan ma'lumki, spektakl qalb ma'naviy ehtiyojini qondirgan. "*Asarning bosh qahramonlari Jaloliddin (Shukur Burhonov), Temur Malik (Abror Hidoyatov), Chingizxon (Amin Turdiyev) obrazlarining bag'oyat yuksak darajada ijro etilishi, badiiy kamoloti spektaklning yutug'ini ta'min qildi. Munaqqidlar bu o'lchab bo'lmaydigan san'at teatr tarixining ajoyib sahifalari bo'lib qoldi,deb qayd qilgandilar*"[5], – deya guvohlik beradi M.Rahmonov.

Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan Uyg'un va Izzat Sultonning ***"Alisher Navoiy"*** tarixiy dramasi 1945-yil 1-aprelda tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Afsuski, M.Uyg'ur rahnamoligidagi bu asar teatr munaqqidlarining tanqidiga uchradi. Muammo asar matni bilan bog'liq edi. Tarixiy faktlar aniq ochib berilmaganligi, voqeiy hodisotlar haqiqatdan yiroqligi, Navoiy obrazi o'ta ideallashtirilib yuborilganligi, Husayn Boyqaro xarakteri noto'g'ri chizilganligi sabab, spektakl

---

[4] O'sha manba.170-b.
[5] O'sha manba.204-b.

nomoyishi to‘xtatilindi. Asar kamchiliklarni bartaraf etish sharti bilan repertuardan olib qo‘yildi.

Mualliflar va rejissyorga bu holat katta saboq bo‘ldi. Pyesa javonda chang bosib yotishiga yo‘l qo‘ymadilar. Qamishdan bel bog‘lab, asar tahriri ustida ish boshladilar. Hammaslak, hamfikrlikda pyesaga Guli obrazini olib kirdilar. Voqealar dinamikasini kuchaytirdilar. Asar tiliga jiddiy ahamiyat qaratdilar. Obrazlar bichimini aniq o‘lchab, xarakterlarga yorqin chizgilar berdilar. Pyesa stol atrofida pishib yetilgach, sahna maydoniga olib chiqdilar.

Jiddiy izlanish, katta mehnat evaziga qalamdan to‘kilgan yangi tahrir ***“Alisher Navoiy”*** dramasi 1948-yilning 13-yanvarida sahnada qad rosladi. Ikkinchi tahrir va talqin katta shuhrat qozondi. Alisher Navoiy – A.Hidoyatov, O.Xo‘jayev, Husayn Boyqaro – L.Narzullayev, Guli – S.Eshonto‘rayeva, Mansur – S.Tabibullayevlarning ijrosi, ayniqsa, diqqatga sazovor bo‘ldi. Ushbu ijrochi aktyorlar hamda rejissyor Mannon Uyg‘ur Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar. Spektakl uzoq yil teatr repertuarini bezadi. Beshyuzinchi namoyishi, ya’ni benefesi teatr tarixiga muhrlandi.

Teatr urush yillarida bir dam bo‘lmasin ijoddan, izlanishdan to‘xtamadi. Davr nuqtayi nazaridan sahna bilan ishladi. Front va front orti voqealarini aks ettiruvchi, jangovor ruhdagi spektakllar bilan tomoshabinga dalda bo‘ldi. Maqsad: *“Shunday og‘ir bir sharoitda hayot to‘xtab qolgani yo‘q. Go‘zal va rangli kunlar oldinda. Umid bilan yashamoqlik, go‘zal ne’mat. Umidingni so‘ndirma!”* Teatr ahli mana shu shiorda peshonadan ter chiqib ijod qildi. Nomi o‘chgur urush tufayli ko‘ngillar bo‘shab qolgan bo‘lsa-da, sahna bo‘sh qolmadi. Teatr rahbariyati repertuar siyosatida biryoqlamalikdan chekindi. Ko‘ngillardan g‘am-g‘ussani aritish uchun Uyg‘unning ***“Qaltis hazil”*** (rejissyor: A.Turdiyev, 1944-y.) komediyasiga murojaat etildi. Shuningdek, repertuar rus va g‘arb klassiklari asarlari bilan ham boyib bordi. A.Ostorvskiyning ***“Sepsiz qiz”*** (rejissyor: Y.Amontov, 1944-y.), Chexovning ***“Ayiq”*** (rejissyor: Y.Amantov, 1944-y.), Lope de Veganing ***“Qo‘zibuloq qishlog‘i”*** (rejissyor: Sh.Qayumov, 1944-y.), M.Lermontovning ***“Maskarad”*** (rejissyor: A.Turdiyev va N.Aliyeva, 1945-y.) asarlari davr bo‘shlig‘ini to‘ldirdi. Teatr madaniy hayotida yangicha shamol bo‘lib esdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
2. Tursunov T. XX asr O‘zbek teatri tarixi 1900–2007 (Darslik-monografiya). – T.: “Art Press”, 2010.
3. Qodirov M., Qodirova S. O‘zbek teatri tarixi (darslik). – T.: “Niso Poligraf”, 2019.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: “Sharq”, 1997.

**Mahmud TAJIMURADOV,**
**O‘zDSMI, Nukus filiali o‘qituvchisi**

# NUR VA SOYA: EKRANDA BADIIY OBRAZ YARATISH

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, nur va soyaning ekranda badiiy obraz yaratishdagi ahamiyati xususida so‘z ketadi.*

**Kalit so‘zlar:** *ekran, nur, soya, shakl, uch o‘lcham, tasviriy yechim, badiiy obraz.*

# СВЕТ И ТЕНЬ: СОЗДАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА НА ЭКРАНЕ

**Аннотация.** *В данной статье представлены некоторые соображения о значении света и тени в создании художественного образа на экране.*

**Ключевые слова:** *экран, свет, тень, форма, трехмерность, визуальное решение, художественный образ.*

# LIGHT AND SHADOW: CREATING AN ARTISTIC IMAGE ON THE SCREEN

**Abstract.** *This article presents some considerations about the importance of light and shadow in creating an artistic image on the screen.*

**Key words:** *screen, light, shadow, shape, three dimensions, descriptive solution, artistic image.*

Bu yorug‘ olamni nursiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Quyoshsiz bir kunni tasavvur qilib ko‘rsangiz, darhol tushunasiz. Tabiat va hayvonot olami izdan chiqadi. Odamzod esa ko‘rish ne’matidan mosuvo bo‘ladi. Nur bizga atrofimizdagi olamni idrok etish imkonini berib, vizual ma’lumotni olamiz. Nur – kino, televideniye va fotografiya sohalarining fizik asosidir. Ekran san’ati ijodkorlarining, ayniqsa, tasvirchining asosiy ish qurolidir. Tasvir nur bilan hosil bo‘ladi, yorug‘liksiz tasvirga olishning imkoni yo‘q. Ekranda badiiy obraz yaratishda nur eng asosiy vositalardan biri sanaladi.

Rassom o‘z asarini mo‘yqalam yordamida moybo‘yoq bilan yaratsa, tasvirchi yorug‘lik yordamida yaratadi [Poznin, 21]. Quyosh nurisiz, faqatgina maxsus texnikalar yordamida, infraqizil nur va ultrabinafsha nurlarda syomka qilish mumkin. Bu esa, biz yashayotgan olamdagi tasvirdan o‘zgacha tasvir hosil qiladi. Biz ko‘rayotgan dunyoni tasvirga olish uchun quyosh nuri yoki sun’iy yoritish chiroqlari kerak bo‘ladi. Shunday ekan, kino va teleekranlarda badiiy tasvir yaratishda yorug‘lik asosiy vosita hisoblandi.

Biz nurni hayot, quvonch, yangilanish va baxtning ramzi sifatida qabul qilamiz. Soya – bu zo‘ravonlik, shafqatsizlik, ayriliq, o‘lim timsoli kabi kayfiyatni yaratish vositasi sifatida qabul qilinadi [Medinskiy, 64]. Yorug‘liksiz biron voqelikni yoki badiiy obrazni yaratishda holatni va his-tuyg‘ularni ochib berish imkoni yo‘q. Kadrda ommaviy sahna, holat, harakat, qiyofa, xarakter, g‘oya va umumiy ruh berish juda murakkab jarayondir. Ushbu holatlarni badiiy obraz tasvirlash uchun, albatta, yorug‘lik zarur. Kun va tun, yorug‘lik va soya. Bu qarama-qarshiliklar inson hayoti va umuman tabiatning asosi hisoblanadi [Itten, 14]. Biz yorug‘lik yordamida vizual ma’lumotni olamiz, yorug‘lik va soya uch o‘lchamli shakllarni yaratadi, buning natijasida atrofni va makonda joylashgan jismlarning shakli, rangi, tuzilishi, hajmi, tarkibi, holatini, qayerda va qanday joylashganini aniq tasavvur qilamiz. Bundan tashqari, nur va soyalar yordamida atmosfera va havodor tasvir yaratiladi.

Kadr kompozitsiyasini tuzishda ham nur va soyaning ahamiyati beqiyos. Nur tasvirning tonal muvozanatini ta’minlaydi, kadr kompozitsiyasining muvozanatini soyalar, soyali shakl va dog‘lar, perspektiva qoidalari, kontrastlar bilan kompozitson muvozanatlaydi. Soyalar yordamida kadrning dinamikasini, ritmini va relyeflarni aniq ko‘rsatib, yaxlitligini ta’minlab, vizual uyg‘unlikni yaratadi. Kompozitsiya qurishda nur va soya asosiy vosita hisoblanadi.

Tabiiy yorug‘likka asosan quyosh nuri kiradi. Ya’ni, kunduzgi yorug‘lik. Quyosh tong sahardan kun botguncha harakatlanadi, buning natijasida, spektral tarkib, yorug‘lik va soyalar o‘zgaradi. Tabiiyki, tasvirdagi ma’no, mazmun va emotsional holatlar ham o‘zgaradi. Yorug‘lik manbaidan yorug‘lik elektromagnit to‘lqinlari harakatlanadi va bu insonda ko‘rish xususiyatini uyg‘otadi. Nur to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanadi, nur sinadi, og‘adi, qaytadi va hokazo.



Yorug'likning ifodaviy imkoniyatlarini ochgan buyuk rassomlardan biri Rembrandt Van Reyndir (1606–1669). U tabiatning yoritilganlik holatini aniq his qilish qobiliyatiga ega bo'lib, holat asosida o'zining rangtasvir tizimini ishlab chiqdi. Bu tizimda nur nafaqat kartinadagi jonli yoki jonsiz shakllarning tashqi qiyofasini ochib beradi, balki bu nur insonlar qalbini yoritib, shu'la sochib turgandek tuyuladi [Rasulov, 26]. Bu yoritish uslubini dastlab rassomlar qo'llagan bo'lsa, keyin badiiy fotografiyada ishlatilgan. Keyinchalik kinoga va televideniyega o'tib, "rembrandtcha yoritish" uslubi deyiladi. Ijodkorlar bu uslubdan bugungi kunda ham unumli foydalanadilar. Tasvirdagi yorug'lik yechimi yordamida qahramonlarning his-tuyg'ularini ochish yoki kadr kompozitsiyasining eng zarur qismi ko'rsatiladi. Bu tomoshabin diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Tasvirni to'g'ri yoritish qahramonning yoki buyumlarning qayerda va qanday joylashganligi, kunduz yoki kechasi, qahramonning ruhiy xolatini ifodalaydi. Bu shubhasiz, muallifga ekranda san'at asarini yaratishda katta yordam beradi.

Ekran san'atida sodir bo'layotgan voqelikning, undagi obrazlarning xarakterini ochib berishda soya muhim vositalardan sanaladi. Soya xarakteri turli-tuman. Uni tasvirda aniq va ifodaviy taqsimlash bizga predmet relyefini ochib beradi, uni fazoviy makonda joylashuv o'rnini, muhitdagi ob-havo holatini ochib beradi va h.k. [Rasulov, 28]. Kadr kompozitsiyasida ijodkor qahramonning xarakterini ko'rsatish uchun mos keladigan yoritish uslubini tanlaydi. Masalan, qahramonning xarakterida dramatik yoki lirik jihatini ko'rsatish uchun ijodkor buni tasvirdagi yorug'lik va soyalar orqali yoki dinamik va ritmik chiziqlar bilan ifodalaydi. Shu tariqa tasvirdagi qahramon, uning ruhiy holati, kayfiyati va fe'l-atvorining ma'lum bir jihatlari aks ettiriladi. Mahoratli tasvirchilar kadrdagi soyaning o'rnini aniq topib joylashtirib, kadr kompozitsiyasini yaratadi. Nurning kuch va tushish burchaklari o'zgarishi bilan qahramonning ko'rinishi va ruhiy holatlari ham o'zgaradi. Yorug'likning o'zgaruvchan effektlari, ya'ni nur va soya o'yinidan, tabiatning har xil holatlaridan unumli foydalanib, tasvir g'oyasini, his-tuyg'ularni, ehtiroslarni aniq ifodalab, tugallangan badiiy obraz yaratadi. Oqilona yoritilganlik tasvir tomoshabinga film g'oyasini yetkazib berishga xizmat qiladi.

Yoritish ikki turga bo'linadi, tabiiy va sun'iy. Tabiiy yorug'likka – quyosh va oy nurlari kiradi. Quyosh yil fasllari va kunning vaqtiga qarab o'zgaradi. Uning yorqinligi ham shunga monand o'zgaradi. Yoz faslida kuchli, bahor, kuzda mayin, qish faslida ancha zaif bo'ladi. Bundan tashqari, tabiiy sharoit, noqulay ob-havo, mayin bulutlar, qora bulutlar, kuchli momaqaldiroq, qor, yomg'ir, tog'-adir, o'rmon, dala, daryo, qum, quyoshning chiqishi-yu botishi, musaffo havo, ifloslangan havo bularning bari tasvirning hosil bo'lishiga va inson kayfiyatining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nur insonning his-tuyg'ulariga faol ta'sir qiladi. Yoz faslida nur va soya quyuq hamda aniq bo'ladi. Yorqin quyosh nuri hayotga quvnoqlik olib keladi, ob-havo bulutli bo'lsa, zerikarli, mayus kayfiyatni uyg'otadi, shom paytidagi yorug'lik, g'amgin, umidsizlik va xomushlik kayfiyatni uyg'otadi, tungi yorug'lik dunyoni sirli va qo'rqinchli qilib ko'rsatadi. Osmondagi quyuq qora bulutlar momaqaldiroqli ob-havo, tevarak-atrofni keskin yoritishi yaqinlashayotgan halokat xavf-xatar hissini uyg'otadi.

**Quyosh chiqishi** – bu paytda quyosh nuri juda o'zgaruvchan bo'ladi. Kadrda quyoshni ko'rsatish mumkin. Go'zal tabiatni va issiq ranglar bilan lirik tasvirlarni olish imkoni bo'ladi. Ertalabki quyosh qahramon yuziga aniq tushadi, quyosh nuri zaifroq, mayin va havo shaffof bo'ladi. Shuning uchun professional ekran ustalari quyosh chiqqandan keyingi ikki soat va kun botishidan oldingi ikki soatda tasvirga olishni tavsiya etadilar.

Peshin paytida tasvirga olmagan ma'qul, tepadan tushayotgan kuchli quyosh nuri badiiy tasvir olishga noqulayliklar tug'diradi. Quyosh botishida past holatga keladi. Bu jarayon qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi. Quyosh botayotgan paytda nur zaif va mayin bo'lib, sariq, to'q sariq va qizil ranglar keyinchalik osmonda ko'k, kulrang va binafsha ranglari hosil bo'ladi. Issiq va sovuq ranglarning ajoyib kombinatsiyalaridan unumli foydalanib mavzuga mos, dramatik yoki lirik tasvirlarni olish mumkin.

Kechasi oy nurisiz tun yorug'likdan mahrum, shuning uchun sun'iy yoritish chiroqlaridan foydalangan holda tasvirga olinadi. Oy nurini ekranda ko'rsatish uchun ko'k filtrlardan foydalaniladi. Ko'k rang oy nuriga mos keladi. Bular esa ekran san'atidagi tasvirning ma'naviy va estetik qiymatini oshiradi.

**Sun'iy yorug'lik** – inson tomonidan yaratilgan yoritish uskunalari hisoblanadi. Sun'iy yoritishda yil fasllari, kun vaqti va noqulay ob-havo sharoitlari ahamiyatsiz. Yoritish asboblari bilan bemalol ijod qilish imkoni tug'iladi. Yoritish chiroqlari asosan ikki turga bo'linadi. To'g'ri yo'naltirilgan va tarqoq nurli yoritish chiroqlaridan iborat. Yoritish chiroqlari foydalangan holda tasvirchilar, asosiy chizuvchi, to'ldiruvchi, fonli modellashtirish va kontrovoy yoritish chiroqlaridan unumli foydalanib, go'zal tasvirlarni yaratadi.

Badiiy obraz yaratish jarayoni – bu faqat texnikadan foydalanib, biron-bir uslubni qo'llash emas, balki ijodiy izlanish va tajribaning natijasidir. Ijodkor o'z ijodiy g'oyalarini amalga oshirish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Bu jarayonda ijodkorning shaxsiy tajribasi, iste'dodi va badiiy tafakkuri muhim rol o'ynaydi.

Nur va soya o'rtasidagi kontrast nurning kuchiga bog'liq. Nur qancha kuchli bo'lsa, soya ham shuncha kuchli bo'ladi. Nur mayin bo'lsa soya ham shuncha mayin bo'ladi. Qahramonning hayotiy to'qnashuvlarni ko'rsatish uchun kadrning kuchli yoritilishi va to'q soyalarning bo'lishi, ya'ni kontrastning kuchaytirish shafqatsizlik, fojiali, hayotiy muammolar, falokatli holatlarni yaratishda qo'llaniladi. Aksincha, soyalarning yo'qligi kontrastning kamayishi, mayin yorug'lik, yengillik va xotirjamlik hissini uyg'otadi. Bu holat dunyo xalqlarining geografik joylashuvida ham yaqqol ko'rinadi. Quyosh nuri kuchli hududlarda nur va soya kuchli bo'ladi. Quyosh nuri kamroq davlatlarda nur va

soya mayin, shu xalqlarning filmlarini ko'rsangiz, bu holat nur-soya kuchida va ranglarning tiniqligida aniq ko'rinadi. Bu esa ekranda har bir xalqning milliyligini ko'rsatishda, badiiy holatni ochib berishda muhim sanaladi.

Quyosh nuri, oy nuri, chiroqdan chiqayotgan yorug'lik, gulxan shu'lasi, shamdan taralayotgan shu'la kadrda tabiiy ko'rinishi kerak. Tasvirda bir-biri bilan uyg'unlashib, muallifning g'oyasini va qahramonning kayfiyatini sodir bo'layotgan voqeaga mos yoritishi zarur. Professional tilda buni hissiy yoritish, deyiladi.

Nur va soyaning o'zidan ham chiroyli tasvir yaratish mumkin. Soya tasvirni jonlantiradi. Misol uchun, siluet. Oppoq fonda qora soya qahramonning xarakteri, hissiy holatlarini ko'rishga fondagi hech nima xalaqit bermaydi. Kadrdagi kuchsiz nur va qora soyalar salbiy va mayus vaziyatni ifodalaydi. Aksincha, yetarlicha yorqin nur, quvnoq kayfiyatni ifodalaydi. Ekranda minimal vizual ma'lumot bilan g'ayrioddiy badiiy tasvirlarni yaratish mumkin.

Nur va soyaning nafaqat atrofimizdagi olamni vizual idrok etishimizda, balki rejissyor, tasvirchi va rassomning badiiy g'oyasini ko'rsatib berishda, qahramonlarning his-tuyg'ularini ekranda ochib berishda o'rni beqiyos. Ijodkor nurning kuchini va soyalarning sirini mukammal bilsa, ekranda badiiy yetuk asar yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Медынский С.Е. Компонуем кинокадр. – Москва: «Искусство», 1992 г. С.239.
2. Познин В. Изобразительное решение аудиовизуального произведения. – Санкт-Петербург: 2007 г.
3. Rasulov S.A. Ekran san'atida tasviriy yechim va uning asoslari. – Toshkent: 2008-y. 176-b.
4. Иттен И. Основа цвета. – М.: 2014 г. С.178.
5. Рудольф Арнхейм. Искусство и визуальное восприятие. – М.: «Прогресс», 1974 г.
6. Криллова Н.Б. Аудиовизуальные искусства и экранные формы творчества. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2013 г. С.154.
7. Уорд П. Композиция кадра в кино и на телевидении. – М.: Издательство ГИТР, 2005 г.
8. Головня А. Свет в искусстве оператора. – М.: ГОСКИНОИЗДАТ, 1949 г.
9. Килпатрик Д. Свети освещение. – М.: «Мир», 1988 г.

# II BO'LIM
# MUSIQA SAN'ATI

**Сарсенбай БАЛТАНИЯЗОВ,**
**профессор Нукусского филиал ГИИКУз,**
**народный артист Республики Каракалпакистан**

## РОЛЬ И РАЗВИТИЕ СЛУХА

**Аннотация:** *Эта статья расскажет, как развить слух будущего певца и какие приемы использовать.*

**Ключевые слова:** *певец, сила звука, романс, музыкант, композитор, музыка, пение, мелодиа, диапазон, регистр, интонация, децибел, амплитуда, диафрагма, мутация.*

## ROL VA ESHITISH QOBILIYATI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, bo'lajak qo'shiqchining eshitish qobiliyatini qanday rivojlantirish va qanday uslublardan foydalanish kerakligi haqida so'z ketadi.*

**Kalit so'zlar:** *qo'shiqchi, tovush kuchi, romans, musiqachi, bastakor, musiqa, qo'shiq, navo diapazon, registr, intonatsiya, detsibel, amplituda, diafragma, mutatsiya.*

## ROLE AND DEVELOPMENT OF HEARING

**Abstract.** *This article will tell you how to develop the ear of a future singer and what techniques to use.*

**Key words:** *singer, sound power, romance, musician, composer, music, singing, melody, range, register, intonation, decibel, amplitude, aperture, mutation.*

Трудно переоценить роль слуха, этого главного регулятора вокальной и речевой функции. Ведь задачей голосового аппарата является передача в речевой или вокальной форме сообщения, информации от одного человека к другому. Эта информация, протекающая в звуковой форме, обязательно требует как аппарата, производящего звук, так и аппарата, воспринимающего его. Голосовой аппарат и ухо – это две неразделимые части единой системы звуковой передачи информации. Слух является органом чувств, который доводит до мозга звуковые явления, происходящие в окружающей организм среде. Голосовой аппарат может выразить только то, что вошло в мозг через слух или что возникло в мозгу на основе этих слуховых впечатлений. Если человек в детстве лишается слуха, то у него нет звуковых представлений и потому ему нечего выразить голосовым аппаратом, хотя последний у немого человека может быть в полной исправности. Немой человек лишен речи не потому, что он не может говорить, а потому, что у него нет звуковых представлений. Подобно этому человек, лишенный музыкальности, музыкального слуха. ничего не может спеть. Он «музыкально глух», у него не возникают музыкальные представления, которые он мог бы выразить голосовым аппаратом. Однако, как правило, каждый человек имеет хотя бы долю элементарной музыкальности, если его слуховой аппарат в порядке и с детства его окружала музыка.

Таким образом, голосовой аппарат может выразить только то, что было воспринято через слух. Все это подчеркивает важность развития правильных вокальных представлений с детства. Каковы вокальные слуховые впечатления, полученные на протяжении развития человека, особенно в детстве, когда закладываются все основные представления, таков будет в основном и голос при попытке петь. Там, где закладке верных вокальных представлений у детей уделяется достаточное внимание или музыкальное окружение и язык с детства этому благоприятствуют, там наблюдается большее количество хороших певческих голосов, высокий уровень развития вокального искусства, как, например, в Италии.

Мы уже касались значения слуховых впечатлений при рассмотрении вопроса о связи техники и исполнительства и развития вокальных навыков. Здесь же мы лишь хотим подчеркнуть необходимость для певца постоянного воспитания идеала певческого звучания путем возможно более частого прослушивания выдающихся певцов. В наше время широкого развития звукозаписи, которая достаточно качественно передает все осо-

бенности звучания голоса, это вполне доступно каждому обучающемуся. Этим средством развития представления о правильном пении никогда не следует пренебрегать. Однако важно также слушать несовершенных певцов и певцов совсем плохих. Сначала слух начинает различать лишь грубую разницу в звучании, но потом, по мере тренировки и сравнения, способность к различению будет все время возрастать. Как справедливо говорил один из знаменитых старых итальянских педагогов, представитель т. п. «Великой болонской школы» Този: «Изучайте ошибки других – это великая школа, которая мало стоит, но многому научает. Учиться можно ото всех, и часто самый плохой певец является лучшим учителем». Из этих же соображений каждому обучающемуся необходимо возможно большее время проводить в классе педагога по специальности, слушая голоса различного качества и приучаясь различать в голосе все больше и больше особенностей звучания. Развитию слуха способствует анализ звучания, который педагог постоянно проводит в классе.

Слух развивается по общим законам развития ощущений от обобщенного представления к выделению из него все большего и большего количества частностей.

Человек с развитым слухом умеет различать в звуках значительно больше особенностей, чем тот, у кого слух развит мало. Если каждый вспомнит свое первое впечатление о звучании. например, оркестра, то он сможет констатировать целостное восприятие этого звучания. Только позднее, по мере развития слуха, становится возможным различение отдельных групп инструментов: смычковых, духовых деревянных, духовых медных и т. п. Позднее появляется способность различать в общем звучании тембры отдельных инструментов внутри каждой группы: гобоя от кларнета, скрипки от альта, валторны от трубы и т. п. У опытных дирижеров слух бывает развит настолько, что в звучании огромного оркестра они легко находят того музыканта, который взял нечистую ноту.

Трудность в этом вопросе заключается в том, что певец слышит тембр своего голоса не так, как его слышат окружающие и публика. Это происходит, как мы уже отмечали, в связи с тем, что певец слышит себя не только через внешнюю воздушную среду, но и через внутренние ткани организма, через костную проводимость. Отсутствие точной ориентировки в качестве своего тембра не дает певцу возможности при помощи слуха корректировать точность интонации. Он ее корректирует слухом, главным образом по высоте основного тона, но этого недостаточно при позиционной неточности. Даже певцы с от личным музыкальным слухом иногда не имеют точной интонации, позиционно повышая или понижая звук. При этом они догадываются о неточности своей интонации не только по слуховым ощущениям, а и по мышечным, резонаторным, вибрационным и др. Весьма часто можно слышать вопрос опытного певца с хорошим слухом, обращенный к концертмейстеру: «А я не понижаю сегодня?» В борьбе с позиционной нечистотой помогает точная отработанность мышечных движений, точность работы двигательного и других анализаторов. Вокальный педагог и концертмейстер должны понимать природу позиционной нечистоты и тщательно следить за правильной позиционной настройкой голоса.

В связи с этими особенностями слуха педагог должен быть как бы зеркалом, отражающим звучание голоса ученика, т. е. должен все время контролировать голос, пока сам ученик не станет понимать, каким его слуховым и внутренним ощущениям соответствует правильное для окружающих певческое звучание.

По яркости и отчетливости мышечные ощущения значительно уступают слуховым или зрительным. И.М.Сеченов справедливо назвал мышечные чувства «темными чувствами». Однако при тренировке кинестезический контроль может быть в высшей степени точным. Достаточно вспомнить слепых пианистов, скрипачей, чтобы понять, до какой степени точными мо гут стать движения, осуществляемые при помощи двигательного анализатора. У певца Двигательный контроля контроль обычно проявляется в полной мере на поздних этапах освоения певческих движений. Начальный этап осуществляется в основном под контролем слуха.

Многие певцы при пении в условиях за глушения поют неуверенно, детонируют. Это дало возможность В.П.Морозову условно разделить всех обследованных певцов на две категории. Один, которые контролируют пение в основном по слуховым ощущениям, представляют «слуховой тип» певцов, а те, которые вполне устойчивы к заглушению, – «мышечный тип».

Певцы, контролируя свое пение в основном по слуховым ощущениям от звучания своего голоса, сильно зависят от акустической обстановки, в которой приходится петь. Изменение акустических условий мешает им точно осуществлять контроль над голосом. В разной обстановке они поют по-разному: то, что удается в классе, не удается на сцене в связи с изменением условий слухового контроля. У таких певцов слабо развито мышечное чувство, и плохая мышечная память, что мешает им хорошо усваивать певческие навыки и прочно удерживать их в памяти. Наоборот, те певцы, у которых хорошо развит мышечный контроль и мышечная память, уверенно поют в любой акустической обстановке, даже в условиях плохого слухового самоконтроля или при полном заглушении. Хорошо запоминая движения, они при пении ориентируются не только на слух, но н на мышечное чувство. Такое разделение на слуховой и мышечный типы певцов, разумеется, условно, и обычно каждый обладает и тем и другим видом контроля, но выражены эти системы контроля у разных певцов в разной степени. Наилучшим типом для пения следует считать певца, у которого

хорошо развит и слух и мышечное чувство. Эти данные В.П.Морозова несомненно должны учитываться каждым педагогом в его практической работе.

Как и другие анализаторы, мышечный анализатор способен развиваться под влиянием систематической тренировки. Хотя голосовой аппарат состоит из многочисленных органов, где не все отделы подвластны волевому контролю, все же приспособление к пению происходит прежде всего под влиянием заложенной в нем произвольной мускулатуры, которой можно научиться управлять. Приспособление к певческой функции может происходить как при сознательном воздействии на те или иные группы мышц и органов, так и опосредствованно. При соответствующей тренировке певец может научиться хорошо различать дыхательные мышечные движения, гортанные и артикуляционные. Некоторые педагоги считают целесообразным привлекать внимание ученика к мышечным ощущениям той или иной части голосового аппарата, между тем как большинство держится опосредствованных методов воздействия на их работу.

И.П.Павлов пишет: «Давно было замечено и научно доказано, что раз вы думаете об определенном движении (т. е. имеется кинэстезическое представление), вы его невольно, этого не замечая, производите. То же - в известном фокусе с человеком, решающим неизвестную ему задачу: куда-нибудь пойти, что-нибудь сделать при помощи другого человека, который знает задачу, но не думает и не желает ему помогать. Однако для действительной помощи достаточно первому держать в своей руке руку второго. В таком случае второй невольно, не замечая этого, подталкивает первого в направлении к цели и удерживает от противоположного направления». Подобные психологические опыты с неизменным успехом демонстрировал на эстраде В.Мессинг.

Известно, что мышечные движения играют большую роль в распознавании звуков. Мышцы помогают слуху! Если певца, не обладающего абсолютным слухом, спросить, какая нота звучит на фортепиано, то прежде чем ответить, он воспроизведет ее мысленно или вслух голосом, а потом уже даст ответ.

Слушая певца, мы обязательно воспроизводим внутренним слухом то, что он поет, и по закону «представление рождает движение» - включаем в действие голосовой аппарат. Поэтому после слушания хорошего певца у нас в горле возникает приятное ощущение, а после пения певца с зажатым голосом мы чувствуем неудобство в горле. Инструменталисты при исполнении мысленно пропевают исполняемое, и их голосовые связки сказываются после исполнения покрасневшими.

Интересно отметить, что слушатель-певец во время исполнения переживает исполняемое вместе с певцом-исполнителем, внутренне поет, вместе с ним, задерживает дыхание на длинных фразах, незаметно для себя проговаривает слова знакомой арии и т. п. Он всем своим существом включен в исполнение, и это обязательно отражается в незначительных движениях его мышц.

Таким образом, всякое пение «про себя» обязательно вызывает двигательную реакцию со стороны голосового аппарата.

**Использованная литература:**

1. Назаренко И.К. Искуства пения. – Москва: «Музыка», 1968 г. С.624.
2. Морозов В.П. Вокальный слух и голос. – М.: «Музыка», 1965 г. С.88.
3. Чаплина В.Л. Вопросы вокальной педагогики. – М.: «Музыка», 1969 г. С.231.
4. Бризгалов И.О. Школа пения для баритона и баса. – Ташкент: Литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1987 г. С.92.
5. Аспелунд Д.Л. Развитие певца и его голоса. – М.: «Планета музыки», 2017 г. С.180.
6. Ризаева М. Стоновление молодого певца. – Т.: «Чўлпон», 2003 г. С.104.
7. Варламов А.Е. Полная школа пения. – М.: «Планета музыки», 2012 г. С.120.

**G‘. XUDOYEV,**
**O‘zDSMI professori v.b.,**
**san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

# BUXORO SHASHMAQOMI TURKUM NASHRLARINING IKKINCHI GURUH SHO‘BALARI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada, XX asrning boshlaridan bugungi kungacha nashr ettirilgan Buxoro Shashmaqomi turkum nashrlarining ikkinchi guruh sho‘balari qiyosiy o‘rganiladi. Bunda kelib chiqish o‘zagi bir bo‘lgan ko‘hna Buxoro saroyida joriy etilgan, o‘zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqa san’ati Shashmaqom turkumlarining davrlar osha turli o‘zgarishlarga yuz tutayotganligi ilmiy mubohasa qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Shashmaqom, Savt, Mo‘g‘ulcha, lad, metronom, nasr, maqom.*

# О ВТОРОЙ ГРУППЕ ШУУБЫ ИЗДАННОГО ЦИКЛА БУХАРСКОГО ШАШМАКОМА

**Аннотация.** *В статье исследуется вторая группа шуубы «Бухарских Шашмакомов», издававшихся с начала XX века по сегодняшний день. Научно рассматривается различные изменения с течением времени циклов Шашмакома, формировавшихся в древнем Бухарском дворце как классическое музыкальное искусство узбекского и таджикского народов.*

**Ключевые слова:** *Шашмаком, Савт, Могулча, лад, метроном, проза, маком.*

# ABOUT THE SECOND GROUP OF SHUUBA OF THE PUBLISHED CYCLE OF THE BUKHARA SHASHMAQOM

**Abstract.** *The article examines the second group of shuuba "Bukhara Shashmaqoms", published from the beginning of the 20th century to the present day. Various changes over time in the Shashmakom cycles, which were formed in the ancient Bukhara Palace as the classical musical art of the Uzbek and Tajik peoples, are scientifically examined.*

**Key words:** *Shashmakom, Savt, Mogulcha, lad, metronome, prose, poppy.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-sonli Qarori[1] hamda 2023-yil 30-avgustdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qaror[2]larida “O‘zbekistonda maqom san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash”, shuningdek, “mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish” kabi bandlariga muvofiq, shuningdek, “Mumtoz musiqa merosiga oid ilmiy maqolalar chop etish, izlanishlar olib borish, kitoblar va to‘plamlar yaratish” hamda “Ustoz-shogird” an’analarini davom ettirish” kabi bandlarida ko‘rsatilgan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash asnosida, 2024-yil 27-aprel kuni O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida bo‘lib o‘tgan “Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari” I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyadagi chiqishimizda, mamlakatimizda va mamlakatimizdan tashqarida turli yillarda chop etilgan Buxoro Shashmaqomi nashrlaridagi birinchi guruh sho‘balarining son tafovut miqdori kesimida qiyosiy o‘rganishga urinish qilgan edik[3].

Endi Buxoro Shashmaqomi turkum nashrlarining ikkinchi guruh sho‘balarini qiyosiy o‘rganishni davom ettirdik.

Ma’lumki, Buxoro Shashmaqomi ikkinchi guruh sho‘balari – XX asrning boshlarida maqomxon ustoz san’atkorlar tomonidan Shashmaqomning birinchi guruh sho‘balariga nazira tariqasida ishlanganligi, yoinki birinchi guruhning Saraxbor, Nasr va Talqin sho‘balari asosida yaratilganligi juda asoslidir. Bunda Buxoro Shashmaqomining ikkinchi guruh Mo‘g‘ulcha sho‘basi – Saraxbor sho‘basiga; Savt sho‘basi esa Talqin va Nasr sho‘balariga nazira tariqasida ishlangan mukammal turkum maqom namunalari hisoblanadi.

Biz bilamizki, XX asrning 20-yillarida Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan etnograf olim Viktor Aleksandrovich

---

[1] https://lex.uz/docs/3581613.
[2] https://lex.uz/ru/docs/6594086.
[3] Ma’lumot uchun qarang: Xudoyev G‘.M. Buxoro Shashmaqomi birinchi guruh sho‘balari xususida. “Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari” I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: O‘zMMSI, 2024-y. 43–52-b.
[4] Успенский В.А. Шесть музыкальных поэм / Маком (Шашмақом) [букв.стар.узб.] / Бузрук, Рост, Наво, Дугох, Сегох, Ирок / Под редакцией А.Фитрата и Н.Миронова. – Старая Бухара: изд-е народного назарата просвещения БухРеспублики. 1924.

Uspenskiy tomonidan zamonaviy nota yo'llariga ko'chirilgan Buxoro Shashmaqomi nashrida ikkinchi guruh sho'balari aks etmagan. Biroq bu holatga Abdurauf Fitrat o'zining "*O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida quyidagicha izoh berib o'tadi. "Shashmaqomning ayricha sho'bachalari bor. Bu sho'bacha maqomlar bilan biriga emas, ayricha ijro etiladir (chalinadir), biroq bulardan har biri bir maqomning pardasidan boshlanib, shunga o'xshab yurgani uchun, shul maqomning sho'bachasi sanaladir. Shu sho'bachalarning hammasi ashulalidir*"[5], – deb ikkinchi guruh sho'balariga ishora beradi. So'ngra olti maqomda keluvchi barcha ikkinchi guruh sho'balari shahobchalarining nomlarini to'liq yozib qoldiradi. Shu munosabat bilan biz turli yillarda chop etilgan barcha Shashmaqom nashrlarini qiyosiy o'rganish maqsadida, "Шест музыкальных поэм / Маком (Шашмақом)" nota nashri o'rnida Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli ilmiy risolasida keltirilgan asarlar nomlarini quyida keladigan jadvalda keltiramiz. Shu bilan birga respublikamiz va respublikamizdan tashqarida chop etilgan keyingi barcha "Shashmaqom" nashrlaridagi ikkinchi guruh sho'balarida keluvchi barcha asarlarning son miqdorini qiyosiy o'rgandik.

Bunda XX asrning 50-yillaridan boshlab "O'zbek xalq musiqasi" ko'p jildlik nota nashrlarining V jildi (Buxoro maqomlari) akademik Yunus Rajabiy tomonidan notaga olingan nashri[6], 60–70-yillarda esa Buxoro Shashmaqomining har bir turkumi alohida-alohida: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari tarzidagi to'ldirilgan qayta nashri[7], XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'shni Tojikiston Respublikasida Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar tomonidan yozib olingan Shashmaqomning alohida jildlari[8], 2008-yilda Ari Boboxonov ijrosidagi Buxoro Shashmaqomi nashri[9], shuningdek, 2016-yilda Abduvali Abdurashidov tomonidan tartiblashtirilgan Shashmaqom nashrlari[10] kabi nota manbalari hamda bu kungacha maqomshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar tadqiqotimizning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi.

Mazkur nota nashrlarini qiyosiy o'rganish jarayonida o'zbek va tojik xalqlarining nomoddiy madaniy merosi sanalmish Buxoro Shashmaqomining tartib tuzilishi va boshqa xususiyatlari borasidagi ba'zi bir tafovutli holatlar diqqatimizni o'ziga jalb etdi.

Shu o'rinda, Buxoro Shashmaqomi turkumlarining tartib tuzilishi xususida ikki og'iz!

XX asr boshlarida Buxoro Shashmaqomining yozib olinishi, maqomdon ustoz san'atkorlar Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Levicha Hofiz, Usta Shodi Azizov, Domla Halim Ibodovlarning ijrolariga borib taqalar ekan, biroq turli yillarda nashr etilishi natijasida turlicha o'zgarishlarga yuz tutayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning ta'kidicha: *"XVIII asrda O'n ikki maqom asosida o'zbek va tojik xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida Shashmaqom yuzaga keldi"*[11].

*"O'n ikki maqomning Shashmaqom holiga keltirilishida kuyning xarakteri, tuzilish qoidalari, lad asosi, rivojlanish xususiyatlari, ritmik asoslari hamda badiiy estetik xossalari hisobga olingan. Natijada ular katta siklli musiqa asari shaklida birlashtirilib, O'n ikki maqom sho'balari bilan birga Shashmaqomning tarkibiy qismlarining qaror topishiga sabab bo'lgan"*[12]. Olim, Buxoro Shashmaqomi turkum tuzilishi xususida bunday xulosaga kelganligini O'rta asrlarda yaratilgan bir qancha ilmiy risolalarni chuqur tahlil qilganligida ko'ramiz[13].

Yuqoridagi iqtiboslardan ma'lum bo'ladiki, Buxoro Shashmaqomining turkum ko'rinishi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq shaklida namoyon bo'lganligi barcha ilm ahliga ma'lum. Buni zamonamizning barcha maqomshunos olimlari ham qo'llab-quvvatlaydi (R.Yunusov, O.Ibrohimov va b.). Biroq so'nggi yillarda nashr etilayotgan ayrim manbalarda, Shashmaqom turkumi o'zgacha tartibda: Rost, Navo, Buzruk (Buzurg), Dugoh, Segoh, Iroq shaklida berilayotganligi[14], maqomshunoslik ilmida biroz ilmiy munozaraga chorlaydi.

Endi, Shashmaqomning Segoh turkumidagi Savt sho'basi xususida ikki og'iz!

Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida: *"Segoh maqomida Savt sho'basi yo'q edi, mashhur musiqachi "Ota Jalol" tomonidan mening tashviqim bilan 1922-yilda bastalangan edi"*[15], – deb mazkur kitobining "Segoh maqomining sho'bachalari" nomli kichik mavzu ostida Savti Jaloliy sho'basi va uning shahobchalarini to'liq tartibda keltiradi. Segoh maqomidagi Savti Jaloliy sho'basi va uning shahobchalarining nota namunalari, turli yillarda chop etilgan Buxoro Shashmaqomi turkum nashrlarida, afsuski, berilmagan. Biroq nashriyot talablariga muvofiq kelmasa-da, (notalar qo'lyozma shaklida berilganligi) Ari Boboxonov tomonidan ijro

---

5 Fitrat A. O'zbek xalq musiqasi va uning tarixi. 22-b.

6 O'zbek xalq muzikasi (Buxoro maqomlari). V tom. / to'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, I.A.Akbarov tahriri ostida. – T.: "Badiiy adabiyoye", 1959.

7 Shashmaqom. I–VI jildlar. (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) /Yozib oluvchi Y.Rajabiy, F.Karomatov tahriri ostida. – T.: "Badiiy adabiyot", 1966, 1967, 1970, 1972, 1973, 1975.

8 Shashmaqom. Tom 1–4. (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh). [Sostaviteli: B.Fayzullayev, Sh.Soxibov, F.Shaxobov; pod redaksiyey prof. V.M.Belyayeva]. – Moskva: Gos. muz.izd-vo, 1950,1954,1957,1959.; Shashmaqom. Tom 5-6. (Segox, Iroq) [Sostaviteli: B.Fayzullayev, SH.Soxibov, F.Shaxobov; pod redaksiyey prof. V.M.Belyayeva]. – M.: Gos. muz.izd-vo, 1967.

9 Jung A. (Hg.). Der Shashmaqam aus Bukhara. Überlifert von den alten Meistern notiert von Ari Babakxanov. Verlag Hans Shiler. – Berlin. i. Auflage: 2010.

10 Shashmaqom. Ҷild. I–VI (Rost, Navo, Buzurg, Dugoh, Segoh, Iroq). / Muallif va murattib Abduvalӣ Abdurashidov. – Dushanbe: "Adib", 2016.

11 Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: O'zadabiynashr, 1963. 124-b.

12 Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: O'zadabiynashr, 1963. 121-122-b.

13 Qarang: Rajabov I. Maqomlar (Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – T.: "San'at", 2006. 150-b.

14 Ma'lumot uchun qarang: Shashmaqom. Ҷild. I–VI (Rost, Navo, Buzurg, Dugoh, Segoh, Iroq). Muallif va murattib Abduvalӣ Abdurashidov. – Dushanbe: "Adib" 2016.

15 Fitrat A. O'zbek xalq musiqasi va uning tarixi. – T.: "Fan", 1993. 24-b.

etilib, notaga zuhur etilgan “Buxoro Shashmaqomi” (Der Shashmaqam aus Buchara) nota to‘plamida Savti Jaloliy turkumi to‘liq berilgan[16].

Jumladan, Abduvali Abdurashidov tomonidan tartiblashtirilgan Shashmaqomdagi Segoh maqomida bir emas, to‘rtta Savt sho‘basi turkum holida berilgan. Bu turkum ko‘rinishlarning aynan Shashmaqomga kiritilishi qanchalik to‘g‘ri, balkim bastakorlik ijodiyoti sifatida talqin qilinishi to‘g‘riroq bo‘larmikin, yoki muallif Abduvali Abdurashidovning ta’kidi bo‘yicha, “*XXI asr – yangi davr yangi maqom ijodkorligini talab etmoqda*”[17] iborasiga muvofiq, maqom tuzilmasiga (strukturasiga) to‘liq rioya qilgan holda (vazn, lad va h.k.), oldin yaratilgan maqomlar (Buxoro Shashmaqomi, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm maqomlari) ga o‘xshamagan holda yangi nomdagi maqomlar turkumini ijod qilish yoki yaratish kerakmikin, bu ham maqomdon va maqomshunos olimlar uchun ilmiy-amaliy mushohadaga chorlovchi mavzulardan, deb hisoblaymiz.

Endi shu o‘rinda turli yillarda chop etilgan Shashmaqom nota nashrlarini qiyosiy o‘rganish asnosida barcha nashrlarni o‘zida jam qilgan quyidagi jadvalni hukmingizga havola qilamiz[18] (asar nomlari nashrlarda qay tartibda berilgan bo‘lsa, jadvalga shu holatda kiritishni lozim topdik):

| | Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqa va uning tarixi. (1924, 1993) | Shashmakom. (Tojikiston varianti) (1950–1967) | Y.Rajabiy tomonidan notaga olingan Shashmaqom turkumi (1959, 1966–1975) | A.Boboxonov notaga olgan Buxoro Shashmaqomi (Germaniya nashri) (2010) | A.Abdurashidov tomonidan tartiblashtirilgan Shashmaqom. J.I-VI. (Tojikiston varianti) (2016) |
|---|---|---|---|---|---|
| **BUZRUK MAQOMI** | | | | | |
| 1 | Savti sarvinoz; Talqin; Qoshg‘archa; Soqiynoma; Ufar | **1.** Savti Sarvinoz; Talqinchai S.S.; Qashqarchai S.S.;; Soqiynomai S.S.; Ufari S.S. | **1.** Mo‘g‘ulchai Buzruk, Talqinchai M.B.; Qashqarchai M.B.; Soqiynomai M.B.; Ufari M.B. | Mo‘g‘ulchai Buzruk I; Mo‘g‘ulchai Buzruk II; Talqinchai M.B.; Qashqarchai M.B.; Ufari M.B.I; Ufari M.B.II | **1.** Amali Buzurg; Talqinchai A.B.; Furo‘g‘i A.B.; Soqinomai A.B.; Ufari A.B. |
| 2 | Mo‘g‘ulcha; Talqin; Ufar; | **2.** Mo‘g‘ulchai Buzruk, Talqinchai M.B.; Qashqarchai M.B.; Soqiynomai M.B.; Ufari M.B. | **2.** Savti Sarvinoz; Talqinchai S.S.; Qashqarchai S.S.; Soqiynomai S.S.; Ufari S.S. | Savti Sarvinoz; Chapandozi S.S.; Talqinchai S.S.; Qashqarchai S.S.; Ufari S.S.1; Ufari S.S.2 | **2.** Savti Uzzol; Talqinchai S.U.; Furo‘g‘i S.U.; Soqinomai S.U.; Ufari S.U.; **3.** Savti Nasrullohy; Talqinchai S.N.; Furo‘g‘i S.N.; Soqinomai S.N.; Ufari S.N. |
| 3 | Dutor Iroqi; Talqin; Tushurma; Talqin; Ufar; Bebokcha | **3.** Iroqi Buxoro; Talqinchai I.B.; Chapandozi I.B.; Soqiynomai I.B.; Ufari I.B.; | Iroq, Talqinchai Iroq, Chapandozi Iroq, Soqiynomai Iroq, Ufari Iroq | | **4.** Savti Sarvinoz; Talqinchai S.S.; Furo‘g‘i S.S.; Soqinomai S.S.; Ufari S.S. |
| 4 | Siynaxarosh; Talqin; Qoshg‘archa; Ufar | **4.** Bebokcha **5.** Sinaxiroj | | | |
| 5 | Rok; Rok tushurmasi | **6.** Rok; Mustazodi Rok; Qashqarchai Rok; Soqinomai Rok, Ufari Rok; Suporishi Rok. | Rok; Talqinchai Rok; Qashqarchai Rok, Soqiynomai Rok, Ufari Rok | Mustazodi Rok; Talqini M.R.; Taronai 1 M.R.; Taronai 2 M.R.; Bebokcha; Sinaxiroj | **5.** Rok; Mustazodi Rok; Furo‘g‘i Rok; Soqiynomai Rok, Ufari Rok |

[16] Ma’lumot uchun qarang: Angelika Jung (Hg.). Der Shashmaqam aus Buchara. Uberliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakxanov. Printed in Germany. 2010. P.486. (356–366 sahifalar).

[17] Abduvali Abdurashidovning “Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari” I Xalqaro ilmiy amaliy konfrensiyadagi nutqidan. 2024-yil, 27-aprel O‘zMMSI.

[18] Turli yillarda chop etilgan nashrlardan Buxoro Shashmaqomi II guruh sho‘balarini qiyosiy o‘rganish maqsadida, V.Uspenskiyning Shamaqom nota to‘plami o‘rnida A.Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” ilmiy risolasidagi sho‘ba nomlaridan foydalanildi. Shuningdek, barcha nota nashrlaridagi bosh sho‘balardan keyin keluvchi shahobchalar nomini shartli ravishda (jadval cho‘zilib ketmaslik uchun), qisqartma holida berildi (misol: Mo‘g‘ulcha Buzruk – M.B.; M.– Mustahzod va h.k.).

**ROST MAQOMI**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Savti Ushshoq;<br>Talqin;<br>Qoshg'archa;<br>Soqiynoma;<br>Ufar | Savti Ushshoq;<br>Talqinchai S.U.;<br>Qashqarchai S.U.;<br>Soqiynomai S.U.;<br>Ufari S.U.; | Savti Ushshoq;<br>Talqinchai S.U.;<br>Chapandozi S.U.;<br>Qashqarchai S.U.;<br>Soqiynomai S.U.;<br>Ufari S.U. | Savti Panjgoh;<br>Chapandozi S.P.;<br>Qashqarchai S.P.;<br>Soqiynomai S.P.;<br>Ufari S.P.; | Amali Rost;<br>Talqinchai A.R.;<br>Furo'g'i A.R.;<br>Soqinomai A.R.;<br>Ufari A.R.; |
| 2 | Savti Sabo;<br>Talqin;<br>Qoshg'archa;<br>Soqiynoma;<br>Ufar | Savti Sabo;<br>Talqinchai S.S.;<br>Qashqarchai S.S.;<br>Soqiynomai S.S.;<br>Ufari S.S. | Savti Sabo;<br>Talqinchai S.S.;<br>Qashqarchai S.S.;<br>Soqiynomai S.S.;<br>Ufari S.S.; | Savti Ushshoq;<br>Chapandozi S.U.;<br>Qashqarchai S.U.;<br>Soqiynomai S.U.;<br>Ufari S.U.(Munis);<br>Ufari S.U.(Mashrab) | Savti Ushshoq;<br>Talqinchai S.U.;<br>Furo'g'i S.U.;<br>Soqinomai S.U.;<br>Ufari S.U. |
| 3 | | | Savti Kalon;<br>Talqinchai S.K.;<br>Qashqarchai S.K.;<br>Soqiynomai S.K.;<br>Ufari S.K. | Savti Sabo;<br>Talqini S.S.;<br>Qashqarchai S.S.;<br>Soqiynomai S.S.;<br>Ufari S.S. | Savti Sabo;<br>Talqinchai S.S.;<br>Furo'g'i S.S.;<br>Soqinomai S.S.; Ufari S.S. |
| 4 | | | | Mo'g'ulchai Panjgoh;<br>Chapandozi M.P.;<br>Talqini M.P.;<br>Qashqarchai M.P.;<br>Soqiynomai M.P.;<br>Ufari M.P. | |
| 5 | | | | Ushshoqi Qo'qon;<br>Talqini U.Q.;<br>Qashqarchai U.Q.;<br>Soqiynomai U.Q.;<br>Ufari U.Q.; | |
| 6 | | | | Daromadi Ushshoq;<br>Ushshoqi Kalon;<br>Ushshoqi Samarqand;<br>Ushshoqi Sodirxon;<br>Ushshoq (Habibiy);<br>Ushshoq (Xalq) | |

**NAVO MAQOMI**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Savti Navo<br>(Savti Kalon);<br>Talqin;<br>Qoshg'archa;<br>Soqiynoma;<br>Ufar | Savti Navo;<br>Talqinchai S.N.;<br>Qashqarchai S.N.;<br>Soqiynomai S.N.;<br>Ufari S.N. | Savti Navo;<br>Chapandozi S.N.;<br>Talqinchai S.N.;<br>Qashqarchai S.N.;<br>Soqiynomai S.N.;<br>Ufari S.N. | Savti Navo (Kalon);<br>Talqini S.N.;<br>Chapandozi S.N.;<br>Qashqarchai S.N.;<br>Soqiynomai S.N.;<br>Ufari S.N.1;<br>Ufari S.N.2 | **1.** Amali Navo;<br>Talqinchai A.N.;<br>Furo'g'i A.N.;<br>Soqinomai A.N.; Ufari A.N.;<br>**2.** Savti Bayot;<br>Talqinchai S.B.;<br>Furo'g'i S.B.;<br>Soqinomai S.B.; Ufari S.B.; |
| 2 | Navo<br>mo'g'ulchasi;<br>Talqin;<br>Ufar | Mo'g'ulchai<br>Navo;<br>Talqinchai M.N.;<br>Qashqarchai M.N.;<br>Soqiynomai M.N.;<br>Ufari M.N. | | Savti Bayot;<br>Chapandozi S.B.;<br>Qashqarchai S.B.;<br>Soqiynomai S.B.;<br>Ufari S.B.1;<br>Ufari S.B.2 | **3.** Savti Oraz;<br>Talqinchai S.O.;<br>Furo'g'i S.O.;<br>Soqinomai S.O.; Ufari S.O. |
| 3 | Karimqulbek<br>mo'g'ulchasi;<br>Talqin;<br>Nimcho'poni;<br>Talqin;<br>Ufar | | Mo'g'ulchai<br>Navo;<br>Talqinchai M.N.;<br>Qashqarchai M.N.;<br>Soqiynomai M.N.;<br>Ufari M.N.; | Mo'g'ulchai Navo<br>(Karimqulbegi);<br>Talqini M.N.;<br>Qashqarchai M.N.;<br>Soqiynomai M.N.;<br>Ufari M.N.; | **4.** Mustazodi Navo;<br>Talqinchai M.N.;<br>Furo'g'i M.N.;<br>Soqinomai M.N.; Ufari M.N.; |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | | | | Mo‘g‘ulchai Bayot; Chapandozi M.B; Talqini M.B; Qashqarchai M.B; Soqiynomai M.B; Ufari M.B.1; Ufari M.B.2 | **5.** Savti Navo; Talqinchai S.N.; Furo‘g‘i S.N.; Soqinomai S.N.; Ufari S.N. |
| 5 | Navo Mustazodi; Talqin; Ufar | Mustahzodi Navo; Talqinchai M.; Qashqarchai M.; Soqiynomai M.; Ufari M. *(M.– Mustahzod)* | Mustazodi Navo; Talqinchai M.N.; Qashqarchai M.N.; Soqiynomai M.N.; Ufari M.N. | Mustazodi Bayot; Chapandozi M.B.; Talqini M.B.; Qashqarchai M.B.; Soqinomai M.B.; Ufari M.B. | **6.** Shikastai Navo; Talqinchai SH.N.; Furo‘g‘i SH.N.; Soqinomai SH.N.; Ufari SH.N. |
| 6 | | | | Savti Qalandari Navo; Chapandozi S.Q.; Talqinchai S. Q.; Qashqarchai S. Q.; Soqiynomai S. Q.; Ufari S.Q. | |
| | | | | Mo‘g‘ulchai Ducho‘ba (Navo); Chapandozi M.D.; Soqiynomai M.D.; Ufari M.D. | |
| | | **DUGOH MAQOMI** | | | |
| 1 | Savti Chorgoh 1; Savti Chorgoh 2; Talqin; Qoshg‘archa; Soqiynoma; Ufar | 1. Savti Kalon; Talqinchai S.K.; Qashqarchai S.K.; Soqiynomai S.K.; Ufari S.K.; 2. Savti Chorgoh; Talqinchai S.CH.; Qashqarchai S.CH.; Soqiynomai S.CH.; Ufari S.CH. | Savti Chorgoh; Talqinchai S.CH.; Qashqarchai S.CH.; Soqiynomai S.CH.; Ufari S.CH. | Savti Chorgoh; Chapandozi S.CH.; Qashqarchai S.CH.; Soqiynomai S.CH.; Ufari S.CH.1; Ufari S.CH.2. | **2.** Savti Chorgoh; Talqinchai S.CH.; Furo‘g‘i S.CH.; Soqinomai S.CH.; Ufari S.CH. **3.** Savti Husayny; Talqinchai S.H.; Furo‘g‘i S.H.; Soqinomai S.H.; Ufari S.H. |
| 2 | Dugoh mo‘g‘ulchasi Qalandariy; Samandariy; Talqin; Ufar | 3.Mo‘g‘ulchai Dugoh; Talqinchai M.D.; Qashqarchai M.D.; Soqiynomai M.D.; Ufari M.D. | Mo‘g‘ulchai Dugoh; Talqinchai M.D.; Qashqarchai M.D.; Soqiynomai M.D.; Ufari M.D.; | Mo‘g‘ulchai Dugoh; Chapandozi M.D.; Talqini M.D.; Qashqarchai M.D.; Soqiynomai M.D.; Ufari M.D. 1; Ufari M.D. 2 | **1.** Amali Dugoh; Talqinchai A.D; Furo‘g‘i A.D; Soqinomai A.D; Ufari A.D. |
| 3 | Caraxbori Oromijon; Oromijon; Ufar | 4.Qalandari Dugoh; 5.Samandari Dugoh | Qalandari Dugoh; Samandari Dugoh | Qalandari Dugoh (Talqincha); Samandari Dugoh | Saraxbori Oromijon; Oromijon; Ufar *(ilovada berilgan)* |
| 4 | Xunob (usulsiz) Talqin; Ufar | | | Savti Chorgoh I (Nodira) | |
| 5 | | 6. Caraxbori Oromijon; Oromijon; Ufari Oromijon | Caraxbori Oromijon; Oromijon; Ufari Oromijon | Caraxbori Oromijon; Oromijon; Ufari Oromijon 1; Ufari Oromijon 2 | |
| 6 | | | | Talqini Saraxbori Oromijon | |
| | | | | Mo‘g‘ulchai aylansin quling; Talqini Mo‘g‘ulchai aylansin quling | |
| | | | | Chorgoh 3 (Xurshed) | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | **SEGOH MAQOMI** | | |
| 1 | Savti Jaloliy;<br>Talqincha;<br>Qoshg‘archa;<br>Soqiynoma;<br>Ufar | | | Savti Jaloli;<br>Talqini S.J.;<br>Qashqarchai S.J.;<br>Soqiynomai S.J.;<br>Ufari S.J.1; Ufari S.J.2 | 1. Amali Segoh;<br>Talqinchai A.S.;<br>Furo‘g‘i A.S.;<br>Soqinomai A.S.;<br>Ufari A.S. |
| 2 | Segoh mo‘g‘ulchasi;<br>Talqin;<br>Ufar | Mo‘g‘ulchai Segoh; Talqinchai Mo‘g‘ulchai Segoh;<br>Nimcho‘pony;<br>Ufari Mo‘g‘ulchai Segoh | Mo‘g‘ulchai Segoh;<br>Talqinchai M.S.;<br>Qashqarchai M.S.;<br>Soqiynomai M.S.;<br>Ufari M.S. | Mo‘g‘ulchai Segoh;<br>Chapandozi M.S.;<br>Talqini M.S.;<br>Qashqarchai M.S.;<br>Soqinomai M.S.;<br>Ufari M.S.1; Ufari M.S.1; | 2. Savti Hijoz;<br>Talqinchai S.H.;<br>Furo‘g‘i S.H.;<br>Soqinomai S.H.;<br>Ufari S.H. |
| 3 | Segoh mustazodi;<br>Talqin;<br>Ufar | | | Mustazodi Segoh;<br>Chapandozi M.S.;<br>Talqinchai M.S.;<br>Talqini M.S.; Ufari M.S. | 3. Savti Xoro;<br>Talqinchai S.X.;<br>Furo‘g‘i S.X.;<br>Soqinomai S.X.; Ufari S.X.; |
| 4 | Giryon qozoq;<br>Talqin (talqin usulida);<br>Talqin;<br>Ufar | Girya;<br>Savti Girya;<br>Ufari Girya | | Savti Girya;<br>Chapandozi S.G.;<br>Talqinchai S.G.;<br>Talqini S.G;<br>Qashqarchai S.G.;<br>Soqiynomai S.G.;<br>Ufari S.G. | **4.** Savti Ajam<br>Talqinchai S.A.;<br>Furo‘g‘i S.A.;<br>Soqinomai S.A.; Ufari S.A.<br>**5.** Savti Kalon<br>Talqinchai S.K.;<br>Furo‘g‘i S.K.;<br>Soqinomai S.K.;<br>Ufari S.K. |
| 5 | | | | Fig‘on 1 (Furqat);<br>Fig‘on 2 (Habibiy); | |
| | | | **IROQ MAQOMI** | | |
| 1 | Muhayyar Savti;<br>Talqin;<br>Qoshg‘archa;<br>Soqiynoma;<br>Ufar;<br>Iroqning katta ufari | – | – | Savti Muhayyar;<br>Chapandozi S.M.;<br>Qashqarchai S.M.;<br>Soqinomai S.M.;<br>Ufari S.M.1; Ufari S.M.2 | 1. Amali Iroq;<br>Talqinchai A.I.;<br>Furo‘g‘i A.I.;<br>Soqinomai A.I.;<br>Ufari A.I. |
| 2 | | – | – | Savti Chambari;<br>Chapandozi S.CH.;<br>Soqinomai S.CH.;<br>Ufari S.CH.1;<br>Ufari S.CH.2 | 2. Savti Chorgohi Muhayyar;<br>Talqinchai S.CH.M.;<br>Furo‘g‘i S.CH.M.;<br>Soqinomai S.CH.M.;<br>Ufari S.CH.M. |
| 3 | | – | – | Savti To‘lqun;<br>Talqini S.T.;<br>Qashqarchai S.T.;<br>Soqinomai S.T.;<br>Ufari S.T.1;<br>Ufari S.T.2 | Savti Muhayyar;<br>Talqinchai S.M.;<br>Furo‘g‘i S.M.;<br>Soqinomai S.M.;<br>Ufari S.M. |
| | | | – | Iroqi Buxoro (Saido);<br>Iroqi Buxoro (Fuzuliy); Iroqi Buxoro (Toji Davlat);<br>Iroqi Buxoro (Hofiz),<br>Iroqi Buxoro (Navoiy);<br>Chapandozi I.B.;<br>Talqini I.B.;<br>Qashqarchai I.B.;<br>Soqinomai I.B.; Ufari I.B.1;<br>Ufari I.B.2 | ***Ilovada berilgan:***<br>Iroqi Buxoro 1;<br>Iroqi Buxoro 2;<br>Talqinchai Muhayyar;<br>Talqini Muhayyar;<br>Soqinomai Muhayyar;<br>Ufari Muhayyar;<br>Chapandozi Muhayyar;<br>Furo‘g‘i Muhayyar;<br>Iroqi Toshkand;<br>Guluzoram;<br>Nimcho‘pony;<br>Bozargony;<br>Ufari Muhayyar;<br>Muhayyari Murodbek |
| | | | – | Chapandozi Gulyor | |

Haqli savol tug‘iladi, nega ayni vaqtda oddiy xalq yoinki san’at yo‘nalishidan boshqa soha vakillarining aksariyati mumtoz musiqamiz, jumladan, maqomlarni kam tinglaydi?

Sir emas, ayni vaqtda Buxoro Shashmaqomiga nisbatan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, o‘zining shiddati va xalqchilligi bilan ko‘proq sevib tinglanadi. Asliyatda, Buxoro Shashmaqomining Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodovlar tomonidan ijro etilgan mr3 yozuvda saqlanayotgan ovozli ma’lumotlar bundan dalolat beradi.

Balkim, Buxoro Shashmaqomi bosh sho‘ba va shahobchalari ijrosi jarayonida metronom (M.M.=?) ko‘rinishidagi meyorga ham e’tibor qaratish kerakdir.

Biz bu jihatlarini o‘rganganimizda, Ustoz hofiz Ota Jalol ijro etgan hamda Viktor Uspenskiy notaga olgan Sarahbori Buzruk sho‘basida metronom chorak notalarda M.M. =84 berilgan bo‘lsa, Yunus Rajabiy notaga olgan Sarahbori Buzruk sho‘basida metronom M.M. =72-76; Abduvali Abdurashidov tartiblashtirgan Sarahbor sho‘basida M.M. =54; 1950-1959 yillarda notaga olingan Tojikiston variantidagi Saraxbori Buzruk sho‘basi esa aynan Viktor Uspenskiy notaga olgan Ota Jalol Nosirov ijrosidagi singari metronom M.M. =84 berilganligi ko‘ramiz. Afsuski, Ari Boboxonov ijro etib, chop etilgan Germaniya nashrida metronom aks ettirilmagan. Yana bir qiyosiy solishtirish ma’nosida Nasri Uzzol sho‘basini ham barcha nashrlardagi metronom tezligini ko‘rib chiqqanda quyidagicha holat aks etdi: Viktor Uspenskiy nashridagi (Buzruk maqomidan) Nasri Uzzol sho‘basidagi metronom tezligi M.M. =116 berilgan bo‘lsa, Yunus Rajabiy notaga olgan Nasri Uzzol sho‘basi metronom tezligi chorak notalarda M.M. =80-84, Abduvali Abdurashidov tartiblashtirgan Shashmaqomdagi Nasri Uzzol sho‘basida M.M. =74, 1950–1959-yillarda notaga olingan Tojikiston variantidagi Nasri Uzzol sho‘basida esa Ota Jalol Nosirov ijrosiga yaqin metronom tezligi chorak notalarda M.M. =110 berilganligi ko‘ramiz.

| | V.Uspenskiy notaga olgan. Shashmaqom. (1924, 1993) | Shashmakom. (Tojikiston varianti) (1950–1967) | Y.Rajabiy tomonidan notaga olingan Shashmaqom turkumi (1959, 1966–1975) | A.Abdurashidov tomonidan tartiblashtirilgan Shashmaqom. J.I-VI. (Tojikiston varianti) (2016) |
|---|---|---|---|---|
| | **BUZRUK MAQOMI** | | | |
| 1 | Sarahbori Buzruk M.M.♩=84 | Sarahbori Buzruk M.M.♩=84 | Sarahbori Buzruk M.M.♩=72-76 | Sarahbori Buzruk M.M.♩=54 |
| 2 | Nasri Uzzol M.M.♩=116 | Nasri Uzzol M.M.♩=110 | Nasri Uzzol M.M.♩=80-84 | Nasri Uzzol M.M.♩=74 |

Bizda ikkinchi guruh sho‘balarini V.Uspenskiy va Ari Boboxonov nashrlari bilan solishtirish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun boshqa barcha nashrlardagi ikkinchi guruhda keluvchi ba’zi bir bosh sho‘balarning metronom tezligidagi tafovutlarni ko‘zdan kechirganimizda quyidagicha ko‘rinish kasb etdi:

| | Shashmakom. (Tojikiston varianti) (1950–1967) | Y.Rajabiy tomonidan notaga olingan Shashmaqom turkumi (1959, 1966–1975) | A.Abdurashidov tomonidan tartiblashtirilgan Shashmaqom. (Tojikiston varianti) (2016) |
|---|---|---|---|
| | **Buzruk maqomida** | | |
| 1 | Savti Sarvinoz M.M.♩=100 | Savti Sarvinoz M.M.♩=80-84 | Savti Sarvinoz M.M.♩=76 |
| 2 | Mo‘g‘ulchai Buzruk M.M.♩=102 | Mo‘g‘ulchai Buzruk M.M.♩=76-80 | Amali Buzurg M.M.♩=76 |
| | **Rost maqomida** | | |
| 1 | Savti Ushshoq M.M. ♩ =96 | Ushshoq Savti M.M.♩=76-80 | Savti Ushshoq M.M.♩=78 |
| | **Navo maqomida** | | |
| 1 | Savti Navo M.M.♩=112 | Savti Navo M.M.♩=72-76 | Savti Navo M.M.♩=78 |
| | **Dugoh maqomidan** | | |
| 1 | Savti Chorgoh M.M.♩=100 | Savti Chorgoh M.M.♩=88-92 | Savti Chorgoh M.M.♩=72 |

Ko‘rib turganingizdek, mazkur jadval yillar davomida nashr etilayotgan Buxoro Shashmaqomi sho‘balaridagi ijro sur’ati va shiddatning pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Bu borada, O‘zbekiston xalq artisti, Buxoro Shashmaqomi va Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llarining bilimdoni, professor O‘lmas Rasulov Buxoro Shashmaqomi ijrochiligida ayrim sho‘balarni ijro qilishda usulni juda ham tortib ijro qilishga juda keskin fikr bildirardilar[19].

Balkim, Buxoro Shashmaqomi ijrochiligida yuqorida ta’kidlaganimiz, metronom (M.M.=?) ko‘rinishidagi me’yorga ham maqomdon ijrochilar “Ustoz shogird” ta’limi jarayonida ahamiyat qaratishi ayni muddao, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelib chiqish o‘zagi bir bo‘lgan Buxoro Shashmaqomining turli yillarda chop etilgan nashrlaridagi son miqdori, tartiboti yoki ijro sur’atlaridagi tafovutlarning yuzaga kelish kabi ilmiy munozaralarda maqomshunos olim va maqomdon hofiz-u sozandalarning yakdillik bilan bir to‘xtamga kelishi, natijada asarlarning notasi bilan bir vaqtda ijrosi (mp3) tushirilgan QR-kodli havolada tinglash imkoniyati mavjud bo‘lgan yangi avlod nashriyot xizmatlaridan keng foydalangan holda talab va ehtiyojlarni o‘rganib, Buxoro Shashmaqomi turkum nashrlari chop etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

---

[19] Ma’lumot uchun qarang: Rasulov O‘. O‘zbek an’anaviy ijrochilik san’atining mohiyati. // “Sharq taronalari” IX Xalqaro musiqa festivali doirasida o‘tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyadagi ma’ruzasidan. – Samarqand: 2013- yil, 26–28-avgust.

**Azamat SHARIPOV,**
**O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi dotsenti**

# KOMPOZITOR MUSTAFO BAFOYEV ASARLARIDA MAQOM OHANGLARI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kompozitor, dirijyor Mustafo Bafoyevning hayoti va ijodi haqida so‘z boradi.*
**Kalit so‘zlar:** *simfoniya, maqom, oratoriya, kompozitor, dirijyor, musiqa.*

# МАКАМНЫЕ МЕЛОДИИ В ТВОРЧЕСТВЕ КОМПОЗИТОРА МУСТАФЫ БАФОЕВА

**Аннотация.** *В данной статье рассказывается о жизни и творчестве композитора, дирижёра Мустафы Бафоева, его творчестве и примерах статусов, использованных в его произведениях.*
**Ключевые слова:** *симфония, статус, оратория, композитор, дирижёр, музыка.*

# MAQOM MELODIES IN THE WORKS OF COMPOSER MUSTAFA BAFOYEV

***Abstract.*** This article talks about the life and work of composer, conductor, artist Mustafa Bafoyev, his works and examples of status used in his works.
***Key words:*** symphony, status, oratorio, composer, conductor, music.




O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, kompozitor, dirijyor, pedagog Mustafo Bafoyev – o‘rta avlod kompozitorlari safida serunum, ko‘p qirrali va universal ijodkorlardan biridir. U O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasiga 1970-yillarning oxirida yorqin, zamonaviy ohang va an’anaviy uslubiy oqimlari ta’siridagi jozibali musiqiy asarlari bilan shaxdam kirib keldi.

Mustafo Bafoyev 1946-yil 10-noyabrda Buxoro viloyati Kogon tumani Ganjkash qishlog‘ida, Bafo Vaxdatov oilasida dunyoga kelgan. 1953–1960-yillar umumta’lim maktabda o‘qib, badiiy havaskorlik to‘garagiga qatnashadi, g‘ijjak chalishni o‘rganadi. Musiqaga bo‘lgan ishtiyoqini payqagan ustozlar unga musiqa bilim yurtida o‘qishni maslahat beradilar. 1960–1964-yillarda Mustafo Buxoro musiqa bilim yurtida, so‘ngra Toshkent davlat konservatoriyasida g‘ijjak ixtisosligi bo‘yicha o‘qidi. Unga dotsent V.A.Belenkiy, professor M.Nasimov saboq berishdi. 1969-yil konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirgach, yosh mutaxassis Buxoro davlat pedagogika institutiga yo‘llanma oladi. Bastakorlik sirlarini o‘rganish maqsadida, Mustafo Bafoev 1972-yilda konservatoriyaga ikkinchi marta o‘qishga kirdi. Professorlar B.Gienko sinfida kompozitsiyadan, A.Kozlovskiyda cholg‘ulashtirishdan qunt bilan o‘qidi. 1977–1979-yillarda assistent-stajyorlik kurslarida kasb malakasini oshirdi.

Ayni paytda Toshkent davlat madaniyat instituti o‘zbek xalq cholg‘ulari kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1980-yilda O‘zbekiston radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga dirijyor lavozimiga taklif qilindi. Olti yildan so‘ng u orkestrning bosh dirijyori va badiiy rahbari vazifasida ishlay boshladi. Kompozitor M.Bafoyev talabalik davridan boshlab musiqaning turli shakl va janrlarida jozibali, ohangdor musiqiy asarlar yaratib kelmoqda. U o‘ziga xos va betakror musiqiy tilda kuylaydigan ijodkor sifatida shakllanadi, yaratgan asarlari badiiy nafosati bilan ajralib turadi. Kompozitor Mustafo Bafoyev talabalik davridan boshlab musiqaning turli shakl va janrlarida jozibali, ohangdor musiqiy asarlar yaratib kelmoqda. Masalan, M.Bafoyevning talabalik davridayoq yaratgan torli kvarteti 1973-yil Novosibirsk shahrida ham ijro etildi. Navoiy she’rlariga ovoz va fortepiano uchun yozgan ***“Besh ruboiy”*** turkumi (1975-y.) Leningradda o‘tkazilgan yosh kompozitorlar ijodiga bag‘ishlangan festivalda ijro etilib, iliq kutib olindi, yoki “Buxoronoma” (O.Halil so‘zi) oratoriyasi 1978-yilda yosh kompozitorlarning tanlovida 3-darajali diplomga sazovor bo‘ldi. Asar olti qismdan iborat. Asarning uch qismi Buxoroning o‘tmishiga bag‘ishlangan bo‘lsa, keyingi uch qismi sovet davri revolyutsiyasiga, ya’ni inqilobdan oldingi va inqilobdan keyingi davr ko‘rsatilgan.

Kompozitor maqom yo‘llaridan foydalanishni aynan ***“Buxoronoma”*** oratoriyasida qo‘llagan. Ya’ni kompozitor uchun bu birinchi tajriba bo‘lgan. Talabalik yillarida yozilgan bir qancha asarlari ham ijro jamoalari repertuarlaridan o‘rin oldi. Mustafo Bafoyev

simfonik va vokal-simfonik janrlarida samarali ijod qilib kelmoqda. Kompozitor hozirgacha 6ta simfoniya yozgan va simfoniyalarida maqom namunalarini keng qo‘llagan.

**Simfoniya 1.**

Kompozitorning 1-simfoniyasi ***“G‘azal”*** simfoniyasidir. Bu simfoniyaning birinchi ijrosi 1980-yilda Bahor konsert zalida ijro etilgan. Simfoniya jonli ravishda radio xori va O‘zbekiston davlat filarmoniyasi orkestri torli asboblar guruhi (skripkachilar guruhi) ijrosida yangragan. Simfoniyaning ijro etilishida dirijyor Zohid Haqnazarov yetakchilik qilgan. Simfoniya 4 qismdan iborat. “G‘azal” simfoniyasining 1-varianti Zahiriddin Muhammad Boburning to‘rt g‘azaliga bastalangan. Ammo simfoniya yozilgan payt, sovet davlati hukmronligi davri bo‘lganligi, Z.M.Bobur ijodini targ‘ib qilish ta’qiqlangani bois, simfoniya radioga yozilishiga ruxsat berilmagan. Shu sababli kompozitor simfoniyaning matnini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi. Simfoniyaning 1-qismini A.Navoiy g‘azali asosida, 2-3-qismini B.Mashrab g‘azali asosida, 4-qismini esa Furqat g‘azallari asosida qayta ishlaydi. Bu 4 qismli simfoniya tarkibida yakkaxonlar, erkaklar xori, kamer orkestri, zarbli cholg‘ular guruhi va fortepiano sozi partitura tarkibidan o‘rin olgan. Simfoniyada xor tarkibi faqat erkaklardan tuzilganligining sababi, Buxoro amirligi davrida ayollarning kuylashi, ashula aytishi davr holatiga to‘g‘ri kelmaganligi tufayli, kompozitor bu simfoniyasini o‘sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib yaratgan.

Simfoniyada yakkaxon ijroda ham, xor tarkibida ham faqatgina erkaklar ovozidan foydalangan. Kompozitor bu simfoniyasida aynan ma’lum bir maqomdan foydalanmagan bo‘lsa-da, simfoniyani tinglaganimizda, Shashmaqomning Rost maqomi ohanglarini his qilishimiz mumkin. Simfoniya Buxoro Shashmaqomi ta’siri ostida yozilgan. Kompozitorning simfoniyalari respublikamizda va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan festival va simpoziumlar konsert dasturlarida hali-hamon yangramoqda.

Kompozitor simfoniyalarida maqom yo‘llaridan, maqom ohanglaridan keng va samarali foydalangan. Mustafo Bafoyevning simfonik va kamer asarlari: Amerika, Ispaniya, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Litva, Misr, Ozarbayjon, Tojikiston va boshqa qator chet davlatlarda ijro etib kelinmoqda. Mustafo Bafoyev (ASCAP) Amerika kompozitorlar uyushmasining a’zosidir. U keng qamrovli ijodkor hisoblanadi. Aslida simfoniyalar simfonik orkestr uchun yoziladi. Ammo kompozitor Mustafo Bafoyev simfoniyalarni xor uchun moslashtirgan ijodkor hisoblanadi. Shu bilan birga uning har bir asarga murojaatining o‘ziga xoslik yondashuvi mavjud. Uning ijodi bo‘yicha juda ko‘p tahliliy ilmiy-nazariy ishlar yaratilingan. Quyida uning kamer simfonik orkestr uchun yaratgan 2-simfoniyasini qisqacha tahlil qilamiz.

**Simfoniya 2.**

Simfoniya buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, 1987-yilda yozilgan. Simfoniyada Abu Ali Ibn Sino obrazi, timsoli, o‘sha davr ruhiyati aks ettirilgan. Simfoniya 3 qismdan iborat bo‘lib, torli cholg‘ular uchun moslashtirilgan (skripka, violonchel, kontrabass va hokazo). Kompozitor bu simfoniyasida ham maqom yo‘llari va maqom ohanglariga murojaat qilgan.

Simfoniyaning 1-qismi Andante va Sonata allegro shaklida yozilgan. Falsafiy-lirik, yorqin ohangdor, Buzruk maqomi taronasi asosida tuzilgan bosh mavzu va jo‘shqin ohangdagi raqssimon yondash mavzular bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmagan, ekspozitsiyada namoyon bo‘lib, ulug‘ olimning obrazi bilan bog‘langan. Har ikkala tema, rivojlovning o‘rniga, fugata-polifonik holatda kamol topadi. Reprizaga o‘tishda va reprizada esa, qarama-qarshi bo‘lganliklari uchun xuddi yaxlit obraz bunyodga kelganday tuyuladi. Shu bilan birga reprizada, mavzular avj nuqtasiga ko‘tarilganda asarni dramaturgiyasida mavzular ajralish holatlari seziladi. Umuman bu qismda yondosh lirik raqssimon mavzu birgina bu qismda emas, simfoniyaning barcha qismlarida ustuvor turadi. Kompozitor simfoniyasida Buzruk maqomidan foydalangan. Taronaning o‘lchami 3/4,3/8 o‘lchovida, ammo kompozitor tarona o‘lchoviga asar mazmun va ruhiyatidan kelib chiqib, o‘zgartirish kiritgan. Taronaning faqatgina usul o‘lchoviga o‘zgartirish kiritilgan, ohang o‘zgartirilmagan.

Simfoniyaning 2-qismi uch qismli shaklda yozilgan. Ekspozitsiyada milliy ruhda yozilgan uchta original mavzular asosiy rol o‘ynaydi. Skersosimon mavzu alt, violonchel va skripka cholg‘ularida uch marotaba qaytarilishida namoyon bo‘lib, o‘rta mavzu bilan birlikda goh tez raqssimon harakatda, goh qayg‘u va vahimali jarayonda rivojlanib, reprizada ham davom etadi.

Simfoniyaning 3-qismi Andante-reprizali uch qismli shaklda yozilgan. Bu qism klassik kompozitorlarga xos. Final qismi sonata-allegro yoki rondo shaklda yozilgan an’anaga murojaat qilinmay, erkin ravishda turli obrazli musiqiy lavhalarni namoyon qilish bilan bog‘liq. Ya’ni shu qism birinchi mavzusi simfoniyaning birinchi qismidagi asosiy birinchi mavzuni ohangi bilan sug‘orilgan, ikkinchi mavzu esa o‘sha qismdagi fugatta asosida tuzilgan. Shu sababli simfoniyada ham falsafiy, ham raqssimon, ham xayoliy g‘amgin nigoh, ham dramatik hayajonli musiqiy obraz lavhalar jaranglaydi. Va final ma’yusli lirik xayoliy, musiqiy yaxlit his-tuyg‘uli ohang bilan tugaydi. Shu bilan birga aytish joizki, simfoniyaning tematizmlarini tuzishda ham kompozitorning musiqiy tiliga xos yaxlitlik bor. Ya’ni har bir mavzu uch (ohang) jumladan iborat. Bunday mavzu tuzish, simfoniyaning birinchi qismiga xos. Shunday qilib, simfoniyadagi boshqa qismlar birinchi asosiy mavzuning ohanglari bilan bog‘langan holda tuzilgan. Simfoniya plastinkaga muhrlangan va ko‘pgina davlatlarda, xususan, Moskvada, Fransiyada va dunyoning qator davlatlarida ijro etilgan. Simfoniya taqdimoti 1984-yilda bo‘lib o‘tgan.

**Simfoniya 3.**

1990-yil Hamza Hakimzoda Niyoziyga bag‘ishlangan ***“Shoirning hayot sahifasi”*** nomli 3-simfoniya shoir Hamza ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, Hamzaning qo‘shiqlaridan foydalanilgan.

Kompozitorning 3-simfoniyasida maqom yo‘llari hamda maqom ohanglari uchramaydi. Simfoniya Hamza ijodi va timsoliga atab yozilgan. Simfoniya simfonik orkestr repertuaridan keng o‘rin olgan.

**Simfoniya 4.**

1991-yil Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlangan ***“Movarounnahr”*** nomli 4-simfoniya Alisher Navoiy hazratlariga bag‘ishlab yozilgan. Kompozitor simfoniyada Shashmaqom cholg‘u qismlaridan Garduni Rostni ishlatgan. Cholg‘u qismlari bilan birgalikda kompozitor Navo maqomi yo‘llaridan, ya’ni Saraxbori navo va taronalaridan foydalangan. Simfoniya hazrat Navoiy timsoliga bag‘ishlanganligi bois, kompozitor aynan Navo maqomi yo‘llaridan foydalangan va alohida urg‘u bergan. Simfoniya 3 qismdan iborat bo‘lib, katta simfonik orkestr uchun yozilgan.

**Simfoniya 5.**

Kompozitorning 5-simfoniyasi ***“Holati Alisher Navoiy”*** deb nomlangan. Simfoniya 1991-yilda jo‘rsiz xor uchun yozilgan. Simfoniyada Navo maqomi ohanglaridan foydalanilgan. Ammo asar jo‘rsiz xorga moslashtirilganligi sababli, simfoniyaga boshqacha yondashilgan. Simfoniyada ud cholg‘usidan foydalanilgan. Simfoniya A.Navoiy g‘azallari, ruboiylari, qit’alari, navo maqomi yo‘llari va ohanglari, xor-vokal ijrosi va ud cholg‘usidan tarkib topgan. Simfoniyada navo maqomi ohanglaridan keng va jozibali foydalanilgan.

**Simfoniya 6.**

2013-yilda kompozitorning 6-simfoniya nomli simfoniyasi dunyoga keladi. Bu simfoniyada maqom namunalari uchramaydi. Mustafo Bafoyev musiqa ijodiga bo‘lgan munosabati juda keng qamrovli va mo‘ldir, u turli xil musiqiy janrlarda ijod qilib kelmoqda. Janrlar qamrovi hamda ularni professional darajada umumbashariyat musiqa san’atiga mutanosib holda yaratishini e’tirof etish joizdir. Shu nuqtayi nazardan M.Bafoyevni zamonaviy ilg‘or kompozitorlar qatorida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Zero, zamon ruhi uning asarlarida o‘tmish an’analari negizida aksini topadi. Xoh opera bo‘lsin, yoki kantata, simfoniya yoki oratoriya, oddiy kuy yoki romans ularda muayyan g‘oya mavjudki, o‘tmish durdonalari, kelajak umidlari bilan uyg‘unlashgan. Ijodkorning simfonik asarlari bilan bir qatorda operalarida, oratoriya, simfonik poemalari, kamer asarlarida ham Buxoro Shashmaqomining ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Uvaysiy ijodining 200 yilligiga bag‘ishlab yozilgan 4 qismdan iborat ***“Maqom sadolari”*** nomli jo‘rsiz xor uchun yozgan asarida ham maqom ohanglarini uchratishimiz mumkin.

Kompozitor operalarida ham maqom namunalari va ohanglaridan foydalangan. Masalan, ***“Sevgim samosi”*** (J.Jabborov librettosi), ***“Al-Farg‘oniy”, “Navoiy”, “Amir Temur”, “Borbad”, “Ibn Sino”*** nomli operalarida, shu bilan birgalikda ***“Buxoroyi sharif”*** deb nomlangan teleopera dostonida, ***“Nodira”*** nomli telebaletida ham maqom namunalaridan keng va samarali foydalangan. Kompozitor Buxoroda tug‘ilib o‘sgani, Buxoro farzandi bo‘lganligi bois simfoniyalarida, operalarida, oratoriya va hatto baletlarida Buxoro Shashmaqomining nafasi, ruhi, ohanglari sezilib turadi. Kompozitorning ijodi bevosita maqomlar bilan bog‘langan. Buning sababi esa, ijodkorning Shashmaqomga bo‘lgan mehri hamda maqomlarning qon-qoniga singib ketganligidadir. Kompozitor jami 200dan ortiq qo‘shiq va romanslar bastalagan.

Mustafo Bafoyevning ijodkorlik, dirijyorlik va jamoatchilik faoliyati munosib baholangan. U “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” faxriy unvoni (1995-y.), Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti (1997-y.), “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni (2008-y.), qator medallar, qardosh davlatlar ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan. Maqom san’ati bugungi kun kompozitorlik ijodiyoti uchun uning milliy-ma’naviy kamolotga erishish yo‘lida beqiyos ijodiy namuna-saboq va ilhom manbai bo‘lgan maydondir. O‘zbekiston kompozitorlik san’atiga nazar tashlaganda, unda maqom asarlariga murojaat etishning samarali ijodiy amaliyotini kuzatish mumkin. Maqomlarga xos ritmik shakllar, kuy qatlamiga doir tovushqatorlar, kuyning ko‘lamdorlik sifatlari doimiy ravishda kompozitorlarning ijodiy tajriba izlanishlarida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan.

Maqom san’ati o‘zining ichki kompozitsion tuzilishi, so‘z va musiqa vobastaligi hamda badiiy-obrazli dunyosi orqali bugungi kun ijodkori uchun ulkan axborot maydonini tashkil etadi. U uzoq tarix ijodkorlarining kuch va irodasi, ilhom va ixlosi aks etgan qimmatli merosni bizgacha yetkazib berar ekan, ko‘plab asrga tatigulik musiqiy-ma’naviy ozuqa beradigan ulkan salohiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (Birinchi jild). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000.
3. To‘rayev Y. Ohista (Kompozitor Mustafo Bafoyev asarlari asosida). – T.: “Istiqlol”, 2006.
4. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004.
5. Abdullayeva O. O‘zbekiston: Maqom va kompozitorlik san’ati.

**Chinora ERGASHEVA,**
**O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti**

# “USHSHOQ” MAQOMINING FENOMENI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek an’anaviy musiqasi, xususan, “Ushshoq” maqomi fenomeni haqida mulohaza yuritiladi. “Ushshoq” so‘zining ma’nosi, “O‘n ikki maqom” tizimidagi, “Shashmaqom turkumidagi o‘rni va alohida musiqa asrarlari sifatida namoyon bo‘lishi ochib beriladi. “Ushshoq” nomli asarlarning tahliliga asoslangan holda, muallif lad masalalari bo‘yicha ma’lum natijalarni ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *maqom, Ushshoq, musiqa, risola, lad, Shashmaqom, rivoyat, she’riyat.*

# О ФЕНОМЕНЕ МАКОМА “УШШОК”

**Аннотация.** *Статья посвящена узбекской традиционной музыке, в частности феномену макома “Ушшок”. Расскрывается значение этого слова, а также место “Ушшок” в системе “Двенадцати макомов”. Цикле “Шашмаком”, а также как отдельные произведения. На основе анализов музыкальных произведений под названием “Ушшок” автор делает определенные выводы касающиеся вопросов лада.*

**Ключевые слова:** *маком, Ушшок, музыка, трактат, лад, Шашмаком, легенда, поэзия.*

# ABOUT THE PHENOMENON OF MAQOM “USHSHOK”

**Abstract.** *The article discusses the phenomenon of Uzbek traditional music, especially the makam of "Ushshaq". The meaning of the word "Ushshaq", its place in the "Twelve makam" system, "Shashmakam series" and its manifestation as separate musical secrets will be revealed. Based on the analysis of the works named "Ushshaq", the author shows certain results on the issues of lad.*

**Key words:** *makam, Ushshaq, music, treatise, lad, Shashmakam, narration, poetry.*

O‘rta asr Sharq musulmon olamida yuzaga kelgan maqom tizimlarining nazariy asoslari va ko‘p asrlik ijodiy va ijrochilik an’analarini ilmiy tadqiq etish masalalari bugungi kunda dolzarbdir. Mumtoz musiqiy qadriyatlarning tub asosini belgilovchi an’analar tarixini o‘rganish, ularning maqom turkumlarini yuzaga keltirishdagi mohiyati va maqom uslubidagi namunalarni ijod etilishidagi o‘rnini aniqlash kabi muammolar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

*“Ushshoq”* so‘zi arabcha bo‘lib, *“oshiqlar”* ma’nosini bildiradi. Musiqa kesimida esa ma’lum pardalar uyushmasi hamda shu asosda ishqiy dardchil ohanglar bilan ishlangan mungli kuy va mumtoz ashulalarni anglatadi[1]. Ushshoq maqomining tovushqatori Yevropa musiqasida miksolidiy nomi bilan ma’lum tabiiy ladiga mos kelib, sifati jihatidan tovushlarning eng mukammal uyushmasini tashkil etadi. An’anaga ko‘ra, ushbu maqom (lad) asosida ijod etilgan kuy va ashulalar ham shu nom bilan ataladi. Ta’kidlash joizki, Ushshoq yo‘llari qadimdan Sharq musulmon xalqlari orasida e’zozlanib kelingan. Buning sabablari qatorida Ushshoqning qadimiy kelib chiqish tarixi ham e’tiborlidir.

Ma’lum rivoyatlarga ko‘ra, Ushshoqning ilk asosi Nuh alayhissalomning yig‘i, nidolariga bog‘langan ekan. Umri davomida ko‘plab ko‘zyoshi to‘kkan Nuh payg‘ambarning ismi ham aslida “navha” so‘zidan olinganligi va mazmunan yig‘i ma’nosini anglatishi bayon qilinadi rivoyatda[2]. Boshqa bir rivoyatda esa, Ushshoqning kelib chiqishi Muso alayhissalomga nisbat beriladi: “Hassangni toshga ur”, amriga ko‘ra Muso alayhissalom asoni toshga urgach, 12ta chashma – buloq oqa boshlabdi va har bir buloq suvi bir kuy va tovush bilan quyila boshlabdi. Shunda, “bu ohanglarni asra” (ya’ni, “esingda tut” ma’nosida – Ch.E.) mazmunida nido ham eshitilibdi. Bu kuylar kelgusida 12 maqom nomi bilan mashhur bo‘lgan ekan[3].

Bu o‘rinda Ushshoq kuyi 12 maqom tarkibida kelishi nazarda tutiladi. Ushshoqning kelib chiqishiga doir ilmiy farazlar ham mavjud. Xususan, I.R.Rajabovning “Maqomlar” kitobida *“Ushshoq”* maqomi lirik tuyg‘ularni ifodalaganligi hamda shunga monand she’rlar asosida oshiqlar tilidan aytilgani uchun unga “Ushshoq” nomi berilganligi taxmin qilinadi[4]. Maqomdon olimning bu taxmini asosan o‘rta asrlarga oid turli manbalarni tahliliy nazardan o‘tkazilishi natijasida yuzaga kelganligi shubha tug‘dirmaydi. Chunki bu davrga kelib, ishq mavzusi ustuvor bo‘lgan mumtoz adabiyot va musiqa san’atida “Ushshoq” iborasi hamda shu nomli parda-ohanglar juda keng ko‘lamda amaliy qo‘llanib kelingan edi.

Masalan, mumtoz she’riyatda “Ushshoq” so‘z tushunchasi oshiqlar siymosining yuksak timsoli sifatida g‘azaldan g‘azalga “ko‘chib” yuruvchi o‘ziga xos “nazira-ibora”ga aylangan edi. Quyida iqtibos etilgan she’riy misralar fikrimizni tasdiqlaydi:

*Yor qatl etgali **ushshoqni** yig‘durg‘an emish*
*Ber bu bari ichra Navoiyg‘a taqadum[5].*

**A.Navoiy**

*Kasma nazar jonibi **ushshoqda,***
*Nolai dil so‘zidan et ejtinob[6].*

**Fuzuliy**

*Olam az nolai **ushshoq** mabodo xoli,*
*Ki xush ohangu farah baxsh havoye dorad!*

**Hofiz Sheroziy**

*Dilrabolar garchi aylarlar jafo **ushshoqig‘a,***
*Dilbarim har dam qilur man xastag‘a ammo vafo[7].*

**Ogahiy**

[1] Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: “San’at”, 2006-y. 92-b.
[2] Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). – Т.:1946 г. С.8.
[3] Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. 139-b.
[4] Rajabov I. Maqomlar. – T.: 2006-y. 92-b.
[5] Navoiy A. Asarlar to‘plami. III jild. “G‘aroyibus sig‘ar”. – T.: 1988-y. 61-b.
[6] Fuzuliy. Devon. – T.: 1959-y. 36-b.
[7] Sheroziy H. Kulliyot. – Dushanbe: 1983-y. 169-b.

Shu bilan birga Ushshoq so‘zi oshiqlarning istalgan dil kuyi ma’nosida O‘n ikki maqom nomlari qatorida ham zikr etilgan:

***“Ushshoq”i maro qadi “Husayni” chu “Rost”,***
***Dar pardai “Busalik”, “Rahovi”vu “Navo”st.***
***Chun gasht “Buzurg” dar “Isfahon”u “Iroq”,***
***“Zangula”, “Hichoz”u “Kuchak” andar bari most[9].***

Ushshoqning qadimiy pardalari asosida ijod etilgan kuy va ashula yo‘llari Sharq mamlakatlarida yuzaga kelgan qariyb barcha musiqa tizimlari tarkibida muqim o‘rin tutganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, mutaxassislar Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni hamda boshqa (yozma va ashyoviy) manbalarga tayangan holda Ushshoq parda-ohanglari Sosoniylar saroyida xizmat qilgan bastakor Borbad asarlarida (jumladan, Borbadga nisbat berilgan “Xusravoniyot” tizimida) qo‘llanilganligini ta’kidlaydilar[10]. Shuni aytish joizki, taxminan VII–VIII asrlardan boshlab uzil-kesil shakllana boshlagan Yetti maqom tizimida, XIII–XVII asrlarda esa O‘n ikki maqom doirasida va keyinchalik (XVIII–XIX) shu asosda yuzaga kelgan Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent yo‘llari tarkibida ham Ushshoq pardalari barqaror mavqega ega bo‘lganligi qayd qilinadi[11].

O‘rta asrlarga oid musiqiy risolalar, mumtoz adabiyot va ularga ishlangan mo‘jaz tasvirlar (miniatyura) ustida zamondosh musiqashunoslar olib borgan tadqiqot natijalari asosida Ushshoq namunalarining o‘tmishdagi ijro shakllari, an’analari haqida ham umumiy tasavvur hosil qilish mumkin[12].

Bunda turli musiqiy tizimlar tarkibida uning koinot jismlari bilan bog‘liq “vaqt hukm”lari ham o‘zgarib turganligini ko‘ramiz. Chunonchi, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” va unga nazira tarzida ishlangan Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonlari asosida aniqlangan Yetti maqom (Roxaviy, Iroq, Navo, Ushshoq, Busalik, Zirofkand, Rost) tizimi koinot jismlariga bog‘liq holda hafta kunlari davomida ijro etilgan[13]. Jumladan, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni botinida aniqlangan Yetti maqomning biri – Ushshoq, Qizil sayyora Mars bilan bog‘langan bo‘lib, uning ijro etilishi seshanba kuniga, vaqti esa shafaq (shom) paytiga to‘g‘ri kelgan. Bunga ushbu dostonning to‘rtinchi hikoyasiga ishlangan “Bahrom gulgun qasrda” miniatyurasidagi qizg‘ish rangli gumbaz, yangi chiqqan hilol oy va yulduz kabi timsollar dalil keltiriladi[14].

XIII–XVII asrlar musiqa amaliyotida keng qo‘llangan O‘n ikki maqom zanjirida esa Ushshoq maqomi birinchi bo‘g‘inda kelib, uning ijro vaqti quyosh chiqqan mahal kuchga kirgan. Bu haqda Najmiddin Kavkabiyning musiqaga oid risolasida zarur ma’lumotlar keltiriladi[15].

Musiqiy risolalarda Ushshoqning tinglovchiga hissiy ta’siri ham ta’riflanadi. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi”da Ushshoqning tinglovchiga g‘ayrat va shijoat tuyg‘ularini bag‘ishlashi haqida mulohazalar bildirilgan[16].

Shu boisdan bo‘lsa kerak, manbalarda Ushshoq so‘ziga ulanib Rost ham keladi:

***Jomiy az bahri maqomi tu navoye ki zanad,***
***Bahri Ushshoq ruhi Rost buvad so‘n Hichoz.***

(A.Jomiy)

(Ma’nosi: Jomiy, sendan ilhomlanib Ushshoq kuyini Rostu-Hijoz ila tarannum aylagay).

Ushshoq va Rostning uzviy bog‘lanishi ilmiy jihatdan ham asosli ko‘rinadi. O‘tmishga oid risolalarda (o‘rta asrlar) Rost va Ushshoq maqomlarining tovushqatorlari bir-biriga nihoyatda yaqin bo‘lganligi bilan izohlanadi. Professor Viktor Belyayevning Abdurahmon Jomiy risolasiga bergan sharhidan ma’lum bo‘lishicha, Rost va Ushshoq orasidagi farq bor-yo‘g‘i 24 sentni tashkil qiladi[17]. Ya’ni, bu farqni tinglov bilan deyarli ilg‘ab bo‘lmaydi. Shu yaqinlik o‘laroq, Shashmaqom shakllanishi (XVIII asr) jarayonida ushbu maqomlar (Ushshoq va Rost) Rost maqomi turkumida mujassam etilgan edi.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan barcha Ushshoqlarning dastlabki kelib chiqish asosi O‘n ikki maqom tizimidan o‘rin olgan shu nomli namunaga borib taqaladi, deyish mumkin. Bunda Ushshoq namunalarining umumiy parda-ohang va rivojlanish tamoyillari (nota yozuvlarida turlicha qayd etilgan asosiy tayanch pardalaridan qat’i nazar) muhim dalil sifatida qaralishi mumkin. Bunga “Samarqand Ushshog‘i” yoki “Ushshoqi Hoji Abdulaziz”, “Ushshoq” yoki “Mulla To‘ychi Ushshog‘i”, “Sodirxon hofiz Ushshog‘i” kabi musiqiy namunalar misol bo‘la oladi. Zikr etilgan ushbu asarlarning kelib chiqish manbalari umumiy bo‘lsa-da, ularning har biri noyob va alohida badiiy qiymatga ega.

Buxoro-Samarqand mahalliy uslubining yorqin namoyandasi Hoji Abdulaziz Rasulov Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llarining mohir ijrochilaridan edi. Bu hol “Samarqand Ushshog‘i”da ma’lum qadar aks etadi, ya’ni “Samarqand Ushshog‘i” mavzu bayoni, rivojlanish tamoyillari va namud avjlari bilan Shashmaqom sho‘balarining ichki tuzilish qonuniyatlarini eslatadi. “Toshkent Ushshog‘i” yoki Ushshoqning Mulla To‘ychi yo‘lida esa Farg‘ona-Toshkent uslubi maqomlarga xos bo‘lgan sifatlar bilan tabiiy bir holda uyg‘unlashtirilgan. “Sodirxon Ushshog‘i”da ana shu uslubning yorqin va o‘ziga xos janri – katta ashula badiiy jihatlari o‘zgacha talqin qilinadi.

Milliy musiqamizning nodir xazinasidan o‘rin olgan bu kabi noyob janrlar “Ushshoq” maqom yo‘lining bitmas-tuganmas ijodiy zaxirasini ko‘rsatishi bilan birga hozir va kelgusida ham bastakorlar uchun bebaho ilhom manbai ekanligini tasdiqlaydi.

O‘tmishda asosan xon saroylarida ijro etilgan Ushshoqlar bugungi kunda keksa, o‘rta va yosh avlod hofiz-xonandalari ijrosida turli anjumanlarda, radio va televideniye orqali xalqimizga taqdim etilmoqda. Shuningdek, maxsus ta’lim muassasalari dasturlaridan o‘rin olgan “Ushshoq”lar yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning badiiy go‘zal an’analari asosida estetik tarbiyalashda ahamiyatli o‘rin tutmoqda. Zero, “Ushshoq” nomli asarlar insonda go‘zal his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.

---

[8] Ogahiy. – T.: 1960-y. 131-b.

[9] Kavkabiy Nachmiddin. Risolai musiqi; Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. – Dushanbe: 1985-y. 60-b.

[10] Вызго Т.С. К вопросу об изучении макомов. // Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – Москва: 1972 г. С. 387–413.

[11] Иброҳимов О.А. Фергано-Ташкентские макомы. – Т.: 2006 г.

[12] Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Т.: «Ўқитувчи», 1984 г. С.32-33.

[13] Ibragimov O. Ranglarda sadolangan maqomlar. // Shashmaqom saboqlari (Maqola va ma’ruzalar to‘plami). – T.: 2005-y. II jild. 52-b.

[14] Shashmaqom saboqlari. II to‘plam. Ibrohimov O. “Ranglarda sadolangan maqomlar”. – T.: 2005-y. 61-62-b.

[15] Kavkabiy Nachmiddin. Risolai musiqi; Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. – Dushanbe: 1985-y.

[16] Джами А. Трактат о музіке. – Т.: 1960 г. С.65.

[17] Джами А. Трактат о музыке. – Т.: 1960 г. С.83.

# III BO'LIM
# SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

**Zebo FAZLIYEVA,**
**O'zDSMI "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti**

## O'ZBEK XALQ RAQSINING KELIB CHIQISH VA RIVOJLANISH TARIXI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, har bir millatning o'z etnik kelib chiqish tarixi, xalq raqslarining ildizi, ilk kelib chiqish sarchashmalari, mintaqaviy kundalik turmush tarzi, mehnat jarayoni, turli bayram, marosimlari ularning geografik, tarixiy va ijtimoiy sharoitlari ta'siri ostida rivojlanib har bir xalqning ijro uslubi hamda o'ziga xosligini ifodalab, asosan musiqa bilan uzviy bog'liq holda takomillashgani haqida so'z ketadi.*

**Kalit so'zlar:** *xalq raqsi, marosim, harakat, tarixiy, xalq, madaniyat, raqs.*

## ГЕНЕЗИС И РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ТАНЦА

**Аннотация.** *В данной статье рассмотрены история этнического происхождения каждого народа, корни народных тансев, корни первопроисхождения, региональный повседневный образ жизни, трудовой просесс, различные праздники и обряды, а также о сложениях под влиянием каждой насии их географических, исторических и сосиальных условиях. Утверждается, что исполнительский стил и самобытност насии совершенствовалис главным образом в связи с музыкой.*

**Ключевые слова:** *народный танец, обряд, движение, исторический, народный, культура, танец.*

## GENESIS AND DEVELOPMENT OF UZBEK FOLK DANCE

**Abstract.** *This article examines the history of the ethnic origin of each nation, the roots of folk dances, the roots of original origin, the regional daily lifestyle, the labor process, various holidays and rituals, as well as the formation of their geographical, historical and social conditions under the influence of each nation. It is argued that the performing style and identity of the nation were refined mainly in connection with music.*

**Key words:** *folk dance, ritual, movement, historical, folk, culture, dance.*

Har bir davrning o'ziga xos jihatlari xalqning badiiy ijodida hamda raqslarida aks etadi. Chunki unda donolik va qahramonlik, quvonch va qayg'u, g'alaba va mag'lubiyat, kundalik hayot, urf-odatlar va baxtli kelajakka bo'lgan ishonch aks ettirilgan. Shuning uchun qadim zamonlardan beri raqslar insonni butun hayoti davomida hamrohlik qilgan. Natijada har bir xalq o'z raqs an'analarini, uning atamalarini maxsus harakatlarini maqsadga muvofiq ishlab chiqqan. Bu kabi mavzuga oid uyg'unlashtirilish, harakat va musiqa o'rtasidagi bog'liq jihatlarni namuna darajasiga keltiradi.

Hududiy etnomadaniyatni namoyish etishning eng yorqin va o'ziga xos shakli raqsdir. Chunki unda xatti-harakatlar orqali o'zaro munosabatlar, odob-axloq normalari, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi har qanday o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Hududiy etnomadaniyat va xalq raqsi – jamoaviy ijod natijasi, xalq tarixi bilan mavjuddir.

Hududiy rivoj jarayonida xalq raqsi juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi. Ular insonlarning fe'l-atvori, hayot tarzi va ishlab chiqarishdagi madaniyatga qarab folklor (xalq raqsi) doirasidagi raqslarga hamda maxsus professional raqslarga ajratilgan. Ular geografik, tarixiy va ijtimoiy sharoitlar ta'siri ostida rivojlanib, har bir xalqning ijro uslubi, o'ziga xosligini ifodalab, asosan musiqa bilan uzviy bog'liq holda takomillashgan.

Demakki, ijrochilar o'sha paytlarda ham buyumsiz, tana ifodasi orqali ma'lum bir ma'noni anglatuvchi harakatlar va imo-ishoralardan foydalanganlar. O'zlari bilmagan holda tasavvurdagi buyumlar va holatlar (olov, tabiat hodisalari va hokazolar)ni tasvirlaganlar. Hayotdagi barcha san'at turlari insonlarning unga tug'iladigan ehtiyojlaridan kelib chiqib paydo bo'lgan, desak yanglishmaymiz. Zero, teatrning, umuman harakat teatrining va pantomimaning paydo bo'lishi ham ibtidoiy davr odamlarining unga bo'lgan ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Ma'lumki o'sha davrlarda insoniyat ozuqani ovlar natijasida qo'lga kiritgan. "*Ov*

*unumli bo‘lishi uchun odamlar turli diniy e’tiqodlardan, turli usul va hiylalardan foydalanishgan. Chunonchi, ibtidoiy odamlar ov vaqtida har xil yovvoyi hayvon va qushlarning terisiga niqoblanib, shu yo‘l bilan yovvoyi hayvonlarni hurkitib yubormay, osongina ularga yaqinlashar va qo‘lga tushirar edilar. Shunday qilib, odamning boshqa qiyofaga kirishining dastlabki formalari tug‘ila boshlaydi*” [17.22-b.].

Tarixdan bizga ma’lumki, qadimgi ibtidoiy davrda hali nutq shakllanmagan bir paytda tabiatda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni mimika, qo‘l harakatlari, imo-ishora va o‘xshatish orqali muloqotni yuzaga keltirganlar. “*Pantomima – insoniyat badiiy ijodining eng qadimiy shakllaridan biri. Pantomima elementlari ibtidoiy odamlarning o‘yinlari tarkibida va diniy marosimlarida aks etgan. Bunda ular hayvonlarga taqlid qilishgan yoki turli qahramonlar obrazlarini tasavvurlaridagi xudolar yoki shaytonlarning xatti-harakatlari imo-ishora, raqslar orqali ifodalashgan*” [3.18-19-b.].

Vaqt o‘tishi bilan xalqlarning turmush tarzi, qiziqish doirasi, ruhiyat imkonlari, salohiyat shakli, xulq-atvor ranglari o‘zgarib, rivojlanib borsa-da, qadim xotira ongi boshqa narsaga o‘z joyini almashtirmaydi. Ularda o‘sha xalqning shakllanish, mentalitet hosil bo‘lishi gavdalanadi. Bu ayniqsa, raqslarda ochiq namoyon bo‘ladi. Har bir xalq san’ati va madaniyati tarixida bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, hindlar: *“...ular ibodatxonalarda ma’lum muqaddas marosimlar bilan bog‘liq professional raqsning o‘ta murakkab marosimini o‘rgandilar, tasvirlar marosimlarning mohiyatiga va ularni keltirib chiqargan g‘oyalarga chuqurroq kirib borishga, ba’zan esa ko‘rinadigan, yo‘qolgan aloqalarni tiklashga imkon beradi. Tabiiyki, bunday izlanishlar bilan faqat bir xalqning folklor va etnografik ma’lumotlari bilan cheklanib bo‘lmaydi, qarindosh xalqlarning qiyosiy moddiy tahlili zarur*” [18.107-b.].

Mavsumiy marosimlar va ular bilan bog‘liq bayramlarni keng nishonlash butun Sharq mamalakatlarida keng tarqalgan. Shuningdek, yurtimizda ham. Erta bahor kelishi bilan nishonlangan bayramlarni raqssiz aslo tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu bayramlardagi raqslarda xalqimizning qadimdan mavjud bo‘lgan an’analari, udumlari, orzu-umidlari mujassam bo‘lgan. *“Marosimlar va urf-odatlar an’anaviy simvolizmning kelib chiqishi va asl ma’nosini oydinlashtirishga yordam beradi”* [19.107-b.]

M.Rahmonovning “O‘zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar” kitobida esa Avesto ta’limotlari bo‘yicha: *“…tabiatdagi va insonlar jamiyatidagi hodisalarning hammasi bir-biriga teskari va ikki yaratuvchining kurashidan kelib chiqadi. Bu yaratuvchilarning biri Axura Mazda bo‘lib, u yorug‘lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik, tinchlik va boshqa yaxshiliklarni yaratgan xudodir. Ikkinchisi Axriman (Agra Manyu) esa Axura Mazda yaratgan barcha yaxshiliklarga qarshi kurashadi. Oxir-oqibat yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonib, qorong‘ulik yorug‘likka yengilishi bilan tamom bo‘ladi... Shu jihatdan “Avesto” marosimlarni ijro etish shakllari teatr san’ati spesifikatsiyasiga yaqin bo‘lib, ibodatxona yoki maxsus maydonlarda teatrlashtirilgan uslubda uning duo va baytlari jo‘shqin musiqa, qo‘shiq, pantomim raqs bilan hamohang olib borilar, mifologik syujetlar ijro etilar, koinotning alohida-alohida hodisalariga mutasaddi bo‘lgan Mitra, Anaxit, Humo, Jamshid, Mirrix kabi turli mifologik tiplarning qahramonliklari maxsus ijrochilar tomonidan o‘ynab ko‘rsatilar edi”* [17.40-b.].

San’at hamisha hayot va davrning aksi. Bu o‘z navbatida, davrga monand bir ipga marjonday shodalangan, ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan lahzalar mohiyatini aniq belgilaydigan shakllarni qidirib topishi demakdir. *“Har yili bahor payti Andijon yaqinidagi Mirpo‘stin degan orombaxsh joyda sayil bo‘lardi. Bizda buni “Navro‘z” ham deydilar. Bu sayilda tol bargaklar taqqan qizlar, sho‘x yigitlar bir-birlarini o‘rtaga tortib o‘ynashardilar. Qo‘shiq aytadilar. Shunda doira, nog‘oralarda rang-barang usullar ijro etilardi. Binafsha, lola ochilgan paytdagi bu o‘yin dastlabki bahor gullarining nomi bilan bog‘lanib “Gulo‘yin” deyilsa kerak”* [15.93-b.].

“Avesto”da eslatilgan ba’zi musiqiy ijrolar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla asarlarida ham keltiriladi. Masalan, zardushtiylar *“boj griftan” marosimida qo‘llaydigan “marosimiy gul novda” bilan raqsga tushish, “tayoqcha bilan usul berib raqsga tushish”* shaklida beriladi [16.75-b.].

Ibn Zayla musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi ta’limotni yangi bosqichga ko‘tardi, ammo bu boradagi fikrlari kitobda jam etilmagan, bir tizimga solinmagan va ular asosan axloqiy-estetik ma’noga ega. “*Musiqa bilan bevosita aloqador san’at turlari رقص raqs san’ati, زفن zafn – yelka, qosh, bosh va tananing shu kabi a’zolarini o‘ynatish san’ati, كرّاجة karroja – hayvon va qushlarga taqlid qilib o‘ynash san’ati, صناعةِ التّصْفِيق qarsak chalish san’atidir*”, – deydi Abu Mansur ibn Zayla kabi olimlar [2.30-b.].

Folklor tarkibidagi xalq raqslar birinchi navbatda ijrochining his-tuyg‘ulari, kayfiyati, ritm va plastikada namoyon bo‘lishidir. Folklor raqsi hudud yoki mintaqaning o‘ziga xos an’analaridan kelib chiqqan ijrodir. Shuning uchun folklor raqsi paydo bo‘lgan hududda avloddan avlodga o‘tib boradi. Uning kelib chiqishi deyarli har doim qishloq turmush tarzi bilan bog‘liq. Ular tarixiy jihatdagi farqlarga qaramay, turli mamlakatlarning folklor raqslari harakatlarining ijro uslubi va tuzilishida umumiylik bor. Raqslarning bir-biridan farq qilishi asosan geografik joylashuviga ham bog‘liq. Masalan, bitta mamlakatdagi tog‘liklarning raqslari, o‘sha mamlakatning tekisliklarida yashaydigan aholisining raqslariga qaraganda farq qiladi. Buning sababi, geografik sharoit o‘ziga xos an’analarni aholining folklorida saqlaydi va takomillashtiradi.

Folklor raqslari haqida Igor Aleksandrovich Moiseyev: *“Xalq ijodi – sahnani hayot tarziga aylantirmoqchi bo‘lganlarning barchasi uchun eng yaxshi ustozdir. Folklor raqslarini sahnaga moslashtirmaslik umuman noma’qul ishdir. Kishilar*





*tomoshabin uchun emas, oʻzi uchun raqsga tushadi. Bu raqs sahnaga olib chiqilsa, xuddi hayotdagidek boʻladi. Undagi "oʻz-oʻzi uchun raqs"ga tushish bartaraf etilganidan soʻng, yasamalik yoʻqolib, tabiiylik qoladi. Tomoshabin uchun sahnalashtirilgan raqs – maishiy raqsning aynan oʻzi emas. Tomoshaning esa oʻz qonun-qoidalari bor",* – deb ta'kidlaydi [12.32-b.].

Har bir millatning oʻz etnik kelib chiqish tarixi bor. Folklor raqslarning ildizi aynan millat shakllanishiga borib taqaladi. Oʻzbek xalq raqsining ilk kelib chiqish sarchashmalari, juda qadim zamonlardan buyon avlodlarning hududiy kundalik turmush tarzi, mehnat jarayoni, turli bayramlar va marosimlarda namoyon boʻlib kelayotgan serqirra ijodlariga borib taqaladi. Chunki xalqning turmush tarzi va bajarayotgan mehnat jarayoni qanday boʻlishidan qat'iy nazar, uning koʻngli doim mehr hamda orzu ohanglari bilan toʻlib toshgan.

Musiqashunos olim Z.T.Oripov monografiyasida: *"Panjikent devoriy suratlarida ham ansambl tasvirlangan, faqat bu yerda ashula, raqs va musiqa sozlari mushtarak ansambli. Ansambldagi ud chaluvchi ayolning oʻng qoʻlida mizrob, udning toʻrt tori bor, raqqosa imolari sezilarli bir koʻrinishda. Forobiy va Ibn Zayla asarlarida amalda asosan toʻrt torli ud qoʻllanilganini va u mizrob bilan chalinishi yoziladi, imo-ishora raqsini ham eslaydi. VI–VII asrlarga mansub Panjikent devoriy suratlaridagi ud va imo-ishora raqsi bilan X–XI asrlarda Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiy tomonidan ta'riflangan ud va raqs orasida aytarli farq yoʻq"* [16.75], – deydi.

Islom dinini qabul qilgan oʻzbek xalqining m'naviy hayotida musiqa oʻz ahamiyatini yoʻqotmadi, balki yangi ma'no kasb etgan holda ravnaq topdi. Shu jumladan, ayollarning cholgʻu ijrochiligi, xonishlari va raqs tushishlari ta'qiqlab qoʻyilmagan boʻlmasada, ammo oʻziga xos shakl ("ichkari")da rivojlandi, xotin-qizlar davrasida oʻtkazilgan turli tadbirlar hamda marosimlarda namoyish etilishi udum boʻldi. Bunday davralarda ba'zan hayot mashaqqatlari va turmush tashvishlari ham "tilga olingan". Lekin hayo-iboda doim goʻzal oʻzbek ayollari har qanday qiyinchilik oldida darhol tushkunlikka tushmay, balki uni oqilona yengish choralarini izlaganlar, bu yoʻlda bir-birlariga madad boʻlib, zarur boʻlganda iste'dodlarini ham ayamaganlar. Chunki oʻzbek ayollari orasida yuksak mahoratli shoiralar, xonandalar, raqqosalar, qiziqchilar ham boʻlgan.

Sharq olamida islom dini keng yoyila boshlagan davrlarda ham xalifa va xonlarning saroylarida she'riyat qatorida musiqa va raqs san'atlari doim e'tiborda boʻlgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, san'atning qadrini bilgan ulugʻ sohibqiron Amir Temur saroyida nafis san'atlar bilan mashgʻul boʻlishlari va ijodiy faoliyat koʻrsatishlari uchun zarur muhit hamda sharoitlar yaratilgan boʻlib, erkak san'atkorlar bilan bir qatorda raqqosa, sozanda va xonanda ayollar ham oʻz iste'dodlarini koʻrsatishlariga izn berilgan [1.189-b.].

Bunday sharoitlar: *"…nafaqat hashamatli saroylarning keng ichki sahnalari va ayvonlarida, balki Sohibqiron, malika va shahzodalarning bogʻlarida, Saroy Mulk xonim, Xonzoda begim va shahzodalarning saropardalarida, Temuriylar xonadonida oʻtkazilgan toʻy va bayramlarda", shuningdek, oʻsha davrlarda ommaviy tus olgan xalq sayillari va marosimlarida ham kuzatiladi"* [1.189-b.]. Shuningdek, saroyda boʻlgan bazmlarda, turli bayram va toʻylarda Xonzoda Bulbul, Siyahcha, Mohchuchuk va Sharofatxon ismli ayol san'atkorlar ham qatnashib, doyra chertish, kuylash, raqsga tushish san'atlaridan voqif boʻlganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Raqs san'atining rivojlanishi, tabiiyki, yallachiliqda ham oʻz aksini topgan edi. Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi she'ridan oʻsha davrda oʻtkazilgan bazmlarda ayollar yalla aytib raqsga tushganliklarini anglash mumkin:

*Bir necha gul bargi qabo, yali-yali,*
*Aylagali bizni ado, yali-yali.*
*Tuzmoq uchuy savti navo, yali-yali,*
*Ja'm boʻling mahliqo, yali-yali.*
*Boʻldi qiziq bazi capo, yali-yali,*
*Kecha ochib orazi tobonini.*
*Ravshan etib gʻayr shabistonini,*
*Rashkka yoqib Yusufining jonini.*
*Hasta Navoiyni toʻkib qonini,*
*Qoʻllariga qoʻydi xino, yali-yali* [14].

Tarixchi Zayniddin Vosifiy yozadi: *"Bir kechasi bir guruh doʻstlar bir faqirning uyiga toʻplanishdi. Mirzabayram qonunini sozladi: Xonzoda Bulbul doyra chaldi. Siyahcha xonandalik qildi. Mullo Fazliy va Mullo Ahliy, Mavlono Amoniy, Mavlono Muqimiy*

*badiha aytishdi. Tohir chakka va Mohchuchuk raqsga tushdilar”* [6.153-b.]

XVIII–XIX asrda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san’atida ham o‘ziga xos mahalliy uslublar vujudga kela boshladi. Ayol san’atkorlar: Buxoroda – sozanda; Xivada – xalfa; Farg‘ona vodiysida esa – yallachi, deb yuritilgan. Bu davrda ayol san’atkorlardan iborat ixcham sozanda, xonanda va raqqosalardan iborat to‘dalar rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ularning dasturlari namoyish etilgan. *“Ichkari madaniyatida qarsak chalib yoki doyra zarblariga mos harakatli xilma-xil raqs va “Xonabazm” o‘yinlarining ko‘rsatilishi odat tusini ola boshlagan. Iqtidorli xotin-qizlar dutor chertishni ham o‘zlashtirib, unda raqs va xonishlar jo‘rnavozlik qilganlar”* [22.37-b.].

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, Buxoro amiri va Qo‘qon xon saroylarida “Kema o‘yin” nomli raqs tomoshasi alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan. Bu borada teatrshunos M.Rahmonov shunday yozadi: *“1885-yilda Buxoroda tunda shunday bir antiqa tomosha ko‘rsatilgan. Uzoqdan faqat chiroqlar va mash’alalar tizimi ko‘rinadi. Qorong‘ulikdan asta-sekin atrofi qizil mato bilan o‘ralgan, soyabonli, yaltiroq oynachali fonuslar ilingan chiroyli kema chiqib keladi. Kemada bachcha go‘yo o‘tirganday, lekin aslida kema uning beliga bog‘langan. Shunday kemalardan to‘rttasi paydo bo‘lib, ohista bir-birlarining yonlaridan o‘tish, ko‘pincha bir joyda turib tez aylanishdan iborat allaqanday raqsni namoyish qiladi. Raqqoslar havoda go‘yo suzganday tuyuladi. Namoyish masxarabozlarning bellariga bog‘langan, qo‘llarida nayzalar va qalqonlar tutgan yog‘och otlar poygasi bilan yakun topadi. Shubha yo‘qki, mazkur tomoshada o‘zaro bog‘langan butun bir tarixiy-afsonaviy voqealar namoyish etilgan”*[17.43-b.].

Keltirilgan misoldan ma’lum bo‘ladiki, mazkur ko‘rinish o‘zining shakli, muayyan syujet liniyasi, xarakteriga ko‘ra ommaviy raqs tomoshasidir. M.Rahmonov mazkur “Kema o‘yin”ni 1872-yilda Qo‘qon xonligida ham ijro etilganini ta’kidlaydi. Shu tariqa “Kema o‘yin” san’atkorlar guruhi tomonidan ijro qilingan kuy, qo‘shiq, raqs va xoreografik-plastik harakatlarga qurilgan o‘ziga xos yaxlit kompozitsiya ekanligi ma’lum bo‘ladi. “Kema o‘yin” raqsini badavlat ayollar liboslarini kiyib, yasanib, ko‘zlarini surma bilan quyuq qilib chizib olgan erkaklar ijro etgan. Ularning bellariga bog‘langan qayiqcha tagidan, oyoqlarini bezab, o‘rab turuvchi havorang duxoba va shokilalar tushib turgan.

Xulosa o‘rnida bugungi raqs asosi dunyo xalqlarining etnik kelib chiqish tarixi va xalq raqsining shakllanishiga borib taqaladi. Xalq raqsining zaxiralari, asosiy va eng muhim turlari, ijrochilarni birlashtirib turuvchi bayram tadbirlarda ijro etilgan raqslarda saqlanib qoldi. Ijro etiladigan raqslar, xalq ruhini, etnomadaniy rivojini ifoda etib rivojlanib bordi. Bizgacha yetib kelgan raqs xazinasi ko‘p tarixiy, tadrijiy bosqichlarni bosib o‘tib, o‘zbek xalq og‘zaki ijrolari tarkibida folklor raqslari va an’anaviy xoreorafiyaning alohida, o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatib bera oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1996-y. 189-b.
2. Aripov Z.T. Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X–XV asr O‘rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). F.f.d.(DSc) dissertatsiyasi aftoreferati. – T.: 2019-y. 30-b.
3. Aristotel. “Poetika”. – T.: Gafur Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980-y.18-19-b.
4. Баглай В.Ю. Этническая хореография народов мира. Ростов н\Д, изд-во Феникс, 2007 г. С.12.
5. Бахта И.Г.Узбекский танец «Большой Уюн». 2. Введение. Краткие сведения об узбекском танце. Т(В). В 30, №247.
6. Vosifiy Z.M. Badoye’ ul-vaqoe (forsiydan Naim Norqulov tarjimasi). – T.: Gafur Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979-y. 153-b.
7. Климов А.А. Основы русского народного танца. – Москва.: «Искусство», 1981 г. С.29.
8. Заикин Н.И., Заикина Н.А. Областные особенности русского народного танца. – Орел.: 2003 г. С.16.
9. Карамзин Н.В. История Государства Российского. – С пб., 1883–1835, I–XII вв. С.9.
10. Князева У.Н. Пижма Урала. – Свердловск: 1962 г. С.9.
11. Кандиба В.М. Ригведа: Религия и идеология русской нации. – СПб., 1996 г. – 41с.
12. Луска Я.Е. Жизнь в танце. – М.: «Искусство», 1968 г. С.32.
13. Мурашко М.П. Формы русского танца. – М.: 2006 г. С.12–173.
14. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. (Mukammal asarlar to‘plami 13 jild). – T.: “Fan”, 1997-y.
15. Olimboyeva K.T. O‘zbekiston xalq sozandalari (II kitob). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974-y. 93-b.
16. Oripov Z. X–XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T.: 2017-y. 75-b.
17. Rahmonov M. O‘zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. –T.: “Fan”, 1975-y. 43-b.
18. Сидоров В.С. Художественная культура древней Индии. – Москва.: «Наука», 1972-г. С.107.
19. Фольклор и этнография связи фольклора с древними представлениями и обрядами. – Ленинград: «Наука», 1972 г. С.107.

**Erkin JABBOROV,**
**Qarshi davlat universiteti dotsenti**

# SHARQ MINIATYURA SAN'ATI VA UNING PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDAGI O'RNI

**Annotatsiya.** *Maqolada miniatyura san'atining umumiy ma'nosi, boy merosi, miniatyura maktablarini vujudga kelishi va ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz, shuningdek, miniatyura san'atiga hissa qo'shgan taniqli o'zbek rassomlari ijodi haqida ma'lumotlar berilgan. Shu jumladan, maqolada pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga kompozitsion kompetentligini shakllantirish uchun tavsiya va ko'rsatmalar nazarda tutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *san'at, tasviriy san'at, realizm, kreativlik, individuallik, kompozitsiya, shakl, mazmun, ma'naviyat, dunyoqarash.*

# ВОСТОЧНОЕ МИНИАТЮРНОЕ ИСКУССТВО И ЕГО МЕСТО В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

**Аннотация.** *В статье представлена информация об общем значении искусства миниатюры, его богатом наследии, создании школ миниатюры и творениях наших великих предков, а также произведениях известных узбекских художников, внесших вклад в искусство миниатюры. Кроме того, в статье даны рекомендации и указания по формированию композиционной компетентности у будущих учителей изобразительного искусства при организации педагогического процесса.*

**Ключевые слова:** *искусство, изобразительное искусство, реализм, творчество, индивидуальность, композиция, форма, содержание, духовность, мировоззрение.*

# EASTERN MINIATURE ART AND ITS PLACE IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL TRAINING

**Abstract.** *The article provides information about the general meaning of miniature art, its rich heritage, the creation of miniature schools and the creations of our great ancestors and famous Uzbek artists who contributed to miniature art. In addition, the article provides recommendations and instructions for the formation of compositional competence for future visual arts teachers in the organization of pedagogical processes.*

**Key words:** *art, fine art, realism, creativity, individuality, composition, form, content, spirituality, worldview.*

Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnahrda katta shuhrat qozongan. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomoshaqovoq kabilarni bezatishda ham keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan yilga ommalashib bormoqda. Ta'lim oluvchilar ta'limida O'zbekistondagi san'atning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liqligi bosqichma-bosqich rivojlanishi uchun zamonaviy kadrlar tayyorlashda, avvalo, rivjlangan tasviriy san'at turlari va tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

"*Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san'atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo'lgan. Misr qadimdan tasviriy san'at maktablariga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Tasviriy san'at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondashish maqsadga muvofiqdir. Insonlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va hokazolarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazish inson mehnatining san'atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi san'atkorlik namunasidir*"[1].

Miniatyura san'ati, avvalo, qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn an-Nadim hijriy 87-yilda (milodiy 706) ilk bor Samarqandga kelganida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rib hayratga tushgan. Bizgacha saqlangan san'at obidalari, yozma manbalar Movarounnahr va Xurosonda tasviriy san'at o'ziga xos uslub¬da, musavvirlar ijodiyoti xayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, borliqni shakl-shamoyil va rangin ko'rinishini to'la-to'kis ifoda etish tomon rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu jihatdan Kamoliddin Behzod ijodi va u asos solgan miniatyura maktabi (yirik vakillari – Mirak naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib va b.) ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Miniatyurachi rassomlarning ijodida teran falsafiy mazmun, tasavvuf mavzu va g'oyalari o'z aksini topgan. Ayni shu davrda buyuk siymolar (Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur va b.)ning aniqroq

[1] https://fayllar.org/mavzu-chet-ellar-tasvirij-sanat-itish-metodlari.html. Chet ellar tasviriy san'at o'qitish metodlari.

va mukammalroq qiyofalari yaratildi, portret janri rivojlandi, me’moriy obidalar, qo‘lyozma kitoblar hayotiy, maishiy lavhalar, tabiat manzaralari bilan bezatildi.

Bunday ta’lim-tarbiyaning mohiyatini ulug‘ shoir-u yozuvchilar, musavvir ustoz Kamoliddin Behzod, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Samarqandiy, Xondamir, Fariddin Attor, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Pir Said Ahmadlar juda yaxshi bilishgan. Samarqandlik ijodkorlar Pir Said Ahmad va X.Abdulhay kabi rassomlarni Osiyo miniatyurachilari sifatida bilamiz. 1398-yil yaratilgan miniatyuralar “Antigeologiyasi” kitobi Turkiyadagi davlat kutubxonasida saqlanmoqda.

1960-yillarda O‘zbekistonning bir qator rassomlari va xalq ustalari miniatyura san’at turini tiklashga bel bog‘ladilar. Ular orasida taniqli o‘zbek rassomi Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda yosh san’atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G‘ayrat Kamolov, Munira Sotiboldiyevalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, asarlarida Sharq miniatyurasining ko‘p asrlik an’analarini rivojlantirib kelayotgan musavvir Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. Hozirgi miniatyura rassomi Sharq mumtoz miniatyurasining cho‘qqisiga oz bo‘lsa-da, yaqinlashmasdan ijod qila olmaydi. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Respublika rassomlik kolleji va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining bitiruvchilari Bahodir Yo‘ldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyoqubov, Rasul Po‘latov, Abdulla Nazirov, Shorasul Shoahmedov, Sunnatulla Po‘latov, Faxriddin Rahmatullayev, Shoolim Shomansurov, Kamoliddin Mirzayev, Zilola Sulaymonovalar shular jumlasidandir.[2]

Umumiy holda talabalar kompozitsiya yaratish jarayonida tashqi olamni va verbal ma’lumotlarni vizual obrazlar orqali tasvirlashni o‘rganadilar. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida miniatyura asarlari orqali kompozitsion kompetentlikni shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik talablarga amal qilish jarayon optimal tashkil etilishini ta’minlaydi:

1. Miniatyura asarlari orqali kompozitsiyaga doir nazariy ma’lumotlarning kengroq bo‘lishi talabalarda ushbu jarayon haqidagi tasavvurning boy bo‘lishiga yordam beradi.

2. Kompozitsiya va turdosh fanlarning (falsafa, psixologiya, rangtasvir, qalamtasvir, musiqa, adabiyot, raqs san’ati, texnologiya va hokazo) o‘zaro uzviyligi yaratiladigan asarlarning mazmunini ochib berishga ko‘mak beradi.

3. Talabalarning o‘quv biluv faoliyati faolligini, mustaqilligini, ongliligini oshirish.

4. Kompozitsiya o‘quv dasturining boyligi va mazmundorligini oshirish.

5. Miniatyura asarlari orqali kompozitsiya yaratish jarayonida shaxsning motivatsion, intellektual, emotsional, pozitiv xulq-atvor bilan shaxsiy sifatlariga tayanish.

6. Shaxs tafakkurining serqirra faoliyati bilan bog‘liqlikni amalga oshirish.

7. Shaxsning shaxsiy qadriyatlariga tayanish va shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish.

8. Kompozitsiya yaratishga semantik yondashuvni amalga oshirish. Emotsional komponentning mazmun va predmetli komponentlar bilan aloqadorligini ta’minlash.

9. Topshiriqlarni bajarishda kreativlik va individuallikni qo‘llab-quvvatlash.

10. Talabalarga kompozitsiya mazmuni va baholash mezonlarini o‘rgatish.

11. Talabalar refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash va o‘z ustida ishlashga o‘rgatish.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi kompozitsiya kursini o‘rganish natijasida quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘ladi:

- ☑ *turli xildagi tasvirlarni yaratish va ulardan kompozitsiya yaratish amaliyotida foydalana bilish;*
- ☑ *predmetli borliqni dizaynerlik ko‘nikmalari asosida loyihalashtirish;*
- ☑ *kompozitsiya yaratish texnikasi;*
- ☑ *akademik tasvir ko‘nikmalari;*
- ☑ *badiiy modellashtirish ko‘nikmasi;*
- ☑ *kompozitsiyalarni anglash va tahlil qila bilish.*

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kompozitsion kompetentligini shakllantirishda quyidagi tayanch shart-sharoitlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Kompozitsiyalarni tahlil qilishda kompozitsion nazariyaga doir tushunchalarga tayanish lozim bo‘ladi. Ushbu jarayonda mazkur masala tahliliga tizimli, maqsadga muvofiq yondashuv hamda kompozitsiyadagi tahlil talab etiladigan asosiy masalani umumiy holda ko‘ra bilish talab etiladi;

Kompozitsion tahlil namunalaridan asosiy tayanch shablon sifatida foydalanish har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Shu sababli kompozitsion masalalarni hal etishda yangicha yondashuvlarga, muammolarni kreativ yondashuv asosida hal etishga intilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘rinlidir;

Kompozitsion materiallar tahlilida axborot texnologiyalari ma’lumotlaridan hamda kompyuter grafikasidan foydalanish jarayonidagi innovatsion yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Talabalar kompozitsiya bilan ishlash jarayonida quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi:

- ☑ *tahlil etiladigan kompozitsiya namunalarida foydalanilgan kompozitsiya vositalarini aniqlash, ushbu vositalardan foydalanishning umumiy kompozitsion tuzilmaga ta’sirini aniqlay olish;*
- ☑ *kompozitsiyada foydalanilgan shakl va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlay bilish, vositalardan foydalanishning kompozitsiya g‘oyasini ifodalashdagi o‘rnini aniqlay olish, g‘oyalarni ifodalashda zaruriy kompozitsion vositalarni to‘g‘ri tanlay olish;*

[2] https://jdpu.uz/lakli-miniatura-sanatining-rivojlanishiga-hissa-qoshgan-usta-rassomlar/

- *kompozitsiyalar tahlili asosida kompozitsiya tuzish dinamikasini aniqlash, kompozitsiya ishlash algoritmini ishlab chiqish;*
- *kompozitsion vazifalarni amalga oshirishda optimal bo‘lgan kompozitsiyani tanlash, tahlil qilish va foydalanishda perspektiv bo‘lgan yo‘llarini belgilay olish;*
- *kompozitsiyaga doir eskizlarni tayyorlash, belgilangan vazifalar va kompozitsiya g‘oyasiga mutanosib bo‘lgan qulay variantni tanlash;*
- *tayyorlangan shaxsiy kompozitsiyasini tahlil qila bilish, tanqidiy baholash, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash.*

Talabalarni kompozitsiyalar tuzishga o‘rgatishning asosiy shartlaridan biri qulay ijodiy muhit hisoblanadi. Bunday muhit talabalarga erkin ijod qilish bilan bir qatorda kompozitsiyaga doir bilimlar, dunyoqarash hamda borliq haqidagi yaxlit kompozitsion tasavvurni hosil qilishga yordam berishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasida o‘rnatilgan kommunikatsiyaviylik ham ularning ijodkorligini o‘stirishga, san’atda o‘z yo‘lini tanlashga, dunyoqarashini kamol toptirishga, tashqi olam haqida yaxlit tasavvurini tarkib toptirishga yo‘naltirishi lozim. Kompozitsion kompetentlikni rivojlantirishda har bir ishtirokchining individual xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki har o‘quvchi, har bir talaba o‘quv materialini o‘zlashtirishda tafakkur, psixologik xususiyatlar, borliqni emotsional his etishda, xotirasi, badiiy-ijodiy faoliyatida o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi.

Kompozitsion tafakkurning shakllanish jarayoni maxsus jihozlngan va tashkil etilgan muhitda samarali kechadi. Bunday o‘quv xonalari maxsus video jihozlar, kompyuter texnologiyalari, maxsus yoritgichlar bilan jihozlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: “Bayoz”, 2017-y. 160-b.

2. Jabborov.E.X. Kompozitsiya. – T.: “Innovatsiya-ziyo” 2021-y.154-b.

3. Jabborov E.X. In volume 8 of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) May 2022. The Impact of the Unity of Form and Content in the Visual Arts on Human Spirituality Page-51.

4. Jabborov E.X. Tasviriy san’at ta’limiga kompetensiyaviy yondashuv mazmuni. // Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasini o‘rni (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). – Qarshi: 2022-y. 353-354-b.

5. Jabborov E. “Kompozitsiya asoslari va qonun-qoidalari”. “Xalq ta’limi” ilmiy metodik jurnal, 2021-y. №6. 102–107-b.

6. Jabborov E. “Tasviriy san’atdagi shakl va mazmun birligining shaxs ma’naviyatiga ta’siri”. “Xalq ta’limi” jurnali, 2023-y. №4. 47–50-b.

7. Jabborov E. “Rassomlarning kompozitsiya haqidagi fikr-mulohazalari va tahlili”. “Mug‘allim hem uzliksiz Bilimlenirio” ilmiy- metodologik jurnal, –Nekus: 2021-y. № 4/1. 84–93-b.

8. Hasanov R. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – T.: 2004-y.

9. Shabaratov P.P. Miniatyura. – T.: “Tafakkur”, 2011-y. 128-b.

**Muqaddas KARIMOVA,**
**Respublika musiqa va san'at kolleji bosh o'qituvchisi,**
**O'zDSMI mustaqil izlanuvchisi**

# FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARNI SHAKLLANTIRISHDA PROFESSIONAL REJISSURA VA REJISSYOR MAHORATI

**Annotatsiya.** *O'zbek urf-odat va an'analari eng qadimgi davrdan boshlab, hozirgi kunimizgacha xalqning madaniy etnik boyligi sifatida folklor san'atida namoyon bo'lib kelmoqda. Mazkur maqolada, folklor-etnografik tomoshalarni yuqori saviyada tashkil etishda rejissura san'atining o'rni xususida so'z ketadi.*

**Kalit so'zlar:** *folklor, etnografiya, bayram, tomosha, rejissura, urf-odat, tadbir, marosim, an'ana, ijod.*

# РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЖИССУРЫ И НАВЫКОВ РЕЖИССЕРА В ФОРМИРОВАНИИ ФОЛЬКЛОРНО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ АНСАНБЛЕЙ

**Аннотация.** *Узбекские обычаи и традиции проявляются в фольклорном искусстве как культурном этническом богатстве народа с древнейших времен и до наших дней. В этой статье рассказывается о роли режиссера в организации фольклорно-этнографических представлений на высоком уровне.*

**Ключевые слова:** *фольклор, этнография, праздник, представление, направление, традиция, событие, церемония, предание, созидание.*

# THE ROLE OF PROFESSIONAL DIRECTING AND THE SKILLS OF DIRECTORS IN THE FORMATION OF FOLK AND ETHNOGRAPHIC GROUPS

**Abstract.** *Uzbek Customs and traditions have been manifested in the art of folklore as a cultural ethnic wealth of the people since the earliest times, until the present day.This article talks about the role of director Santi in the organization of folklore-ethnographic performances at a high level.*

**Key words:** *folklore, ethnography, celebration, spectacle, direction, tradition, event, ceremony, creation.*

Rejissyor o'z talqini bilan tomoshabinlarning tasavvurini hamda tafakkurini qo'zg'aydigan, badiiy tuyg'ularini boyitadigan, o'z donishmandlik darajasini nomoyon qiladigan ijodkordir. Shuning uchun bo'lsa kerak mashhur rejissyor va aktyor, teatr san'ati pedagogi K.S.Stanislavskiy teatr san'ati ixlosmandlariga: *"Do'stlarim, san'at koshonasiga qadam qo'yar ekansiz, unga kirishdan oldin hayotning bema'ni ikir-chikirlaridan xoli bo'ling, unga eng yaxshi insoniy tuyg'u va fikrlar bilan kirishing"* [1], – deb ta'kidlagan fikrida, sahna san'atining muqaddasligiga hamda ijodkorlik tomoshabinlar oldidagi mas'uliyatdan iborat ekanligiga urg'u bergan. Demakki, tomosha san'atining barcha turlarida g'oyaviy ta'sirchanlikni oshirish, to'laqonli badiiy asar yaratish, uni namuna darajasida xalqqa havola qilish rejissyordan kasbiy bilim va mahorat talab qiladi.

Folklor-etnografik tomoshalarni yuqori saviyada tashkil etish, milliy urf-odatlarni biladigan rejissyordan yuqori malaka va bilim talab qiladi. Sababi, bir hududni ikkinchisidan ajratib turgan urf-odatini, o'ziga xos shevasini, yashash tarzini, liboslari hamda raqs harakatlaridagi farqni folklor jamoasining rejissyori yaxshi bilishi zarur. Aks holda tabiiylikni, o'sha hududni faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini bir-biri bilan qorishtirib, havaskorlik darajasidagi xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Folklor-etnografik tomoshalar rejissyori o'zining ijodkorlik qudratini ijodiy jamoa a'zolarining faqat o'ziga xosligini namoyish eta olganda ko'rsatadi. Rejissyorning ijodkorlik qudratini anglagan folklor jamoasi a'zolari o'ziga berilgan vazifani tomoshabinga to'laqonli, rang-barang, estetik tomondan go'zal ijrosi orqali yetkazib berish uchun u bilan hamkorlikda ijod qiladilar. Shunday birdamlik natijasidagina sog'lom ijodiy muhit yuzaga keladi. Folklor-etnografik tomoshalar rejissurasi, deganda ijrodagi ifoda vositalaridan to'g'ri foydalanish, tomoshaga taalluqli barcha elementlarni ijodiy tashkil etib, garmonik jihatdan badiiy yaxlit asarni vujudga keltirish tushuniladi. Demak, folklor tomoshasining sahnaviy talqiniga rejissyor o'zining badiiy tasavvuri, ijodiy jamoaning barcha qatnashchilari qobiliyatidan to'g'ri foydalanish natijasida erishadi. Shuning uchun rejissyor yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, boshqaruvchi, folklor materialini jamoa a'zolari ijrosi orqali ijodiy talqin qiluvchi shaxs hisoblanadi.

Folklor san'ati xalq orasidagi iqtidorlilarni aniqlab, ular ijodini targ'ib qilib kelayotgan tomosha turidir. Shuning uchun ham u radio, kino, televideniye kabi ommaviy targ'ibot orasidagi raqobatda o'zini jonli ijro uslubini yo'qotmasdan kelmoqda. Folklor san'atini xalq orasidagi suyukligining boisi shundan iboratki,

jamoaning jonli ijrodagi ijodiy jarayoni tomoshabinning guvohligida sodir bo'lishi va jamoa yutug'i uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, folklor-etnografik jamoa a'zolaridan o'z navbatida aktyorlik mahorati talab qilinadi. Demak, har bir jamoa a'zosi, ya'ni aktyorning mahorati ijro etayotgan qo'shiq yoki raqsi asosida jismoniy va ruhiy tabiati bilan sahnada badiiy qiyofa yarata olsa, bu ijro butun jamoaning muvaffaqiyati hisoblanadi. Folklor-etnografik tomoshalar aktyori ijodining o'ziga xosligi, u bir vaqtning o'zida ijod qiladi va bu ijodga o'zi material hisoblanadi. Ijodning obyekti ham, subyekti ham o'zi. Shuning uchun barcha san'at turlaridan o'zgacha hisoblangan folklor ijrosi har bir aktyorning jussasi, ovozi, aql-idroki va tuyg'ulari natijasidir.

Agar barcha san'at turlarida yaratuvchining ijod mahsuli uning muallifi bu dunyodan o'tib ketgandan keyin ham yashasa, masalan: haykaltarosh, rassom, bastakor, dramaturg va boshqalarning yaratgan asarlari saqlanib qolsa, hamda aktyor uni qayta tiriltirsa, bunday ijod mahsuli tomoshabinning xotirasida yashaydi. Folklor aktyori ijrosidagi o'ziga xoslik faqat uning o'ziga xos, uning bunday takrorlanmas jihatini o'zi bilan olib ketadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jonli ijro folklor ijrochisining ruhiy holatiga, tabiatiga, atrofini o'rab turgan muhitga bog'liqligi bilan bir-biridan farq qiladi. Sababi, ijodkor ijro qilayotgan muhitda sodir bo'layotgan voqeadan ta'sirlanadi, xulosa chiqaradi, o'zgaradi. Folklor ijrosida jonli tomoshaning go'zalligi ham, fazilati ham, boshqa san'at turlaridan tafovuti ham shunda.

Folklor san'ati aktyori, rejissyorning fikr va istaklarini o'z tasavvuri, tafakkuri hamda mahorati orqali amalga oshiradi, tomoshabinlar bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lib, ularni asardagi voqealar olamiga olib kirib, fikrlashga, o'ylashga, mulohaza yuritishga sababchi bo'ladi. Mahoratli aktyor tomoshabinlarni musiqa, qo'shiq, raqs orqali jamoaning badihago'ylikdagi ijrosiga jalb qiladi. Bunday tomoshalar rejissyorining maqsadi, tadbir qatnashchilarini majburan qo'shiq aytishga yoki raqs tushishga undash emas, balki bu ijro asosi bo'lgan folklorga, an'anaviy xalq ijodiyotiga ommani qo'shilish istagini o'yg'ota olishdan iboratdir. Bu istaklar oldindan tomosha ssenariysiga hamda rejissyor g'oyasiga kiritilib, jamoaning har bir ishtirokchisi faol harakatlanishi uchun "improvizatsiya orolchasini" yaratib, har bir tomoshabin imkoniyatini his qilib, folklor raqsiga yoki qo'shig'iga qo'shilib, o'z qobiliyatini ko'rsata olish imkoniyatini yaratib berishdan iborat. Bu borada bayramshunos olim M.Kagan quyidagicha fikr bildiradi: *"Musiqaning, raqsning maishiy shakllari, hayotning u yoki bu holatlarida insonlarni guruhda emotsional jihatdan o'zlarini tuta olishlari, aynan shu damdagi umumiy kayfiyatlari, ma'naviy holatlariga oriyentatsiya qiladilar"* [2]. Demak, folklor-etnografik tomoshaning g'oyaviyligi hamda mavzusi ma'naviyati jihatdan yuksak bo'lsa, uni ijro etish aktyorning tajriba va mahoratini namoyon qila oladi hamda badiiy yaxlit sahna asarini yuzaga keltiradi.

Mahorat bu – shaxsning layoqatlilik va qobiliyatlilik imkoniyatining oliy cho'qqisidir. U shaxsning mehnatsevarligi tufayligina vujudga keladi va rivojlanadi. Haqiqatan ham fiziologik layoqatlilik bo'lsa-yu, lekin mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, matonatlilik bo'lmasa, u holda mahorat masalasi quruq safsataga aylanadi. Isonning erishgan barcha katta-kichik muvaffaqiyatlari hayotning qaysi sohalarida bo'lmasin, baribir o'sha soha mehnati bilan bog'liq hodisadir. Iste'dod va mehnat qilish qobiliyati uyg'unlik bilan egizak bo'lmog'i lozim. Qobiliyat bo'lmasa, ijod bo'lmaydi. Ijodsiz qobiliyatni tasavvur etish mumkin emas. Bu borada K.Stanislavskiyning quyidagi fikrlari o'rinlidir: *"Sahna san'atining chinakam cho'qqisini zabt etish uchun aktyordan 99 foiz mehnat va tabiat tomondan berilgan yana "nimadir" talab qilinadi"* [3]. Demak, folklor jamoasi qobiliyati va mahorati ham ijtimoiy hodisa bo'lib, uni mehnatsevar shaxs badiiy obrazlar, hissiy tuyg'ular orqali emotsional tarzda aks ettiradi va tomoshabinlarga g'oyaviy-estetik ta'sir etadi.

Folklor-etnografik tomoshalar rejissyori musiqiy savod sohibi bo'lishi lozim. *"Ommaviy bayram va tomoshalar rejissyori zimmasiga teatr rejissyoriga qaraganda katta mas'uliyat, javobgarlik yuklatiladi"* [4], – deydi professor I.G.Sharoyev. Ommaviy tadbir rejissyori ishtirokchi guruhlarning tayyorgarligini, ularning ijro imkoniyatlarini bilmog'i lozim. Shuningdek, ularning repetitsiyaga kelishi, ko'p sonli jamoalarning transportda kelib ketishi, tomosha o'tkaziladigan binoga joylashtirilish jarayoni ham uning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Agar shu kabi tashkiliy jihatlarga e'tibor berilmasa, tadbirning badiiy sifatiga putur yetadi. Demak, rejissyorning ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalardagi folklor guruhlari bilan ishlashini qonuniy jihatdan ijodiy hamda tashkiliy ish, deb ta'kidlash lozim. Folklor-etnografik guruhi rejissyorining tashkiliy tayyorgarlik ishi uch yo'nalish bo'yicha belgilanadi.

**Birinchidan,** harakat o'tadigan joyni aniqlash, repetitsiya o'tkazish maydoni aniq bo'lsa, uni diqqat bilan o'rganish lozim. Shuningdek, rejissyor, albatta, rassom bilan maydon kengligini, arxitekturasini o'rganib chiqib, harakat o'tadigan joy kattaligini o'lchab chiqishi kerak. So'ngra, sekundomer bilan bloklar harakatlanadigan yo'llarni, qanday tezlikda harakat qilish kerakligini aniqlashi lozim. Bayram o'tadigan kun bo'yicha ob-havoning statistik ma'lumotlarini, quyoshning chiqishi va botishi ta'sirida o'tadigan tadbir uchun oyning chiqishini, shamolning kuchi qanday, uning yo'nalishini ham aniqlash kerak.

**Ikkinchidan,** mahalliy dalillar uchun rejissyor tomosha bo'lib o'tadigan joy bilan bog'liq barcha tarixiy voqealarni o'rganish uchun adabiyotlar, muzey materiallari, fotosuratlar, hujjatlar, kinofilmlar bilan tanishib chiqish lozim.

**Uchinchidan,** rejissyor qanday ijodiy jamoalar va mablag'ga tayanishi mumkinligini aniqlashi lozim. Shuningdek, badiiy havaskorlik jamoalari va ularning repertuari, sport seksiyalari, bolalar jamoalari, ular foydalanadigan mahalliy sanoat ishlab chiqaradigan mahsulotlar beriladigan transportlarning soni va

turini bilishi ham talab qilinadi. Tadbir rejissyorining mana shu kabi tashkilotchilik qobiliyati bilan bogʻliq oldindan qiladigan ishi natijasida boʻlajak bayram tomoshasining obrazi, umumiy rivoji, shakli va sahnaviy hal etish prinsiplari yaqqol koʻrina boshlaydi. Bularning hammasini tadbir rassomi bilan maslahatlashib, boʻlajak tomoshaning ssenariysi asosida sahnalashtirish rejasi eskizining qoralamasi tayyorlanadi.

Tashkilotchi va badiiy ijod rejissyorining keyingi ishi, bu bayramni oʻtkazish qoʻmitasi bilan hamkorlikdir. Bu qoʻmita tarkibiga hokimiyat, kasaba uyushmalari, yoshlar ijtimoiy harakati, madaniyat ishlari boshqarmasi, oziq-ovqat, transport, xavfsizlik, oliy taʼlim, xalq taʼlimi vakillari kiradi. Chunki tashkiliy qoʻmitaning yigʻilishlarida rejissyor uchun zarur boʻlgan barcha tashkiliy masalalar hal etilib, boʻlajak vazifalar rejalashtiriladi.

Tadbirni sahnalashtirish guruhi tarkibiga asosiy mutaxassislardan tashqari quyidagi ijodkorlar kiradi: *sahnalashtiruvchi rejissyorlar; maydonni bezash guruhi; baletmeystrlar guruhi; xormeysterlar guruhi; musiqashunoslar guruhi, cholgʻuchilar guruhi va tashkilotlardan iborat.*

Sahnalashtiruvchi rejissyorlar – ular janrlar boʻyicha pantomima, sirk epizodlari, sport chiqishlari, bolalar nomerlaridan iborat; alohida bloklar – prolog va final, estrada bloki, tarixiy blok, marosimlar bloklari; sahnalashtiruvchi rassomlar – kostyumerlar, qoʻgʻirchoqlar, butaforiya va rekvizitorlar; maydonni bezash guruhi: sahnalashtiruvchi, baletmeysterlar – xoreografik janrlar boʻyicha, klassik balet, bal raqsi, milliy raqslar, estrada raqslari bloki; xormeysterlar – akademik xor, xalq xori, bolalar xori jamoasi; dirijyorlar – puflama orkestr, simfonik, estrada, milliy xalq cholgʻulari orkestrlari rahbarlaridan iborat boʻladi.

Oʻtkazilayotgan bayramning yoki tadbirning masshtabiga qarab har bir yoʻnalish ijodkori oʻziga bir nechta yordamchilar olishi mumkin. Masalan, rejissyor yordamchilari va assistentlari, sport turlari boʻyicha trenerlar, maketchi va bajaruvchi rassomlar, kostyumlar boʻyicha muhandis va ustalar, balet va vokal boʻyicha konsertmeysterlar roʻyxati tuziladi. Ishlab chiqarish texnik xodimlar esa chiroq ustalari – yorituvchilar, yoritish sxemalarini tuzuvchilar; ovoz rejissyorlari, kino-video rejissyori; badiiy-sahnalashtirish boʻlimi boshliqlari uchun yordamchi xodimlar olishi mumkin. Demak, har bir yoʻnalishda oʻzining yordamchi va assistentlari, yorituvchi – elektrik, ovoz yozish operatorlari va texnik radistlar, kino va video montajchilari, sahna mashinisti, dekoratsiya montajchilari, butafor va rekvizitorlar, kostyumerlar, pardozchilar va ularni boshqaradigan rahbarlar tayinlanadi. Ular maʼmuriy-tashkiliy xodimlar deb nomlanadi. Tarkibi esa direktor oʻrinbosari – transport va texnik taʼminot; maʼmurlar; moliyachi; kassir; taʼminotchi ekspeditorlar; ombor boshliqlari; kompyuter operatoridan iborat boʻladi.

Mualliflik guruhi ham alohida tasdiqlanadi. Ular ssenariy muallifi, poetik matnlar, boshlovchilarning publitsistik matnlari, shiorlar, bayram uchun maxsus yozilgan qoʻshiqlar mualliflari, kompozitorlar dasturning adabiy muharriri, musiqiy muharrir, jamoalar konsert nomerlarini tanlovchi muharrirdan iborat ijodiy guruhdir.

Xulosa shuki, har bir rejissyor bilan hamkorlikda ijod qilgan guruhning boʻlishi katta ahamiyatga ega. Chunki bunday ijodiy jamoani rejissyor bilan hamkorlikda tadbirning gʻoyasini ifodalab, uni rivojlantirib, badiiy mukammallashtirishga yordam beradilar. Ommaviy bayram va tomoshalarda ishtirok etishga folklor guruhlarning bir maqsad sari intilishi, yaratilajak tomosha rejissurasining badiiy saviyasini kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Stanislavskiy K. Aktyorning oʻz ustida ishlashi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010-y. 78–80-b.
2. Каган М. Социальные функции искусства. – Ленинград: «Искусства», 1978 г. С.19.
3. Шароев И. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Москва: «Просвещение»,1986 г. С.97.
5. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2009-y. 16-b.

**Zilola SHUKUROVA,**
**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi**
**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti**

# MUHAMMAD HAYDAR AYOZIYNING “TARIXI RASHIDIY” ASARI VA UNING QO‘LYOZMALARI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada “Tarixi Rashidiy” asarining qo‘lyozmalari, uning boy tarixi, adabiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarning turli tarjimonlar tomonidan bir necha tillarga tarjima qilingani, dunyoning o‘ndan oshiq davlatlarida turli inventar raqam ostida saqlanib, jahon olimlarining bu asarga yuksak baho berib, uni e’tirof etishlari ochib beriladi. O‘rta Osiyoning tarixi, madaniy hayoti, jug‘rofiyasi haqida so‘zlovchi yagona tarixiy-memuar asar ekanligi ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *qo‘lyozmalar, tarixiy asar, mashhur adiblar, XVI asr hayoti, tarixnavis, tarjimalar.*

# «ИСТОРИЯ РАШИДИ» МУХАММАДА ХАЙДАРА АЁЗИ И ЕГО РУКОПИСИ

**Аннотация.** *В данной статье анализируются рукописи «Истории Рашиди», ее богатая история, литературное и культурное значение. Выявлено, что произведение было переведено на несколько языков разными переводчиками хранится под разными инвентарными номерами в более чем десяти странах мира и мировые ученые дают этому труду высокую оценку и ценят его. Отмечается, что это единственное историко-мемуарное произведение, рассказывающее об истории, культурной жизни и географии Центральной Азии.*

**Ключевые слова:** *рукописи, исторический труд, известные писатели, быт XVI века, историк, переводы.*

# MUHAMMAD HAYDAR AYOZI'S "TARIKHI RASHIDI" AND HIS MANUSCRIPTS

**Abstract.** *This article analyzes the manuscripts of "Tarikhi Rashidi", its rich history, literary and cultural significance. It is revealed that the work has been translated into several languages by different translators, that are kept under various inventory number in more than ten countries of the world and the world scientists give high evaluation to this work and value it. It is noted that it is the only historical-memoir work that talks about the history, cultural life and geography of Central Asia.*

**Key words:** *manuscripts, historical work, famous writers, 16th century life, historian,translations.*

O‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan biri Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy 1499–1551-yillarda yashab ijod etgan va o‘zining nodir asari **“Tarixi Rashidiy”**ni buyuk meros qilib qoldirgan. Asar 1541–1546-yillarda fors tilida yozilgan tarixiy-memuar asar bo‘lib, Xoja Muhammad Sharif tomonidan fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Mirzo Haydarning **“Tarixi Rashidiy”** asari bir necha olimlar tomonidan o‘rganilib, XIV–XVI asr Markasiy Osiyo, jumladan, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston, qisman Tibatning davlatchilik tizimi, madaniy hayoti, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro munosabatlari, shu bilan birga jug‘rofiyasi, etnografiyasi, etnogenezi, tabiati, shu o‘lkada yashab ijod etgan o‘sha davrning mashhur insonlarini o‘rganishda tarixiy hujjat sifatida e’tirof etadi.

O‘rta Osiyo tarixiga oid Mirzo Muhammad Haydarning **“Tarixi Rashidiy”** asari XVI asrning ajoyib yodgorligi hisoblanib, ilmiy jabhalarda keng tanilgan va hozirgacha olimlarning diqqat-e’tiboridagi bir mashhur asardir. Ushbu asar hozirgi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa hududlarni o‘z ichiga qamray olgan va ulkan hudud tarixiga oid manba sifatida beqiyos ahamiyatga ega.

Mirzo Muhammad Haydar o‘zining ***“Tarixi Rashidiy”*** asarini yaratishda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sidan ilhomlangan va Yoqut Hamaviyning ***“Mujam ul-buldon”***[1], Juvayniyning ***“Tarixi Jahonkushoy”***, Rashididdinning ***“Jome ut-tavorix”,*** Jamol Qarshiyning ***“Mulhaqot us-suroh”,*** Sharafuddin Ali Yazdiyning ***“Zafarnoma”***[2], Mirzo Ulug‘bekning ***“Tarixi arba’ ulus”***[3] va Abdurazzoq Samarqandiyning ***“Matla’ us-sa’dayn”***[4] va boshqa olimlarning asarlaridan keng foydalangan va muallif o‘zi o‘sha davrning barcha

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Yoqut_Hamaviy

[2] Шарафаддин Али Иазди.Зафар-наме. / Подготовка к печати, предисловие, примечания и указатели А.Урунбаева. – Ташкент: 1972.

[3] Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. B.Axmedov kirish so‘zi, izoh va tahriri ostida (fors tilida).

[4] Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai baxrayn (II jildlik). Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi Asomiddin O‘rinbayev. – T.: 2008.






jabhalarini qamrab oluvchi tarixiy-adabiy asarni yozib qoldirgan.

Asar ikki daftardan iborat bo‘lib, birinchi daftar Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda o‘tgan Chingizxon, Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur avlodlarining XVI asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr tarixi, sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hamda Boburiylar, shu bilan birga, Shayboniylar, Amir Husayn, dug‘lot amirlari ulus beklarining faoliyatlari haqida ma’lumot bersa, ikkinchi daftar esa Mirzo Haydarning sarguzashtlari, kechmishlari, zamonasining buyuk siymolaridan eshitganlarini qayd qilib borgan, haqiqiy dalillar bilan yozilgan kundalik yoki xotira daftari, desak adashmaymiz.

**“Tarixi Rashidiy”** asarida muallif Markaziy Osiyo madaniy hayoti, o‘sha davr namoyandalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, mamlakatda yashab o‘tgan ulamo, mashoyixlar, mutafakkir olimlar-u shoirlar, musavvir, xattot, naqqosh va hunarmandlar haqida ajoyib bibliografik ma‘lumotlar keltirilgan. Mavlono Sa’duddin Taftazoniy (1322–1392), Xoja Alouddin Attor (vafoti 1400), Xoja Abdulloh Marvorid, Shayx Muzaffar Mir Jaloliddin Muhandis, Mir Muhammadiy, Mir Yusufiy (vafoti 1543-1544), Sayfiy, Ohiy, Ahliy, Firoqiy kabilar shular jumlasidandir[5]. Yuqoridagilarni o‘qib aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining har bir jabhasida juda buyuk darg‘alari va boy madaniyati bo‘lgan.

Ushbu tarixnavis olim yuqorida sanab o‘tilgan millatimizning buyuk insonlari haqida juda boy tarixiy merosni bizgacha qoldirgan va yaqqol ko‘rinib turibdiki, bu tarixiy-memuar asar bir necha asrlardan beri o‘z qadrini yo‘qotmay yashab kelmoqda. Mamlakatimizning hali ko‘plab ilm ahli va yosh tadqiqotchilarimiz bu tarixiy asar ustida minglab izlanishlar va tengsiz tadqiqlar olib borishi tayin.

**“Tarixi Rashidiy”** asari turkiy tarjimasining 10ta qo‘lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular turli ko‘rinishda, ba’zilari to‘liq va ayrimlari to‘liq bo‘lmagan nusxalarda mavjud, ularning yettita nusxasi Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi qo‘lyozmalar fondida:1-D 120 (590oe), 2-D 121 (590of), 3-D 122 (590o), 4-D 138 (590o), 5-D 0192, 6-C 569 (590oe), 7-C 570 (590od) tartib raqamida saqlanmoqda[6].

**“Tarixi Rashidiy”**ning birinchi qo‘lyozmasi D 120 (590oe) raqamli qo‘lyozma asarning birinchi daftarining turkiy tarjimasidir. Qo‘lyozma muqaddimasida tarjima Xo‘tan hokimi Muhammad Aziz Vong farmoni bilan nasr va nazmda bajarilgani haqida izoh va ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, 1837-1838-yillari Muhammad Niyoz ibn Abdug‘afur asarni fors tilidan turkiy tilga tarjima qilgani va Aziz Vongga bag‘ishlangani haqida yozib qoldirgan. Bu qismning tarjima sanasi yo‘q, lekin IV qismda tarjima sanasi 1253-yil va 1252-yilning xronogrammasi berilgan. Tarjimon aytishicha, muallifning o‘zi asarda berilgan Qur’on suralaridagi oyatlarning ma’nosini va hadislarni fors tiliga tarjima qilgan va Muhammad Haydar tomonidan fors tiliga o‘girilmagan arab tilidagi qiyin she’rlarni tarjima qilmay qoldirib ketgan. Boshqa taniqli shoirlardan olingan yoki muallif o‘zi yozgan she’rlar matnda ko‘rsatilgan shaklda joylashtirilgan va boshqa she’rlar esa iloji boricha turkiy tilga tarjima qilingan.

Qo‘lyozma muqovasida ikkita xon muhri bo‘lib, birinchisini bo‘yalgani sabab o‘qib bo‘lmaydi, ikkinchisida esa 13ta kichik gulbargli surat, tepasida teng qirrali uchburchak shaklidagi tasvir va quyidagi arab yozuvidagi so‘zlar bor: *“Shahzoda Aziz, Allohning marhamati bilan, shoh taxtida abadiy bo‘l, 1252/1839-40 yil”.* Muhrning yuqori qismida Qur’onning 112-surasi yozilgan va uning markazida Aziz Vongning buyrug‘i bilan bo‘lgani uchun uning nomi yozilgan. Qo‘lyozma sharq qog‘ozida yozilgan bo‘lib, qizil charm bilan qoplangan, naqshlangan hamda qattiq karton bilan muqovalangan. Qo‘lyozmaning bichimi 37x23 sm., matni qora siyohda, har varag‘iga 15 qatordan yozilgan, jami 111 varaq, sarlavhalari esa qizil siyohda chiroyli nasta’liq xatida yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu nusxa ham **“Tarixi Rashidiy”**ni turkiy tarjimasining to‘la bo‘lmagan nusxasidir.

**“Tarixi Rashidiy”**ning ikkinchi hisoblangan D 121 (590of) raqamli qo‘lyozma III va IV qism(rukn)larining Muhammad Niyoz tomonidan 1253/1837-38-yilda

[5] Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, tabdil, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi t.f.n. O.Jalilov. – T.: “O‘zbekiston”, 2011-y. 4-b.

[6] Мугинов А.М. Описание Уйгурских рукописей института народов Азии. – Москва: «Восточной литературы», 1962 г. С.37–44.

oʻgirilgan turkiy tarjimasidir. Bunda ham tarjimon ismi berilmagan, lekin D 192 raqamli qoʻlyozma maʼlumotlaridek bir xil. Bogʻlamning chap tomonida mum muhr bor, undan faqat bir qismi saqlanib qolgan va undagi arabcha yozuvni oʻqilishi qiyin. Bu kitob muqovachining muhriga oʻxshaydi, chunki kitobchilarning muhrlarida shunday yozilgan. Qoʻlyozmaning har varagʻi 15-18 qatordan yozilgan va qogʻozi qalinroq sharq qogʻozi boʻlib, uning bichimi 38x26sm., matnining bichimi 25x18sm.

**"Tarixi Rashidiy"**ning uchinchi hisoblangan D 0192 raqamli qoʻlyozmasi asarning IV qismining turkiy tarjimasidir. Uni Xoʻtan hokimi Muhammad Aziz Vongning farmoni bilan Muhammad Niyoz oxund Niyoziy hijriy 1253-yil (1837-1838)da fors tilidan turkiy tilga tarjima qilgan va oʻz qoʻli bilan yozib chiqqan. Ushbu qoʻlyozmaning muqovasida ham oldingilari kabi xonning ikkita muhri boʻlib, biri D120 raqamli qoʻlyozmadagidek bir xil, ikkinchisi esa tarjima qilishni buyurgan Azizbekning muhri boʻlib, muhr atrofida Qurʼondan oyatlar yozilgan. Xattotlik va boshqa maʼlumotlarga keladigan boʻlsak, qoʻlyozma chiroyli nastaʼliq xatida, sifatli mahalliy qogʻozga, matn qora, mavzulari qizil siyohda yozilgan. Qizil charm bilan muqovalangan qoʻlyozmaning varaqlari naqshlangan va uning bichimi 38x34 sm., matnining bichimi esa 26x14 sm., har varagʻida 15 qatordan yozilgan[7].

V.D.Smirnov ushbu qismning tarjimoni nomaʼlum deb taxmin qilgan boʻlsa, boshqa dalillar uning tarjimoni Muhammad Niyoz ibn Abdugʻafur ekanligini isbotladi. Dalillarga koʻra, birinchi qismidagi muqaddimaning uch oʻrinda ham baytda bir xil taxallus uchraganligi buni tasdiqlaydi. D120 raqamli qoʻlyozma asarning I qismi, D121 (590of) raqamli qoʻlyozma asarning III–IV qismlari, D192 raqamli qoʻlyozma asarning IV qismi xuddi shu qoʻl yozuvi bilan yozilgan, I va IV qismlar bir xil bogʻlamda va har ikkisida ham Muhammad Azizbek xon muhri mavjud, bundan tashqari tarjima sanalari (1253-y.) muhrlar sanalariga (1247-y., 1252-y.) toʻliq mos tushadi. Bundan tashqari xattot ismi berilmagan, tarjimon ham, xattot ham Muhammad Niyoz ibn Abdugʻafur oʻzi, deb hisoblanadi.

Asarning toʻrtinchi qoʻlyozmasi D122 (590od) raqamli qoʻlyozma turkiy tildagi toʻliq boʻlmagan tarjimasidir. Ammo asarning bu nusxasini kim tomonidan tarjima qilingani nomaʼlum, lekin Muhammad Niyoz tarjimalariga juda yaqin. Tarjimaning tugash sanasi 1253/1837-38-yil, qurbon oyining 1-sanasi, chorshanbasiga mos keladi. Asar 4 qism (rukn)ga boʻlingan holda qisqartirib oʻgirilgan, tartibsiz oʻralgan, turli xil qoʻl yozuvida turli formatdagi xitoy qogʻozida yozilgan. Qoʻlyozma qogʻozining bichimi 38x26 sm, qalinroq sharq qogʻozi boʻlib, matnining bichimi 25x18 sm, har varagʻiga 15-18 qatordan yozilgan. Olimlarimiz tarjimaning ayrim joylari qoʻlyozmaning boshqa nusxalari hisoblangan C 569, D 138 raqamli qoʻlozmalari tarjimalariga oʻxshash, degan bir fikrga toʻxtalishadi. Mazkur qoʻlyozma ham naqshlangan qizil charm qoplangan qattiq muqovali, mahalliy va xitoy qogʻoziga, nastaʼliqda chiroyli, oʻrtacha va xunuk xatlarda, bir varagʻiga 19dan 23 qatorgacha yozilgan, jami 212 varaqdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu noyob asar oʻzbek xalqining naqadar boy tarixga ega ekanligi, yosh avlodlarimizning tarixiy ongini rivojlantirishga, oʻzligimizni anglashga, milliy gʻururimizni shakllantirishga, tarixiy xotirani yanada teranroq tiklashga, xalqimiz tarixini yanada boyitishga katta hissa qoʻshadi.

---

[7] Мугинов А.М. Описание Уйгурских рукописей института народов Азии. – Москва: «Восточной литературы», 1962 г. С.37–44.

# IV BO‘LIM
# PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

**Ольга ВАСИЛЬЧЕНКО,**
**к.п.н., и.о. профессора кафедры «Вокал»**

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РЕПЕРТУАРА В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ЗАНЯТИЙ В КЛАССЕ ХОРОВОГО ДИРИЖИРОВАНИЯ

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается проблема репертуара, его педагогическое и воспитательное воздействие на студентов в процессе учебных занятий. Дополняются методами, принципами и ролью самостоятельной работы, которые влияют на осознание студентом требований к изучаемым произведениям в классе дирижирования.*

**Ключевые слова:** *репертуар, учебно-воспитательный процесс, дирижирование, воспитание личности, принципы, методы.*

## XOR DIRIJYORLIGI DARSIDA TALABALARNING INTELEKTUAL RIVOJLANISHIDA REPERTUARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada repertuar muammosi, uning dars jarayonida talabalarga pedagogik va tarbiyaviy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ular mustaqil ishning usullari, tamoyillari va roli bilan to‘ldiriladi, bu talabaning dirijyorlik sinfida o‘rganilayotgan ishlarga qo‘yiladigan talablarni bilishiga ta’sir qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *repertuar, o‘quv jarayoni, dirijyorlik, shaxs tarbiyasi, tamoyillar, usullar.*

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE REPERTOIRE IN THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS DURING CLASSES IN THE CHOIR CONDUCING CLASS

**Abstract.** *The article examines the problem of repertoire, its pedagogical and educational impact on students during the classroom. They are supplemented by methods, principles and the role of independent work, which influence the student’s awareness of the requirements for the works being studied in the conducting class.*

**Key words:** *repertoire, educational process, conducting, personality education, principles, methods.*

**Стремление овладевать современными знаниями,быть просвещенными и обладать высокой культурой должно стать для всех нас жизненной потребностью.**

**Ш.М.МИРЗИЁЕВ [1]**

Сегодня ощущается все большая потребность в музыкантах, обладающих высоким уровнем исполнительской культуры и образованностью. Поэтому для подготовки студентов будущих учителей, большое внимание уделяется работе по приобщению их к искусству, по развитию у них творческих способностей. Образовательные задачи, решения данной проблемы, прежде всего, необходимо направить на развитие личности молодого поколения, раскрытия их творческих возможностей, талантов, становления самосознания и самореализации.

На отделении «Вокальное исполнительство» изучаемый предмет Хоровое дирижирование имеет большое значение и является одним из основных и главных в подготовке профессиональных кадров, основными направлениями которого являются создание максимальных возможностей для самореализации личности будущего специалиста, выявление его творческой индивидуальности, формирование творческих способностей.

И одной из самых ответственных и непростых задач любой отрасли музыкальных занятий, в

том числе и предмета дирижирования, это проблема учебного репертуара, т.е. той музыки, благодаря общению с которой и происходит становление личности дирижера. На протяжении всего обучения туденты постигают секреты дирижёрского мастерства, знакомятся с вокально-хоровыми произведениями узбекских, русских и зарубежных композиторов, и применяют полученные знания и навыки на практике.

*«Накопление и воспитание навыков и умений в учебно-образовательной и художественно-исполнительской сферах связано, прежде всего, с репертуаром. С одной стороны, репертуар должен обеспечить целенаправленную работу по усвоению и закреплению вокально-хоровых навыков и умений, с другой – раскрыть перед студентами вехи развития хоровой музыки»* [ 2.С.38.].

Отбор репертуара – это творческий процесс, органично входящий в изучении на индивидуальных занятиях в классе дирижирования и должен быть доступным по содержанию и форме, разнообразным по стилю, жанру, тематике и т.д. При существенном требовании, предъявляемое к отбору репертуара педагог отбирает наиболее интересный и ёмкий материал, опираясь на принципы, сформулированные в общей педагогике и в музыкальной педагогике таких как – доступность, его педагогическая целесообразность, заинтересованность и постепенность его усложнения.

Произведение по мнению Д.Б.Кабалевского: *«…должно быть художественным и увлекательным, оно должно быть педагогически целесообразным (т. е. учить чему-то нужному и полезному) и должно выполнять определённую воспитательную роль»* [2].

Репертуар влияет на весь учебно – воспитательный процесс, на его базе накапливается музыкально-теоретические знания, вырабатываются вокально-хоровые навыки, формируется мировоззрение, складываются художественно-эстетические представления. Отличительной чертой искусства хорового пения всегда являлось органичное сочетание музыки и слова. Не что иное, как слово – помогает глубже проникнуть в содержание изучаемого произведения. Воспринимая поэтический текст студенты должны показать способность выявить богатство его значений. Изучая произведения на занятиях прежде всего к ним предъявляются следующие требования: они должны развивать и воспитывать личность; формировать основные компоненты эстетического вкуса; приобщать к национальным общечеловеческим качествам.

Репертуар является важнейшим звеном учебно-воспитательного процесса, поскольку именно на его основе формируются музыкальный вкус и художественно-эстетические представления студентов, и его профессиональные навыки. Современный преподаватель не может полноценно работать без учета интересов и склонностей студентов, определяющих их вкусовые пристрастия и приоритеты, помогает правильно сориентироваться в выборе художественных ценностей и идеалов.

При отборе репертуара педагогу важно знать, насколько данное произведение усилит интерес обучающего к хоровой музыке, станет мотиватором в обучении. Если произведение придется по душе, то педагогический успех будет многогранным, даже при работе над сложным произведением студент проявит настойчивость и трудолюбие.

Правильно подобранный репертуар должен соответствовать исполнительским возможностям студентов, что обеспечивает полноценно музыкальное развитие как в художественном, так и в техническом отношении, повышает музыкальную культуру, и исполнительское мастерство, а так же способствует их нравственному и эстетическому воспитанию, формирует их вкусы и взгляды, укрепляет партиотические качества, прежде всего чувство любви к Родине. То есть построение учебного репертуара и его практическое изучение должно быть спланировано так, чтобы обучение и воспитание в каждом из звеньев музыкального образования были тесно связаны с конечными целями, поставленными педагогом на занятиях.

В умело подобранном репертуаре наиболее полноценно прослеживается единство воспитания и обучения, единство процесса овладения знаниями, навыками и умениями и систематического, целенаправленного воздействия на духовное развитие личности студентов, в чем и проявляется стержневое значение репертуара.

Высшей целью педагогики всегда является воспитание личности, а музыка и дирижирование лишь средства достижения цели. В своей деятельности педагог не может не держать самые высокие ориентиры в воспитании молодого поколения, полноценное же развития личности обучающего является наполненность личности самого наставника, его профессиональная и человеческая культура. Преподаватель должен быть на очень высоком уровне личностной отдачи и ответственности за каждого студента.

Современное состояние системы образования знаменует собой переход от школы памяти и воспроизводства знаний к школе понимания и генерации идей, где нет навязывания точек зрения, а есть творческий процесс. Такая система позволяет научить человека самостоятельному мышлению, способности находить решение проблем, что выступает началом процесса не только обучения, но и образования человека.

Задача обучения состоит в нахождении такого учебного материала, который вовлекал бы обучаемого в конкретную деятельность, имеющую в его глазах цель и интерес. Необходимо найти типичные виды деятельности, результаты которых по-настоящему интересуют обучаемых, и которые невозможно выполнять механически. Американский философ, психолог и педагог Дж.Дьюи считал, что – обучаемый по настоящему учится только тогда,

когда осознает роль изучаемых истин в получении результатов важной для него деятельности.

Рассматривая проблему роли и значения репертуара в интеллектуальном развитии студентов, в процессе занятий в классе совершенствуются развитие сознания и мышления, развитие способности думать, рассуждать, размышлять, анализировать. Для того чтобы сформировать систему ценностей, необходимо предоставлять возможность студентам отстаивать свое мнение, самостоятельно принимать решения, осуществлять рефлексивную деятельность, преодолевать трудности, возникающие в процессе жизнедеятельности, а также создавать педагогические условия – *«управляемых педагогом факторов воспитания, предполагающих определенный результат»* [3].

Повышение качества дирижерской подготовки студентов невозможно без усиления побудительного мотива к обучению. В данном контексте совершенствование традиционной методики преподавания хорового дирижирования в педагогических учебных заведениях необходимо вести в направлении тех методов, которые усиливают наглядность требований и результатов, вносят элемент соревнования в занятия. Значительно обновить методическую палитру в контексте современных процессов информатизации культуры может применение компьютерных технологий на занятиях по хоровому дирижированию. Информационно-компьютерные технологии способны не только придать старому содержанию новую форму, но и наполнить традиционную методику новым содержанием, предложить новые методы. Воплощение произведений, сложных в ритмическом плане, развивает ощущение ритма, вкуса к метрической точности в исполнении, что является одним из ведущих качеств исполнителя.

К основным методам саморазвития, которые помогут развить свой интеллект и достичь личностного роста это – умственные тренировки, чтение и обучение, развитие творческого мышления, использование технологий, социальное взаимодействие и постоянное самообразование – все эти методы могут быть применены в жизни молодежи для достижения успеха и саморазвития. Именно саморазвитие – это непрерывный процесс, требующий постоянного усилия и стремления к самосовершенствованию.

Чтобы репертуар всегда нёс элемент новизны, оставался действенным в педагогическом отношении, нужно включать в него новые произведения для изучения, написанные нашими современными композиторами. Конечно нельзя забывать и выдающиеся произведения известных узбекских, русских и зарубежных композиторов-классиков. Таким образом, нужно стараться постоянно обновлять репертуар, находить новые интересные произведения, не стоять на месте, а двигаться в ногу со временем. Приобщение студентов к получаемой профессии, активизация интереса и увлечение будущей профессиональной деятельностью складываются в процессе вовлечения студентов в творческую работу, которая значительно расширяет их кругозор и научный уровень, повышая качество подготовки специалистов.

Сегодня основная задача высшего образования сводиться к тому, чтобы студенты смогли овладеть всей суммой знаний и навыков, необходимых для получения высокой квалификации. Как говорил президент Шавкат Мирзиёев: *«Необходимо сформировать такую среду, которая бы активно способствовала процессам обучения, духовно-нравственного обогащения и воспитания на основе истинных ценностей»* [4.С.95.].

**Использованная литература:**

1. Указ Президента Республики Узбекистан. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». // Собрание законодательства Республики Узбекистан. – Ташкент: 2017 г.

2. Стулова Г.П. Теория и практика хорового исполнительства: Певческое развитие ребенка (учебное пособие). – Москва: 1999 г. С.381.

4. Паисов Ю.И. Современная русская хоровая музыка. – М.: 1991 г. С.276.

3. Коляда О.В., Гревцева Г.Я. Музыка как средство воспитания личности в социально-культурной среде вуза. // Современные проблемы науки и образования. 2017 г. №1.

4. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жёсткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой деятельности каждого руководителя. // Доклад на расширенном заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. // – Ташкент: «Узбекистон», 2017 г. С.95.

5. Васильченко О.А. «Основы творческого подхода в процессе обучения». Журнал «ЎзДСМИ хабарлари», 2/2017. С.95–97.

Sevara MAHMUDOVA,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

# FILOLOGIK FANLAR VA OLIY TA’LIM: MAQSADLAR UYG‘UNLIGI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada, oliy ta’limda filologik fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, mavjud muammolari haqida mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *filologik fanlar, oliy ta’lim, ijtimoiy antropologiya, internet texnologiyalari.*

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ И ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ: СОВМЕСТИМОСТЬ ЦЕЛЕЙ

**Аннотация.** *В данной статье речь идёт об особенностях и проблемах преподавания филологических наук в вузах республики.*

**Ключевые слова:** *филологические науки, высшее образование, социальная антропология, интернет технологии.*

# PHILOLOGICAL SCIENCES AND HIGHER EDUCATION: COMPATIBILITY OF GOALS

**Abstract.** *This article is about the features and problems of teaching philological sciences in universities of the republic.*

***Key words:*** *philological sciences, higher education, social anthropology, internet technology.*

Filologik fanlarning oliy ta’limdagi o‘rni uning ma’rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ jihatlariga bog‘liq, chunki nutq va yozuv faqat ma’lumot berib qolmay shaxsni insoniylashtiradi, ijtimoiylashtiradi, qo‘pol qilib aytganda hayvonot dunyosidan farqli ravishda uni madaniylashtiradi. Afsuski, bugungi kunga kelib kitobxonlikning pasayishi, madaniyatsizlik, ma’naviyatning susayishi kabilar kishini tashvishga solmoqda.

Filologik ta’limning asosiy vazifalaridan biri faqat mutolaa va matn tuzish emas, balki ularni tahlil va tavsif qilishdir. Bugun biz bu ko‘nikmalarning susayganligini, buning sababi yangi texnologiyalar ekanligini bilamiz. Bilamizki, ular tafakkur qilishga o‘rgatmay, ma’lumotni qabul qilish, saqlash, uzatishga mo‘ljallangan. Bugun buni kuzatish mumkin: o‘qib chiqib, fikr bildirib, qayta jo‘natamiz, vassalom, chunki uni fikrlab, tushunishga vaqtimiz yo‘q. Demak, shuning uchun qisqa, ma’lumot shaklida yozamiz, ensiklopediyalar ham shu sababli ommalashib bormoqda. Mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim rejasiga ko‘ra, 2020-2021-o‘quv yilida barcha ta’lim yo‘nalishilarida “Mutolaa va nutq madaniyati” fanini o ‘qitish joriy qilingan edi. 2024-yilga kelib, bu fan o‘quv rejalaridan chiqarib tashlandi. Balki mutolaa va nutq madaniyatimiz keragidan oshib ketgandir, bizningcha esa unday emas.

Bugungi kunda, san’at va madaniyat oliy ta’limi sohasida faoliyat yuritar ekanmiz, unda filologik fanlarning o‘qitilishiga va undagi muammolarga e’tiborni qaratmoqchimiz. Shu soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ishtirok etib kelayotgan bo‘lajak san’at va madaniyat xodimlariga 30 yildan buyon turli filologik fanlardan dars berib kelayotgan o‘qituvchi sifatida o‘z mulohazalarimni bildirishni lozim topdim.

Filologik fanlarga oid qanday bilimlarni berish bilan biz talabalarni nafaqat ishlab chiqarishdagi faoliyatga tayyorlash, balki oilaviy hayot, kollektiv, jamiyatdagi turmushga tayyorlashimiz mumkin? Fikrimizcha, ta’limda ijtimoiy-sotsial pedagogikani rivojlantirish lozim. Bunday pedagogika asosan maktab va bog‘chada mavjud, chunki bog‘chada maktabga, maktabda kollejga, kollejda universitetga tayyorlanadi. Maktab institut sifatida sotsial kodlashtirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Afsuski, bugun oliy ta’lim o‘zining asosiy vazifasini, yurt taqdiri uchun mas’ul bo‘luvchi ziyolilarni tarbiyalay olmayapti.

Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarida asosan yaxshi mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor beriladi-yu, lekin bitiruvchilarning qanday ijtimoiy jihatlarga ega bo‘lishi haqida kam o‘ylanadi. G‘arbda ham bugungi kunda endigina ijtimoiy yo‘naltirilgan mutaxassis tayyorlashga e’tibor berilmoqda. Asosiy qiyinchilik, qanday texnologiyalar yordamida kishilardan ijtimoiy foydali shaxslarni shakllantirishdir. Rivojlangan jamiyatlarda tug‘ilish bilan birga ota-onalarning bolalariga ko‘rsatadigan g‘amxo‘rliklari, tarbiyalari ham kamayib bormoqda. Shunga qaramay, o‘z-o‘zini nazorat qilish, kommunikabellik, hissiyotlar va istaklarni namoyon qilishning madaniy kodlarini egallash, boshqalar bilan birga turmush kechirish ko‘nikmasi, mehnatsevarlik, sabr, bardoshlilik, did, sog‘lom fikr, jismoniy baquvvatlik bularning bari ta’limning an’anaviy unsurlari bo‘lib, ularning barchasi madaniyatlar, hatto, uning virtual shakllarida ham saqlanib qolishi shart. Afsuski, hozir hayotning an’anaviy jihatlari degradatsiyaga uchramoqda.

Shu sababli, oilaviy tarbiyaning unsurlari maktab tomonidan singdirilmoqda. Bunday tarbiyani maktabda olgan olayapti, olmagan esa qanday inson bo'lib shakllanayotgani bizga qorong'i. Ko'pgina ota-onalarning tarbiya uchun na vaqti, na tajribasi bo'lib, tarbiyalanishni maxsus muassasalarga topshirilmoqdalar. Bu tashkilotlar esa davlat tomonidan boshqarilib kelinadi. Mutaxassislar esa, bo'lajak kadrlardir. Natijada, tarbiyalanuvchilar ham, tarbiyalovchilar ham murakkab mexanizmning vinti sifatida shakllanmoqdalar. Ular muayyan vazifalarni mexanik ravishda bajarmoqdalar.

Xo'sh, farzandlarimizni kim va qanday qilib tarbiyalaydi? Bu nafaqat axloqiy muammo, balki o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash jamiyat evolyutsiyasining asosiy qonuniyatidir. Internet qaramligiga qarshi qanday kurashish, shaxslararo muloqotda haqqoniylik tanqisligini qanday to'ldirish zamonaviy ta'limning yana bir muammosidir. Yangi media texnologiyalar bizning iste'dodimizni faqat kuchaytiruvchi vosita emas, ular tashqi dunyodan uzoqlashtirib, real voqelikka yaqinlashtirmaydi. Holbuki, texnika erkinlik beradi. Til va adabiyot esa kishilarga ehtiros va istaklarni me'yorlashtirishga, ma'naviy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi.

Shu o'rinda Rossiyadagi "Mir PK" jurnali bosh redaktori G.Ruzaykinning fikrlarini keltiramiz: "Informatsiyaning ko'pligi uni qadrsizlantiradi. Haqiqatan kerakli ma'lumotlarni topish tobora qiyinlashib bormoqda. Inson internetdan qabul qilishi mumkin bo'lgandan ko'ra ko'proq hajmdagi ma'lumotni qabul qilmoqda. Buni "Laokoon sindromi" deb atadim. *"Vatikanda shunday haykal bor: miflarga ko'ra kohin Laokoonga ma'budlar ilonlarni yuborishadi va ular bilan kurashayotgani tasvirlangan unda. Men bizning ustimizga yog'ilib kelayotgan ma'lumotlar oqimini shu ilonlarga o'xshataman. Biz bu oqimga bas kela olmayapmiz, o'zimizni ojiz his etayapmiz ularning oldida"* [1.4-b.] Haqiqatan ham informatsiya oqimi ostida qolib ketgan kishida o'ziga bo'lgan ishonch kamayadi, emotsional tushkunlik, xavotir hissini paydo qiladi.

Oliy ta'limda filologik fanlarni o'qitish yoshlarni ma'rifatli, bilimli, savodli qilishi bilan birga ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashi, o'ziga ishongan, oq-qorani, halol-haromni farqlaydigan, internet asrida turli ko'chalarga adashib kirib qolmaydigan, jamiyatga, millatga foydasi tegadigan mutaxassisni tayyorlashga xizmat qilishi kerak. Shu jihatdan respublika oliy ta'lim tizimi va filologik fanlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari hamohangdir.

Shu o'rinda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2024-2025-o'quv yil uchun qabul qilingan o'quv rejaga to'xtalishni lozim topdim. Bu yilgi 1-kurslar uchun qabul qilingan o'quv rejada faqat filologik fanlardan o'zbek, rus, ingliz tilidan tashqari o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, bolalar adabiyoti fanlari o'rin olgan. Adabiyotga oid fanlar ayrim yo'nalishlarga kiritilmagam. Avvallari o'qitilgan navoiyshunoslik, nutq madaniyati, davlat tilida ish yuritish kabi fanlar rejadan chiqarib tashlangan. San'atshunoslik yo'nalishi ta'limiga ancha yillardan buyon o'qitilmay qo'yilgan "O'zbek tili stilistikasi" fanining qayta qo'yilgani bizni xursand qildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini talabalarning innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish ham belgilab berilgan edi [2.2019-y.]. Qo'yilgan bu vazifalarga oliy ta'limda ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ham e'tibor qaratishimiz lozim. Filologik fanlarni o'qitishda katta tajribaga ega bo'lishimiz qatorida biz dunyodagi mazkur yo'nalishlar o'qitish tizimiga oid tajribalar va yangi yutuqlarni muttasil o'zlashtirib borishimiz zarur. Hozirgi vaqtda dunyo ilmida sotsial antropologiya, ya'ni ijtimoiy antropologiya, jamiyatdagi insonning o'rnini o'rganish va buning markaziga insonni qo'yishga katta e'tibor qaratilmoqda. Filologik fanlarni o'rganish va o'rgatishning xorij namunlari ham ayni shu yo'nalishda ekanligi bilan ajralib turadi.

Badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikning ijtimoiy hayot bilan bog'lanishida ham bu sohalarning o'ziga xosligidan tashqari sotsial, xususan, madaniy antropologiya bilan yaqinlashib borishi bejiz emas. Chunki sotsial va madaniy antropologiyaga doir ma'lumotlarni badiiy adabiyot ko'proq bera oladi. Dunyo filologiya ilmi ham aynan mana shunlay yo'nalishlarda bormoqda. Shu bilan birga mana shu yo'nalishlarni o'qitishda kompyuter va internet texnologiyalarining zamonaviy uslublaridan keng foydalanish ham aynan xorij ilmiga xos bo'lib, ularning kerakli jihatlaridan biz ham foydalanishimiz lozim. Ta'lim jarayonidagi muammolarning yuzaga kelishida o'rganilayotgan fanlarni tizimlashgan shaklda emas, balki fragment shaklida o'rganilayotgani ham sabab bo'lmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish kerak.

O'quv mashg'ulotlarida talabalarni fikrlashga yo'naltiradigan yangi texnologiyalarni joriy etish uchun bu fanlarning rivojlangan mamlakatlarda qanday o'qitilishi, undagi muammolar haqida o'rganishimizni taqozo etadi. Bir misol, rus olimasi M.Chudakovaning o'rta ta'limda adabiyot o'qitish muammolari haqida yozilgan «Литература и школа: Я люблю тебя и люблю тебя» kitobida maktabda olima yozuvchilar biografiyasini o'rganishni kamaytirib, asosan badiiy asarlarni mashg'ulotlarda ovoz chiqarib o'qishni, bevosita matn ustida ishlashni tavsiya qilsa, fransuz pedagogi Daniyel Pennak esa "Roman kabi" essesida badiiy adabiyotga effektiv yondashuvning qonuniyatlarini bayon qiladi va bu qoidalar *"Kitobxon huquqlari deklaratsiyasi"* nomini oladi [3.22-b.]. D.Pennak ham adabiyot darslarining 80 foizi badiiy asarni o'qishga ajratilishi lozim, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, mohir tarjimon Ibrohim G‘afurov esa adabiyot haqidagi bir suhbatda: *“O‘qituvchi adabiyot nafosatining notig‘i va oshig‘i bo‘lmasa, uning o‘quvchisi qayerdan kasb etadi, so‘z va adabiyotga muhabbatni?! Adabiyot va uning so‘zi esa boshdan-oyoq muhabbatdir... O‘qituvchining vazifasi faqat bilim berishgina emas, balki did-farosatni tarbiyalash, o‘qigan kitobiga to‘g‘ri baho berishga qodir va qobil bo‘lmoqlikka o‘rgatish. Tarix, adabiyot, til darslari, avvalo, did-farosat darslaridir”,* – deb aytgan [4.13-b.]. Zero, ta’limda adabiyot fani o‘qituvchilari oldiga talabalarda ijodkor iqtidorini tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Bu esa talabalarda badiiy so‘zga bo‘lgan ishtiyoqni, ijodiy ruhni uyg‘otishning uddasidan chiqish uchun ularni ta’limda yangi yo‘llarni izlash va izlanishini taqozo etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Рузайкин Г. «Куда идут поколения Z?» Газета «Аргументы и факты». 2012 г. №4. С.4.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2019-yil, 1-fevral.

3. Чудакова М.О. «Литература в школе: читаем или проходим». – Москва: 2009 г. С.22. Пеннак Д. «Как роман». – М.: «Самокат», 2005 г.

4. G‘afurov I. “Nega adabiyotsiz yashab bo‘lmaydi?” “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2017-yil,10-son. 13-bet.

**Oydin ALIMBEKOVA,**
**O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi dotsenti**

# “TEATR SAN’ATI” YO‘NALISHI TALABALARIGA VOKALDAN TA’LIM BERISHNING AYRIM MASALALARI

**Annotatsiya.** *Ma’ruzada o‘quv jarayonida “Teatr san’ati” yo‘nalishi talabalari bilan vokal ijrochiligi bo‘yicha asosiy bilimlarni bosqichma-bosqich o‘rganish va rivojlantirish jarayoni haqida so‘z yuritiladi. Qo‘shiq materialini o‘rganishda vokal qiyinchiliklarini bartaraf etish, shuningdek, talabaning ijodiy salohiyatini kengaytirish, musiqiy va intellektual saviyasini oshirish usullari qisman ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *vokal, vokal san’ati, musiqiy eshitish qobiliyati, ovozni shakllantirish, pedagogik tajriba, ko‘nikma, ijodkorlik, teatr san’ati.*

# НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ ВОКАЛЬНОМУ МАСТЕРСТВУ СТУДЕНТОВ ОТДЕЛЕНИЯ “ТЕАТРАЛЬНОЕ ИСКУССТВО”

**Аннотация.** *В лекции рассказывается о процессе постепенного усвоения и развития базовых знаний вокального исполнительства у студентов курса “Театральное искусство”. Частично раскрыты пути преодоления вокальных трудностей при изучении песенного материала, а также расширения творческого потенциала студента, повышения его музыкального и интеллектуального уровня.*

**Ключевые слова:** *вокал, вокальное искусство, музыкальный слух, голосообразование, педагогический опыт, мастерство, творчество, театральное искусство.*

# LECTURE: SOME ISSUES OF TEACHING VOCAL SKILLS TO STUDENTS OF THE “THEATRE ART” DEPARTMENT

**Abstract.** *The lecture talks about the process of gradually learning and developing the basic knowledge of vocal performance with students of the “Theatre Art” course. Ways to overcome vocal difficulties in learning song material, as well as to expand the student`s creative potential, to increase his musical and intellectual level are partially revealed.*

**Key words:** *vokal,vocal art, musical hearing, voice formation, pedagogical experience, skill, creativity, theater art.*

“Teatr san’ati” yo‘nalishi talabalarining o‘quv jarayoniga tizimlashtirilgan vokal fanini kiritilgani, albatta, ularning ijodiy salohiyatini kengaytiradi, musiqiy intellektual saviyasini oshiradi. Darhaqiqat, butun o‘quv jarayoni davrida ushbu yo‘nalish talabalari o‘rtasida vokal san’ati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish talaba aktyorning badiiy ta’limining muhim qatlami bo‘lib, uni keyingi kasbiy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Tasviriy fikrlash, tasavvur, musiqiy uslub va teatr – tasviriy tomoshalarni faollashtirish, estetik va kognitiv tajribani muntazam boyitish sharti bilan talabalar vokal san’ati sohasidagi kasbiy kompetensiyalar kompleksini rivojlantiradilar, bu esa musiqa sohasidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bular professional vokal texnikasi va nazariyasini o‘zlashtirish, ya’ni to‘g‘ri tovush shakllantirish, ovoz hosil qilish, talaffuz, nafas malakalari, aniq artikulyatsiya va boshqalardir.

Ko‘pgina mutaxassislarning fikricha, qo‘shiq aytish jarayonida musiqiy qobiliyatlar – tembr va dinamik eshitish, ladni his qilish tuyg‘usi, musiqiy va tasviriy tafakkur, musiqiy xotira rivojlanadi. Qo‘shiq kuylaganda talabaning umumiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Uning yuqori aqliy funksiyalari shakllanadi, nutqi rivojlanadi. Ovoz shakllanishining to‘g‘ri, tabiiy tarzda tashkil etilishi juda muhim, shunda talaba o‘zini qulay his qiladi, osongina va zavq bilan kuylaydi [2–56].

“Teatr san’ati” yo‘nalishi talabalari uchun vokal fanini o‘qitish kafedramizning har bir professor-o‘qituvchilarining metodikasida o‘z ifodasini topgan bir qator xususiyatlariga ega bo‘lib, har bir o‘qituvchining o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan o‘ziga xos metodikasi mavjud. Ovozni yo‘lga qo‘yishning ayrim muammolari bo‘yicha yetakchi mutaxassislarimizning fikrlari bir-biriga mos keladi. Lekin bir qarashda ahamiyatsiz bo‘lib ko‘rinishi mumkin bo‘lgan tub farqlar ham mavjud va natijada o‘z ta’lim usullarini himoya qiladigan turli maktablar shakllangan. (Bularni ayniqsa, musiqali drama yo‘nalishi talabalariga dars beradigan professor-o‘qituvchilar orasida kuzatamiz). Farqlar kuylash jarayonida eng muhim bo‘lgan narsaga qarab amalga oshiriladi. Ba’zilar uchun bu fonatsiya nafas olish tizimi bo‘lsa, boshqalar uchun bu generator tizimining ishidir.

Ovozni noto‘g‘ri ishlatish uning funksional buzilishining asosidir. To‘g‘ri ovoz hosil qilish uchun zarur bo‘lgan mushaklar faol bo‘lmaydi, shunda ularga maqsad uchun mo‘ljallanmagan boshqa mushaklar yordamga keladi. Bunga misol tariqasida ayrim talabalarning tomoqni siqqan holda yoki burunda, quloqqa yoqimsiz va ovoz uchun xavfli holatda qo‘shiq kuylash uslubini keltirish mumkin. (Masalan, men professor Sh.T.Pirmatovning master klassida shu muammolarning yechimini kuzatdim. Tovushni to‘g‘ri shakllantirib, nafasga to‘g‘ri tayangan holda, erkin holatda mashqlar kuylatib, hattoki, talaba ilgari ololmagan baland pardalarga olib chiqdi). Dotsent v.b. D.Uzoqovninig sinfida esa to‘g‘ri kuylashdan tashqari ko‘proq aksent kuylovchining sahna ko‘rinishlardan parcha misolida ichki va tashqi harakatlarga beriladi. Shu yo‘sinda ular talabaga erkin nafas olishiga yo‘l qo‘yib beradilar, qanday nafas olib kuylashiga aralashmaydilar. Qo‘shiq materialini o‘zlashtirishda pedagog talabalarida musiqiylik, musiqiy eshitish idroki, temp va ritm tuyg‘usining o‘zagi sifatida musiqaga hissiy sezgirlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun muayyan musiqiy materialdan foydalanadi. Har ikkala professor-o‘qituvchining vokaldan ta’lim berishida har xil yondashuv bo‘lishiga qaramay, talabalarning yakuniy reyting nazoratida yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishadi, bu esa ikkalasining ham vokal maktabi borligidan dalolat beradi. Yana qaytarib o‘taman, albatta, kafedramiz professor-o‘qituvchilarining har birida o‘z metodikasi mavjud, men faqat musiqali drama yo‘nalishi talabalariga dars beruvchi ikki yetakchi mutaxassisning ish faoliyatidan namuna keltirdim, xolos.

Pedagog ishining vazifasi va murakkabligi noto‘g‘ri ko‘nikmalarni tuzatish va yangi, to‘g‘rilarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Bunga to‘g‘ri nafas olish, tovush hosil qilish va artikulyatsiyani rivojlantirish orqali erishiladi, bu ham ovoz apparatining umumiy mustahkamlanishiga yordam beradi.

To‘g‘ri nafas olish nafaqat chiroyli ovozga, balki yaxshi diksiyaga ham yordam beradi. O‘z navbatida, nafas olish bilan muvofiqlashtirilgan yengil va aniq artikulyatsiya tovush tayanchini kuchliroq qilishga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar talabaga olingan to‘g‘ri mahoratni ongsiz sohaga o‘tkazish va uni avtomatlashtirish imkonini beradi. Mushaklar hissiyotlari mashg‘ulot jarayonida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Odatda bizning ongimiz ularni qayd etmaydi. Ammo buzilishlarni kuzatish va ovozli organlarni muvofiqlashtirilgan tarzda harakat qilishga majburlash, ya’ni ovoz apparatini boshqariladigan qilish uchun alohida mushak guruhlarining harakatini his qilish kerak. Yuz suyaklaridagi tebranish, ayniqsa, burun ko‘prigidan oldingi tishlargacha sezilarli bo‘lib, yuqori yoki bosh rezonator ham ishlayotganligidan dalolat beradi. Asarlar ustida ishlaganda pedagog nafaqat topshiriqlarni bajarish, balki talabaning vokal va ijodiy mahoratini oshirishni ham doimo yodda tutish kerak. Repertuarni tanlashda biz qo‘shiq talaba uchun qanchalik foydali ekanligini va uning vokal apparati qanchalik to‘liq va oson ishlashini hisobga olishimiz kerak. Masalaga bunday yondashuv orqali erishish mumkin:

- ☑ talabalarning vokal qobiliyatlarini rivojlantirish darajasiga to‘liq mos keladigan qo‘shiq materialini tanlash;
- ☑ alohida o‘rganilgan elementlarni keyingisiga bog‘lash bilan qo‘shiq ustida ishlashda qismlarga bo‘lish texnikasidan foydalanish;
- ☑ nota yozuvlari va tasvirlashning boshqa vizual usullaridan foydalanish va xokazo (transpozitsiya).

Darhaqiqat, zamonaviy ijtimoiy va madaniy sahna makonida ham dramatik, ham qo‘g‘irchoq teatri hamda musiqiy spektakllarga talab ko‘p va ommabop bo‘lib, san’atkordan nafaqat aktyorlik va badiiy obraz dramaturgiyasi, balki vokal ijrochiligi sohasida ham professional malakalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu munosabat bilan bir qator savollar tug‘iladi:

- ☑ vokal ijrochiligi zamonaviy professional teatr muhitida qanday ahamiyatga ega va qanday o‘rinni egallaydi?
- ☑ o‘quv jarayoni doirasida aktyorning vokal ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari qanday?

Bugungi kunda teatr san’ati yo‘nalishi bo‘yicha talabalarga vokal ta’lim tizimini ularning kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda asoslash vazifasi oliy kasbiy teatr ta’limi uchun dolzarb hisoblanadi. Ko‘p yillar davomida professional aktyorning vokal ta’limi teatr pedagogikasida muhim o‘rin tutib kelgan. Aktyorning badiiy tabiati har doim musiqali teatrning rivojlanish vektorini aniqlaydigan o‘ziga xos musiqiylik bilan ajralib turadi. Teatr san’ati o‘quv jarayonini optimallashtirish va vokal fanlarini o‘qitishga yangicha yondashuvlarni joriy etish zaruriyati vokal ijro mahoratini samarali o‘zlashtirish, shuningdek, uni uslubiy jihatdan asoslash imkonini beruvchi aktyorga musiqiy ta’limning mutanosib tizimini ishlab chiqishni shoshilinch ravishda taqozo etadi. Shu munosabat bilan vokal fani muassasamizning majburiy fanlari qatoriga kiritilishi lozim, deb o‘ylayman. O‘qitishning butun davri davomida egallangan vokal kompetensiyalari to‘liq shakllanadi va o‘z navbatida musiqiy va teatr janrlarida: musiqiy drama yoki estrada spektakllarida mavjud bo‘lgan aktyorlik to‘qimasini tubdan mustahkamlaydi. Musiqali teatr artisti shunchaki qo‘shiqchi va aktyor emas. U musiqiy va vokal qobiliyat, ko‘nikmalarni aktyorlik qobiliyati va mahorati bilan, sahnada mavjud bo‘lish qobiliyati bilan uzviy bog‘lashi kerak.

Ushbu ma’ruza bo‘lajak aktyorlar o‘rtasida vokal san’ati sohasidagi professional kompetensiyalar majmuini shakllantirishga qaratilgan. Ya’ni nazariy bilim, vokal texnikasini egallash, sof intonatsiya, ovozni boshqarish ko‘nikmalari [3–173].

Teatr san’ati talabalari bilan musiqa asari ustida ishlash juda mashaqqatli va professional vokalchi bilan ishlashdan farq qiladi. Muayyan janrdagi musiqa asarini aniqlab, biz kompozitsiyani bir butun sifatida tahlil qilamiz. Birinchi kurs talabalari orasida vokal ijro mahoratini o‘zlashtirish, qoida tariqasida, birinchi kurs talabalarining aksariyatida yo‘q bo‘lgan dastlabki

vokal tayyorgarligi va musiqiy eshitish qobiliyati darajasini aniqlashdan boshlanadi.

Pedagoglarimiz afsuski, bu sir emas na ovozi, na eshitish qobiliyati bor deb o‘ylaydigan talabalar bilan ishlashlashiga ham to‘g‘ri keladi va ko‘pincha muntazam mashg‘ulotlar jarayonida ular muvaffaqiyatga erishadilar, talaba yaxshi ovoz va normal musiqiy eshitish qobiliyatiga ega ekanligi, (u shunchaki chuqurroq yashiringan bo‘ladi) ma’lum bo‘ladi. Shu bois o‘quv yilining birinchi yarmida intonatsiya, qo‘shiq sofligi, ritm tuyg‘usini oydinlashtirish, nafas olish ko‘nikmalarini mustahkamlash va tovushni to‘g‘ri chiqarish ustida ishlashga e’tibor qaratiladi. Qoidaga ko‘ra bularning barchasi har bir darsning boshida, oddiydan murakkabgacha muntazam ravishda kuylatiladigan ovoz sozlash mashqlari va vokalizlar kuylatish bilan bir paytida ishlab chiqiladi. Menimcha, bu muammoni hal etishda teatr san’ati yo‘nalishi bo‘yicha talaba tarbiyalash jarayonini ilmiy-uslubiy asoslash, tushunish, amaliy sinovdan o‘tkazish, ma’lum vokal texnikasi va har bir talaba uchun individual ishlab chiqilgan o‘quv rejasini hisobga olish kerak. Shu bilan birga vokal san’ati bo‘yicha kompetensiyalarning muvaffaqiyatli shakllanishi xayoliy tafakkur, tasavvur, musiqiy uslub va teatrlashtirilgan tasavvurga boy sahna ko‘rinishlari faollashtirilsa, o‘quvchilarning estetik va kognitiv tajribasi muntazam boyitib borilsagina mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagi barcha kamchiliklar va o‘qituvchi qo‘shiq kuylashni o‘rgatishining dastlabki bosqichida duch keladigan boshqa ko‘plab kamchiliklar vokal madaniyatining yetishmasligi bilan bog‘liq. Uning asosiy maqsadi vokal ko‘nikmalarini rivojlantirishdir: tayanchda qo‘shiq aytish, rezonator tizimdan foydalanish, qo‘shiq va unlilarning bir xil talaffuziga asoslangan qo‘shiq artikulyatsiyasini rivojlantirishdir. Bularsiz yuqori sifatli ovozga erishish mumkin emas. Noto‘g‘ri tovushlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida baholash, ularni yo‘q qilish uchun texnik usullarni tanlash qobiliyati pedagogning professional malakasining asosi, pedagog sifatida yuksalishning kalitidir. Musiqiy til orqali sahna qiyofasini nafosat bilan yarata olish, nafosat bilan sahnada yashay olish qo‘shiqchi aktyorga xos xususiyatdir. Aynan musiqa palitrasi ijrochiga ichki erkinlik, ilhom, o‘ziga ishonch hissini beradi. Har bir talabaning individual qobiliyati va tabiiy ma’lumotlarini hisobga olgan holda, biz talabaning vokal asarini o‘zlashtirish darajasini tavsiflovchi kasbiy ko‘rsatkichlarni belgilaymiz:

- ✍ ovoz apparatini to‘g‘ri joylashtirish, nutq pozitsiyasi;
- ✍ to‘g‘ri, toza va sof shakllantirish, diafragmani ishlatib, to‘g‘ri nafas olish;
- ✍ toza intonatsiya, aniq artikulyatsiya;
- ✍ musiqiy va badiiy matnlarni bilish;
- ✍ vokal texnikasini takomillashtirish, uslubni tushunish.

Teatr san’ati yo‘nalishi bo‘yicha talabalarga vokal ta’lim berishning pedagogik tajribasini, ularning kasbiy o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda umumlashtirib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, aktyorga vokal mahoratini samarali o‘zlashtirish imkonini beruvchi muvozanatli musiqiy ta’lim tizimini ishlab chiqish, ijro san’atkorning qo‘shiqchilik qobiliyati va teksturasini inobatga olgan holda qurilishi, vokal san’ati sohasida olingan ko‘nikmalar esa aktyorning ijodiy palitrasini to‘ldirishi, uning ijodiy imkoniyatlari va tasavvurini kengaytirishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘PQ – 637 – son
2. Kabulova N. Vokal (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: 2024-y.
3. Pirmatov Sh. Vokal (darslik). – T.: “Donishmand ziyo”, 2023-y.
4. Pirmatov Sh. Vokal texnikasi asoslari (o‘quv qo‘llanma). – T.: “San’at”, 2011-y.
6. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish (o‘quv qo‘llanma) – T.: “Sharq” 2015-y.
7. Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018-y.
8. Самолдина М. Современные методы развития вокального мастерства учащихся / Концепт – 2015 №20 – ART 75329
9. Стулов И. К проблеме выразительности исполнения вокальных произведений / Наука и школа – 2018. №2.

**Диларам МАМИРОВА,**
**доцент кафедры «Сценическое движение и физическая культура» ГИИКУз**

# ИНТЕНСИВНОСТЬ МЫШЕЧНОЙ АКТИВНОСТИ И РАЗНОВИДНОСТЬ СПОСОБОВ СНЯТИЯ НАПРЯЖЕНИЯ ПРИ ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

**Аннотация.** *Данной статье речь идет о современных способов определения здоровья в тесной связи со спортом. Раскрывает проблемы возникновения физического напряжения. Описывает происходящие физиологические изменения в организме при физических нагрузках. Рассматриваются этапы восстановительных процессов.*

**Ключевые слова:** *напряжение, невроз, импульс, восстановление, контроль, физические нагрузки, режим.*

# MUSHAKLAR FAOLLIGINING INTENSIVLIGI VA JISMONIY FAOLIYAT PAYTIDA STRESSNI ENGILLASHTIRADIGAN TURLI XIL USULLAR

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, sport bilan chambarchas bog'liq holda salomatlikni aniqlashning zamonaviy usullari haqida so'z ketadi. Jismoniy stress muammolarini ochib beradi. Jismoniy faoliyat davomida organizmda sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlarni tavsiflaydi. Qayta tiklash jarayonlarining bosqichlari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kuchlanish, nevroz, impuls, tiklanish, nazorat, jismoniy faollik, rejim.*

# INTENSITY OF MUSCLE ACTIVITY AND VARIETIES OF WAYS TO RELEASE TENSION DURING PHYSICAL ACTIVITY

**Abstract.** *This topic contains material for modern methods of determining health in close connection with sports. Reveals the problem of physical stress. Describes theoccurring physiological changes in the body during exercise. The stages of recovery processes are considered.*

**Key words:** *tension, neurosis, impulse, restoration, control, physical loads, mode.*

Часто, напряжение наблюдается у людей с высокими спортивными достижениями. Это характеризуется снижением долгосрочной трудоспособности. В организме расстраивается центральная нервная система. Это может произойти из-за чрезмерной интенсивности возбуждения или торможения. При интенсивной активности мышц сильное движение происходит из-за сильного распространения проприорецепторов от импульсов к нервным клеткам. Когда в некоторых тренировочных и соревновательных процессах недостаточно отдыха, происходят функциональные изменения. Это приводит к очень сильному перевозбуждению, нарушению нервной деятельности и снижению общей работоспособности организма. В других случаях чрезмерная ускоренная работа по освоению сложных адаптивных действий может повредить нервную деятельность.

Многие дифференцированные изменения, которые необходимы в этих условиях, являются причиной чрезмерной подвижности нервных процессов. Однако это всегда приводит к нарушению центральной нервной системы. Эти случаи называются неврозами [3.С.219]. Невроз является результатом нарушения баланса между процессами торможения и возбуждения в коре головного мозга. Напряжение – это прежде всего центральная нервная система, такая, как кора головного мозга (спинной мозг, головной мозг), которая была достигнута во время упражнений, высокий уровень улучшенной координационной (адаптивной) активности приводит к серьезным изменениям. Причины сильной усталости и напряжения условно подразделяют на четыре группы:

а) участие в спортивных упражнениях и турнирах с различными хроническими заболеваниями и другими изменениями, связанными со здоровьем;

б) участвовать в упражнениях и соревнованиях, без окончательного выздоровления от болезни, при этом организм спортсмена недостаточно восстанавливается;

в) участие в широкомасштабных спортивных мероприятиях с такими факторами, как сонливость, недоедание, недостаток витаминов, различные нервные расстройства, злоупотребление алкоголем, курение и так далее;

г) неправильная организация режима дня и распределения нагрузки.

Одной из основных причин является то, что упражнения выполняются без полного восстановления, с болевыми ощущениями при развивающемся напряжении. Среди прочих причин особенно выделяются: выполнение упражнений, которые не организованы должным образом, и

требование достижения высоких спортивных результатов в кратчайшие сроки. Кроме того, ниже приводятся причины, по которым не следует проводить отдельные учебные занятия: недостаточное внимание к отдельным вопросам обучения во время тренировок на еженедельных, ежегодных и многолетних тренировках, отсутствие достаточной физической сдержанности, чрезмерное участие в соревнованиях, быстрая и значительная потеря веса, тяжелая физическая разрядка без адекватной адаптации к окружающей среде, несоблюдение основных гигиенических правил, плохие условия, врачи и педагоги не имеющие достаточного контроля за тренировочным процессом и так далее.

Напряжение может быть связано с характером мышечной работы и индивидуальными «вросшими» характеристиками спортсмена, в основном из-за нарушения функций мышц или вегетативной системы. Напряжение у спортсменов связано с невроз-специфическими симптомами. У них разные жалобы: эмоциональное раздражение, злость, избыточный вес, головная боль, бессонница, головокружение, повышенная утомляемость, повышенное потоотделение, снижение рабочих навыков и спортивных результатов. К сожалению, из-за изменчивости и неопределенности возможностей и функционального состояния спортсмена, спортсмены и тренеры часто не замечают начальную стадию напряжения. На ранних стадиях стресса, помимо общих изменений, у спортсменов могут ухудшиться достигнутые результаты, способность работать и улучшать свою технику, и координацию.

Реакция сердечно-сосудистой системы на тест в первую очередь определяется ухудшением скоростных характеристик занимающегося и последующим ухудшением результатов теста (атипичные, то есть реакции с дистонической и гипертонической формой, период восстановления длится в течение длительного времени). На более поздних стадиях стресса сердечная недостаточность ухудшится, обмен веществ увеличится, витамины (в основном аскорбиновая кислота) в организме уменьшатся. Различные заболевания и дефекты могут возникать из-за снижения уровня защиты спортсмена. Общий режим и режим упражнений можно регулировать по-разному, избегая напряжения и восстанавливая организм спортсмена. На начальной стадии, необходимо уменьшить количество, объем и тяжесть физических нагрузок, а также продлить время отдыха. Естественно рекомендуется менять место тренировок, то есть тренировки за пределами стадиона и спортзала – в парке, на реке. В этом случае организм спортсменов будет восстанавливаться в течение двух-трех недель, а режим их тренировок будет постепенно увеличиваться.

На втором этапе стресса, спортсмену необходимо отдохнуть от одной до двух недель для специальных упражнений. Рекомендуется активный отдых: пешие прогулки, утренняя гимнастика, бег, плавание и другие расслабляющие способы.

Через 1,5-2 месяца спортсмену разрешается выполнять определенный режим упражнений и участвовать в соревнованиях. На третьем этапе стресса, спортсмен должен повторять выполнение упражнений в течение нескольких недель (1-4) полностью. Упражнения нужно начинать постепенно, примерно через 2,0-2,5 месяца. Отборочные соревнования разрешены через 2,5 месяца. Реабилитация спортсменов, находящихся в напряженном состоянии, рекомендуется прохождение лечения в частных медицинских учреждениях, физиотерапевтических учреждениях, а также в больницах. Физические упражнения являются чрезвычайно сложными с большой нагрузкой, приводящими к серьезным последствиям в определенных органах и системах. В некоторых случаях, дают осложнения на работу сердца и кровеносной системы, происходит неправильная работа почек, печени и пищеварительного тракта [2.С.98].

Чрезмерное напряжение является результатом несовместимости физической и спортивной нагрузки с физическими возможностями. Одной из важнейших проблем современного спорта является повышение конкурентоспособности спортсменов. Ведущие спортсмены мира занимаются спортом не менее 3 раз в день. Увеличивается количество соревнований, а также масштаб и интенсивность спортивных мероприятий. Усталость является физиологическим процессом, умственным или физическим нарушением и кратковременно исчезает после отдыха. Чрезмерная усталость, это состояние, которое возникает, когда прогрессирует процесс утомления, когда дело доходит до упражнений без выздоровления и когда нарушается режим упражнений, что приводит к развитию патологии [4.С.111].

В результате обоюдоострой и сильной физической активности тело спортсмена развивает два спорных случая:

1. Повышение физической подготовленности и спортивных способностей (возобновляемые источники энергии);

2. Хроническая усталость и спортивный дренаж (с периодическим обновлением).

Спортсмену желательно выступать в современном спорте и улучшать свою работоспособность, чтобы следующая тренировка не была полностью восстановлена. Большое внимание уделяется широко используемым реабилитационным инструментам для ускорения процесса занятий спортом и повышения спортивного потенциала. Разумное использование лечебного оборудования имеет решающее значение в условиях экстремальной физической и психологической (психической) нагрузки современного спорта. В настоящее время инструменты реабилитации доступны двумя различными способами: а) система, восстанавливающая спортсмена после тренировки; б) система

медицинской реабилитации: восстановление способности спортсменов справляться с болезнями, травмами и истощением. Инструменты реабилитации делятся на три основные педагогические, психологические и медицинские группы. Педагогические способы: заключаются в том, что рационализированная спортивная тренировка ускорит процесс восстановления и повысит спортивные результаты. Следующие факторы придают большое значение: в микро и макроциклах необходима многолетняя подготовка спортсмена с правильной комбинацией нагрузки и отдыха, введение специальных реабилитационных циклов, выходных, тренировок в разных условиях, расслабляющих упражнений, легких переездов, рационального доступа к тренировкам и конечным результатам. Психологические средства: снимают напряжение нервной системы, благодаря чему физические и физиологические функции организма быстро восстанавливаются. К ним относятся контроль всех типов нервных и психологических симптомов: сон, уверенность в себе, расслабление мышц, свободное время, гипноз и так далее.

Заключение. Для восстановления работоспособности организма необходимо используется широкий спектр спортивной медицины. В первую очередь это специальное питание, эргогенная диета и витамины. Кроме того, используются растительные и искусственные фармацевтические препараты. Средства гигиены также широко используются – режим дня, выполнение упражнений на природе и наиболее важным является физические средства: от массажа до сауны, термо-электро, баро, магнитные и другие методы. Неправильное использование этих средств, неадекватное состояние организма, увеличение количества нагрузок, сказывается на здоровье спортсменов и приводит к ухудшению их работоспособности. Поэтому, применяя это, необходимо принимать во внимание индивидуальные особенности, возраст, половые различия, физическое развитие, антропометрические данные, стадию и характер тренировки или соревнования.

**Использованная литература:**

1. Столичная С.Р. Спортивная физиология (Учебное пособие). – Ташкент: «Ижод», 2007 г.
2. Красевич Т.И. Теория и методика физического воспитания (Учебник, под ред. Т.И. Красевич-3том). – Киев: Олимпийская литература, 2004 г.
3. Azizov I.G., Sobirov Sh.S. Sport fiziologiyasi. – T.: 1993-y.
4. Stehart J.L. Active Living: The Miracle Medicine for a Long and Healthy Life. Human Kinetics Publishers 2. Geli, JA (2007). (Чудо-медицина для долгой и здоровой жизни).

# V BO‘LIM

# KUTUBXONASHUNOSLIK

**Тўйчи БАЙТУРАЕВ,**
**к.п.н., доцент кафедры «Библиотечно информационная деятельность» ГИИКУз**

## БИБЛИОГРАФИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ БИБЛИОТЕКИ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

**Аннотация.** *В статье анализируются основные библиографические указатели, включённые в электронные ресурсы на сайте данной библиотеки natlib.uz. В статье указатели данной библиотеки анализируются по целевым и читательским адресам.*

**Ключевые слова:** *издания, указатели, составитель, отбор, исследование.*

## ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASINING BIBLIOGRAFIK FAOLIYATI

**Annotatsiya.** *Maqolada, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining Infolib veb-saytidagi elektron resurslarga kiritilgan asosiy bibliografik ko‘rsatkichlar va ushbu kutubxonaning indekslari o‘quvchilar manzillari bo‘yicha tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *nashrlar, indekslar, kompilyator, tanlov, tadqiqot.*

## BIBLIOGRAPHIC ACTIVITIES OF THE NATIONAL LIBRARY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER ALISHER NAVOI

**Abstract.** *The article analysis the main bibliographic indexes included in the electronic resources on the website of this Infolib. In the article, the indexes of this library are analyzed by target and reader addresses.*

**Key words:** *publications, indexes, compiler, selection, search.*

В условиях современной глобализации остается актуальным вопрос создания возможности быстрого получения необходимой информации, связанной с различными сферами социально-экономического развития каждой страны, особенно в сфере развития науки, образования и культуры. Интеграция процессов обслуживания читателей в библиотечно-информационных учреждениях, сбора и обработки информации, организация электронных библиотек, создание электронных каталогов, организация электронных библиографических указателей способствует повышению скорости и качества дистанционного обслуживания читателей в образовательных учреждениях и регионах. Также проводятся определенные работы по подключению к базе данных Национальной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои и других библиотек страны. Это, в свою очередь, служит дальнейшему расширению возможностей пользователей библиотек по использованию имеющихся ресурсов.

Национальная библиотека Республики Узбекистан им. А.Навои в настояшее время является информационным, культурно-просветительским учреждением, способное развивать научно-исследовательскую, научно-методическую и информационную деятельность в области библиотечно-библиографической сферы. Пользуясь всеми источниками разыскания среди которых каталоги библиотек, библиографические указатели, можно успешно осуществлять разыскание необходимой литературы, различные издании по интересующей тематике.

Учитывая растущие потребности в информации, библиографическая служба Национальной библиотеки Республики Узбекистан приступила к созданию возможностей использования электронных баз данных в открытом доступе. В настоящее время для читателей и пользователей действуют следующие электронные порталы библиотеки:

- полнотекстовый электронный ресурсный портал: natlib.uz.

• информационный портал редких и рукописных произведений: nodir.natlib.uz.

• портал научной информации: diss.natlib.uz.

• портал периодических изданий: press.natlib.uz.

• информационный портал книг с QR-кодировкой: qr.natlib.uz

• медиа-портал: media.natlib.uz.

Задачей библиографической деятельности национальной библииотеки является оказания положительного влияния на самостоятельное чтение читателей, воспитание информационной культуры пользователей и повышение культуры чтения. Реализация этой задачи осуществляется путем управления и организации чтения с помощью различных библиографических средств – библиографических картотек, библиографических пособий, особенно рекомендательного характера по определенной тематике. С помощью библиографии пользователь находит и отбирает необходимую литературу, а самое главное, что он не сталкивается с всеми источниками по темам и отбирает важный документ для своего исследования.

Учитывая растущие потребности в информации, библиографическая служба Национальной библиотеки Республики Узбекистан приступила к созданию персональных библиографических пособий, посвященных общественным, культурным и научным деятелям, ученым, мастерам литературного слова страны. Включение аудио и видеоматериалов вместе с печатными документами в создаваемые библиографические материалы, а также тот факт, что такие библиографические руководства упоминаются на веб-странице infolib для широкого использования читателями, считается важным направлением деятельности данной библиотеки.

На сайте Национальной библиотеки Республики Узбекистан имени Алишера Навои имеется большое количество указателей, предназначенные для различных специалистов, научных деятелей, исследователей в качестве основных источников литературы которых, были выбраны книжные издания и статьи о самих учёных.

При выборе литературы приоритет отдается ее научной ценности. Если библиографические издания включают в себя ресурсы одного автора, разыскание и группировка библиографических записей распределяется по хронологии периода публикации под каждым заглавием. Если же библиографический указатель включает в себя ресурсы нескольких авторов, то их имена расположены в алфавитном порядке, внутри по хронологии публикации.

Читательская аудитория библиографических изданий многобразная, поскольку гуманитарные науки включают множество тем, и по каждому отдельному автору имеются научно-популярные издания и автобиографические издания, представляющие интерес для широкого круга читателей. Основными пользователями библиографических указателей являются специалисты, студенты, магистры, докторанты, возможно, потому, что им интересен образ жизни этих ученых.

Одним из первых указателей этого направления является библиографический указатель «Библиография Абая», в который входит все издания данного автора от первых его произведений печатного характера, изданных в Узбекистане, до современных видов изданий выдающего мастера слова, казахского мыслителя.

Библиографический указатель, составленный библиографами Национальной библиотеки Узбекистана является научно-вспомогательным указателем с определеным читательским адресом. Хотелось бы отметить, что в настоящее время специалисты-библиографы собрали всю доступную библиографическую информацию в виде электронных ресурсов и представили на сайте национальной библиотеки.

Благодаря данной работе проблема группировки литературы по содержанию в библиографии исторической литературы может быть оценена как положительное явление для пользователей указателя. Группировка литературы по библиографическим показателям близка к систематизации в науке. Изучая библиографические публикации, можно выявить ряд проблем и особенностей метода ретроспективной библиографии.

Цель данной библиографического пособия – познакомить читателей с творчеством Абая, которые в настоящее время можно считать общедоступными. Деятельность библиографов национальной библиотеки даёт возможность зарубежным исследователям познакомиться с творчеством Абая, изучить его стихи, в которых дается философия этого мыслителя и казахского народа с позиции своих знаний и интересов читателей.

Одним из библиографических пособий по персональным изданиям составленных библиографами Национальной библиотекой Республики Узбекистан им. А. Навои за последние годы является указатель «Мангуликка дахлдор адиб» («Писатель с народной любовью»), который был составлен в сотрудничестве со специалистами областных информационно-библиотечных учреждений, посвященный 125-летию со дня рождения основателя узбекского романа писателя Абдуллы Кадыри. Через свое произведение “Минувшие дни” он показал традиции, ценности, уважение к семье в истории узбекского народа. Указателем могут пользоваться как специалисты, исследователи также и сотрудники всех библиотек для проведения массовых мероприятий и в изучении истории страны.

В число библиографических указателей сайта включена персональная библиография о деятелях Узбекистана. Одним из них является библиография изданий публициста, драматурга Рамиза Боботжона. Этот поэт создал уникальные творения поэзии. Он один из известных поэтов и деятелей узбекской литературы. Хотя Рамз Боботжон вошел в литературный круг как поэт, сначала он был известен как публицист и драматург. В

данной библиографии сделана попытка предоставить полную библиографию переводов изданий художественной литературы разных стран. Определение читательского адреса данного указателя очень широк, т.к. эти издания пользуются спросом у большой аудитории.

На основании этого, правильно определяется цели и читательская аудитория каждого из библиографических указателей, готовящихся к изданию Национальной библиотекой Республики Узбекистан имени А.Навои:

• составления библиографических персональных указателей по изданиям фонда Национальной библиотеки, фондов областных библиотек (каталог литературы, поступивший в Национальную библиотеку Узбекистана им. А. Навои за определенный год);

• составления библиографических указателей для научного исследования определённой тематики (Из фонда библиотеки и фондов областных библиотек для указателя “Библиография издании по транспорту” “Библиография издании по истории Хивы”).

Среди указателей библиотеки на сайте можно найти библиографический указатель «Художественная литература в переводе на узбекский язык». Пособие данного вида электроного ресурса это указатель изданий по истории и деятельности информационно-библиотечного центра «Турон», который является одной из крупнейших библиотек республики, научным и образовательным учреждением. Библиотека была открыта как независимая публичная библиотека в Ташкенте в 1918 году.

В данном издании показана духовная атмосфера прогрессивных интеллектуалов, как Мунавваркори Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Абдулла Кадыри, Чолпон, Фулом Зафари, Шокирджон Рахими, Маннон Уйгур, которые заняли особое место в борьбе за свободу Родины и нации.

В издании в отдельном разделе имеется список литературы по тематике, персоналиям и их деятельности. Отдельно дана библиография литературы о деятельности библиотеки «Турон».

Групировка издания составлена по хронологии изданий в виде книг и статей. В данной хронологии в начале размещены изадния прошлых лет, а вновь опубликованные – в конце. Указатель могут использовать специалисты, ученые и исследователей библиотечно-библиографической деятельности. Среди редких изданий, хранящихся в библиотеке, имеются произведения авторов, изданных до революционый период. Библиографию этих ресурсов мы можем отнести к библиографии краеведческих изданий по ее содержанию. Они рекомендованы специалистам, научным исследователям для изучения развития книгоиздательского дела в Узбекистане.

В этой областной библиотеке библиотеке составлен научный указатель по истории края. Указатель составлялся путем отбора и библиографического размещения статей, относящихся к региону, из газетных статей республики. Очень важный и нужный путеводитель оживит те времена для любого читателя, желающего узнать нашу историю. Отдельный научно-вспомогательный указатель по истории края был осуществлен путем отбора статей из газетных статей о крае и размещения их в библиографическом порядке [3].

В электронном списке газеты «Садои Фергана», составляющем библиографию литературы, посвященной деятельности газет в нашей стране, «Национальный пресс-фиксист» и «Библиографический указатель, составленный для Туркестанской областной газеты 1867–1916 гг» история газет и библиография опубликованных в них статей. Размещение литературы по содержанию. Пользователями данного библиографического пособия могут быть специалисты, научные работники, исследователи. Тот факт, что данные пособия размещаются в социальных сетях в виде электронных пособий, расширяет их читательскую аудиторию.

Мы видим, как формируются и представляются пользователям цифровые библиографические указатели Национальной библиотеки Республики Узбекистан имени А.Навои. Специалисты считают, что библиографический указатель – это ресурс, которым могут пользоваться все читатели, которым интересна история матеральной и духовной культуры данного края, региона и страны. Указатели, включеные в электроные ресурсы могут быт использованы студентами, иследовотелями. Они помогут за кароткое время найти нужную книгу или статью по изучаемой тематике.

В библиотеке также издан библиографический указатель, состоящий из научной и художественной литературы, монографий и научных статей, касающихся истории второй мировой войны. В этот указатель включена библиография литературы по промышленности, сельскому хозяйству, образованию, здравоохранению и другим сферам жизнедеятельности Узбекистана того времени, а его читателями являются специалисты, сотрудники учёных и потомки людей того периода. Можно отметить, что данное пособие предназначено широкому кругу читательской аудитории, изучающую этот период.

Самым большим достижением этого указателя является то, что пользователи благодаря информации, представленной в данном указателе могут найти литературу о людях и исторических событиях через библиографию статей и книг. Как жили наши предки-сотечественики в этот период времени, Как развивались виды производства, промышленость, сельское хозяйство, народное образование, медицина, печать и т.д. Как люди, жившие в это время поднимали все виды производства. Эта информация отражается в книгах, статьях, включенные в библиографическое пособие.

В библиографических списках, составленных сотрудниками библиотеки, а также исследователями деятельности ученых представлена многовековая духовная культура региона через библиографии изданий таких мыслителей, как Абу Насыр Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина. В данных пособиях представлены документы таких ученых как Абу Насыр Фараби – его произведение «Классификация наук», Абу Райхан Беруни – «Истории древних народов», Абу Али ибн Сины – «Донишманднаме», Юсуфа Хоса Хаджиба – «Кутадғу билик», Махмуда Кашгари – «Девону луғоту Тюрк», Алишера Навои – «Маджолис ун Нафаис», З.М. Бабура – «Бабурнаме».

Библиография издании о З.М. Бабуре и его потомков было издана в Узбекистне в 2010 году из рукописного фонда Андижанского музея. В 2014 году была издана библиография изданий о З.М. Бабуре и его потомках, состоящая из публикаций фондов библиотек Узбекистана. В 2016 году в Москве было издан библиографический указатель изданий о З.М. Бабуре и его потомках, состоящий из ресурсов научных библиотек России.

Библиографическую информацию о трудах ряда других ученых можно получить из библиографических сведений в ежегодном календаре «Важные и незабываемые даты независимого Узбекистана», который регулярно освещает политическую, культурную и экономическую жизнь нашей республики, важные даты, события и юбилейные даты на узбекском и русском языках с 1963 года.

Современная библиографическая деятельность Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои ведётся опытными специалистами службы нацинальной библиографии, оказывающих широкий спектр научно-информационных и информационно-библиографических услуг не только пользователям библиотеки, но и сотрудникам других учреждений. Специалисты библиотеки в полной мере применяет идею о том, что наиболее важными аспектами в составлении библиографических указателей являются хорошая память, высокие коммуникативные навыки и высокая способность разумного мышления определенной личности [1].

Поэтому для создания электронных ресурсов в Узбекистане необходимо, чтобы каждая научная библиотека осознала, что она участвует в информацонной деятельности страны. А также нам, преподавателям, как и нашим студентам, необходимо также осознать эпоху цифровых технологий. Любое научное исследование начинается с изучения научной литературы по тематике, определённых авторов изучавших данную тематику. Поэтому составление библиографических указателей научной литературы считается важным видом деятельности для исследователей, научных работников и для студентов изучающих определённой тематику [2].

Изучая библиографические указатели составленные сотрудниками Национальной библиотеки, можно прийти к выводу, что при составлении пособий, библиографы придерживаются метода полноты отбора литературы. Разыскание изданий проводится через все источники фондов национальной библиотеки, других научных библиотек страны и через текущие государственные указатели Узбекистана и других стран [3].

Так как в современном обучении возрастающую роль играет самостоятельная подготовка студентов системы высшего образования, указатели данной библиотеки могут быть путеводителями в разыскании литературы по определенным темам. Мы можем утверждать, что библиографические пособия данной библиотеки и дальше будут полезными информационными источниками для исследователей.

Специалисты Национальной библиотекой Республики Узбекистан им. А. Навои в сотрудничестве с сотрудниками областных информационно-библиотечных центров информируют о редких рукописных книгах, хранящихся в библиотеках Самаркандской, Хивинской, Бухарской и Ташкентской областей. Библиографические ссылки отличаются от другой продукции своей социальной значимостью, относительной полнотой и объемом. Соответственно подготавливаются виды национальных библиографических указателей Узбекистана.

Система информационных учреждений в лице библиотек должны повышать качество использования информационных ресурсов этих учереждений. Итак, пришло время для нас, библиотечно-библиографических работников, осознать свою ответственность за создание фундамента электронной библиотеки с помощью технологий цифрового обслуживания, и мы все должны это почувствовать эту деятельность без которого библиотечному обслуживанию очень трудно будет достич свой цели.

**Использованная литература:**


1. Нуриддинова Ф. Тошкент вилояти тарихига доир библиография. // INFOLIB. 2019-й. № 3. 82–87-б.
2. Раҳматуллаев М.А. Ахборот-кутубхона муассасаларининг автоматлаштирилган тизими (Услубий қўлланма). – Т.: “Online Press”, 2014-й. 229-б.
3. Тешабаева У. Ривожланган кутубхоналар мамлакат тараққиётининг белгисидир. INFOLIB. 2020-й. № 3. 2–5-б.

**Yusup MANNONOV,**
**O‘zDSMI Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti “Kutubxonashunoshlik” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

# AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

**Annotatsiya.** *Maqolada axborot-kutubxonalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish jarayonlari, ularni amalga oshirish yo‘llari to‘g‘risida so‘z ketadi.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot-kutubxona muassasalari, axborot-kutubxona markazi, axborot-resurs markazi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, rejalashtirish.*

# ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ В ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА НАУЧНОЙ ОСНОВЕ

**Аннотация.** *В статье приводятся мнения о процессах организации работы на научной основе в информационных библиотеках и путях их реализации.*

**Ключевые слова:** *информационно-библиотечные учреждения, информационно-библиотечный центр, информационно-ресурсный центр, организация работы на научной основе, планирование, основе.*

# ORGANIZATION OF WORK IN INFORMATION-LIBRARY INSTITUTIONS ON A SCIENTIFIC BASIS

**Abstract.** *In the article, there are opinions about the processes of organizing work on a scientific basis in information libraries, and the ways of their implementation.*

**Key words:** *information-library institutions, information-library center, information-resource center, organization of work on a scientific basis, planning.*

Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish boshqaruv san’atining asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish – bu fan yutuqlari hamda texnikani qo‘llash bilan kishilarni yagona ishlab chiqarish jarayonida samaraliroq birlashtirish, kishilar salomatligini saqlash, ilg‘or tajribalarga asoslangan mehnatni tashkil qilishdir. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimiga kadrlarni joy-joyiga qo‘yish, mehnat taqsimoti va kooperatsiya, mehnatni normalash va rag‘batlantirish, ish joyini tashkil etish, mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash va boshqalar kiradi.

Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari kutubxonachilik ishining o‘ziga xosligidan kutubxonaning madaniy-ma’rifiy va ilmiy-axborot muassasasi ekanligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimining asosiy prinsipi kam mehnat va vosita sarflab eng yuqori natijaga erishishda kutubxonaning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Chunonchi, kutubxonadagi texnik jarayonlar va operatsiyalarni ratsional tashkil etish, ish vaqtini iqtisod qilish va uni kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga sarf qilishdir.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimida uchta asosiy prinsipni ko‘rishimiz mumkin. Bular: iqtisodiy, psixofiziologik va ijtimoiy.

- Ish vaqtidan unumli foydalanish, moddiy, mehnat va pul resurslaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hokazolar mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning iqtisodiy vazifalariga kiradi.
- Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimining psixofiziologik vazifalariga kutubxona ish jarayonida sog‘liqni saqlash va mehnat faoliyatini ta’minlovchi sog‘lom muhitni vujudga keltirish kiradi.
- Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimining ijtimoiy masalalariga kutubxona xodimlarini doimiy ravishda madaniy-texnik saviyasini har tomonlama kamol topishiga sharoit yaratish va uni hayotiy zaruriyatga aylantirish kiradi.

Yuqoridagi vazifalar, ya’ni iqtisodiy, psixofizilogik va ijtimoiy masalalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Iqtisodiy masalalarni hal etilishi mehnat samaradorligini ham oshiradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat boyligini va fuqarolar farovonligini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida insonni sog‘lig‘i va mehnat qilish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi [2.25-b.].

Zamonaviy axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish uni texnik va texnologik bazasini yaratish, uni barcha bo‘g‘inlarini ratsional boshqarish kutubxonani har tomonlama va garmonik rivojlantirishni talab etadi. Bu esa mehnat jarayonining barcha jabhalarini, jumladan, quyidagi tadbirlarni ham: tozalik va tartib, binoni normal temperaturada va namlik bilan ta’minlash, ish joyini unumli tashkil etish, sog‘lom psixologik muhitni tashkil etish va boshqa bir qator masalalarni hal etishni talab etadi.

Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. *Mehnatni taqsimlash va muvofiqlashtirish (kutubxonaning optimal tuzilmasini aniqlash). Bo‘limlar, sektorlar, guruhlar haqida nizomlar tuzish va ularni ishlab chiqish, lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va joriy etish.*

2. *Axborot-kutubxona jarayonlarini takomillashtirish (kutubxona ish jarayonlarini ratsional texnologiyasini ishlab chiqish; ularni avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, texnologik yo'riqnomalar tuzish, mehnat usullari va yo'llarini takomillashtirish).*

3. *Ish joyi va mehnat sharoitlarini tashkil etish (xizmat xonasi va ish o'rnini tashkil etishni ratsional rejasini tuzish, optimal ish sharoitlarini yaratish va h.k.).*

4. *Normallashtirish (ishlab chiqarish va ish vaqti normalarini ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish va boshqa normalar).*

5. *Boshqarish tizimini takomillashtirish (boshqarishni ratsional strukturasini belgilash, rejalashtirish va hisobga olish tizimini takomillashtirish, qabul qilingan qarorlarni nazorat qilish bo'yicha operativ nazoratni tashkil etish, belgilovchi hujjatlarni tartibga solish, axborot bilan ishlash jarayonlarini takomillashtirish va h.k.).*

6. *Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish (malaka oshirish tizimi tadbirlarini ishlab chiqish, yangi xodimlarni o'rgatishni usul va shakllarini takomillashtirish).*

7. *Mehnatga ongli munosabatni va ijodiy yondashishni tarbiyalash.*

Ish joyini tashkil etish va mehnat sharoitini yaxshilash kutubxonada mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ish joyini ratsional tashkil etishni har tomonlama o'ylab, xodimning o'zini ham bu ishga jalb qilgan holda tashkil etish talab qilinadi. Bu muammoni hal etish uchun unga kompleks holda yondashish, uni har bir elementini hisobga olgan holda hal etish talab etiladi.

Kutubxona-axborot muassasasining sanitariya-gigiyenik sharoitiga quyidagi kompleks tadbirlar, jumladan, ish vaqti grafigini unumli tashkil etish, ish joyini to'g'ri yoritish, binoning issiq-sovuq holati (temperaturasi), xonaning namlik darajasi, havoning tarkibi, shovqindan himoyalanganlik kiradi. Kutubxona dizayni elementlari binoni va ish joyini ranglar bilan bezalishi, ko'kalamzorlashtirilganlik ham kutubxonada ishni normal tashkil etish uchun zarur sharoit hisoblanadi [2.27-b.].

Har qanday axborot-kutubxona muassasasi binosi ikki zonaga bo'linadi: kitobxonlar (xizmat ko'rsatish zonasi) va xizmat – ishlab chiqarish ( funksional-texnologik zona). Kutubxonachining ish o'rni qaysi zonada bo'lishiga qarab ish joyi o'ziga xos ravishda tashkil etiladi. Bunda shaxsiy qarash yoki ko'nikma emas, balki shu xodimga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni hisobga olish kerak.

Kutubxonachining ish o'rnini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan maydonni belgilash asosiy rejalashtirish normalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi me'yoriy hujjatlarga ko'ra, bitta xodim uchun 4-6 m.kv. ish joyi belgilangan. Bu norma ish joyini tashkil etish uchun zarur bo'lgan kutubxona mebellari va jihozlarini hisobga olgan holdadir. Masalan, ishlov berish, sistemalashtirish, kataloglashtirish bo'limi xodimlari uchun eng katta ish maydoni kerak bo'ladi (3,8 m.kv.dan 6 m.kv.gacha). Xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari uchun esa eng kam ish maydoni 2,7 m.kv. kifoy. Lekin bu yerda mebel va jihozlar o'rtasida harakatlanish uchun keng ish zonasi mavjud bo'lishi kerak. Ochiq kitob fondi sharoitida kutubxonachining ish o'rnini shunday tashkil etish kerakki, u hamma narsani ko'rib tursin. Shuning uchun ham xodimlar ish maydoni normasini belgilashga tabaqalashtirilgan holda binoning sharoiti va joyni funksional texnologik tuzilishi talablaridan kelib chiqqan holda belgilash zarur.

Ish maydonidan ratsional foydalanish uchun standartlashtirilgan kutubxona mebeli va jihozlari – xizmat stoli, stul, stellaj, ko'chma kitob javoni, xizmat katalogi yoki ishchi kartotekasi uchun katalog shkafi, adabiyotlarni qabul qilib olish va berish kafedrasi va boshqalar ishlatiladi. Mebel va jihozlarni tanlashda ularning hajmi maydonga nisbatan eng kichik hajmda bo'lishi kerak. Shu bilan birga stol va stul orasidagi balandlik 40-42 sm bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ish sharoitini yaxshilash uchun mebel va jihozlarning rangi ham katta ahamiyatga egadir. Masalan, stolning yuza qismining rangi to'q rangda bo'lishi (jigarrang, to'k ko'k rang) kerak. Stullar qattiq yoki yarim yumshoq, ko'tariladigan, aylanadigan, suyanchiqlik bo'lishi kerak. Zamonaviy axborot-kutubxona muassasalarida "erkin rejalashtirish" usulidan ko'proq foydalanilmoqda. Bu usulda kutubxona mebellari va jihozlaridan foydalangan holda binoni alohida-alohida ish uchastkalariga ajratish tushuniladi. Ish joyini bunday tashkil etishda kutubxonaning turli bo'limlari uchun zarur ish maydonini yaratish imkoniyati tug'iladi. Bunda asosan stellaj va ko'rgazma vitirinalaridan foydalaniladi. Shuningdek, ish o'rnini tashkil etishdagi muhim elementlardan biri binoni to'g'ri yoritish, namlik darajasi, issiq-sovuqlik rejimi, jimjitlik va boshqalardir.

Kutubxonada mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda kutubxona binosining namlik darajasi, tozaligi ham katta ahamiyatga egadir. Havoning namlik darajasi 50-70% va doimo tozalik saqlanishi zarur. Xizmat xonasi va o'quv zallari har qanday ob-havo sharoitida har soatda 5-10 daqiqa davomida shamollatib turilishi kerak. Bino va jihozlardagi changlar muntazam ravishda tozalanib turilishi va buning uchun har oyda bir marotaba tozalik kunini muntazam o'tkazib turish zarur.

Axborot-kutubxonada mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda rejalashtirish ahamiyati jihatidan boshqaruvning asosiy funksiyalaridan biridir. Har qanday boshqaruv reja tuzishdan boshlanadi. Reja tuzish esa boshqaruvning maqsad va vazifalarini belgilash, vazifalarni amalga oshirish usullari hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liqligini belgilash bilan boshlanadi.

Rejalashtirish – bu rahbariyat harakatlarining yagona yo'nalishini, tashkilot a'zolarining umumiy maqsadlariga erishish yo'lidagi harakat birligini ta'minlash vositalaridan biridir. Tashkilotda, shu jumladan, kutubxonada rejalashtirish bir safarlik hodisa emas, u doimiy, uzluksiz jarayon. Chunki birinchidan, har qanday tashkilot maqsadga

erishgandan so‘ng, yana yangi maqsad tanlab, iloji boricha o‘z umrini uzaytirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, u doim noaniq kelajakni biroz bo‘lsa-da, ko‘ra bilishlik zaruratidan kelib chiqadi.

Har qanday tashkilotda rejalashtirishni boshlashda eng birinchi qadam sifatida strategik rejalashtirish yuzaga chiqadi. Strategik rejalashtirishdan keyin boshqa barcha boshqaruv funksiyalari birlashadi. Strategik rejalashtirish rahbariyat tomonidan qo‘llaniladigan va tashkilot o‘z maqsadlariga erishishi uchun yordam beradigan o‘ziga mos strategiyani ishlab chiqishga olib keladigan harakatlar, tadbirlar, qarorlar to‘plamidir. Strategik rejalashtirish – boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan instrument sifatida xizmat qiladi. Uning maqsadi, tashkilotda yetarli darajada o‘zgarishlarni ta’minlashdan iborat.

Axborot-kutubxona faoliyatini rejalashtirishishning maqsadi, vazifasi va darajasi aniq harakat dasturini belgilaydi. U axborot-kutubxonalarning madaniy-ma’rifiy muassasa sifatidagi faoliyatini yo‘naltiradi. Axborot- kutubxona faoliyatini rejalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak:

- ilmiy asoslanganlik;
- joriy ishlarni istiqbol ishlar bilan uyg‘unlashtirish;
- rejani bajarilishi shartliligi;
- rejani muvoffiqlashganligi;
- rejani aniqligi.

Kutubxonalar o‘z oldilarida turgan ko‘p tarmoqli ishni bir maromda uzilishlarsiz, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun reja bo‘yicha ishlashi kerak. Reja bo‘yicha ishlash – qachon va qanday maqsadda nima ish qilish kerakligini bilish demakdir. Yaxshi tuzilgan reja kutubxonani u yoki bu davrdagi vazifa va ish mazmunini aniqlaydi, ishga istiqbollik baxsh etadi, aholiga xizmat ko‘rsatishni va ommaviy tadbir tashkil qilishni osonlashtiradi, kutubxona fondidan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishga, kutubxona ish sifatini yaxshilashga va mehnat samaradorligini oshirishga yoram beradi. Axborot-kutubxonalarda biznes-rejasiz yuqori va beqaror mehnat unumdorligiga erishib bo‘lmaydi. Mehnat unumdorligi bo‘yicha aniq maqsadsiz, yuqori va past mehnat unumdorlik haqida fikr yuritish noo‘rin. Maqsad masalani hal etishda, ya’ni unumdorlikni oshirishda nimalar yordam beradi, nimalar ziyon qilishini aniqlashdadir [3.96-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ №4354-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori va qarorning 1-ilovasi 2019–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish “Konsepsiyasi” Respublika axborot-kutubxonalarning ustuvor yo‘nalishlari va rivojlantirishning aniq maqsadlari, vazifalarini belgilab berdi [1.5-b.].

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarini keng joriy etish asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishni samarali usul va vositalar asosida tashkillashtirish, xalqaro hamkorlikkni oshirish kabi bir qator vazifalar konsepsiyaning asosini tashkil qiladi. Axborot-kutubxonalar biznes-reja tuzishda konsepsiyani asosiy dastur qilib olishilari maqsadga muvofiqdir.

Yangi axborot texnologiyalari boshqarishning hamma bo‘g‘inlarida unumdorlikni oshirib yuboradi. Axborot-kutubxonalarda kompyuter texnikasi ijodiy jarayonlar, sermashaqqat yumushlarga sarflangan vaqtni tejaydi. Aloqa texnikalari kerakli vaqtda axborot olish imkonini beradi. Odamlarni shu kabi texnika vositalari bilan ishlashga o‘rgatish hamda uning yutuqlaridan foydalanishni bilish kerak [3.122-b.].

Axborot-kutubxonalarda inson omillarini hisobga olmaslik, unga bee’tiborlik, kutubxona samaradorligini pasaytirib yuboradi. Inson omilini hisobga olish, odamlarga e’tiborli bo‘lish boshqaruv obro‘si hisoblanadi. Xodimlarni bo‘shatib yuborish vasvasasi bo‘lmasligi, iqtidorli mutaxassislarni mansabga ko‘tarish, maqsadga yo‘naltirilgan turmush sharoitini yaxshilash dasturlarini bo‘lishi kutubxona uchun zarurdir. An’anaviy mehnat omili motivi (mehnatga haq to‘lash, mansabga ko‘tarish) hali ham unumdorlikni oshirishda hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Odamlar qiziqishi va ehtiyojini e’tiborga olish ularni qo‘yilgan maqsad sari boshini qovushtirishda yangicha fikrlashni shakllantirish moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish nihoyatda muhimdir. Mehnatga ehtiyoj, tadbirkorlik odamlar orasida sog‘lom muhitni yuzaga keltirish ishlab chiqarishda tartib intizomni mustahkamlash uchun sog‘lom ruhda tarbiyalash darkor. Aholini ijtimoiy axborot bilan ta’minlashdan tashqari ijtimoiy boshqaruv uslublari masalalarni ko‘proq o‘rganish, muomala madaniyatiga rioya qilishni talab etadi. Xulosa qilib aytganda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish axborot-kutubxona muassasalarining istiqbolini belgilovchi muhim xarakatlar strategiyasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ № 4354-sonli Qarori. – Toshkent: 2019-yil, 7-iyun.
2. Maxmudov M. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish. – T.: “Donishmand ziyo”, 2023-y. 200-b.
3. Mannonov Y., Mavlyanov K. Axborot-kutubxona menejmenti (O‘quv qollanma). – T.: “Fan”, 2022-y.136-b.

**Internet manbalari:**

1. www.http://kitob.uz
2. www.http://natlib.uz
3. www.http://ziyonet.uz

**Nozima SHAMURATOVA,**
**“Kutubxonashunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi**

# MAKTAB KUTUBXONACHISINING BUGUNGI AXBOROT ASRIDAGI IJTIMOIY VAZIFALARI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, maktab kutubxonachisining bugungi kundagi kutubxona faoliyatini tashkil qilishdagi vazifasi, kutubxonachilik kasbining jamiyatimizda tutgan o‘rni maktab o‘quvchilarining ilmiy salohiyatini shakllantirishdagi o‘rni, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlari haqida so‘z ketadi. Shuningdek, maktab kutubxonachilariga qo‘yilgan talablar, maktab kutubxonachilarining kasb sifatida shakllanish tarixi va axborot-resurs markazlarining asosiy vazifasi haqida ma’lumotlar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *kutubxonachi, imij, nutq madaniyati, tafakkur sifati, moslashuvchanlik sifati, iroda sifati, pozitsiyalash, manipulyatsiya, verballashtirish, detallashtirish .*

# ЗАДАЧИ ШКОЛЬНЫХ БИБЛИОТЕКАРЕЙ В ИНФОРМАЦИОННУЮ ЭПОХУ

**Аннотация.** *В статье показана роль школьного библиотекаря в организации библиотечной деятельности на сегодняшний день, роль профессии библиотекаря в нашем обществе, роль в формировании научного потенциала школьников, их личностных и профессиональных качеств. В статье освещены требования, предъявляемые к школьным библиотекарям, история становления школьных библиотекарей как профессии, а также основные задачи информационно-ресурсных центров.*

**Ключевые слова:** *библиотекарь, образ, культура речи, качество мышления, качество гибкости, качество воли, позиционирование, манипулирование, вербализация, детализация..*

# THE SOCIAL DUTIES OF THE SCHOOL LIBRARIANS IN THE INFORMATION AGE

**Abstract.** *This article illustrates about the role of the school librarian in the organization of library activities as well as the importance of librarian profession in our society also the qualities necessary for a modern librarian, the librarian's image and speech culture, and issues of their formation. The requirements for school librarians, the history of the formation of school librarians as a profession, and the main task of information and resource centers are covered in the article.*

**Key words:** *librarian, image, speech culture, quality of thinking, quality of flexibility, quality of will,positioning, manipulation, verbalization, detalization.*

Maktab kutubxonalarining ahamiyati qanchalik muhimligini AQShning 19ta shtatida o‘tkazilgan 60dan ortiq tadqiqotlar orqali biz o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlanganligidan ham bilishimiz mumkin. Maktab kutubxonachisi o‘quvchilarga mutolaaning ahamiyatini o‘rgatadi va turli usullar, mashg‘ulotlar orqali ularning kitob o‘qishni tushunish darajasini oshirishga yordam beradi. Kutubxona va axborot fanlari bo‘yicha Ensiklopediyaning 1-nashri orqali dunyodagi 1-maktab kutubxonasini qachon ochilganini aniqlash imkonsizligini, shuningdek, 1740-yilda Benjamin Franklin maktab kutubxonalarini akademiyaning asosiy elementi, deb e’tirof etgan va Filadelfiyadagi Penn Charter maktabi 1744-yilda tarixda 1-maktab kutubxonasi sifatida maxsus mo‘ljallangan xona uchun ajratganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Tarixdagi 1-oliy ma’lumotli maktab kutubxonachisi 1900-yilda birinchi professional ta’lim olgan Meri Kingsberi Bruklindagi Erasmus o‘rta maktabi kutubxonasini boshqarishga tayinlanadi. Ikkinchi maktab kutubxonachisi esa, 1903-yilda Bruklindagi Qizlar o‘rta maktabi tomonidan tayinlangan Meri E.Xoll.

Maktablarda kutubxonalarning xizmatlari 1800-yillarning oxiridan boshlab, jamoat va davlat kutubxonalari kitob vagonlaridan norasmiy sinf kolleksiyalariga bugungi kunda biz bilgan kutubxonalarga qadar rivojlandi. XIX asrning keyingi qismi 1876-yilda Melvil Dyui boshchiligidagi bir guruh kutubxonachilar tomonidan Amerika Kutubxonalar Assotsiatsiyasi (ALA) tashkil etilishi bilan zamonaviy Amerika kutubxonalari harakatining boshlanishi bo‘ldi. Rivojlanishning ushbu boshlang‘ich bosqichlarida maktab kutubxonalari asosan kichik to‘plamlardan iborat bo‘lib, maktab kutubxonachisi birinchi navbatda ish yurituvchi rolini o‘ynagan.

Amesbury ingliz maktabi o‘qituvchisining fikricha, kutubxona bu – faqatgina kitoblar saqlash va mutolaa maskani emas. Bu yerda bolalar nafaqat maktab dasturlarini o‘qishadi, balki hayotni o‘rganishadi. Shuning uchun maktab xodimlari kutubxonada shunday muhit yaratilishi kerakki, ushbu izlanishlarni

olib borish osonlashsin, biroq yanada muhimi – bolalarda tadqiqot o‘tkazish istak-xohishi uyg‘onsin, deb hisoblaydilar. Yorug‘ bino, yumshoq o‘rindiqlar, bolalarning bo‘yiga mos kitob javonlari, stol usti o‘yinlari va konstruktorlar, shuningdek, bolani dunyoni o‘rganishga qiziqtiradigan texnologiyalar, bularning barchasi zamonaviy maktab kutubxonalarining jim o‘tirib kitob o‘qiydigan emas, balki kashfiyot, o‘zaro ta’sir va o‘yin maydoni bo‘lib xizmat qilishiga zamin yaratadi.

1999-yilda Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyalari va institutlari federatsiyasi (IFLA) jahon miqyosida muhim ahamiyatga ega YUNESKO maktabi kutubxonasi manifestini nashr etadi, unda shunday deyiladi: “*Maktab kutubxonasi axborot va bilimga asoslangan zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va g‘oyalarni taqdim etadi. Maktab kutubxonasi o‘quvchilarni tugamas bilim olish ko‘nikmalari bilan qurollantiradi va tasavvurini rivojlantiradi, ularning mas’uliyatli fuqaro sifatida yashashiga imkon beradi*” (1-band). Boshqa kutubxonachilardan maktab kutubxonachisining asosiy farqi asosiy kitobxonlari o‘quvchilar va o‘qituvchilarga xizmat qilishidir. Ularning vazifalari ta’lim muassasasi kutubxonasining ta’limiy, axborot va madaniy muassasa sifatidagi ishini tashkil qilish va o‘quv-tarbiya jarayonini kutubxona va axborot xizmati vositalari orqali ta’minlash hisoblanadi. O‘zbekistonda maktab kutubxonachilari bevosita maktab direktoriga va direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-iyundagi 2006-yildagi 381-sonli Prezident qaroriga asosan maktab kutubxonalari axborot resurs markazi nomi bilan almashtirildi. Axborot-resurs markazlari davlat ta’lim muassasalari huzurida tashkil etilgan, o‘quvchi yoshlarning, shuningdek, aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifasi quyidagilar:

1. *Ta’lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy ta’limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta’minlaydi;*

2. *Elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;*

3. *Axborot-kutubxona resurslaridan o‘zaro foydalanishni ta’minlaydi;*

4. *Boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;*

5. *Yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;*

6. *Madaniy, ta’lim, axborot dasturlari va loyihalarini, shuningdek, boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.*

Maktab kutubxonachisi o‘z faoliyatida Konstitutsiyaga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim muassasasi boshqaruv organlarining qarorlari, buyruqlari va boshqa me’yoriy huquqiy dalolatnomalariga, ta’lim muassasasi ustaviga, rahbariyatning buyruqlari va farmoyishlariga, kutubxona Nizomida ko‘rsatilgan ichki tartib-qoidalariga amal qiladi. Maktab kutubxonachisi kutubxona faoliyatini tashkil qilish uchun javobgar hisoblanadi, u maktab pedagogik jamoasi a’zosi hisoblanadi, pedagogik kengash tarkibiga kiradi. Maktab kutubxonachisi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. *Kutubxona umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish;*

2. *Kutubxonaga yuklatilgan vazifa va kasbiy majburiyatlarni bajaradi, uning ish faoliyatini samarali tashkil etadi hamda ijro intizomiga rioya qilish;*

3. *Kutubxonaning yillik va istiqbol ish rejalarini shakllantiradi, ularni o‘z vaqtida sifatli bajarilishini ta’minlash;*

4. *Yuqori tashkilot tomonidan maktab kutubxona jamg‘armasiga ajratilgan darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar, badiiy adabiyotlarni qabul qilib olish, ularni fanlar hamda sinflar bo‘yicha saralash;*

5. *O‘quvchilarga tegishli kitoblarni berish;*

6. *Har bir sinfga topshirilgan yoki tarqatilgan va qaytarib olingan kitoblarni hisob-kitob jurnalini yuritish;*

7. *Maktabda darsliklar saqlanishini nazorat qilish;*

8. *Maktab ta’tili mobaynida kitoblarni saqlash va ularni inventarizatsiyadan o‘tkazish;*

9. *Darsliklar zahirasini tiklashni ta’minlash bo‘yicha tegishli ishlar olib borish;*

10. *Kelgusi o‘quv yil uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarga bo‘lgan ehtiyojini tahlil qilib, buyurtmani maktab o‘qituvchilari kengashida tasdiqlatish, kutubxonada o‘quv seminar-treninglar, konferensiyalar va turli ijodiy tadbirlar tashkil etish;*

11. *Kutubxonaning axborot izlash tizimlarini yaratish ishlaridagi innovatsion jarayonlarni bibliografik, axborot, metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga joriy etilishini amalga oshirish;*

12. *O‘qituvchilar va o‘quvchilarni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik materiallar, videomateriallar, audiovizual va obunaga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, istiqbol rejalar tuzish;*

13. *Nashr qilish va pedagog xodimlarni xabardor qilish ishlarini tashkil etish;*

14. *Kutubxonaning foydalanuvchilariga kutubxona resurslari xizmatini ko‘rsatadi hamda uning bosma va elektron fondini shakllantirish;*

15. *Kutubxonada hisob va moliya hujjatlari (inventar daftari, ish kundaligi, yo‘qotilgan kitoblar o‘rniga qabul qilingan kitoblarni hisobga olish daftari, kelib tushgan va hisobdan chiqarilgan hujjatlar yuzasidan dalolatnoma, fondni inventarlashtirish va tekshirish ishlarining o‘tkazilganligi haqidagi dalolatnomalar, ma’lumotnomalar, davriy nashrlarning qaydlov kartotekasi)ni yuritish;*

16. *Sanitariya-gigiena talablariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishdan iboratdir.*

Bundan tashqari maktab kutubxonachilarning faoliyati yaxshi boʻlishi, eng avvalo, ularning kasbiy va shaxsiy sifatlariga ham bogʻliqdir. Ular quyidagi sifatlarga ega boʻlishlari zarurdir.

Tafakkur sifatiga ega boʻlish. Bu turli-tuman, ziddiyatli axborotlardan obyektivlikka yaqin xulosa chiqara bilish asosida tezkorlik bilan muammoning mohiyatini anglay bilish, voqea-hodisalarni tanqidiy tahlil qilish, ma'lumotlar oqimidan kerakli axborotni ola bilishda namoyon boʻladi.

***Moslashuvchanlik sifati*** – faoliyatning bir turidan ikkinchisiga tezlik bilan oʻta olish qobiliyati.

***Iroda sifati*** – har qanday zaruriy ishga oʻz-oʻzini majbur qila olish koʻnikmasi.

***Kommunikativ sifati*** – kasbdoshlari va foydalanuvchilarga oʻz fikrini erkin, tushunarli bayon qilishi, ishchanlik ruhida suhbat olib borishi, har bir foydalanuvchining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibda yondasha olish malakasi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, maktab kutubxonalarining samarali faoliyat yuritishi oʻquvchilarning ilmiy faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan ham maktab kutubxonachilariga qoʻyilgan talabning yuqoriligi, kutubxonachilik kasbining sifatlari bilimlar, koʻnikma va malaka, faoliyat samaradorligi darajasini belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev I.J. Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. // I.J.Yuldashev., Oʻ.Nosirov. – Toshkent: 2020-y. 390-b.
2. Ahlfeld K. (2021). School Librarians to Admire: Cicely Lewis Models Responsive Librarianship. Journal of Library Administration, 61(8), 1023–1027. https://doi-org.library3.webster.edu/10.1080/01930826.2021.1984148
3. Clyde, L.A. "The Schole Lybrarie: Images From Our Past" [School libraries in England and the U. S.]. School Libraries Worldwide v. 5 no. 1 (January 1999) p. 1–16.
4. Encyclopedia on Library and Information Science (1st ed) Dekker, 1979. v. 26, p. 360–362.
5. Greenman, Edward D. “The Development of Secondary School Libraries” (Library Journal 38 (April 1913).
6. Harris, Michael H. History of Libraries in the Western World. 4th ed. (Scarecrow, 1995).
7. Jeffus, B. What's Past Is Prologue': A Timely Look at School Libraries. CSLA Journal v. 26 no. 1 (Fall 2002) p. 11–14 (Good timeline).
8. Marina, N. THE PUBLIC LIBRARY OF THE FUTURE : Qualitative and Quantitative Methods in Libraries /Nikta Marina; Christos Karydis. – Vol 9 No 4 (2020) . – December Issue 2020.
9. Merga, M.K. (2020). School Librarians as Literacy Educators Within a Complex Role. Journal of Library Administration, 60(8), 889–908. https://doi-org.library3.webster.edu/10.1080/01930826.2020.1820278
10. Moeller, R.A., & Becnel, K.E. (2022). School Librarians and Graphic Novel Reading: A Complicated Relationship. Library Quarterly, 92(3), 259–273. https://doi-org.library3.webster.edu/10.1086/719914

**Надира УСМАНОВА,**
**преподаватель кафедры «Библиотековедение» ГИИКУз**

# СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ: МЕДИА ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В СФЕРЕ БИБЛИОТЕКИ

**Аннотация.** *В современном информационном обществе медиа грамотность становится ключевым инструментом для навигации в условиях растущих информационных потоков. Развитие и внедрение искусственного интеллекта изменяют взаимодействие с медиа контентом, подчеркивая важность медиа грамотности для эффективного использования ИИ.*

**Ключевые слова:** *взаимосвязь, искусственный интеллект, информационное общество, критическое мышление, медиа грамотность, навигация информацией, фильтрация информации.*

# ZAMONAVIY TENDENSIYALAR: MEDIA TA'LIM VA SUN'IY INTELLEKTUAL KUTUBXONA SOHASIDA

**Annotatsiya.** *Bugungi axborot jamiyatida mediasavodxonlik oʻsib borayotgan axborot oqimlarini boshqarishning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Sun'iy intellektni ishlab chiqish va joriy etish media-kontent bilan oʻzaro aloqani oʻzgartirib, sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun mediasavodxonlikning muhimligini ta'kidlamoqda.*

**Kalit soʻzlar:** *oʻzaro bogʻliqlik, sun'iy intellekt, axborot jamiyati, tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, axborot navigatsiyasi, axborotni filtrlash.*

# CONTEMPORARY TRENDS: MEDIA EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE LIBRARY FIELD

**Abstract.** *In today's information society, media literacy becomes a key tool for navigating the increasing flows of information. The development and integration of artificial intelligence are changing interactions with media content, emphasizing the importance of media literacy for effective AI utilization.*

**Key words:** *interconnection, artificial intelligence, information society, critical thinking, media literacy, information navigation, information filtering.*

С развитием технологий медиа образование и искусственный интеллект (ИИ) становятся неотъемлемой частью библиотечной сферы. Эти инновации преобразуют способы, которыми библиотеки предоставляют услуги, помогают пользователям находить и оценивать информацию, и управляют своими ресурсами. Следует ближе рассмотреть, как медиа образование и ИИ влияют на современные библиотеки.

Медиа грамотность в эпоху ИИ: определение и значение

Медиа грамотность – это способность понимать, анализировать и критически оценивать медийный контент. Это включает в себя умение различать достоверные и недостоверные источники информации, адекватно реагировать на разнообразные медийные форматы, такие как тексты, изображения, аудио и видео, и применять эти знания в целях принятия информированных решений [1].

Искусственный интеллект, с другой стороны, представляет собой системы и технологии, способные анализировать данные, извлекать информацию, делать выводы и даже принимать автономные решения на основе этих данных. Он используется в различных сферах, включая поиск информации, рекомендательные системы, анализ текста и изображений, и многое другое.

Современная информационная среда требует от пользователей не только умения находить информацию, но и критически анализировать её. Медиа образование в библиотечной сфере помогает развивать навыки информационной грамотности у пользователей. Это включает в себя обучение анализу и оценке информации, развитие навыков критического мышления и эффективного использования информационных ресурсов.

Искусственный интеллект преобразует способы, которыми пользователи получают доступ к информации в библиотечных каталогах и базах данных. Технологии машинного обучения и обработки естественного языка делают поиск информации более эффективным и точным. Алгоритмы рекомендаций позволяют предлагать пользователям контент, соответствующий их интересам и предпочтениям.

Библиотеки внедряют виртуальных ассистентов на базе ИИ для обслуживания пользователей онлайн. Эти ассистенты могут помогать пользователям с поиском информации, отвечать на их вопросы и предоставлять рекомендации. Персонализированный подход улучшает опыт пользователей и делает обслуживание более эффективным.

Использование ИИ позволяет автоматизировать рутинные задачи в библиотеках, такие как индек-

сация и архивация документов, обработка запросов пользователей и управление базами данных. Это освобождает время сотрудников для более высокоуровневых задач, таких как консультирование пользователей и развитие новых сервисов.

*Взаимосвязь между медиа грамотностью и искусственным интеллектом:*

Медиа грамотность и искусственный интеллект тесно связаны, поскольку развитие одного может повлиять на эффективность другого. Вот несколько способов, которыми они взаимодействуют:

***Фильтрация информации:*** Медиа грамотность помогает различать достоверные и недостоверные источники информации. Это особенно важно в контексте использования искусственного интеллекта для анализа данных и принятия решений. Если человек недостаточно медиа грамотен, он может доверять не верифицированным или искаженным данным, что приведет к неправильным выводам.

***Критическое мышление:*** Медиа грамотность обучает людей критически мыслить и анализировать информацию. Это позволяет им эффективно оценивать выводы, сделанные искусственным интеллектом, и проверять их на соответствие реальным фактам.

***Этические вопросы:*** Использование искусственного интеллекта в медийной сфере поднимает множество этических вопросов, таких как проблемы конфиденциальности данных, предвзятость алгоритмов и т. д. Медиа грамотность помогает людям осознавать эти риски и принимать информированные решения относительно своего взаимодействия с технологиями ИИ.

*Развитие медиа грамотности для эффективного использования ИИ:*

Чтобы эффективно использовать потенциал искусственного интеллекта, необходимо активно развивать свои навыки медиа грамотности. Ниже приведены некоторые практические шаги, которые могут помочь в этом:

*Обучение:* Учреждения и организации должны инвестировать в образовательные программы по медиа грамотности, которые включают в себя как основы анализа информации, так и понимание принципов работы искусственного интеллекта.

*Практика:* Поддерживайте практику критического мышления, анализируя медийный контент и оценивая его достоверность. Это поможет развить интуицию по отношению к информации, которую предоставляют алгоритмы ИИ.

*Исследование:* Следите за новыми технологическими разработками и исследованиями в области искусственного интеллекта, чтобы быть в курсе последних трендов и развития технологий.

Искусственный интеллект также нашел свое применение в библиотечных системах, помогая улучшить доступ к информации, автоматизировать процессы каталогизации и классификации, а также предоставлять персонализированные рекомендации для пользователей. Кроме того, искусственный интеллект находит свое применение в различных аспектах библиотечной работы. Он помогает улучшить доступ к информации, автоматизировать процессы каталогизации и классификации, а также предоставлять персонализированные рекомендации для пользователей. Например, системы ИИ могут анализировать предпочтения читателей и предлагать рекомендации по книгам и другим ресурсам на основе их интересов и предыдущих запросов.

Мы пришли к следующим выводам:

1. *Взаимосвязь между искусственным интеллектом и информационным обществом становится все более важным элементом информационного общества, где доступ к информации играет ключевую роль. Использование ИИ в обработке, анализе и предоставлении информации помогает улучшить качество услуг и усовершенствовать процессы управления информацией.*

2. *Искусственный интеллект может помочь в этом, фильтруя и классифицируя информацию, но для пользователей также важно уметь анализировать и оценивать её самостоятельно.*

3. *Навигация информацией и фильтрация информации стиль искусственный интеллект может упростить навигацию по множеству информационных ресурсов, предлагая персонализированные рекомендации и помогая пользователям находить нужную информацию быстро и эффективно. В то же время, фильтрация информации с помощью ИИ может помочь избежать распространения ложной или вредоносной информации.*

4. *Роль библиотек и образовательных учреждений - библиотеки и образовательные учреждения играют важную роль в обучении пользователей навыкам медиа грамотности и критического мышления в эпоху информационного общества. Они также используют технологии искусственного интеллекта для улучшения доступа к информации и развития информационных ресурсов.*

Искусственный интеллект (ИИ) играет значительную роль в современных библиотеках, изменяя способы, которыми они предоставляют свои услуги и взаимодействуют с пользователями. Вот несколько способов, которыми ИИ применяется в библиотечной сфере:

1. *Улучшенный поиск информации: Использование алгоритмов машинного обучения и обработки естественного языка позволяет библиотекам улучшить поиск информации для пользователей. Это включает в себя более точные результаты поиска, а также предложения похожей или релевантной информации на основе предпочтений пользователя.*

2. *Виртуальные помощники: Библиотеки могут внедрять виртуальных ассистентов, которые используют технологии ИИ для ответа на вопросы пользователей, помощи в поиске ресур-*

*сов и предоставления справочной информации. Это улучшает доступ пользователей к информации и снижает нагрузку на персонал библиотеки.*

3. *Автоматизация процессов: ИИ может использоваться для автоматизации рутинных задач в библиотеках, таких как индексация и архивация документов, обработка запросов пользователей и управление библиотечными ресурсами. Это помогает оптимизировать процессы и освобождает время для более важных задач.*

4. *Персонализированные рекомендации: Использование ИИ позволяет создавать персонализированные рекомендации для пользователей, основанные на их предпочтениях, истории поиска и поведении. Это помогает пользователям находить ресурсы, которые наиболее соответствуют их интересам и потребностям.*

5. *Аналитика данных: Использование алгоритмов машинного обучения для анализа данных позволяет библиотекам понимать предпочтения пользователей, тренды использования информации и эффективность своих услуг. Это помогает библиотекам принимать более обоснованные решения и улучшать свои сервисы.*

Искусственный интеллект в библиотеке не только улучшает доступ к информации, но также оптимизирует процессы управления ресурсами и обеспечивает более персонализированный и эффективный опыт для пользователей.

Эти ключевые аспекты отражают важность взаимосвязи между искусственным интеллектом, информационным обществом и развитием критического мышления и медиа грамотности, особенно в контексте обеспечения эффективной навигации и фильтрации информации в современном цифровом мире.

Интеграция медиа грамотности и искусственного интеллекта в библиотечные услуги помогает повысить качество обслуживания и эффективность работы библиотеки. Это также способствует развитию у пользователей навыков критического мышления, адаптации к быстро меняющемуся информационному окружению и повышению уровня информационной грамотности.

Медиа образование и искусственный интеллект играют ключевую роль в современной библиотечной сфере, улучшая доступ к информации, обучая пользователей и оптимизируя библиотечные процессы. Внедрение этих технологий помогает библиотекам адаптироваться к современным требованиям и эффективно обслуживать своих пользователей. В эпоху распространения искусственного интеллекта, медиа грамотность становится ключом к эффективной навигации в мире информации. Развитие критического мышления и аналитических навыков поможет нам не только лучше понимать и использовать технологии ИИ, но и сделает нас более осведомленными и ответственными участниками цифрового общества.

**Использованная литература:**

1. UNESCO (2018). "Media and Information Literacy Curriculum for Teachers". ЮНЕСКО разработала учебные материалы по медиа образованию для преподавателей, которые могут стать основой для обучения медиа грамотности в образовательных учреждениях.

2. Helmus, Todd C. "Artificial Intelligence, Deepfakes, and Disinformation: A Primer." RAND Corporation, 2022. Stable URL: https://www.jstor.org/stable/resrep42027

3. Katz, Brian. "The Analytic Edge: Leveraging Emerging Technologies to Transform Intelligence Analysis." Center for Strategic and International Studies (CSIS), 2020. Stable URL: https://www.jstor.org/stable/resrep26414

4. Искусственный интеллект в сфере медиа: новые вызовы и перспективы. Автор(ы): Сахибова З.А. Источник: Информационные технологии в науке, образовании, технике и производстве, 2023 г. №3

5. Медиа образование в контексте искусственного интеллекта. Автор(ы): Пашаева И.М. Источник: Образование и наука, 2022 г. №1

6. Применение искусственного интеллекта в современных медиа. Автор(ы): Алиев Р.К., Ахмедова Л.М. Источник: Наука и техника. Электронный научно-технический журнал, 2020 г. №1

7. Развитие искусственного интеллекта как основы развития культуры медиа. Автор(ы): Волков А.П. Источник: Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Филология, 2021 г. №1

# VI BO'LIM

# MADANIYATSHUNOSLIK

**To'rabek FAYZIYEV,**
**O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasi dotsenti,**
**texnika fanlari nomzodi**

## MADANIYAT SOHASIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARI VA MADANIYAT MUASSASASINING VAZIFALARI

**Annotatsiya.** *Bu maqolada, madaniyat sohasida boshqaruv mexanizmlari va madaniyat muassasasining vazifasi, strategiyasi masalalari yoritilgan. Tashkiliy va ma'muriy mexanizmi, iqtisodiy mexanizmi, xodimlar bilan ishlash mexanizmi, axborot mexanizmlari yordamida hamda qadriyatlar va e'tiqodlar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki ehtiyojlar qondirilagani, bozorning tabiati, bozorga kirish yo'llari, tashkilotni rivojlantirish, moliyalashtirishning strategik tamoyillari asosida madaniy muassasalar menejmentining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshqaruv mexanizmlari, boshqaruv strategiyasi, missiya, maqsad, menejment, marketing, taktika, madaniyat muassasalari va h.k.*

## МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ЗАДАЧИ УЧРЕЖДЕНИЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопроси механизмов управления в сфере культуры и задачи, стратегия учреждения культуры. На основе организационно – административного механизма, экономического механизма, механизма работе с сотрудниками, информационных механизмов, а также на основе ценностей и убеждений, продуктов или потребностей, которые производятся, характера ринка, способов выхода на рынок, стратегических принципов развития, финансирования организации, очерчена специфика управления учреждениями культуры.*

**Ключевые слова:** *механизмы управления, стратегия управления, миссия, сел, менеджмент, маркетинг, тактика, учреждения культуры и др.*

## MANAGEMENT MECHANISMS IN THE FIELD OF CULTURE AND THE TASKS OF CULTURAL INSTITUTIONS

**Abstract.** *This article discusses the issues of management mechanisms in the field of culture and the tasks and strategy of the cultural institution. On the basis of the organizational and administrative mechanism, the economic mechanism, the mechanism of working with employees, information mechanisms, as well as on the basis of values and beliefs, products or needs that are produced, the nature of the market, ways to enter the market, strategic principles of development, financing of the organization, the specifics of the management of cultural institutions are outlined.*

**Key words:** *management mechanisms, management strategy, mission, goal, management, marketing, tactics, cultural institutions, etc.*

Madaniyatni boshqarishda ularni tushunish va tahlil qilish, shuningdek, boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish uchun boshqaruv faoliyati mexanizmlarini hisobga olish muhimdir. Menejmentning mohiyati, menejmentning konseptual tahlili, albatta, boshqaruv tamoyillari, maqsadlarni belgilash, funksiyalar, usullar va boshqalar haqidagi nazariy va uslubiy bilimlar uchun muhim. Ammo menejmentning xususiyatlarini to'liq nazariy yoritish uchun boshqaruv faoliyatining asosiy jihatlari bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni qo'llash zarurdir. Madaniyat sohasidagi menejment bo'yicha darslik mualliflari ta'kidlaganidek, menejmentni ko'rib chiqishda barcha nazariy yondashuvlar amaliy o'lchov uchun yetarli emas. Muayyan tashkilotda (masalan: muzey, teatr yoki ko'rgazma majmuasida) ish boshlashda menejerga nima qilish kerakligini va

ma'lum bir muammoni qanday hal qilishni aniq bilishi uchun ba'zi bir asosiy toifalar bilan ishlashi talab qilinadi.

Shu munosabat bilan mualliflar madaniyat sohasidagi boshqaruv tizimining texnologik yoki instrumental taqdimotiga e'tibor qaratib, boshqaruv mexanizmlari kabi tushunchaga e'tibor qaratishni taklif qilmoqdalar. *"Biz aniq natijalarga erishishga imkon beradigan maqsadlar, funksiyalar va vositalarning nisbatan yaxlit birligi haqida gapiramiz",* – deb ta'kidlamoqda olimlar.

Shu nuqtayi nazardan, menejment to'rtta asosiy mexanizmdan iborat tizim sifatida ifodalanishi mumkin:

- tashkiliy va ma'muriy mexanizmi;
- iqtisodiy mexanizmi;
- xodimlar bilan ishlash mexanizmi;
- axborot mexanizmi.

Menejmentni ushbu to'rtta mexanizm ishining kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqayotganda, kelajakdagi madaniyat menejerlari boshqaruv ishlarining alohida tarkibiy qismlarining alohida tuzilishiga ega, ularning har biri uchun tegishli ishlarni bajarish kerak. Ushbu mexanizmlarni batafsil ko'rib chiqishni o'rinli bildik [1].

**Tashkiliy va ma'muriy mexanizmi.** Madaniyat sohasiga nisbatan ushbu mexanizm uzoq vaqt davomida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Boshqaruv apparati deb ham atash mumkin bo'lgan ushbu mexanizmning ishi tashkiliy hujjatlarda belgilangan vakolatlarni (huquq va majburiyatlarni) taqsimlash tizimida aniqlanadi. Apparatsiz boshqarish deyarli mumkin emas, va bu yerda asosiy narsa vakolatlarning taqsimlanishi, shuningdek, ushbu taqsimotning og'irligini (kim kimga xabar beradi, kim kimni va qanday masalalarni boshqaradi va hokazo) ifodalovchi tashkiliy hujjatlardadir. Tashkiliy hujjatlarga ustavlar, nizomlar, shartnomalar, lavozim tavsiflari kiradi. Madaniyat muassasalari ko'pincha nizom yoki qoidalar asosida ishlaydi. Bu xil hujjatlar madaniy muassasalar (xalq ijodiyoti uylari, madaniyat va dam olish muassasalari, kutubxonalar va boshqalar)ning barcha faoliyatini tartibga soladi. Ularda institutning tashkiliy huquqiy shakli, uning maqsadlari, faoliyati, moliyalashtirish, boshqarish tartibi va boshqalar ko'rsatilgan. Har bir xodimning faoliyatini tartibga solish uchun lavozim tavsiflari, ushbu lavozimga tayinlangan xodimga qo'yiladigan talablar, tayinlash tartibi, shuningdek, huquqlari, majburiyatlari va javobgarlik darajasi mavjud bo'lgan lavozim tavsiflari ishlab chiqiladi. Tashkiliy va ma'muriy mexanizmni tuzishda lavozimlarning soni va rasmiy ish haqqi miqdorini tartibga soluvchi muassasalarning shtat jadvallari ham qo'shimcha rol o'ynaydi.

**Iqtisodiy mexanizmi.** Madaniy muassasada boshqaruvni faqat apparat mexanizmiga kamaytirish mumkin emas. Iqtisodiy mexanizm madaniy muassasa faoliyatining rentabelligi va samaradorligi masalalarida katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy mexanizm – bu moddiy va intellektual resurslarni qo'llab-quvvatlash tizimi (moliyaviy, moddiy, texnik va boshqa resurslar), iqtisodiy ta'minot, iqtisodiy hisob-kitob, iqtisodiy rag'batlantirish (ya'ni ish haqqi, moliyaviy rag'batlantirish va boshqalar). Hozirgi kunda tadqiqotchilar sovet davridagi boshqaruv faoliyati amaliyoti iqtisodiy mexanizmning afzalliklaridan turli yo'llar bilan foydalanganligini bir necha bor ta'kidlamoqdalar. Ayni paytda, bugungi kunda faoliyatni iqtisodiy tartibga solishning ushbu choralari tashkiliy va ma'muriy qo'llanmalarga zid keladi. Xususan, madaniyat sohasidagi faoliyatni yetarli darajada davlat va huquqiy tartibga solish muammosi bugungi kunda hal qilinmagan bo'lib, bu bozor sharoitida madaniy muassasalarning mavjudligi uchun qulay muhit yaratishga imkon beradi. Davlat madaniyat sohasida iqtisodiy mexanizmlarning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan jiddiy ma'muriy to'siqlarni yaratadi (ma'muriyat, byurokratik tizimning "turg'unligi", markazlashtirish, pullik xizmatlar uchun rejalashtirilgan vazifalar va boshqalar).

**Xodimlar bilan ishlash.** Xodimlar bilan ishlash – bu vakolatli xodimlarni jalb qilish va o'qitish, ularning faol faoliyati, samarali va mas'uliyatli ishi uchun motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishdir. Menejment rivojlanishining hozirgi bosqichida xodimlar bilan ishlashga bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Yaqin vaqtgacha kadrlar siyosati faqat boshqaruv tizimining boshqa tarkibiy qismlariga qo'shimcha bo'lib, tashkilot tarkibida bir kishining o'rnini boshqa shaxs egallashi shart, deb taxmin qilingan edi. Biroq bugungi kunda menejment faoliyati sohasidagi tadqiqotchilar ijtimoiy resurslar, inson kapitali, ya'ni iste'dodli yoki muvaffaqiyatli, "g'ayratli" xodimlar ba'zan har qanday tashkilot faoliyatida asosiy rol o'ynashini ta'kidlamoqdalar. "Kadrlarga yo'naltirilgan texnologiyalar" deb nomlangan narsa paydo bo'ldi. Bu xodimlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratishga, bozorda faol va ijodiy xatti-harakatlarga qodir fikrli odamlar jamoasini yaratishga imkon beradi. Shuning uchun *"hatto ma'lum bir strategiya ham shakllantirildi – istiqbolli, tashabbuskor xodimlarni kompaniyaga ular amalga oshirishni taklif qiladigan dastur bo'yicha emas, balki o'z tashabbuslariga e'tiborni jalb qilish – ular o'zlari o'zlarining potensiallariga mos keladigan qiziqarli loyihalarni topadilar"* [2]. Bu yerda asosiy qoida shundan iboratki, aynan loyihalar va dasturlarni yaratadigan tuzilma emas, aksincha, tuzilmalar ma'lum odamlar tomonidan ixtiro qilingan va yaratilgan dasturlar va loyihalar uchun yaratiladi. Shuning uchun xodimlar bilan ishlash bir xil darajada muhim mexanizm bo'lib, uning harakati madaniy muassasalarga sezilarli foyda keltirishi mumkin.

**Axborot mexanizmi.** Agar avvalgi barcha mexanizmlarni alohida ko'rib chiqsak, ular faqat umumiy ma'lumot bilan bog'liq tizimda taqdim etish orqali samarali ishlashlari mumkin. Axborot mexanizmi deb ataladigan narsa zamonaviy ma'lumotlar bilan ishlash mexanizmi sifatida avvalgi mexanizmlarni boshqaruvning umumiy orbitasiga tortadi va ularni harakatga keltiradi. Mualliflar ushbu mexanizmning mohiyatini shu tarzda tushuntiradilar. Har qanday boshqaruv – bu boshqaruvning asosiy bo'g'ini bo'lgan

qaror qabul qilishdir. Ammo tashkilotning maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qarorlar (ko‘rsatmalar, buyruqlar sifatida) rejalashtirishni (rejalar va dasturlar shaklida), shuningdek, qarorning bajarilishini nazorat qilishni (hujjatlar, sertifikatlar va tekshiruvlar shaklida), buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘ldirishi shart. Bularning barchasi tegishli hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, tasdiqlash, foydalanish va saqlash bilan bog‘liq. Boshqaruv qarorlarining o‘zaro bog‘liqligi rejalashtirish, nazorat, buxgalteriya hisobi va hisoboti, hujjat aylanishi axborot mexanizmini tashkil etadi. Axborot mexanizmining ishlashi ma’lum ma’lumotlarni yaratish va uning hujjatlaridan iborat. Mualliflar G.L.Tulchinskiy va Y.L.Shekovaning fikriga ko‘ra, ko‘rib chiqilgan to‘rtta mexanizm tizimi har qanday boshqaruvni amalga oshirish uchun zarur va yetarli.

Shu bilan birga, ushbu mexanizmlardan birining yo‘qligi yoki noto‘g‘ri ishlashi menejment ishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, madaniy muassasalarda biz vakolatlarni taqsimlashga ham, resurslarni ta’minlashga ham, vakolat va motivatsiya ustida ishlashga, qaror qabul qilish va ularni nazorat qilishga muhtojmiz.

Rejalashtirish jarayoni missiya va strategiya kabi strategik tanlov elementlarini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Missiya tashkilotning umumiy maqsadi bo‘lib, uning mavjudlik ma’nosini belgilaydi. Strategiya esa, tashkilotning uzoq muddatli xatti-harakatlarini belgilaydigan harakatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Madaniy muassasaning samarali ishlashi uchun tashkilot mavjudligining to‘g‘ri belgilangan maqsadlari va vazifalari katta ahamiyatga ega, ya’ni tashkilot o‘z faoliyatida erishishni rejalashtirgan dastur, vaqtga bog‘liq natijalardir. Madaniyat muassasasi faoliyatining maqsadi va vazifalari uning vazifasi va strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Ushbu elementlarning barchasi madaniy muassasani strategik rejalashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Missiyani asoslash strategik rejalashtirishda alohida o‘rin tutadi. Aynan madaniy faoliyatning vazifasi va asosiy maqsadlari boshqa strategik elementlar uchun zarur parametrlar va xususiyatlarni belgilaydi. Missiya u mavjud bo‘lgan madaniy muassasaning asosiy maqsadidir. Missiya tashkilotning asosiy faoliyatini tavsiflaydi, madaniy muassasaning maqsadlariga e’tiborni qaratishga yordam beradi, shuningdek, tashqi muhit uchun muassasaning tushunarli qiyofasini shakllantirishga imkon beradi. Missiya muassasa maqomini oqlaydi, faoliyatning ayrim sohalariga bo‘lgan ehtiyojni tushuntiradi, menejmentda qaror qabul qilish, ijtimoiy va madaniy loyihalar, dasturlarni amalga oshiradi [5].

Muassasa tomonidan belgilangan missiya o‘z faoliyatini strategik rejalashtirish, shuningdek, rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun taktik qadamlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Missiya tashkilotning mazmuni va maqsadini ochib beradi, uning o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, missiya bayonotida oltita element bo‘lishi kerak:

- qadriyatlar va e’tiqodlar;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki ehtiyojlar qondirilagani;
- bozorning tabiati;
- bozorga kirish yo‘llari;
- tashkilotni rivojlantirish;
- moliyalashtirishning strategik tamoyillari.

Missiyada so‘zning o‘zi ham muhimdir, bu aniq bo‘lishi kerak, ammo shu bilan birga tashkilotning rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Ijtimoiy-madaniy sohadagi institutlarning vazifasi insonning shakllanishi va rivojlanishi bilan tavsiflangan umumiy strategik maqsadlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat markazida shaxs, uning ma’naviy rivojlanishi, ijodiy salohiyatni ochib berish, shaxsiy ong va xulq-atvori, ijtimoiy moslashuv qobiliyati, ijtimoiy shoklardan himoya qilish mezonlari yotadi. Shu bilan birga har bir madaniyat muassasasining o‘z vazifalarini belgilaydigan yakka tartibdagi vazifalari va funksiyalari mavjud. Ularning barchasi ko‘pincha jamiyatning madaniy xizmatlarga (teatr, kutubxona, muzey va boshqalarga) bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Missiya ta’rifining ma’nosi har bir madaniy muassasaga xos bo‘lgan vazifalarni konkretlashtirish va chuqurlashtirishdir. Missiya, go‘yo madaniy muassasaning barcha faoliyatini belgilaydi [4].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy-madaniy sohada bir nechta turli xil muassasalar va tashkilotlar guruhlari mavjud bo‘lib, ular umuman madaniy jarayonlarning xususiyatlari, auditoriya xulq-atvori shakllarida farq qiladi, garchi ular ichida ushbu xususiyatlarning ko‘plab darajalari mavjud. O‘z missiyasini e’lon qilib, madaniyat muassasasi o‘z faoliyatining maqsadlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beradi, unga erishishda qaysi tamoyillar lozimligini belgilaydi. Missiyani shakllantirishda madaniy muassasaning barcha xodimlari ishtirok etishi muhimdir. Chunki ularning har birini faoliyati muassasa missiyasini amalga oshirishga hissa sifatida qaralishi mumkin. Barkamol tuzilgan missiya madaniy muassasaning markaziy g‘oyasiga aylanadi, faoliyatning barcha darajalariga, har bir xodimga kirib boradi, uning motivatsiyasi va umumiy ishda ishtirok etish darajasini oshiradi.

Strategiya tashkilot va muassasalar faoliyatining asosiy sohasidir. Biz, shuningdek, strategiya bir bashorat, deb aytishimiz mumkin. Strategiya yunoncha so‘zdan kelib chiqqan, *“strategiya” – “urush san’atini”* anglatadi, bu atama qadimgi yunonlar o‘zlarining eng taniqli harbiy rahbarlarining ekspluatatsiyasini tavsiflash uchun ishlatgan. Oksford ingliz lug‘ati strategiyaga *“Bosh qo‘mondon san’ati; harbiy kampaniyaning yirik operatsiyalarini rejalashtirish va boshqarish san’ati”*, – deb izoh beradi. Natijada, strategiya maqsadga ega bo‘lgan odamlarga samarali yo‘llar bilan erishishga imkon beradigan ma’lum bir vositani anglatadi. Strategiya quyidagilar orqali ishlab chiqiladi: tashkilotning tashqi muhitini baholash va tahlil qilish, tashkilotning ichki muhitini diagnostik tahlil qilish, strategik alternativalarni ishlab chiqish va

tahlil qilish, eng maqbul strategiya variantini tanlash, missiya va tashkilotning asosiy maqsadi bilan bog‘liq strategiyani baholash, amalga oshirish strategiyaning dasturi, reja shaklida.

Tashkilotning strategik maqsadlari ko‘proq uning alohida tarmoqlari, tuzilmalari, bo‘limlari va boshqa bo‘linmalari bilan emas, balki butun faoliyati bilan bog‘liq. Strategiyaning roli rivojlanishning yadrosi va umuman madaniyat sohasini (davlat, mintaqa darajasida) va har bir o‘ziga xos madaniy muassasani aniqlashda katta ahamiyatga ega. Strategiya bu – tashkilotning o‘zgaruvchan ekologik sharoitlarga bardosh bera oladigan, beqarorlik sharoitida “omon qoladigan” qurolidir. Madaniy muassasalarning strategik maqsadlari ularning ijtimoiy maqsadlarini bajarish bilan chambarchas bog‘liq (ta’lim, ma’naviy rivojlanish, shaxsning ijodiy salohiyatini ochib berish va boshqalar) va shuning uchun ularning strategiyalari tijorat firmalaridan farq qiladi.

Foyda ko‘rsatkichi tijorat tashkilotlari uchun juda muhimdir. Holbuki, madaniyat sohasida ko‘pchilik bo‘lgan notijorat tashkilotlar foyda olishni asosiy maqsad qilib qo‘ymaydilar. Shu bilan birga, strategik maqsadlarning boshqa jihatlari turli xil firmalar, tashkilotlar, muassasalar faoliyatida sodir bo‘lishi mumkin: ishning innovatsion shakllarini joriy etish, resurslardan foydalanish samaradorligi, boshqaruv faoliyati, ijtimoiy kapitalning xususiyatlari va xodimlar bilan ishlash tamoyillari, ijtimoiy mas’uliyatli harakatlarning mavjudligi (hal qilish madaniyati, ekologiya, bolalik muammolari va boshqalar). Strategiyaga muvofiq, madaniy muassasalarda strategik rejalar (3–5 yilga mo‘ljallangan) ham ishlab chiqilmoqda, bu institutlar strategik maqsadlarga erishish uchun amalga oshirishni rejalashtirgan harakatlarni, resurslarni taqsimlash yo‘nalishini, ijodiy salohiyatni va boshqalarni belgilaydi. Strategik rejalashtirish uzluksiz missiyasi qayta ko‘rib chiqilmoqda va aniqlanmoqda, yangi maqsadlar qo‘yilmoqda, yangi rejalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu harakatlar tashqi muhit talablari (iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, siyosiy sharoitlar), shuningdek, muassasa ichki muhitining tuzilishi (kadrlar, moliyalashtirish usullari, moddiy resurslarning mavjudligi va boshqalar) o‘zgarishi mumkinligiga muvofiq amalga oshiriladi [3].

*“Strategiya”* tushunchasi *“taktika”* tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Taktika bu – tashkilotning iqtisodiy faoliyatining ma’lum vaqt oralig‘ida strategiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi. Muayyan vaqt ichida tashkilot maqsadlariga erishish uchun operatsion boshqaruvda taktika ishlab chiqiladi. Madaniy muassasalardagi taktik maqsadlar bo‘limlar, sektorlar va boshqa bo‘limlar erishishi kerak bo‘lgan natijalarni oldindan bilishdir. Maqsadlarga va tegishli faoliyatga erishish uchun javobgarlikni o‘rta darajadagi madaniyat menejerlari o‘z zimmalariga oladilar. Taktika, umuman olganda, madaniy muassasaning strategik maqsadlariga erishishda eng muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun taktik maqsadlarning har birini amalga oshirish bizni belgilangan strategik maqsadni amalga oshirishga yaqinlashtiradi. Ko‘pincha yillik rejalashtirish, shuningdek, madaniyat muassasalarida bo‘lim va sektorlarni rejalashtirish taktik maqsadlarga xizmat qiladi.

Maqsadlarga erishishning taktik usullarini ishlab chiqish madaniy faoliyatning turli aloqalari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish tartibiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Birlik rejalarini butun muassasaning taktik maqsadlari nuqtayi nazaridan muvofiqlashtirish butun madaniy muassasa uchun taktik rejani tuzishga imkon beradi. Ayni paytda, maqsadlarni aniqlash missiyani umumiy shakllantirishdan yakka tartibdagi ish rejalariga, madaniy faoliyat vazifalariga o‘tishga yordam beradi. Maqsadlarni belgilash, bu har qanday tashkilotda rejalashtirish jarayonidan oldingi harakat hisoblanadi [6]. Maqsadlar missiya asosida, muassasaning madaniyat sohasidagi mavqei, faoliyatning makro sharoitlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. Madaniy muassasaning maqsadlari umuman mavjud resurslardan (inson, intellektual, ramziy, ijodiy, moddiy va boshqalar) foydalanish jarayonida erishiladigan istalgan holatni aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Qosimova G. Menejment nazariyasi. – Toshkent: 2011-y. 181-182-b.
2. Zaynuddinov Sh.N. Menejment asoslari. – T.: “Moliya”, 2006-y. 103-104-b.
3. Qayimov M.Sh., Umarov A.S., Zunnunova U.G‘. San’at menejmenti (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Extremum-press”. 2012-y. 88-89-b.
4. Zuunnunova U.G‘., Fayziyev T.R. – T.: “Art marketing” (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Kamalak”, 2019-y. 19–53-b.
5. Tulchinskiy G.L. Madaniyat sohasidagi menejment. – Sankt-Peterburg: “Biznes matbuot”, 2003-y. 48–50-b.
6. Zayseva N.A. Ijtimoiy-madaniy xizmatda menejment. – Moskva: “Akademiya”, 2003-y. 112-113-b.

**Xafiza ABDULLAYEVA,**
**O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

# YANGI O‘ZBEKISTONNING HUDUDLARINI IJTIMOIY-MADANIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada, Yangi O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish bilan bog‘liq iqtisodiy, urbanizatsion va lokal-madaniy jihatlar tadqiq etiladi. Unda davlatning hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga oid strategik vazifalar ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *madaniyat, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, hudud, iqtisodiy va madaniy rivojlanish, infratuzilma, madaniyat muassasalari, urbanizatsiya, shaharsozlik, estetik belgilar.*

# СТРАТЕГИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** *В данной статье исследуются экономические, локально-культурные и урабанизационные основы социокультурного развития регионов. В ней раскрываются стратегические задачи государства по развитию социокультурного развития регионов.*

**Ключевые слова:** *культура, социокультурное развитие, регион, экономическое и культурное развитие, инфраструктура, учреждения культуры, урбанизация, градостроительство, эстетические признаки.*

# SOCIO-CULTURAL DEVELOPMENT STRATEGY OF THE AREAS OF THE NEW UZBEKISTAN

**Abstract.** *This article examines the economic, local-cultural and urbanization foundations of the socio-cultural development of regions. It reveals the strategic objectives of the state to develop the socio-cultural development of the regions.*

**Key words:** *culture, sociocultural development, region, economic and cultural development, infrastructure, cultural institutions, urbanization, town planning, aesthetic features.*

Mamlakatni ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqish maqsadini ko‘zlagan Yangi O‘zbekiston hududlarni zamonaviy shaharsozlik va urbanizatsiya, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini yo‘lga qo‘yish, aholi farovonligini ta’minlashni dolzarb vazifalarga aylantirdi. Bu borada Prezidentimizning “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2019-yil, 10-yanvar), “O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini jadal innovatsion rivojlantirish va modernizatsiyalash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (2021-yil, 21-sentyabr), “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (2018-yil, 29-noyabr)dagi Qarorlari va ulardagi strategik-konseptual g‘oyalar, vazifalarni eslash o‘rinlidir. “Urbanizatsiya” lotincha – “urbanus” so‘zidan olingan bo‘lib, shahar madaniyatiga taalluqli voqelikni anglatadi. Shahar va shahar madaniyatining bosh belgilaridan biridir [1].

Urbanizatsiya, avvalo, aholining ma’lum bir ijtimoiy makonda to‘planib qolishi natijasida yuzaga kelgan jug‘rofiy hududni anglatadi. Demografik omil shaharlarning yuzaga kelishini ta’minlagan. Bu jarayon antik davrlarda boshlangan, ammo keng ijtimoiy-tarixiy voqelikka aylanishi mutaxassislarning fikricha, XVIII–XX asrlarga to‘g‘ri keladi [2]. Bu davrda shaharlar aholisi 10 foizdan 52 foizga ko‘paygan. XX asr o‘rtalariga kelib, shahar aholisining soni 3,9 milliardga yetgan. Bugun shahar aholisi, BMT manbalariga ko‘ra, umum aholining 55 foizini (4,2 milliard kishi) tashkil qiladi va bu ko‘rsatkich 2050-yilga borib, 68,6 foizga yetadi [3]. Bugunning o‘zidayoq Gonkong, Singapur, Quvayt, Nauru, Katar 100 foiz urbanizatsiyalashgandir. O‘zbekistonda u 20 foiz atrofida, respublikamiz 230ta davlat ichida 115-o‘rinda turadi. Shaharlashish mavjud ishchi kuchlaridan, resurs va inson potensialidan samarali foydalanish, kishining hayoti va turmushini farovon qilish, ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Shahar kishisi mobil, innovatsion o‘zgarishlarga moyil, demokratik qadriyatlarni sevadi, sa’y-harakatlariga, ishbilarmonligiga yarasha mablag‘ topishi mumkin. Farzandlarini o‘qitish, kasb-korli qilish, bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazish, munosabatlaridagi ochiqlik va rang-baranglik shaharni maftunkor qiladi.

Prezidentimizning “2022–2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida (2022-yil, 18-mart) keyingi uch yil ichida 1 500 dan oshiq qishloq va mahallalarda qurilish, zamonaviy infratuzilmasi shakllantirish, maishiy va madaniy hayotni tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirildi. Yangi aholi turarjoylari, madaniy dam olish va sport inshootlari barpo etildi. Qishloqlarda transport

qatnovini va yo‘llarni yaxshilash, yangi savdo-sotiq o‘choqlari qurish, ministadionlar qurish borasida tajribalar to‘plandi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalar infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan qurilish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, qarorda qishloq va mahallalarida paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan 179-umumta’lim maktabi borlig‘i, mahallalarning 5 568 tasida 29 ming km. yo‘llar qum, tuproqdan ekani, 1 540 tasi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanmagani, 48tasida transport qatnovi va 781tasida chiqindi yig‘ish xizmati yo‘lga qo‘yilmagani aytiladi [4]. Bunday misollarni ijtimoiy va madaniy sohadan ham keltirish mumkin. Masalan, shaharlarda qad ko‘tarilayotgan yangi massivlarda aholining yoz kunlari dam olishini tashkil etuvchi maskanlar, yoshlarning badiiy-estetik qiziqishlariga xizmat qiluvchi madaniyat markazlari, klublar va kutubxonalar, trenajyor zallari, yozgi kinoteatrlar, choyxonalar va oromgohlar barpo etilmayotgani yaqqol ko‘rinib turadi. Ministadion va salomatlik yo‘laklari yaxshi, albatta. Ammo ular yetarli emas, yangi massivlarda 6 mingdan 40–50 minggacha kishi yashamoqda, ularga xizmat qiladigan ijtimoiy va madaniy maskanlarning yangi infratuzilmasi ham yaratilishi kerak.

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni turarjoylar, massivlar qurishda mutlaq yangi yondashish va yo‘nalishni ochib berdi. Endi har bir viloyat yoki hududda “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etiladi. U zamonaviy urbanizatsiya va ijtimoiy-madaniy rivojlanish talablariga javob beradigan makon bo‘ladi.

Farmon doirasida 2022–2026-yillarda Surxondaryoning Angor tumanidagi “Sharq guli”, Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Lutfikor”, Boysun tumanidagi “Mustaqillik” mahallalarida “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo etiladi. “Sharq guli” mahallasi hududidan ajratilgan 11,5 gektar yerda 408 oilaga mo‘ljallangan 17ta, “Qorayantoq” mahallasida 24,5 gektar maydonda 458 xonadonga mo‘ljallangan 20ta, “Lutfikor” mahallasida 31 gektar yerda 708 xonadonga mo‘ljallangan 19ta, “Mustaqillik” mahallasida 7,7 gektar yerda 200ta oilaga mo‘ljallangan 10ta ko‘p qavatli uylar qurilmoqda. Sariosiyo tumanida esa har biri 20 xonadonga mo‘ljallangan 11ta besh qavatli hamda 8-9 qavatli uylar, “Yangi O‘zbekiston” massivlari qad ko‘tardi [5].

2025-yilda Toshkent shahrida yoshlar o‘rtasida Osiyo olimpiada o‘yinlari o‘tkaziladi. Bu xalqaro nufuzli tadbir O‘zbekistonning xalqaro obro‘si oshishiga, uning tinchliksevar tashqi siyosatiga mos keladi. Shuning uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Yashnobod tumanida Olimpiya shaharchasi qurish boshlangan. Unda zamonaviy texnologiyalar va urbanizatsion loyihalar asosida Olimpiya stadioni, yopiq sport majmualari, suv sporti saroyi, eshkak eshish havzasi, mehmonxonalar, muzey, istirohat maydonchalari quriladi. Toshkent shahrining Kichik xalqa yo‘li, Mustaqillik, Navoiy, Afrosiyob, Shahrisabz, Oybek, Bobur kabi 21 nafar ko‘chaga kashtan, siren, shumtol, chinor, jo‘ka va loladaraxtlari ekiladi.

“Yangi O‘zbekiston” ko‘chasi bo‘ylab noyob, chiroyli dekorativ daraxtlar ekiladi, kishilarning dam olishi uchun miniorомgohlar, cho‘milish havzalari, chopish yo‘laklari va ochiq amfiteatr quriladi. Olimpiya shaharchasi milliy va jahon arxitekturasining zamonaviy sintezi va urbanizatsion taraqqiyot timsoliga aylanadi [6]. Toshkent shahri Yangihayot tumanida 210 gektar maydonga qurilayotgan innovatsion industrial texnopark va uning infratuzilmasi sifatida barpo etilayotgan turar joy, savdo, hunarmandchilik, madaniyat muassasalari komplekslari ham faxr uyg‘otadi. Undagi uy-joylar, madaniy xizmatlar ko‘rsatish obyektlari 5 million kvadratni tashkil qiladi. Bu loyiha 61 yo‘nalishda amalga oshirilmoqda [7].

Yangi massivlarning qurilish loyihalari maxsus komissiyalar tomonidan tasdiqlanadi va inshootlar bitgach, qabul qilib olinadi. Biroq ushbu komissiyalarga madaniyat va maishiy xizmatlar ko‘rsatish xodimlari deyarli jalb etilmaydi. Qurilish loyihalari muhokamasida ularning ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq joylarida mustaqillik yillarida mingdan ziyod yangi turarjoylari, mahallalarga tutash poselka va aullar barpo etildi. Biroq ushbu joylarda asosan savdo-sotiq o‘choqlari mavjud. Madaniyat va maishiy, ma’rifiy xizmatlar ko‘rsatish muassasalari tuman markazlarida joylashgan. Bizning hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 4 mingdan ziyod aholi punktlarida madaniy-ma’rifiy muassasalar uchramaydi, ularda yagona madaniyat maskani savdo-sotiq o‘choqlari, gohida esa sovet davrida qurilgan, kapital ta’mirlashga muhtoj maktablar bo‘lib qolmoqda. Bir paytlar aholi o‘rtasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar olib borgan qishloq klubi va qishloq kutubxonalari tugatilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu ommaviy madaniyat maskanlarni yangi massivlar, qishloqlar va aullarda qayta tiklash mumkin.

Yangi massivlar, mahalla va qishloqlarning tashqi estetik ko‘rinishi zamonaviy qurilish talablariga moslashayotgani ibratli, albatta. Biroq tashqi estetik belgilar inshootlar zimmasiga madaniy-ma’naviy va ma’rifiy vazifalar ham yuklatilganini rad qilolmaydi. Tashqi estetik belgi binoni chiroyli, zamonaviy va kayfiyatini ko‘taradigan qiladi, ammo ular insonning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga ham xizmat qilishi darkor.

Prezidentimizning milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida tarixiy-madaniy merosdan, etno-an’analardan samarali foydalanish, ularni madaniy va tarbiyaviy mazmun bilan boyitish vazifamiz ekani ta’kidlanadi. Bu shaharsozlik, yangi turarjoylari va urbanizatsion imkoniyatlar yaratishga qaratilgan sohaga ham tegishlidir. Boy milliy shaharsozlik tajribalarni yangi inshootlarga tatbiq etish hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojiga yordam beradi, kishilarimizda estetik didni tarbiyalaydi.

Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish umumdavlat ahamiyatga ega vazifa, shuning uchun uni umummilliy taraqqiyotdan ayricha qarash mumkin emas. Ammo ushbu

umummilliy paradigmal yondashuv hududlardagi o‘ziga xoslikni, etnodifferensial xususiyatlarini rad qilmaydi, balki diqqatni ularga qaratishni taqozo etadi. Etnomadaniyatlardagi o‘ziga xosliklar hozirgi paytda milliy madaniyatlarni asrash kafolati hisoblanadi, buning negizini esa har bir xalqning o‘zini va o‘zligini saqlab qolish istagi tashkil etadi [8]. Ushbu fundamental ahamiyatga ega fikr, xulosa hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish strategik vazifalariga ham taalluqlidir.

Bu esa lokal madaniy xususiyatlar va tajribalarni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishni, ulardan samarali foydalanish texnologiyasini yaratishni talab qiladi. Ming afsuski, tadqiqotchilarimiz hududlardagi lokal madaniy belgilar va tajribalarni o‘rganishda faollik ko‘rsatishayotganlari yo‘q. Masalan, qanday tarzda “Lazgi” ashula va raqs san’ati xorazmlimliklarning ijtimoiy-madaniy belgisiga aylandi? Ular turmush tarzidagi “qayish kurduk” (beshbarmoq) yoki “ijjon” (titilib chopilgan xom go‘sht), kelinning ikki-uch farzand ko‘rguncha qaynota, qaynona va er tomondagilar bilan tavoze bilan gaplashishi qanday etnomadaniy genezisga ega ekanligi hanuz o‘rganilmagan. Bunday misollar va etnohududiy qadriyatlarni har bir viloyat, tuman va qishloqdan keltirish mumkin.

Keyingi yillarda barpo etilayotgan ko‘p qavatli binolar, ularni qora rangli oynaklar bilan bezatish qurilishdagi novasiyadir. Shaharlarda barpo etilayotgan IT parklar qurilish sohasida jadal tarzda modernizatsiya ketayotganini ko‘rsatadi. Mazkur maskanlar ijtimoiy-madaniy rivojlanishga boshqacha yondashuvni taqozo qiladi. Chunki IT parklarda nafaqat ilmiy, ijodiy, davlat xizmatlari ko‘rsatish tashkilotlari, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy uyushmalar, o‘quv markazlari, tibbiy, huquqiy maslahatxonalar, axborot xizmatlari ko‘rsatish bilan band innovatsiya byurolari, uchrashuv va konferensiya zallari, ommaviy-badiiy tadbirlarga mo‘ljallangan sahnalar mavjud. Institutsional nuqtayi nazardan bunday IT parklarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy kompleks, deyish mumkin. Ular tufayli bizning tasavvurimizdagi madaniyat muassasasi ham shaklan, ham mohiyatan o‘zgarmoqda. Ayniqsa IT parklar yonida qurilayotgan Madaniy hordiq va ko‘ngil ochish markazlari ijtimoiy-madaniy jarayonlarga aholini, ayniqsa, tadbirkorlarni jalb etishning samarali usulidir. Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida madaniyat va istirohat bog‘lari hamda madaniyat markazlari faoliyatida davlat-xususiy sheriklik usulidan keng foydalanish zarurligi ta’kidlanadi [9]. IT parklar va madaniy hordiq hamda ko‘ngil ochish markazlari ana shu davlat-xususiy sheriklik usulining ifodasidir.

Hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish, urbanizatsiyalash jarayonlariga aholi soni va ichki migratsiya katta ta’sir ko‘rsatadi. Respublikamiz aholisi har yil 700–800 ming kishiga oshib bormoqda. Tadqiqotchilar 2050-yilga borib respublikamiz aholisi 50 milliondan oshishini bashorat qilishmoqda. Bu sosiodemografik omil hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlantirish oldiga qator muammolar qo‘yadi. Birinchisi, aholining poytaxtga ko‘rishini ratsionallashtirishdir. Bugun Toshkentga o‘rtacha 2 millionga yaqin kishi kelib-ketadi. Poytaxtimiz hududi kengayib, aholisi soni esa tinmay oshib bormoqda. Toshkentni megapolisga aylantirish istagi ham mavjud. Ikki-uch yildan keyin Namangan ham, poytaxt ketidan, “millioner” shaharga aylanadi.  Bu sosiodemografik jarayonlar ijtimoiy-madaniy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchisi, aglomerasiya jarayonlarini to‘xtatish yoki kamaytirish mumkinmi? Bizning fikrimizcha, yo‘q. Jahon tajribasi aglomerasiyani ijobiy voqelik bo‘lib kelayotganini ko‘rsatadi. Aholining shaharlarda to‘planishidan biz ijobiy saboq olishimiz darkor. Uchinchisi, madaniyat sohasida hordiq chiqarish va ko‘ngil ochish, relaksasiyaga qaratilgan tadbirlar keng o‘rin olmoqda. Unda g‘oyaviy-tarbiyaviy xarakterdagi tadbirlar oxirgi o‘ringa tushib qolgan. Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida esa madaniyat markazlari faoliyatida ta’lim-tarbiyani tizimli, ilmiy asosda va doimiy tarzda olib borish kerakligi asosiy maqsad sifatida qayd qilingan. Ushbu ziddiyat maxsus tadqiq etilishi, ijtimoiy-madaniy rivojlanishning sosiopedagogik mohiyati ochib berilishi va bu borada amaliyot uchun muhim tavsiyalar, pedtexnologiya ishlab chiqilishi zarur.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Глазичев В.Л. Урбанистика. – Москва: «Европа», 2008.
2. Лола А.М.  Основы градоведения и теория города. – М.: «Комкнига», 2001.
3. https:// ru.m.wikipedia.org.
4. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil, 24-mart.
5. “Yangi O‘zbekiston”, 2023-yil,16-iyul.
6. “Yangi O‘zbekiston”, 2023-yil, 8-mart.
7. “Yangi O‘zbekiston”, 2023-yil, 19-fevral.
8. Многоликая глобализация. Под ред. П.Бергера и С.Хантингтона. – М.: АСТ, 2011.
9. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: RMMIMM, 2019.

**Dilnoza QURBONOVA,**
**O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi**

# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MEROSIDA OILAVIY TARBIYA MASALALARI

**Annotatsiya.** *Sharq mutafakkirlarining oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig‘ida shakllangan. Ushbu maqolada, Sharq mutafakkirlarining nigohida oilaviy munosabatlar madaniyati hamda barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy-axloqiy qarashlar bayon qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *oila, qadriyat, ayol, axloq, ma’naviyat, ma’rifat.*

# ВОПРОСЫ СЕМЕЙНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** *Взгляды восточных мыслителей на семью и семейное воспитание сформировались в исламской идеологии и ее оболочке. В данной статье описываются культура семейных отношений и духовно-нравственные взгляды на воспитание зрелого поколения в глазах восточных мыслителей.*

**Ключевые слова:** *семья, ценность, женщина, мораль, духовность, просвещение.*

# ISSUES OF FAMILY EDUCATION IN THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

**Abstract.** *The views of Eastern thinkers about family and family education were formed in Islamic ideology and its shell. This article describes the culture of family relations and the spiritual and moral views of the upbringing of a mature generation in the eyes of Eastern thinkers.*

**Key words:** *family, value, woman, morality, spirituality, enlightenment.*

Asrlar davomida ajdodlarimiz islom dini ta’limoti asosida yashab kelganlar. O‘zlarining mukammal qadriyatlarini yaratganlar. Oila – qadimdan muqaddas dargoh hisoblanib, jamiyatning tayanchi, negizidir.

Tarixdan ma’lumki, zardo‘shtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” hamda buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlari orqali insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Barchamizga ma’lumki, o‘zbek oilasi o‘zida millatimizga xos ko‘p asrlik ma’naviy qadriyatlar, an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy merosimizni saqlab keladi. Oilada shakllangan mentalitetimizga xos bo‘lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg‘ular va fazilatlarning namoyon bo‘lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, oila – qadriyatlar beshigi, tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma’naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi.

Boy ilmiy madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an’analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglab yetishgan. Shu bois, ota-bobolarimiz oilaga juda katta e’tibor bilan qarashgan. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanib, so‘ngra o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta’minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning o‘rni beqiyosdir.

Jamiyatimizda ilk marotaba o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida, yoshlarni oilaga tayyorlash, oilaviy nizolarning oldini olish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. “*Bir narsani unutmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo, oiladagi sog‘lom muhit, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog‘liq. Afsuski, bu muhim masalaga loqaydlik va e’tiborsizligimiz natijasida joriy yilning o‘tgan 11 oyida yosh oilalar o‘rtasida 25 ming ajrimlar qayd etilgan. Bu salbiy holat barchamizni jiddiy bezovta qilishi va qattiq tashvishga solishi kerak*”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi aynan “Oila” deb nomlanadi. Unda to‘rtta modda mavjud. Bu moddalarda ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar mohiyati aks etgan. Oila bilan bog‘liq milliy va umuminsoniy qadriyatlar esa, bizdan ko‘pdan-ko‘p tartib-qoidalarga qat’iy rioya qilishni talab etadi. Oila tinchligi – jamiyat tinchligi. Ushbu qo‘rg‘onning mustahkamligiga har birimiz bevosita mas’ulmiz. Zotan, oila – jamiyat poydevori.

Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil, 26-dekabr.

qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Biz oilani ilk tarbiya o‘chog‘i sifatida e’tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni, tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – ona! Albatta, ona, Yaratganning buyuk mo‘jizasidir. Chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta’minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi. Darhaqiqat, Allohning mo‘jizasi bilan payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalomni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol, Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o‘tkazib, Ulug‘bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga eng avvalo, millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim.

Donishmandlar jamiyatning madaniy darajasi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi, deb bejiz ta’kidlashmagan. Zero, “Buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi”, – degan naql bor. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda: *“Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o‘tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo‘llarini jamiyatning tomir urishini boshqalardan ko‘ra yaxshiroq biladilar. Ular o‘zlarining mehribonligi, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o‘rnak bo‘la oladilar*”[2].

Ayollar oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Ayolning ilmli bo‘lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh-urug‘lari, va qolaversa, butun jamiyatning ilmli, madaniyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: *“Erkak ilmli bo‘lsa – nari borsa bir kishi ilmli bo‘ladi, ayol ilmli bo‘lsa – millat ilmli bo‘ladi*”[3]. Demak, qadimdanoq ayollarning ilmli, oqila, fozila bo‘lishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘lib kelgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma’rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikr bildirganlar. Masalan, Fitratning “Oila” asarida shunday fikrlar bor: “*Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya’ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur*”[4].

Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega. Ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat-izzatda bo‘lishga da’vat etishgan. Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy: *“Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”*[5], – deb yozgan edi. Darhaqiqat, yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e’tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va hatto, harbiy sohada xizmatlari beqiyos.

Buyuk allomalarimiz jamiyatda insonlar o‘rtasidagi tenglik yurt rivojining asosi ekanligi to‘g‘risida bitiklarni meros qoldirishgan. Buning dalili sifatida qomusiy olimimiz Abu Rayhon Beruniy (973–1047) ning: “*Tenglik va adolat hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtiroslar va g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi*”, – degan hikmatli fikrini keltiramiz.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur (1336–1405) bobomiz ko‘p ishlarda rafiqasi Bibixonim bilan maslahatlashgan. Shu bois, jamiyat tayanchi bo‘lgan ayollarga e’tibor kuchaymoqda. “*Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To‘marislar avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur bir necha yillik safarlarda bo‘lgan paytlari saltanat barqarorligini ta’minlashga Bibixonimning qo‘shgan hissasini eslasak fikrimiz yanada asoslanadi*”[6], – deya ta’kidlaydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Z.Akromova.

Xalqimizda ota-onani oilaning qo‘sh utuni, deb ataydilar. Biror sabab bilan bu ustunlarning biri qulasa, “Oila” deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning zalvori bitta inson uchun og‘irlik qiladi. Ayniqsa, qiz farzand tarbiyalayotgan onalar millat kelajagiga mas’ul eng katta tarbiyachilar hisoblanadilar. Zero, xalqimizda: “Onasini ko‘rib, qizini ol”, – degan naql bejiz emas. Oila – aslida kichik bir mamlakat. Oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ayol, jamiyatda ham munosib o‘ringa ega bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma’rifatli, madaniyatli bo‘lishi, ya’ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o‘rni ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri izchil tashkil etishda faol ishtirok etadi. Ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o‘zgartirish bilan bog‘liq o‘ta dolzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir.

Globallashuv, ma’naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda oilalar o‘qigan, ilmli, ma’rifatli kelinlarga ehtiyoj sezayotir. Negaki, ilmli qiz, mulohazali kelin, yaxshi tarbiyachi, ona oila qadrini har narsadan ustun qo‘yadigan beka bo‘la oladi. Milliy uyg‘onish davrining yirik mutafakkirlaridan biri Yusuf Xos Hojibning ma’rifiy qarashlari, ma’naviy-axloqiy g‘oyalaridan keltirsak: “*Oila tarbiyasi bolaning jamiyatda munosib kamol topishini ta’minlaydigan omillardan biri bo‘lib, bola tarbiyasini yoshlikdan va milliy asosda boshlash kerak, ota-ona bunga befarq bo‘lmasligi lozim*”[7].

E’tirof etish lozimki, ma’naviy yetuk oila madaniyati – yuksak jamiyatning tayanchi sifatida qadrlanadi. Alloma va mutafakkirlar ham baxtli, tinch oila qurish, oila baxtini saqlab qolish, turmush qiyinchiliklarini

---

[2] Parliament.gov.uz

[3] Конфуций. История китайской философии. – Москва: 1989 г. 48 с.

[4] Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020-y. 112-b.

[5] https://mininnovation.uz/ru/news/post-372

[6] Akromova Z. “Ayol bo‘lish sharaf, o‘zbek ayoli bo‘lish yanada sharaf!” “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2020-yil, 10-mart, 14-son.

[7] Niyozov G. Sharq allomalari va ma’rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy-axloqiy qarashlari. – T.: “O‘zbekiston”, 2010-y. 88-b.



yenga bilish hamda farzandlar tarbiyasi ayollarga xos xususiyatlar va ularga amal qilish kabi oʻgitlarni meros qilib qoldirganlar. Ular qoldirgan taʼlimotlarining ahamiyati bugungi kunda ham beqiyosdir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ayollarning oiladagi oʻrni haqida quyidagi fikrlar berilgan: “*Agar kelin yaxshi boʻlsa, barcha holatlarda senga hamdam boʻladi. Uyning osoyishtaligi ham, xonadon orastaligi ham undandir. Oqila boʻlsa, roʻzgʻorda intizom boʻladi, uy-anjomlari tartibda va saranjom boʻladi*”[8].

Oilada sogʻlom muhitni yaratish, farzand tarbiyasi, burch va masʼuliyat kabi muqaddas tushunchalarni bolalar ongiga singdirib borish, eng avvalo, ayol zimmasiga tushadi. Ayol – kelajak avlodni vatanparvar, ilmparvar, oilaparvar shaxs sifatida tarbiyalovchi hamda yuksak maʼnaviyat, ilm va savod, roʻzgʻor yuritish, muomala madaniyati kabi bir qator eʼzozli qadriyatlarimizning saqlovchisidir.

Abu Ali Ibn Sino oilaviy tarbiya toʻgʻrisida shunday fikr bildirgan: *“Bolaning xulqini moʻtadillikda saqlashga alohida eʼtibor berish kerak, unga esa bolani qattiqqoʻllik va qattiq gʻazablanishdan, qoʻrqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishildi. Oilada bolaning koʻz oʻngida ota-onasi oʻz obroʻsiga ega boʻlsalar, tarbiya shunchalik samarali natijalar beradi”.*

Asrlar davomida oilaning mukammal boʻlishida, uning funksional vazifalarida kamchilik boʻlmasligi shart, deb koʻrilgan. Aks holda jamiyatda muayyan muammolar koʻpayishi hamda tartibsizlik, chigallik keltirib chiqarishi mumkin. Jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat: *“Kelajak avlodlarimiz ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil boʻlmasliklari uchun xotin-qizlarimiz oʻqimishli, sogʻliqni saqlash va bolalar tabiyasidan xabardor boʻlishlari kerak. Oiladagi mushkul vazifa goʻdak tavalludidan soʻnggi er-xotin boʻyniga tushadigan farzand tarbiyasidir”*, – deb taʼkidlaydi.

Oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqini belgilovchi omil hisoblanadi. Maʼlumki, kishilar eng yaxshi orzu-istaklarini baxtli oila bilan bogʻlab kelganlar. Zero, erkak va ayol, er-xotin oʻrtasidagi ezgu munosabatlardan yuksakroq, ota-onalik, farzandlik mehridan koʻra orombaxsh hissiyot boʻlmaydi.

Yana bir buyuk alloma Qurʼoni karim va hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh islom huquqshunosligi borasida chuqur ilmga ega Burhoniddin al-Margʻinoniyning: *“Oilaning tinchligi, uning rohat-farogʻatli turmushi shu oilaning boshida turgan er-xotin oʻrtasidagi doʻstona munosabatga bogʻliq. Er-xotin totuv boʻlib, birining ishi ikkinchisiga maʼqul boʻlsa, birining topganini ikkinchisi koʻpaytirishga harakat qilsa, bu oilaga baraka kiradi. Ular uchun dunyo rohat uyi tinch boʻladi”*[9], – deya huquqiy, maʼnaviy-axloqiy qarashlari keltirilgan.

Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy gʻoyalar islomiy maʼnaviyat bilan hamohangdir. Oilada farzand tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud boʻlib, quyidagi soʻzlari ibratlidir: “*Zamondan yaxshiroq taʼlim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq taʼlim oladigan oʻquvchini koʻrmadim*”[10].

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan barcha asarlar maʼnaviy boyligimizdir. Buyuk allomalarning oʻgitlari hamda maʼnaviy-axloqiy qarashlari barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy mezon boʻlib, oilaviy munosabatlar madaniyatida muhim ahamiyatga ega.

[8] Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –T.: “Sano-standart”, 2018-y. 192-b.

[9] Niyozov G. Sharq allomalari va maʼrifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid maʼnaviy-axloqiy qarashlari. – T.: “Oʻzbekiston”, 2010-y. 88-b.

[10] Oila pedagogikasi. – T.: “Aloqachi”, 2007-y. 384-b

**Umidjon TURSUNOV,**
**Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi**

# BOYSUN MADANIY MUHITI – YUNESKO E'TIROF ETGAN DURDONA

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqolada, Boysun madaniy muhitining YUNESKO tarafidan e'tirof etilganligi, boysunliklarning marosimlari o'tkazilishi, bayramlarning nishonlanishida azaliy an'analar, urf-odatlarni amalga oshirishda qadimgi an'analarga rioya qilishlari hamda Boysun so'zining ma'nosi haqida ma'lumotlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *YUNESKO, bayram, marosim, an'ana, urf-odat, folklor, festival, doston.*

# КУЛЬТУРНАЯ СРЕДА БОЙСУНА – ШЕДЕВР, ПРИЗНАННЫЙ ЮНЕСКО

**Аннотация.** *В данной научной статье представлена информация о признании культурной среды Бойсуна ЮНЕСКО, древних традициях Бойсунского народа в праздновании праздников, соблюдении древних традиций и значении слова Бойсун.*

**Ключевые слова:** *ЮНЕСКО, праздник, ритуал, традиция, обычай, фольклор, фестиваль, эпос.*

# BOYSUN CULTURAL ENVIRONMENT IS A MASTERPIECE RECOGNIZED BY UNESCO

**Abstract.** *This scientific article provides information about the recognition of Boysun's cultural environment by UNESCO, ancient traditions of Boysun's celebration of holidays, observance of ancient traditions and the meaning of the word Boysun.*

**Key words:** *UNESCO, holiday, ritual, tradition, custom, folklore, festival, epic.*

Boysun madaniy muhiti o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. Bulardan birichisi, Boysun madaniy muhiti birinchilardan bo'lib, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi obyekti sifatida 2001-yilda YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi" sifatida e'tirof etilgan va 2008-yilda O'zbekiston ham YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi"ga qo'shilganidan keyin "Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxati"ga o'tkazilgan. Ikkinchi jihati, Boysun madaniy muhitida "Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxati"ga kiritish uchun tavsiya etiladigan beshta yo'nalish (O'zlikni namoyon etishning og'zaki an'ana va shakllari; Ijro san'ati; Jamiyatning urf-odatlari, marosim va bayramlari; Tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar; An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar)ning barchasiga tegishli bo'lgan elementlar uchraydi. "Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxati"ga kiritish uchun tavsiya etiladigan yo'nalishning barchasiga tegishli bo'lgan hududlarni yurtimizning ko'plab go'shalarida uchratish mumkin. (Masalan: Xiva, Forij, Qo'qon, va h.k.). Ammo marosimlarning o'tkazilishi, bayramlarning nishonlanishida azaliy an'analar, urf-odatlarga rioya qilinishi boysunliklarda ko'proq saqlanib qolgan.

Xalqimizning o'ziga xos milliy xususiyatlarini namoyon etgan Boysunni qo'rqmasdan tabiat qo'ynidagi ochiq etnografik muzey, deb ayta olamiz. Chunki faqat boysunliklarning turmush va xo'jalik



faoliyatida uchraydigan o'ziga xos milliylik o'tmishda ota-bobolarimiz amal qilgan urf-odat va marosimlar haqida ma'lumot beradi. Etnografik adabiyotlardan ma'lumki, Boysun shahri va uning atrofidagi qishloqlar o'ziga xos an'analari va xalq og'zaki ijodi bilan ajralib turadi. Bunga tumandagi Sariosiyo, Avlod, Passurxi, Bibishirin, Ko'chkak, Rabot, Kofirun kabi qishloqlarda o'zbek xalqi tarkibidagi turk, qo'ng'irot, qatag'on, xo'ja kabi etnik guruhlar va tojiklarni uzoq davr mobaynida birgalikda yashab kelayotganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham boysunliklarning tili, urf-odatlari, to'y va motam marosimlari, kiyim-kechaklari, xo'jalik xususiyatlari, va hatto, xalq og'zaki ijodida ham umumiy mushtaraklikni kuzatishimiz mumkin. Boysunda yashovchi turli millatlar o'rtasida obrazli tarzda bo'lsa ham hatto qandaydir chegara o'tkazishni ham aslo iloji yo'q. Demak, bu yerda turli etnik guruhlar, turli madaniyat va rang-barang sheva va tillar qorishib, "boysun qo'ng'irot eli" vujudga kelgan va o'ziga xos madaniyat yaratganlar desak, xato qilmagan bo'lamiz[1].

[1] Ashirov A., Qayumov A. Boysun aholisining an'anaviy turmush-tarzi: o'tmishda va hozirda. // Boysun tarixi va an'analari. – Toshkent: 2005-y. 97-b.

Boysunda milliy qadriyatlarimiz azaliy urf-odatlarimizning saqlanib qolishida bu hududning geografik joylashuvining ham roli kattadir. Sababi, Machay qishlog'i yaqinida joylashgan Teshiktosh g'oridagi qadimiy odam-neandertallar manzilgohi, Darbanddagi chegaradosh Kushan devori va Temir darvozasi, qadimgi yunon-makedoniyaliklarning Qo'rg'onzol qal'asi, kushon davri Poyonqo'rg'on qal'asi va boshqa ko'plab tarixiy-madaniy meros obyektlari shu hududda joylashgan. Tabiiyki bu kabi omillar boysunliklarning turmush tarzi va urf-odatlariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Umuman olganda, Boysundagi har bir mahalla va qishloq o'ziga xos madaniy qiyofasi bilan ajralib turadi. Har bir qishloq va mahallani o'ziga xos rasm-rusumlari va udumlari mavjuddir. Bu esa o'z navbatida Boysun ahlining naqadar rang-barang ma'naviy madaniyat egalari va mintaqani jahon nomoddiy madaniyatining durdonasi ekanligidan dalolat beradi[2].

Boysunning eng katta ma'naviy boyligi, albatta, ikki tilda gaplashuvchi bir tanu bir jon bo'lib ketgan bag'rikeng, mehnatkash, dilkash xalqidir. Bu yurtni iqtidorga boy, o'tkir zakovat egalari o'zlariga makon tutgan. Xalqimizning boy ma'naviy durdonasi "Alpomish" dostoni ham ana shu xalq ma'naviy mulkining mahsuli, desak xato bo'lmaydi. Zero, "Alpomish" dostonida aks ettirilgan asosiy voqealar ham Boysunda yuz bergan[3]. Boysun elining Mullado'st Nodir Boysuniy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi mumtoz shoirlari, Mulla Rajab Boysuniy, Mullajon Erkayev singari akademik olimlari, O'zbekiston xalq yozuvchilari Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, Xalq baxshisi Shoberdi Boltayev, kabi yuzlab so'z va san'at ustalari, davlat va jamoat hayotida alohida xizmatlari bilan xalqning qalbidan joy olgan fidoyi insonlar bisyordir. Bugun o'zbek kurashini dunyoga tanitgan Toshtemir Muhammadiyev, Abdulla Tangriyev, Davlat Choriyev kabi polvonlar ham shu yurt farzandlaridir[4].

Boysun madaniy muhitini o'rganish bo'yicha qator ekspeditsiyalar tashkil etilib E.Rtveladze, L.Sverchkov, V.Mokrobordov, I.To'xtayev, A.Sagdullayev tomonidan ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Shuningdek, qator folklorshunos, san'atshunos va musiqashunos olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar ham olib borilgan. Bularga misol qilib A.Ashirov va A.Qayumov tomonidan yozilgan *"Boysun aholisining turmush tarzi"*, M.Jo'rayev tomonidan yozilgan *"Boysun xalq taqvimi",* I.Abdurahimov tomonidan yozilgan *"Boysun tomoshaviy o'yinlari va marosimlari", "Boysunda Navro'zning nishonlanishi"*, R.Abdullayev tomonidan yozilgan *"Boysun musiqa merosi", "Boysun musiqasi va musiqa cholg'ulari", "Boysun marosimlari va marosim musiqalari",* A.Hakimov tomonidan yozilgan "Boysun an'anaviy kashtachiligi", E.F.Gyul tomonidan yozilgan *"Boysun gilamdo'zligi", "Boysun kigiz gilamlari va to'qimachilik",* A.Hakimov va S.Aliyeva hamkorligida yozilgan *"Boysun kulolchiligi",* S.Aliyeva tomonidan yozilgan *"Ko'nchilik, yog'och o'ymakorligi, sandiqlar",* L.Rempel tomonidan qilingan xalq me'morchiligi bo'yicha ilmiy ishlarini keltirish mumkin.

Boysun so'zining ma'nosi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, **"Boysun"** – qadimiy turkcha so'z bo'lib, ***"ulug' tog'"*** yoxud ***"katta tog'"*** ma'nosini bildirgan. Bu so'zning etimologiyasi haqida Sayfullo Tursunov o'zining "Surxondaryo viloyati toponimlari" asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Boysun-Boysin oronim sifatida yuzaga kelgan, o'zbek xalq dostonlaridagi Boysin yurti ham tog', ham o'lka nomidir. Manbalarda e'tirof etilishicha, *"chin"* – *"sin"* – *"shin"* aslida xitoycha so'zning talaffuzdagi o'zgarishlaridir, "chin" – xalq, ulus, elat, qavm ma'nolarini anglatadi. "Boy" so'zi turkiy so'z va u katta, buyuk, ulkan, ulug', yirik ma'nolariga ega, chunonchi, Baykal (Boyko'l)dagi *"boy"* va *"ko'l",* katta ko'l demakdir. Ko'rinadiki, Boysun tarkibidagi *"sun"* – *"chin", "sin"* va *"shin"*larning o'zgargan shakli ekan. Xulosa, Boysun – *"boy"* (katta), *"sun"* (xalq), ko'p aholisi bor katta xalq ma'nosini anglatar ekan"[5].

Shuningdek, muallif o'z asarida boshqa olimlarning Boysun haqida quyidagi ma'lumotlarini ham keltirib o'tgan: *"... Istahriy va muallifi noma'lum "Hudud ul-Olam"* asrida Basand shaklida yozilgan. Bosand va Basand *"qator karvonsaroylari bo'lib, sarbonlari ko'pdir. Harakatchan, xalqi ko'p, savdo qiladigan bozori keng Bosand".* V.A.Livshitsning ta'kidlashicha: *"Bosand"* so'zi ko'p ishlatilib, sand so'zi ma'nosida So'g'dcha va kenglik, katta ulkan deb ifodalangan. Boy (q.) Qsin-Qsun so'zlaridan tuzilgan. Boy-bay-moy-may-poypay so'zi nomlarning boshida ko'p uchraydi: N.A.Mayevning fikricha Boysunning haqiqiy nomi Boyshin bo'lib, *"Boylar, zodagonlar manzili".* Filolog olim Y.Xo'jamberdiyevning ilmiy tadqiqotda turkcha *"sin"* so'zi *"cho'qqi, qoya, baland tog' tizmasi"* ma'nosida izohlanib Boysun – Boysin – *"Baland tog' tizmasi, baland cho'qqi, katta qoya" degan ma'nolar qayt etilgan. Sin-so'n so'zi "tog', tog' tizmasi", "bo'y", "qaddi-qomat" ma'nolarini tahlil etadi. Boysun so'zi tog' nomiga qiyosiy izohlanib, "buyuk tog'", "tog'ning quyi qismida", "tog'ning yonida joylashgan" qishloq degan ma'noni beradi"*[6].

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida boy so'zi bilan ataladigan joy nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Bunga Sariosiyo tumanidagi Boyqishloq, Boybicha, Boybo'ri, Denov tumanidagi Boyovul, Boyqozoq, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on tumanlaridagi Boymoqli qishloqlarning nomi misol bo'la oladi.

Boysun madaniy muhitining YUNESKO tomonidan e'tirof etilishi shu yerdagi nomoddiy madaniy meros

---

[2] Ashirov A. Boysunda o'tkaziladigan jahr marosimi haqida ayrim mulohazalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Termiz davlat universiteti "Boysun-bahori" ochiq folklor festivalini "Jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. – T.: 2019-y. 13-b.

[3] Tursunov S., To'rayev J. "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali: turizm salohiyati. – T.: "Oltin qalam", 2024-y. 31-b.

[4] O'sha manba, o'sha bet.

[5] Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008-y. 152-b.

[6] O'sha manba, o'sha bet.



namunalarini to‘laqonli o‘rganishga yana bir bor turtki bo‘ldi. 2002-yilda ilk bora o‘tkazilgan “Boysun bahori” folklor festivali 13 yillik tanaffusdan so‘ng, 2017-yildan yana qayta tiklanib, har ikki yilda o‘tkaziladigan bo‘ldi. 2022-yilning 7-fevral kuni esa Vazirlar Mahkamasining “Boysun bahori” xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 59-son qarori qabul qilindi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos folklor madaniyatini, shu jumladan, og‘zaki she’riy ijod, xalq dostonlari, hunarmandchilik, milliy liboslar va xalq o‘yinlari, qadimiy urf-odatlarni saqlab qolish hamda ularni keng targ‘ib etishni ustuvor vazifa qilib belgilab bergan mazkur qarorga asosan “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali doirasida ilmiy-ijodiy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, sayillar, konsertlar, ko‘rgazma va boshqa tadbirlar tashkil etilishi belgilab berilgan. Shuningdek, festival doirasida chet ellik mehmonlar uchun tumandagi Hazrati Sulton Vali Balogardon, Bibishirin ziyoratgohlari, Darband chegara istehkomi, Tangisar darasi, Xo‘jamayxona shifoxonasi, Omonxona dam olish maskani kabi diqqatga sazovor joylariga sayohatlar uyushtirilib, Boysunning betakror tabiati va muqaddas ziyoratgohlari bilan tanishtiriladi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistondan YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan Shashmaqom, Katta ashula, Navro‘z, Askiya, Palov madaniyati va an’analari kabi namunalar qatori xalqimizning qadimiy hunarmandchiligi, betakror san’ati, yuksak ijodiy salohiyati bag‘rikenglik va mehmondo‘stlik fazilatlarini o‘zida aks ettirgan Boysun madaniy merosini jahon hamjamiyati oldida namoyish etishga xizmat qilib kelmoqda

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, yurtimizda “Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxati”ga kiritish uchun tavsiya etiladigan bunday madaniy muhitlarni juda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Aytaylik, Xorazmning Xiva bilan Xonqa tumanlari turmush tarzi, urf odatlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Bu yerda O‘zbekistonning biror burchagida uchramaydigan nomoddiy madaniy meros namunasiga duch kelishingiz tabiiy. Yoki “Qo‘qon adabiy muhiti” deganda biz qo‘qonlik adiblarni eslaymiz. Lekin “Qo‘qon madaniy muhiti” degan fikr hech birimizning xayolimizga ham kelmaydi. Axir, qo‘qonliklarning urf-odat va an’analarni bugungi kungacha saqlab kelayotganliklari, ustalar esa asrlar davomida shakllanib kelgan hunarlarini ustoz-shogird an’analari asosida yosh avlodga o‘rgatayotganliklari har qancha tahsinga sazovordir. Yoki Jizzax viloyatining Forish tumanida ham “Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxati”ga kiritish uchun tavsiya etiladigan beshta yo‘nalishning barchasini uchratishimiz mumkin. Sanab o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekistonimizning har bir viloyatida bunday holatga duch kelamiz. Har bir viloyatda Boysun madaniy muhitiga teng keladigan madaniy muhit mavjud. Bu hududlarni “Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxati”ga kiritish bo‘yicha muayyan ishlarni boshlash vaqti keldi. Shunday madaniy muhitlarni, avvalo, o‘zaro tan olinishiga mahalliy, milliy va xalqaro darajada e’tibor qaratishga erishmog‘imiz darkor.

# VII BO‘LIM
# YOSH TADQIQOTCHI

**Jo‘rabek TO‘YCHIYEV,**
**O‘zDSMI tayanch doktoranti**

## YANGI MA’NAVIY MAKON VA UNING TARKIBIY QISMLARI

**Annotatsiya.** *Maqolada yangi ma’naviy makon tushunchasi, ma’naviy makonni tashkil etuvchi ma’naviyat, ma’naviy hayot va faoliyat, qadriyatlar, mentalitet, an’analar, urf-odatlar, ishonch, burch, adolat, baxt, go‘zallik, din va madaniyat falsafasining mohiyati masalalari yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *ma’naviyat, ma’naviy makon, yangi ma’naviy makon, ma’naviy hayot, ma’naviy faoliyat, qadriyat, mentalitet, an’ana, ishonch, burch, adolat, baxt, go‘zallik, din, madaniyat, falsafa.*

## НОВОЕ ДУХОВНОЕ ПРОСТРАНСТВО И ЕГО СОСТАВЛЯЮЩИЕ ЧАСТИ

**Аннотация.** *В статье рассматриваются понятия нового духовного пространства, духовности, духовной жизни и деятельности, ценностей, менталитета, традиций, обычаев, доверия, долга, справедливости, счастья, красоты, религии, составляющих духовное пространство, и вопросы сущности философии культуры.*

**Ключевые слова:** *духовность, духовное пространство, новое духовное пространство, духовная жизнь, духовная деятельность, ценность, менталитет, традиция, вера, долг, справедливость, счастье, красота, религия, культура, философия.*

## NEW SPIRITUAL SPACE AND ITS COMPONENT PARTS

**Abstract.** *In the article, the concept of a new spiritual space, spirituality, spiritual life and activity, values, mentality, traditions, customs, trust, duty, justice, happiness, beauty, religion that make up the spiritual space. and issues of the essence of the philosophy of culture are covered.*

**Key words:** *Spirituality, spiritual space, new spiritual space, spiritual life, spiritual activity, value, mentality, tradition, faith, duty, justice, happiness, beauty, religion, culture, philosophy.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning metin irodasi, milliy tarbiya asosida ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo‘lini izchil davom ettirish orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb masalalar qatorida erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma’naviy makonni yaratish masalasi alohida ahamiyatga egadir. Yangi ma’naviy makon tushunchasiga Prezidentimizning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarida quyidagicha ta’rif berilgan: *“Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda u biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”*[1].

Albatta, yangi ma’naviy makonni yaratish strategik vazifadan iborat bo‘lganligi uchun tahlilimizni “makon”, “ma’naviy makon” tushunchalaridan boshlash maqbulroqdir. *“Makon-materiya birligining ko‘lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o‘zaro ta’sirlarini ifodalovchi shakllaridir”*[2].

Demak, makon harakatdagi borliq mavjudligining muhim shaklidir. Makon tushunchasi narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini ifodalovchi tushunchadir. Moddiy jarayonlar faqat makonning turli nuqtalaridagina emas, birisi ikkinchisidan oldin yoki keyinroq amalga oshaveradi. Moddiy jarayonlarning sodir bo‘lishida muayyan izchillik mavjud bo‘lib, ularning hammasida jismlarning zamonda amalga oshish ketma-ketligida o‘z ifodasini topadi.

Qadimgi davrlardan boshlab makon tushunchasiga olam mavjudligining asosi sifatida qarab kelingan. Hozirgi paytda turli falfasiy qarashlarga ko‘ra makon tushunchasi hududiy makon, ijtimoiy makon, diniy makon, axborot makoni, virtual makon, ma’naviy makon, tushunchalarida ifodalanadi. Agar makon tushunchasiga uzluklilik va uzluksizlik dialektik xossasi

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (Uchinchi nashr). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022-y. 266-b.

[2] Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012-y. 243-b.

nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, uzluklilik (chegaralanganlik) faqat hududiy makonga, uzluksizlik (chegaralanmaganlik) madaniy, diniy, dunyoqarashlik, ma'naviy va hokazo makonlarga xosdir.

Makonning uzluksizligi, chegaralanmaganligi, benihoyaliligi madaniyat, din va huquqdagi vorisiylik o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra muayyan hududdagi davlatchilik, siyosiy tuzum, huquqiy tartibga solish o'zgarsada, madaniy-diniy makondagi uzluksizlikni qo'llab-quvvatlovchi an'analar saqlanib qoladi. Demak, "makon" kategoriyasi an'anaviy tarzda iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta'limiy va boshqa tushunchalarning to'la ma'nosini anglatuvchi bir butunlik sifatida qo'llaniladi. Formal nuqtayi nazardan makon o'z funksional xususiyatlariga ko'ra taqozolanadigan, munosabatlar o'rnatiladigan, o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan shakllantiriladigan tizimdir.

Ma'naviy makonda jamiyat hayotiy faoliyatining barcha jabhalari shakllanganligi va rivojlanganligi uchun jamiyat hayotining ma'naviy jabhasini ham o'ziga qamrab oladi. Bizning fikrimizga ko'ra, "ma'naviy makon" va "jamiyat hayotining ma'naviy jabhasi" tushunchalari turli ma'noni anglatadi. Ma'naviy jabha ma'naviy boyliklarni yaratish, ma'naviy qadriyatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy institutlarning mavjudligini taqozo qiluvchi ma'naviy hayotning bir tomonidir. Ma'naviy makonni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ular ma'naviyat, ma'naviy hayot va faoliyat, qadriyatlar, mentalitet, an'analar, urf-odatlar, axloq va axloqiy tushunchalar: ishonch, vijdon, burch, adolat, baxt, go'zallik, (estetik kategoriya), din, madaniyat, falsafa kabilardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek: *"Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha mustahkam bo'ladi"*[3].

Ma'lumki, mamlakatimiz so'nggi yillarda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayotida asrlarga teng bo'lgan ulkan yutuqlarga erishmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kuchli ilmiy asosda olib borilayotgan islohotlar vatanimizda yashayotgan har bir fuqaroning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda, ayniqsa, ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ma'naviyat jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni shaxs sifatida shakllantiruvchi, ma'lum maqsad yo'lida birlashtiruvchi buyuk kuchga aylanib borayotganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham mamlakatimiz olimlari tomonidan ma'naviyatning jamiyat, inson va millat taraqqiyotidagi o'rnini yanada chuqurroq tadqiq qilishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Jumladan, taniqli faylasuf A.Jalolov *"Mustaqillik mas'uliyati" asarida: "Ma'naviyat insonning belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli"*[4], – deb ta'riflaydi. "Hayot falsafasi va falsafa hayoti" maqolasida ushbu ta'rifni yanada kengaytirib: *"Ma'naviyat – inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo'lib, kishilar uning vositasida o'zlarini anglaydilar, jamiyatni, tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganadilar, qonunlarni kashf etadilar va ularga tayanib, o'z turmush sharoitlari, amaliy faoliyatlar muammolarini hal etadilar"*[5], – deb ta'kidlaydi.

"Vatan tuyg'usi" kitobining mualliflari: *"Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyatlari, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha"*[6], – deb ta'riflaydilar.

A.Erkayevning fikriga ko'ra: *"Ma'naviyat – bu ijtimoiy ongning e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit ehtiroslari, tushunchalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljallar, ideallaridir, ularning madaniy merosda, urf-odatlarda aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishishi uchun yordam beradigan, milliy irodasi hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir"*[7]. M.Imomnazarov va M.Eshmuhammedovalarning "Milliy ma'naviyatimiz asoslari" kitobida ta'kidlaganicha: *"Ma'naviyat inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuridir"*[8].

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning ma'naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishini anglatadi. Ma'naviyatsiz yuksalish imkoniga ega bo'lgan adolatli jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyatni ham tasavvur qilish mumkin emas. *"Ma'naviyat orqali inson tabiat va jamiyat bilan bir butunlikni tashkil qiladi, uyg'unlashadi. Insonning tabiatga va jamiyatga ijobiy ta'siri ma'naviyatga salbiy ta'siri esa undagi kamchiliklarga bog'liq"*[9].

Fikrimizcha, ma'naviyat tushunchasining mohiyatini kengroq ochib berishda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratmoq kerak:

**Birinchidan,** insonning insonligi uning moddiy hayot sharoitlaridagina emas, balki yuksak ma'naviyat sohibi ekanligida, zohiriy va botiniy dunyosining chinakam go'zalligida hamdir. Inson qanday faoliyatni amalga oshirmasin uning asosini fikr, g'oya, bilim, qobiliyat sifatida shakllangan ma'naviyat tashkil etadi.

**Ikkinchidan,** mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayoni, eng avvallo, kishilarning yuksak madaniyati ma'naviyati va ma'rifatliligiga, odamlar ongining rivojlanish darajasiga va tafakkur qilishiga asoslanadi. Biz qurayotgan ijtimoiy-demoktarik davlat va fuqarolik jamiyatining kelajagi o'z mehnati va intellektual salohiyatini to'la baxshida etishga hamisha tayyor turgan ma'naviy-axloqiy barkamol insonlarga bog'liqdir.

---

[3] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (Uchinchi nashr). – T.: "O'zbekiston", 2022-y. 26-b.
[4] Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. – T.: "O'zbekiston", 1993-y. 96-b.
[5] Jalolov A. "Hayot falsafasi va falsafa hayoti". "Muloqot" jurnali, 1997-yil, № 5.
[6] Ibrohimov A., Sultonov X. Vatan tuyg'usi. – T.: "O'zbekiston", 1997-y. 111-b.
[7] Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – T.: "Ma'naviyat", 2009-y. 50-51-b.
[8] Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: "Ma'naviyat", 2007-y. 35-b.
[9] Quronboyev Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ("Kamolot" yoshlar tashkiloti misolida) Ped. fan. nomz. diss. – T.: 2000-y. 51-b.

**Uchinchidan,** huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurish uchun umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o‘rganish bilan birga milliy o‘ziga xosligimizni, an’analarimizni, urf-odatlarimizni saqlash, yuksaltirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Ma’naviyat o‘z navbatida ma’rifat bilan uyg‘un holatda rivojlanadi. Ma’rifat inson faoliyatining bilimlarni egallash va jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan sohasi bo‘lib, ma’naviyat bilan qo‘shilgandagina o‘tmish, bugungi kun, kelajakni bir-biriga bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham ma’naviy-ma’rifiy tarbiya sifatida ularni birga olib borish davr taqozosidir.

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani tashkil etishda ma’naviyatning jamiyat hayotida bajaradigan ijtimoiy vazifalari, ma’naviy tarbiyaning mohiyatini to‘g‘ri anglash ham alohida ahamiyatga egadir. A.Erkayev fikriga ko‘ra, ma’naviyatning ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

*1) millatni muhofaza qilish;*

*2) o‘tmishga va kelajakka oid hodisalarga baho berish, bu baholarning mezonlari va me’yorlarini belgilash (aksiologik vazifa);*

*3) jamiyatni va aholida shaxslarni muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga undash;*

*4) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishiga rag‘batlantirish;*

*5) insonning o‘z shaxsiyati bilan jamiyatda yashashini, inson tabiatining rivojlanishi, takomillashishini ta’minlash;*

*6) kishilar ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish (axloqiy va huquqiy me’yorlar orqali);*

*7) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg‘unligini ta’minlash*[10].

Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, ma’naviyatning jamiyat hayotida bajaradigan ijtimoiy vazifalari inson kamoloti, inson va jamiyat, inson, shaxs va jamiyat, inson va tabiat munosabatlari nuqtayi nazaridan yanada kengroq vazifalarni bajarishini ta’kidlamoq kerak. Ayniqsa, ma’naviy, mafkuraviy tazyiqlar o‘tkazish xavfi yanada kuchayib borayotgan bugungi kunda ushbu vazifalar ko‘lami kengayib borishini unutmaslik zarur.

Bizningcha ushbu holatlarni hisobga olgan holda ma’naviyatning vazifalarini adaptiv, interaktiv, tarbiyaviy, o‘z-o‘zini himoya qilish, insonparvarlik, qadriyatlarga munosabat, iqtisodiy-ekologik, tartibga soluvchilik yo‘nalishlariga ko‘ra ajratib ko‘rsatish mumkin.

- Ma’naviyatning adaptiv vazifasi insonning muayyan kasbiy munosabatlar tizimiga kirishishi, jamoada faoliyat ko‘rsatishi, amalda bo‘lgan kasbiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy shart-sharoitlarga tez moslashishga yordam beradi.
- Integrativ vazifasi kasbiy-ma’naviy aloqalar va muloqotlar orqali jamoada ishonchli munosabat o‘rnatish.
- Tarbiyaviy vazifasi shaxs va jamiyatning uzluksiz va izchil aloqasi orqali namoyon bo‘ladi.
- O‘z-o‘zini himoya qilish vazifasi shunda namoyon bo‘ladiki, inson o‘zining yaxlit ichki dunyosi tizimini yaratish, ushbu tizim uchun xavfli bo‘lgan ta’sirlarga qarshi kurashadi.
- Insonparvarlik vazifasi umuminsoniy manfaatlarga, inson hayotining qadr-qimmati va daxlsizliliga qarab mo‘ljal olishga yo‘naltirishdan iboratdir.
- Qadriyatlarga munosabatni shakllantirish vazifasi birinchidan, avvaldan shakllangan va e’tirof etilgan qadriyatlar yordamida mo‘ljal olish imkonini beradi, ikkinchidan, u yoki bu qadriyatlarni erkin tanlash, ularni yaratish va shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi, uchinchidan, shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish subyektiga aylantirishga yordamlashadi.
- Iqtisodiy-ekologik vazifasi iste’mol jarayonida tejamkorlik, tabiiy resurslar va mablag‘lar isrofini imkon qadar kamaytirish va odamlar ehtiyojlarini aqlga muvofiqlashtirishda ko‘rinadi.
- Tartibga soluvchilik vazifasi barcha munosabatlarni mavjud me’yorlar yordamida va vositasida tartibga solishda ko‘rinadi.

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, shaxs ma’naviyatining shakllanish jarayoni quyidagi uchta bosqichdan o‘tadi:

**Dastlabki bosqichda** ma’naviyatning asoslari shakllantirilib, bunga shaxsning o‘z-o‘ziga murojaat etishi, o‘zini bilishi va o‘zini o‘rganishi yuz beradi. U o‘z ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish lozimligini anglab yetadi, yanada barkamolroq ma’naviy borliq sari intila boshlaydi, uning ma’naviy ehtiyojlari dolzarblashadi, oliy, umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga o‘z e’tiborini qaratadi. Shaxs jamiyatda yaratilgan ma’naviy-axloqiy me’yorlarni faol o‘zlashtiradi. Bu bosqich ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish bosqichidir.

**Ikkinchi bosqich** – ma’naviy qadriyatlarni iste’mol qilish bosqichi bo‘lib, shaxsning avvalgi bosqichda shakllangan ma’naviy fazilatlari va mo‘ljallarining shunday darajasiki, u faol ijtimoiy rolni bajarish imkoniyatini yaratadi. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichi talablaridan kelib chiqib, barqaror ma’naviy qadriyatlardan dadil faydalanadi, shakllangan ma’naviy darajasiga ko‘ra qarorlar qabul qila oladi.

**Uchinchi bosqich** – shaxsning o‘z ma’naviy salohiyatini mumkin qadar to‘la namoyon etuvchi bosqich bo‘lib, ma’naviy yuksalishning oliy bosqichi hisoblanadi. Shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishga intilib qolmasdan, o‘z tajribasi va ma’naviy boyligini boshqalar bilan baham ko‘radi, fikr almashadi. Demak, bu bosqich, ma’naviy qadriyatlarni yaratish va tarqatish bosqichidir.

Shundan xulosa qilish mumkinki, ma’naviy tarbiya inson ma’naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashining millat va jamiyat talablari darajasida uzluksiz shakllantirilish demakdir. Ilmiy bilimlar, maorif, ta’lim-tarbiya, taraqqiyparvar siyosiy g‘oyalar, oliy axloqiy va estetik his-tuyg‘ulardan iborat bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni yaratish va iste’mol qilish muayyan jamiyat, xalq, shaxsning ma’naviy yetukligi va ma’naviy sog‘lomligining asosiy belgisidir. Ma’naviy qadriyatlar jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi dinamikasini aks ettirib, ma’naviy hayot, ma’naviy faoliyat, individlararo ma’naviy munosabatlar, insonning ma’naviy ehtiyoji singarilar bilan bog‘liqdir.

---

[10] Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. – T.: “Ma’naviyat”, 2009-y. 56-b.

**SHAVKATOVA Gulnoza Rustam qizi,**
**O‘zDSMI tayanch doktoranti**

# O‘ZBEKISTONDAGI YOSH TOMOSHABINLAR TEATRLARI BILAN MAKTAB HAMKORLIGINING PROFESSIONALLASHUV DAVRI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, bolalar teatrining paydo bo‘lish tarixi yoritilgan, bolalar teatrlarining maktab bilan hamkorlik masalalari yuzasidan bir necha adabiyotlar o‘rganib, tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *teatr, pyesa, dramaturgiya, tarbiya, ta’lim, san’at, bolalar, komillik, ma’naviyat.*

# ПЕРИОД ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛЫ С МОЛОДЫХ ЗРИТЕЛЬСКИМ ТЕАТРОМ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотатция.** *В данной стате описана история детского театра, изучен и проанализирован ряд литератур по вопросам сотрудничества детских театров и школ.*

**Ключевые слова:** *театр, пьеса, драма, воспитание, образование, искусство, дети, совершенство, духовност.*

# PERIOD OF PROFESSIONALIZATION OF SCHOOL COOPERATION WITH YOUNG AUDIENCE THEATERS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** *This article describes the history of the children’s theater, studied and analyzed several literatures on the issues of cooperation between children’s theaters and schools.*

**Key words:** *theater, play, drama, upbringing, education, art, children, perfection, spirituality.*

XX asr keskin o‘zgarishlar bilan tarix sahnalariga kirib keldi. Rossiyada 1920-yildan teatr sahnalarida bolalar uchun maxsus spektakllar sahnalashtirila boshlangach, davlat qarmog‘iga o‘tgan xususiy teatrlar repertuarida ham bolalar uchun mo‘ljallangan spektakllar paydo bo‘ldi. 1924-yildan boshlab sovet ittifoqi davlatlaridagi Maorif komissarligi tasarrufida yosh tomoshabinlar uchun teatrlar tashkil etila boshlandi. 1928-yilga kelib, O‘zbekistonda hozirgi Respublika yosh tomoshabinlar teatri, keyinchalik esa Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri tashkil topdi. Yosh tomoshabinlar uchun maxsus bolalar teatrlari tashkil topgandan so‘ng, ular ijodiy faoliyatini bolalar dunyoqarashini tarbiyalashga, estetik didini shakllantirishga, teatr san’ati orqali ular ma’naviyatiga ibratomuz ta’sir o‘tkazishga o‘z e’tiborini qaratdi. Buning uchun ular maktab bilan hamkorlikda ijodiy reja tuzish va uni amalga oshirish davr talabiga aylandi.

Toshkentdagi yosh tomoshabinlar teatri birinchi chorak davrini professionallashuvga, ya’ni ijodkorlar tarkibini iqtidorli san’atkorlar bilan to‘ldirishga qaratdi. Teatr ijodkorlarining har birini maktab bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha ham o‘z vazifalari mavjud edi. Buning uchun ijodkorlar jamoasiga ko‘mak beradigan teatr pedagogi shtati ham o‘z ishini boshladi. Manzura Ahmedovaning izohiga qaraganda, teatr pedagogi faoliyati rejissyor “ijodi” darajasiga tenglashtirilishi lozim. Bu juda muhim masala, chunki maktab bilan hamkorlik qanchalik muhim masala ekanligini teatrning barcha ijodkorlari anglab yetishi zarur. Bu haqida olimada shunday izoh bor: *“Bolalar teatri o‘n yillik o‘qish davri uchun estetika maktabidir. Chunki bu teatr faoliyati maktab bilan bog‘liq badiiy pedagogik jarayondir. Bolalar teatrining vazifasi maktab o‘quvchilariga tarbiya berish jarayoniga o‘z ulushini qo‘shishdan iborat. Bu teatrda sahnaga olib chiqiladigan asar rejissyor va teatr pedagogining ijodiy hamkorligida yaratiladi. Repertuar maktabning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga ko‘makdosh qilib tuziladi. Bolalar teatri kichik, o‘rta va yuqori maktab davridagi o‘quvchilar yoshining psixologik xususiyatlarini aniq hisobga olib, ularni tarbiyalashga qaratiladi”*[1]. Bu taklif hamon o‘z kuchida qolmoqda. Davr o‘tishi bilan sustlashgan masala bugun yana dolzarb pedagogik yechimini kutmoqda.

Bolalar tarbiyasiga oid yana bir tadqiqot bilan tanishamiz. Quvondiqov o‘z tadqiqotida 1930-yilda Leningrad yosh tomoshabinlar teatridan doimiy ishlash uchun 26 ta aktyor Toshkentga kelishi bu sohaga oid teatr ishlarining jonlanib ketishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlaydi. *“Ular teatrda yuz berayotgan kamchiliklarni yo‘qotish uchun teatrni maktab va ota-onalar bilan bog‘lovchi delegatlar majlisini tashkil qilishga kirishdilar. Delegatlar majlisi turli kasbdagi ota-onalar, pedagoglardan iborat edi. Teatr qoshidagi delegatlar majlisi qo‘yiladigan sahna asarlarninig kengash muhokamasidan o‘tkazar,*

[1] Ahmedova M. “Teatr umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalaridagi to‘garaklar uchun programma”. – Toshkent: 1982-y. 26-b.

*teatr repertuari bolalarning xususiyatlariga mosligini va tarbiyaviy ahamiyatini ham kuzatib turardi”*[2]. Yuqoridagi fikrlarda 1980-yillarga kelib davlat yosh tomoshabinlar teatrining maktab bilan hamkorligi naqadar muhimligiga ahamiyat berganligi, hamda ushbu jarayon teatr repertuarini shakllanishida mavjud asosiy talablaridan biri bo‘lganligini dalillaydi.

Teatr jamoasi o‘z faoliyatini boshlanish davrda bolalar uchun maxsus sahna asarlari, ya’ni dramaturgiya yo‘qligi bois jamoa qator qiyinchiliklarga duch kelgani ta’kidlangan. O‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar yaratgan bolalar dramaturgiyasini inkor qilgan mafkura davlat teatri repertuarini rejissyor hamda aktyorlar birgalikda yaratishini talab qilgan. Bu haqida yosh tomoshabinlar teatrining ilk rejissyori Afandixon Ismoilovning quyidagi jumlalaridan bilib olish mumkin: *“Qon va suv” asarini sahnaga qo‘yganimizdan keyin navbatdagi postanovkamizni original bo‘lishiga xudsovet qaror qilgan edi. Ma’lumki, o‘sha vaqtda bizning teatrimizga munosib original asarlar bo‘lmaganidan, men Namanganda bo‘lganimda Omon polvon nomli bosmachini qilgan yovuzliklari haqida eshitganimni kollektivga so‘zlab berdim. Bu kollektivga ma’qul tushib, kollektiv yordami bilan “G‘olibiyat” asarimni yoza boshladim. Bog‘dodda yurganimizda, Eshmuhammedov postanovkachi bo‘lib, repetitsiya olib bordi. Biz tayyor bo‘lib qolgan “G‘olibiyat”ni gastrol postanovkasi, deb e’lon qildik. Dekoratsiyalar ham yo‘lda ishlandi. Birinchi ko‘rik 1931-yil iyul oyini boshlarida Qo‘qon sahnasida qo‘yildi. Dramaturg Yashin Numonov asarni sinchiklab ko‘rib, asar adabiy yuksakligini yanada ko‘tarish uchun ko‘p yaxshi fikrlar berdi. Masalan, pyesadagi ikki obraz Karim polvon (salbiy obraz), Salim polvon (ijobiy obraz) bir-biriga qarama-qarshiligi bo‘sh, buni kuchaytirish kerak, dedi. Ikkinchi, Salim bilan qizil sherigini bosmachilar oldidan olib chiqishi va uni qo‘yib yuborishi tasodif bo‘lib qolgan va boshqalar. Men bu qimmatli maslahatlarni qabul qilib, asarni qaytadan ko‘rib chiqdim. Hamda sahna oldida o‘tadigan uchinchi hamda beshinchi yangi kartina yozdim”*[3]. Bu fikrdan hamkorlikdagi ijodda rejissyor, aktyorlar va o‘z davrining mashhur dramaturgi ishtirok etgani ma’lum bo‘ladi.

Teatr ilk davrlarida turli qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay, ijodiy jamoa jahon asarlariga ham murojaat qiladi. Jumladan, ***“Tom tog‘aning kulbasi”, “Revizor”, “Don Kixot”, “Oqarib ko‘rinar yolg‘iz kema”, “Kambag‘allik ayb emas”, “Ikki veronalik yigit”*** kabi maktab dasturiga kiritilgan asarlarni ham chetlab o‘tmaydi. Bu birinchi chorakdagi eng katta yutuqlardan biri edi. Chunki teatr ijodkorlari ikki tilda, rus va o‘zbek tilida faoliyat yuritardi.

1940-yildan teatr direktori lavozimiga N.V.Ivanov tayinlangan bo‘lib, u rahbarlik qilgan davrda teatr binosi bolalar didiga mos ravishda ta’mir etilishi maktab o‘quvchilarini o‘ziga maftun etadi. Eski shahardagi ta’mirlangan bu binoda ilk bor Sh.Sa’dullaning “Yoriltosh” asari sahnalashtiriladi. *“Ertak spektaklga maktab o‘quvchilari, ularning ota-onalari hamda yoshlar tarbiyasiga mas’ullar ham kelgani uchun ular tomosha zaliga sig‘mas edi. Chunki nizomga muvofiq teatr aktyorlari maktablarga borib uchrashuvlar tashkil etar va sahnadagi ijodga havas uyg‘otardi. “Yoriltosh”ni teatrning bosh rejissyori, mashhur ijodkor Javod Obidov sahnalashtirgan edi”*[4].

Yosh tomoshabinlar teatrida 1928–1950-yillar davomida bir qancha rejissyorlar faoliyat yuritishgan. Xususan, A.Ismoilov, Y.Bobojonov, X.Abdullayev, Z.Xodjayev, I.Podgureskiy, V.Vitt, A.Tolipov, Y.Agzamov, A.Turdiyev, J.Obidov, S.Chekullaev, V.Grigorian, A.Ginzburg, I.Ahmedov, N.Navikovlar bu davrda sahnalashtirilgan spektakllar maktab darsliklarida qayd etilgani uchun sahnaga olib chiqilgan va ular tarix sahifalarida qolgan.

Yosh tomoshabinlar teatrining repertuari tarixida “Semurg‘” dastlabki sahnalashtirilgan dostonlardan biridir. *“Mashhur o‘zbek shoiri, marhum Hamid Olimjon xalq o‘rtasida keng tarqalgan ertaklardan foydalanib, 1939-yilda o‘zining “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” degan ajoyib dostonini yaratgan edi. Dostonda ijtimoiy kuchlar orasidagi kurash, bunda mehnatkash xalqning yuqori tabaqa ustidan g‘alabasi Bunyod obrazida badiiy ravishda ifodalangan. Shoiralarimizdan Zulfiya Ismoilova va Svetlana Somova o‘rtoqlarning “Semurg‘” dramasi ham ana shu xalq ertagi asosida shakllangan”*[5]. Boshqa ertak dostonlar singari ushbu asarda ham vatanga muhabbat, xalqning yuqori tabaqa vakillari zulmiga qarshi kurashi, sof muhabbat singari tuyg‘ular tasvirlangan. Doston asrlardan beri davom etib kelgan, xalqning xonlik zulmlariga qarshi oddiy temirchi va uning qizi Orzigul, cho‘pon yigit Bunyod, keksa baxshi obrazlarining kurashi haqida hikoya qiladi.

1950-yil yosh tomoshabinlar teatri sahnasiga ushbu dostonni N.Navikov, O.Tolipov singari rejissyorlar olib chiqadilar. Aktyorlardan B.Nurmuhammedov (Bunyod), M.Yo‘ldosheva (Orzigul), Z.Tojiboyeva (Semurg‘), H.Ismatullayev (Xon), O.Ismoilov (Yalmog‘iz), A.Tolipovlar (baxshi) qatnashganlar.

Yosh tomoshabinlar teatrida faoliyat yuritib kelgan Amin Turdiyev teatr va maktab hamkorligining ijobiyligini, ya’ni yosh tomoshabinlar bir jamoa bo‘lib maktabdan kelib, spektakl tomosha qilishi ularda jamoaviylik xislatlarini shakllantirishini hamda spektakl ko‘rishni “imtihon” bilan tenglashtirish lozimligi haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldiradi: *“Har bir tomoshabin, maktab bolasi teatrda olgan “darsdan” imtihon bersin. Kollektiv bo‘lib spektaklni ko‘rish bu “imtihon”ning qiziqarli o‘tishiga sabab bo‘ladi. Bolaning ko‘rganlari haqida mulohaza yuritishi, tomoshadagi asl maqsadini aniqlash xususiyatini taraqqiy ettiradi. Nutqi ravonlashadi”*[6]. Amin Turdiyevning bu mulohazasi ham o‘z kuchini yo‘qotmagan muhim masalani yechishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

---

[2] Quvondiqov Q. O‘zbekistonda maktabdan tashqari bolalar tarbiya muassasalari. – T.: “Fan”, 1983-y. 25-b.

[3] Ismoilov A. Xotiralar. – T.: O‘z RFA San’atshunoslik instituti. I87 №445.

[4]. Olimjon A. "Semurg'". "Yosh Leninchi" gazetasi, 1950-yil, 27-iyun.

[5] Olimjon A. “Semurg‘”. “Yosh leninchi” gazetasi, 1950-yil 27-iyun, 8-bet.

[6] Turdiyev A. “Tarbiya o‘chog‘i”. “Sovet maktabi” jurnali, 1965-yil // № 5. 10-bet.

Bolalar tomosha qilgan spektakllarning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlar ko‘plab teatrshunoslar hamda pedagoglarning izlanishlarida uchraydi. Darhaqiqat, maktab bolalarining bir jamoa bo‘lib spektakl tomosha qilishi, ular o‘rtasida do‘stlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi, tengdoshlari bilan fikr almashish imkoniyatini yaratib beradi va ularning teatr muxlisiga aylanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun teatr aktyori va rejissyori Amin Turdiyev yosh tomoshabinlarga xizmat qilayotganidan faxrlanib: *“Bizning teatrimiz respublikada yagona maxsus teatr hisoblanadi. Teatr – oila, maktabdan so‘ng bola tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan anjumandir”*[7], – degan xulosaga kelishi yosh tomoshabinlar teatrining ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Demak, “Sovet maktabi” nomli jurnal o‘z davrining dolzarb masalalarini sahifalarida yoritib boradi.

Albatta, yosh tomoshabinlar teatri faoliyatida o‘ziga xos kamchiliklar ham yo‘q emas edi. Ushbu kamchilikni o‘z davrida Yong‘in Mirzo quyidagicha tahlil qiladi: *“Respublika bolalar teatri yosh dramaturglar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmaydi. Teatrning badiiy rahbari Javod Obidov hamma narsaga o‘zini ura boshladi. U ham badiiy rahbar, ham rejissyor, ham tarjimon, ham konsultant bo‘lib ishlaydi. U, boshqa avtor va tarjimonlarni teatr dargohiga yo‘latmay, faqat o‘zi 9 yildan beri teatrning “joniga oro” bo‘lib kelayotir”*[8]. Bir qarashda serqirra ijodkor Javod Obidov barcha mas’uliyatli vazifani bo‘yniga olgani yaxshi, lekin ishning sifati borasida so‘z ketganda barcha vazifani bir o‘zi hal qilishi ijobiy natija bermasligi shubhasiz. Bu borada muallif mulohazasini o‘rinli, deb hisoblaymiz.

1946-yil 12-noyabrda “Bolalar teatri ishi haqida” kollegial majlisi o‘tkaziladi. Yosh tomoshabinlar teatrining o‘sha vaqtdagi direktori Abdullayev *“Bizning teatrlarimiz yoshlarni tarbiyalashda ulkan rol o‘ynashi kerak, lekin keyingi paytlarda ular o‘z tomoshabinlaridan orqada qolmoqdalaк... Teatr to‘g‘ri yo‘lga tushmadi. Teatrimizning barchaga mashhur badiiy rahbari Javod Obidov o‘z spektakllari bilan yoshlarni buzdi”*[9], – deb siyosiy ayblov yukladi. Balki Obidov yoshlar dunyoqarashidan ortda qolgan spektakllar sahnalashtirgan bo‘lishi mumkin, lekin uni to‘liq ma’naviyatni buzishda ayblash o‘zini oqlamaydi.

1950–1955-yillar oralig‘ida yosh tomoshabinlar teatri o‘zining 25 yilligini nishonladi. Chorak davr yoshini qutlagan teatr faoliyati haqida teatrshunos Hamidulla Ikromov quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: *“1950-yillar o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri zamonaviy, ertak, tarixiy va mumtoz asarlar asosida qo‘yilgan spektakllarning butun bir galleriyasini yaratdi. Teatrda bu yillarda dramaturglar bilan ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. B.Rahmonov, Zulfiya, A.Rahmat, A.Bobojon, Sh.Tamkin, H.Nazir, I.Ahmedov, O.Tolipov, A.Ismoilov, Y.Mirzo, H.Umarov kabi qalamkashlar teatr jamoasi bilan yaqin ijodiy hamkorlik qildilar. Ular “Semurg‘”, “To‘g‘ri va egri”, “Baxtli oila”, “Maktabimizda”, “Quyosh o‘lkasida”, “O‘zi boshqa-yu, so‘zi boshqa”, “Ahillar so‘zi”, “O‘jar”, “Abdulla Nabiyev”, “Kim aybdor?”, “Chiranma g‘oz”, “Qilmish qidirmish”, “Mardlar qissasi”, “Hayot yo‘li”, “Sirli sandiq”, “Oygul va Baxtiyor” singari original sahna asarlarini yaratdilar”*[10]. Tadqiqotchi ta’kidlagan pyesalarning bir qanchasi maktab dasturidan o‘rin olgan bo‘lsa, yana boshqalari aynan maktab yoshdagilar hayotidagi voqealarga asoslangan asarlardir.

1953-yil teatr yana bir maktab dasturiga kiritilgan mavzulardan biri bo‘lgan Aleksandr Ostrovskiyning “Po‘lat qanday toblanadi?” nomli asarini sahnalashtirdi. Spektaklning o‘quvchilar uchun foydali bo‘lgan tomonlari borasida Amin Turdiyev shunday yozadi: *“Po‘lat qanday toblanadi?” spektaklini hali shahrimizning ko‘pchilik o‘smirlari ko‘rganlari yo‘q. Vaholanki, jonli obrazlarni ko‘rib borgan bolalar bilan Ostrovskiyning “Po‘lat qanday toblanadi?” kitobini tahlil qilish qiziqarli o‘tishi aniq. Birinchi o‘zbek komsomoli Abdulla Nabiyev haqidagi spektaklni bolalarga ko‘rsatib jasorat, sadoqat, g‘ayrat va himmat nima ekanligini o‘smirlarga uqtirish foydadan holi emas”*[11].

Tadqiqot doirasida yosh tomoshabinlar teatri maktab bilan ijodiy hamkorlik jarayonlarida nafaqat maktab dasturiga murojaat etgani, balki maktab o‘quvchilarini ham spektakl sahnalashtirishiga oid manbalar ham o‘rganildi. Masalan, *“Chinoz rayonidagi Pushkin nomidagi o‘rta maktabning yuqori sinf o‘quvchilari yaqinda dramaturg Uyg‘unning “Hayot qo‘shig‘i” pyesasini tomoshabinlarga ko‘rsatdi. Spektaklni sahnaga qo‘yishda maktabning til-adabiyot o‘qituvchisi A.Quddusov badiiy rahbarlik qildi. Maktab o‘quvchilaridan F.Abdullaev – Bo‘riboy, U.Karimov – Komil, M.Erxo‘jaev – Qodir rollarini muvafaqqiyatli ijro etib, tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo‘ldilar”*[12].

Maktablarda o‘quvchilar bilan birgalikda sahna asarlar yaratilishi nafaqat bolalar aqliy salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki teatrlarimizni kelajakda aktyor, rejissyor, dramaturg, rassom singari o‘z ishini ustalari bilan ta’minlanishiga zamin yaratib beradi. Bir so‘z bilan aytganda, bo‘lg‘usi san’atkorlarni bolalik chog‘idan sahna haqidagi tushunchalar bilan tanishtirib boradigan adabiyot fani o‘qituvchilarining hissasi alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi lozim. Shunday qilib, teatrning birinchi choragi professionallashuv davri bo‘ldi.

---

[7] Turdiyev A. “Tarbiya o‘chog‘i”. “Sovet maktabi” jurnali, 1965-yil // № 5. 9-bet.

[8] Mirzo Y. “Qarovsiz teatr va yaroqsiz repertuar”. “Yosh leninchi” gazetasi, 1946-yil 9-sentyabr, 3-bet.

[9] O‘sha manba.

[10] Ikromov H. Davr va teatr. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2009-y. 38-b.

[11] Turdiyev A. “Tarbiya o‘chog‘i”. “Sovet maktabi” jurnali, 1965-yil // № 5. 10-bet.

[12] Mo‘minov M. “Maktab o‘quvchilarining spektakli”. “Toshkent haqiqati” gazetasi, 1968-yil, 98-son.

**Umida AXMEDXODJAYEVA,**
**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti**

# O‘ZBEKISTON RANGTASVIRIDA NATYURMORT JANRINING OBRAZLI-IFODAVIY YECHIM TAMOYILLARI (XX ASRNING II YARMI DAVRI KESIMIDA)

**Annotatsiya.** *XX asrning II yarmida O‘zbekiston rangtasvirida natyurmort janri tarixiy-ijtimoiy o‘zgarishlar kesimida keskin rivojlanishda vujudga kelgan badiiy tendensiyalar hamda obrazli-ifodaviy yechim tamoyillari maqola mazmunini tashkil etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *natyurmort janri, etyud, postanovka, syujetli-tematik, komponovka, kompozitsiya, plastika.*

# ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ НАТЮРМОРТА В ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА (ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА)

**Аннотация.** *Аннотация статьи представляет собой художественные тенденции и принципы образно-выразительных решений, сложившиеся в период развития жанра натюрморта в живописи Узбекистана второй половины XX века в контексте исторических и социальных перемен.*

**Ключевые слова:** *жанр натюрморта, этюд, постановка, сюжетно-тематический, компоновка, композиции, пластика.*

# ARTISTIC PRINCIPLES OF STILL LIFE IN PAINTING OF UZBEKISTAN (IN THE SECOND HALF OF THE XX CENTURY)

**Abstract.** *The abstract of the article presents artistic trends and principles of figurative and expressive solutions that emerged during the development of the still life genre in the painting of Uzbekistan in the second half of the twentieth century under the conditions of historical and social changes.*

**Key words:** *genre of still life, sketch, setting, narrative, arrangement, compositions, plasticity.*

Natyurmort janri rangtasvirchi rassom uchun badiiy g‘oyani erkin tarzda, ya’ni predmetlarni o‘z xohishi bo‘yicha postanovka qilish va shu bilan reallikni loyihalashtirish imkonini beradi. XX asr boshlaridagi natyurmortlar etyud ko‘rinishiga ega bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan hali to‘liq tugallanmagan asardek qabul qilingan. Portret va manzara janri rivojlanishning murakkab bir jarayonida, bu yillardagi natyurmort janridagi tub o‘zgarishlarni kuzatish qiyin. Garchi bu janrda ham o‘zgarishlar bo‘lgan. Natyurmortdagi yangi qarashlar insonni o‘rab turgan obyektiv dunyoni chuqurroq tushunishda ifodalangan. Kamdan-kam hollarda o‘quv mashg‘ulotlarni eslatuvchi oddiy postanovka qilingan (sahnalashtirilgan) asarlar namoyish etilgan. Syujetli tematik natyurmortlar bilan birgalikda poetik, falsafiy va ramziy-metaforik ruhda ishlangan natyurmortlar yaratiladi. Ular go‘zallikni tarannum etuvchi asarlar sifatida tobora ko‘proq chizilgan bo‘lib, bu natyurmortlarda tabiatning to‘la-to‘kisligi, insonning kundalik hayoti sahifalarini ma’lum ko‘rinishi aks ettirilgan. Natyurmort turli davriy bosqichlarda shakl va tekislik simfoniyasini yaratgan. U janr sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega. U ma’lum bir ijtimoiy qatlamning hayotidagi davr ruhini aniq ifodalaydi[1]. “Jonsiz tabiat” orqali tomoshabin “tirik hayot” nafasini his qiladi. Buni har bir rassom esa o‘ziga xos tarzda tasvirlagan. Bu davrda natyurmort janrida N.Kashina, O.Tatevosyan, A.Lunev, V.Ufimtsev, A.Volkov va M.Kurzin kabi rassomlar samarali ijod qilishgan. Sahnalashtirilgan predmetlar atributikasi tantanavor, serhasham, tomoshabinni ishonchlilik bilan hayratda qoldirish istagida chizilgan natyurmortlar endilikda tabiiylik, oddiylik va hayotiylik tamoyillari bilan almashtiriladi. Bu janrning rivojlanishidagi o‘ziga xos harakterli tendensiyasidir. Natyurmort ikki yo‘nalishda rivojlangan. Birinchisi, syujet va tematik ishlab chiqilgan natyurmortlar bo‘lsa, ikkinchisi, lirik ohangdorlikni madh etuvchi falsafiy mushohadalarga chorlaydigan natyurmortlardir.

N.Kashina ijodida natyurmort muhim o‘rin tutadi. “Tushlik tanaffusi”, “Fikr ham, yurak ham bir” kabi janrli kompozitsiyalari tarkibiga natyurmort ham kirgan. Bu rassomning natyurmortlari rang-barang, yorqin, dekorativ bo‘lib, ularga kiritilgan mevalar, sabzavotlar, gullar, quyosh, yorug‘lik bilan to‘ldirilgan. N.Kashinaning asarlari rang kontrastlari, shaklning plastikligi va dinamikligi, obrazli-tasviriy yaxlitligi bilan ajralib turgan. Ularning soddaligi, qulayligi, tasodifiy kundalik turmushda uchraydigan kompozitsiyalardek tuyuladi. Shuning uchun ular hayotiy va insonparvardir.

[1] Русских Ж.Л. История развития и становления натюрморта как вида изобразительного искусства // Концепт. – 2015. – Спецвыпуск № 18. – ART 75260. – 0,32 п. л. – URL: http://e-koncept.ru/2015/75260.htm. –

“Mevalar”, “Noklar” (1946) “Gilos” (1947), “Atirgullar” (1951) natyurmortlarida O‘zbekistonning rang-barang tabiat in’omlari go‘zalligi va hayot quvonchi g‘oyasi ifodalangan.



*N.Kashina. “Janub in’omlari” (1960-yil).*

Kashina natyurmortlariga xos she’riyati bilan chizilgan ***“Siren”*** (1952), ***“Bahor gullari”*** (1954), ***“Regaliyalar”*** natyurmortlarida (1956) rassom badiiy shaklning maksimal aniqligi va to‘liqligiga, predmetlarning material jihatdan real tarzda ishonarli bo‘lgan tasvirlashga intiladi. Ammo bu bilan u ko‘pincha ilk asarlaridagi beg‘uborlikni yo‘qotadi. N.Kashina ***“Buxoro”, “Toshkent”, “Samarqand”*** kabi tematik natyurmortlarida O‘zbekistonning bu viloyatlariga xos amaliy san’at durdonalarini muzey ekspozitsiyasining tarkibiy qismlari ko‘rinishida tasvirlagan[2].

O.Tatevosyan ijodidagi yetakchi janrlardan biri natyurmort bo‘lgan. Rassom 1953-yilda ilk bor “sof natyurmort”ga murojaat etadi. Uning asarlariga dekorativlikning ma’lum bir qismi xos edi. Yuqori tasviriy madaniyat va obyektiv dunyo go‘zalligini his qilish bu asarlarning badiiy ahamiyatini belgilab beruvchi tamoyil hisoblanadi. Ba’zida Tatevosyan tantanali, jozibali kompozitsion yechimlarga va oltin rangga “salonbop” manerada tantanali, nafis va bezakli natyurmortlarni chizgan ***(“Atirgullar”,*** 1955; ***“Floksalar”,*** 1957; ***“Sirenli natyurmort”,*** 1958. Biroq rassomning ko‘p natyurmortlari hayotiy va poetik, ularda an’anaviy yorug‘likka burkangan rangtasvir o‘z o‘rnini impressionizmga beradi ***(“Lolalar”,*** 1957; ***“Atirgullar”,*** 1958). O.Tatevosyanning natyurmortlari hamisha tantanali va salobatlidir. Ulardagi kolorit rang kontrastlariga emas, balki ularning yaqinligiga, uyg‘unligiga asoslanadi. ***“Lolalar”, “Atirgullar”*** (1947), ***“Mevalar”*** (1950) asarlari mayin, nozik ranglar bilan jilvalanadi. A.Lunevning 1951-yilda yaratilgan ***“Tarvuzli natyurmort”, “Mal’va gullari”*** natyurmortlari kamtarin, sodda, ammo samimiyat va she’riyatga to‘ladir. O.Tatevosyanning natyurmortlariga xos bo‘lgan to‘kinlik va dabdaba, tantanavorlik hamda ta’sirchanlik, muallif tomonidan yashirinmagan “sahnalashtirilganlik” asta-sekin o‘z pozitsiyalarini erkinlik va tabiiylikka bo‘shatib berdi. Shu bilan ochiq dekorativ rang sxemasi chuqur tonallik bilan almashtiriladi; polotnoda qo‘llaniladigan shaffof bo‘yoq qatlami o‘rniga zichroq qatlam paydo bo‘ladi. Bularning barchasi O.Tatevosyanning natyurmortlariga manzarali o‘ziga xoslik va iliqlik baxsh etadi.

V.Ufimtsev natyurmortlarida tasviriy va kompozitsion yechimlarning mazmunli va ifodali roli kuchayadi. Kartinalarida milliy mavzu ***(“Lavoq”*** *va* ***“O‘zbek natyurmorti”*** 1957, “Mis qumg‘on bilan natyurmort” 1958.) kengaytirilgan rangning tarangligi va kontrasti, dekorativligi, kompozitsion qurilishdagi fragmentlik paydo bo‘ladi, statik xususiyat yengiladi va yangi ruhdagi talqinga erishiladi. ***“Moviy stakanli natyurmort”*** *(1949) va* ***“Siren”*** (1950) tematikdan farqli o‘laroq urush yillarining natyurmortlari o‘zining shartli yashil va jigarrang rangi bilan haqiqiy rang munosabatlarini o‘zida mujassam etgan. V.Ufimtsevning natyurmortlarning aksi inson borlig‘ining in’ikosi bo‘lib, soda va samimiy ifodalangan. ***“Yovvoyi gullar”*** *(1952),* ***“Ko‘k gullar”*** *(1954),* ***“Deraza”*** *(1956),* ***“Yoz”*** (1956) kabi natyurmortlarning barchasi kamtarona predmetlarni tanlash va ularni komponovka qilishdagi ixchamlik va hayotiylik, o‘ziga xos badiiy manerasi bilan ajralib turadi. ***“Tog‘li mal’valar”*** natyurmortida dekorativlik mavjud bo‘lgan.

1950–1960-yillarda O‘zbekistonning boshqa rassomlari A.Volkov va V.Ufimtsev, A.Lunev va O.Tatevosyanning natyurmortlarida mag‘rur va maftunkor atirgullar, nafis va nazokatli za’faronlar o‘z o‘rnini dasht va tog‘larning oddiy va kamtarona gullariga bo‘shatib beradi. Mazkur davr natyurmortlarida deraza yonida qoldirilgan kichik bir guldasta, stakan yoki olma tasviri gavdalanib, asardagi syujetlilik tabiat bilan aloqadorlik, bog‘liqlik xarakteriga ega bo‘ladi. V.Ufimtsevning ***“Oyna”*** (1956), A.Lunevning ***“Tarvuz”*** (1954), Z.Kovalevskayaning ***“Natyurmort”*** (1955) kabi kartinalarida ko‘rish mumkin. M.Kurzin odatda eng oddiy, sodda, kundalik hayotda muntazam ravishda ishlatiladigan narsalarni tasvirlaydi: qalay krujka va bir parcha non, selyodka va sopol ko‘za, pomidorlar. Bu predmetlar mohir rassomning kuchli, ishonchli, keng va nozik mo‘yqalamiga mansubdir. Ular obyektlarning moddiy sifatlarini aniq ifodalaydi. Rassom diqqatga sazovor bo‘lmagan obyektlar afzalliklarni ko‘rsatishga loyiq deb biladi. ***“Oyna, bola, kuchuk”*** *yoki* ***“Baliq, non, ko‘za”*** *(1955),* ***“Ko‘za va yashil olma”*** *yoki* ***“Chuchvara”*** *yoki* ***“Yopgan non”*** (1956) bu kompozitsiyalar nihoyatda oddiy va sodda bo‘lib, ularda ortiqcha bejirimlik, hashamdorlik yoki kamyoblik yo‘q. Ammo M.Kurzin bu predmetlarni katta mehr va ehtirom bilan tasvirlaydi. U hayotning rang-barang koloritini o‘ziga singdirib, real voqelikni falsafiy qarashlar orqali aks ettirishga intilgan. ***“Oyna bilan natyurmort”*** (1955) kartinada rassom abadiy mavzu bo‘lmish san’at va hayotni o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatgan. Oyna tomon olib boruvchi perspektiva orqali tasvirlangan predmetlar real hayotning badiiy aksi ko‘rinishida chizilgan. Kurzin ijodi O‘zbekistondagi natyurmort janrining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlaridagi falsafiy yondashuv esa keyinchalik E.Melnikov, Y.Taldikin, R.Choriyev va boshqa rassomlar ijodida namoyon bo‘ladi. Umrining

---

[2] Искусство Советского Узбекистана. – Москва: 1917-1972. СХ, 1976 г. 608 с.

oxirgi ikki-uch yilida (M.Kurzin 1957-yilda vafot etgan) deyarli butunlay faqat natyurmort bilan shug‘ullangan. Ularni ko‘rgazmalar uchun emas, o‘zi uchun chizgan. Uning aksariyat natyurmortlari, shuningdek, so‘nggi yillardagi boshqa asarlari faqat rassomning vafotidan keyingi ko‘rgazmalarda namoyish etilgan.

O‘zbekiston rassomlarining yangi asarlari ko‘rgazmasida natyurmort janri kamtarona hajmda namoyish etildi. Tasviriy izlanishning keskinligi V.Volkovning 1960-yilda ijro etilgan ***“Noklar va anorlar”*** va ***“Uzumli savat”*** asarlarida ajralib turardi. Katta o‘lchamli tasvir, kompozitsiyaning soddaligi va barqarorligi, obyektiv shaklni tashkil etuvchi va dag‘al yuzani (mastixin-palitra pichog‘i bilan) orqali hosil qiluvchi omillar – inson mehnatini va ular mehr bilan yetishtiradigan ho‘l mevalarga natyurmortlarda moddiy vazn beradi. Ushbu natyurmortlarning chuqur oltin sariq, issiq jigarrang, pushti va yoqut qizil ranglardagi rang sxemasi ham kuchli taassurot qoldiradi. Bu asarlar rassomning o‘ziga xos emotsional ekspressivlik, ifoda vositalarini topish istagini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Lekin shu bilan birga V.Volkov ijodi otasining rangtasviri texnikasiga o‘xshash jihatlarni kuzatish mumkin. L.Abdullayevning ***“Uzumlar”*** va ***“Qrim uzumlari”*** (1960) natyurmortlari boshqa rejada chizilgan. Pishgan oltin uzum tokni zich qoplaydi. Rassom fragmentar kompozitsiyada, kahrabo uzum donalari uzra butun uzumzorni ko‘rsatadi. 1963-yildagi ko‘rgazmada natyurmort kichik o‘rin egalladi. Keksa avlod vakillaridan V.Ufimtsev, Z.Kovalevskaya, A.Lunevlar shu janrda o‘z asarlari bilan qatnashishgan bo‘lib, yosh avlod rassomlaridan N.Bannikov, E.Melnikovlar e’tiborni tortdi. Xususan, Z.Kovalevskaya va N.Bannikov murakkab, tematik natyurmortga moyilligini ko‘rsatishgan.


Z.Kovalevskaya. “Qovun natyurmorti” (1963-yil).

1960-yillarda natyurmort janrini rivojlanish dinamikasi oshadi. Moddiy predmetlar dunyosi an’anaviy “moddiy” holatda emas, balki ramziy-metaforik talqinda aks ettiriladi. Shu bois, natyurmortda rassomning dunyoqarashi, dunyoni badiiy idrok etishi xususiyatlari aniqlanadi. Natyurmortning tematik diapazoni kengayadi hamda asarlardagi g‘oyaviy-mazmundorlik kuchayadi. Oddiy, hayotiy syujetlar bilan bir qatorda madaniy davomiylik mavzusi qad ko‘taradi va “dunyo va rassom” iborasi rangtasvirda gavdalanadi.

Z.Kovalevskaya natyurmortlarida insoniy botiniy dunyosini murakkab tuzilmasi metaforik xarakterga ega bo‘lib, ularning katta qismi xalq amaliy san’ati durdonalariga bag‘ishlangan. ***“Guldonlar”*** (1961), ***“Bayramona natyurmort”*** (1963), ***“Rassom dunyosi”*** natyurmorti (1965), ***“Suzana bilan natyurmort”*** (1967). Bu natyurmortlarda buyumlar yuqori mahorat bilan ishlangan rangli nozik farqlari ifodali tarzda berilgan uslubiy sifatlari yorqin tasvirlanganki, ular mavjud fazoviy bo‘shliq va borliqning betakrorligi va go‘zalligini ko‘rsatishga imkon beradi. Asar kompozitsiyasi dinamik yechimga ega bo‘lib, unda xotirjamlik plastikasi falsafiy mushohada etishga chorlaydi.


Z.Kovalevskaya. “Natyurmort” (1965-yil).

Kovalevskaya tomondan qo‘llangan ushbu badiiy usullarning kompleksi uning ijodidagi asosiy mazmundorlik jihatlariniб ya’ni hissiy emotsional, poetik va intellektual dramatizm belgilarni ifodalaydi. U hayotdagi qarama-qarshiliklarni yengish orqali uyg‘unlikka erishish g‘oyasini tarannum etadi. Z.Kovalevskaya natyurmortlarini ijodiy safarlari jarayonida to‘plangan taassurotlari asosida tasvirlashni xush ko‘rar edi[3].

Ufimtsev o‘z natyurmortlarida predmetlar orqali real insoniy kechinmalarni aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Rassom ***“Nonushta”*** (1960) va ***“Afrika”*** (1963) kabi asarlarida xalqning kundalik hayotidagi o‘ziga xosliklarni ma’naviy ekspressiyaga erishish orqali munosib rangtasvirli kompozitsiyalarni yaratgan. 1960–1970-yillarda yaratilgan qator natyurmortlar koloriti yorqin, rangtasvir-plastik hamda nur-soyalar o‘yinidagi kontrastlar bilan ajralib turadi.

O.Tatevosyan ijodida natyurmort janri manzara janri bilan sintezlashadi. U chizgan natyurmortlardagi buyumlar masshtabini (hajm)ni kattalashtirib birinchi planga chiqaradi. Xususan, “Bizning anorlarimiz” kartinasida moviy rangdagi laganda anorlar tasviri aks etadi. Bunday sharqona ruhdagi tantanali natyurmortning ikkinchi planida O‘zbekiston tabiatini ko‘rsatuvchi manzara chizilgan. 1970–1980-yillarda

[2] Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 17.00.04, кандидат искусствоведения Лаковская, Валентина Львовна. 1984 г.

natyurmortlarning tematik diapazoni, motivlari kengayadi. Gullar, nozu ne'matlar, mevalar, xalq amaliy san'at buyumlari bilan birgalikda kompozitsiyaga insonning kundalik hayotida foydalanadigan predmetlar, rassomlarning "badiiy atributika"si, interyer jihozlari turli eski narsalar tasvirlanadi.

V.Burmakin 1970-yillarda ishlagan natyurmortlarida dekorativlikka intilish tendensiyasi, ritmiklik bilan bir qatorda falsafiy-metaforik notalar ham namoyon bo'lgan. Aniq vaqt muammosi birinchi navbatda eski narsalarga bag'ishlangan natyurmortlar siklida paydo bo'ladi. 1967-yildagi asarida Burmakin asosan kompozitsiyaning ritmik yechimida shakl tahlili va dekorativlikni ko'rsatishga, shuningdek, ***"Narsalar hayoti"*** (1969) va ***"Eski narsalar"*** (1970) asarlarida hissiy jarangdorlik bilan har xil inson taqdirlari majoziy tarzda gavdalanadi. Armonning qayg'uli tuyg'usi, vaqt o'tishining qaytara olmasligi aslida uning natyurmortlarining asosiy motiviga aylanadi. Eski narsalar tasvirlangan bir qator natyurmortlar rassom tomonidan syujet darajasida emas, balki shartli va ifodali badiiy vositadan foydalangan holda assotsiativ metaforik usul bilan hal qilinadi: yorug'lik va makon mazmunli faoliyatga ega bo'ladi, uning xarakteri va dinamikasi harakat va vaqt cheksizligi g'oyasining asosiy ifodasiga aylanadi.

V.Burmakin ***"sof shakl"*** ustida eksperiment qilgan bo'lsa, E.Melnikov undan farqli o'laroq natyurmortning g'oyaviy mazmundorligi dramatizmni oshirishga harakat qilgan. Melnikov o'z ijodini asosan natyurmortlar bilan boshladi, lekin 60-yillarning boshidagi bu asarlar nafaqat moddiy olamni his etishi, balki insonning ichki hayoti o'zgaruvchanligi, dramatikligi va intimligini ifodasi bo'lgan. Rassom tomonidan qo'yilgan vazifalarning timsoli 1963-1964-yillarda yaratilgan ***"Tozalanmagan stollar"*** natyurmortlar siklida aks etdi. O'ziga xos insonning ma'naviy va hissiy holatiga obyektiv ekvivalentni izlash natijasida 1968-yildagi ***"Etyudnikda"*** natyurmorti ishlanib, unda mavzu uchun an'anaviy narsalar to'plami bilan bir qatorda reproduksiya va yoritgich (inson ruhining vaqt o'tishi bilan o'chmasligi belgisi) paydo bo'ladi. Melnikovning badiiy afzalliklari haqida hikoya qiluvchi ***"Shisha bilan natyurmort"*** (1966) va ***"San'at", "Renessans natyurmorti"*** (1967) kabi asarlari maydonga kelgan. 1960-yillarning ikkinchi yarmida Melnikov interyer, natyurmort va ko'pincha portretni birlashtirgan sintetik janrga murojaat qildi. ***"Modilyani sharafiga"*** (1969), ***"Mening ustaxonam"*** (1969), ***"Parnassning stoli"*** (1971) kartinalarida ***"Oynadagi yuz"*** avtoportretlari siklida murakkab dinamik qurilish maydoni, ko'zgu motivi va undagi aks ettirishlar voqelik va uning badiiy amalga oshirilishi o'rtasidagi munosabat, idrokning subyektivligi va dunyoning obrazli mujassamligining shaxsiyati haqida savol tug'diradi. Melnikov ko'plab tafsilotlarni tasvirlashiga qaramay, ular hikoya emas, balki rassomning his-tuyg'ulari va fikrlari belgilaridir. Bu asarlarning g'oyaviy mazmuni asosan badiiy vositalarga tegishli pulsatsiyalanuvchi ritm, kutilmagan rakurs, mos ravishda deformatsiyalangan shakl, to'yingan kolorit, rangning keskin plastikligi, mo'yqalam va tasviriy teksturaning ifodasi majmuidir.

Rangtasvirchi rassom Akmal Ikromjonov ijodida natyurmort janri salmoqli o'ringa egadir. U 1970, 1980, 1990 va 2000-yillar davrida bir-biridan g'oyaviy va plastik jihatdan ajralib turadigan natyurmortlar seriyasini yaratgan. Bu natyurmortlar asosiy ikkita guruhga bo'linadi: gullar asosidagi kompozitsiyalar hamda buyumli tasvirlar (an'anaviy matolar, gilamlar yoki mis o'ymakorligi, sopol, turli mevalar, shuningdek, kitoblar, jahon san'ati durdonalaridan qilingan nusxalar, reproduksiyalar yoki arxeologik artefaktlardir. Rassom 1970-yillarda buyumli natyurmortlarni yaratib, ulardagi plastik yechim keyinchalik namoyon bo'lgan uslubiga o'xshamasdi. *"Ijodkorning 1977-yil yozilgan natyurmortlari usta bo'yoqchining hamma yoqda sochilib yotgan asbob-uskunalari: suvoq uchun masteroklar, bo'yash uchun valiklar, bo'yoqli bankalardagi cho'tkalar sifatida namoyon bo'ladi.*



***A.Ikromjonov. "Gilos sharbati" (2007-yil).***

*Biroq natyurmortlarda buyum yoki interyerning o'ziga xos ijtomoiy tavsifi mavjud emas. A.Ikromjonovning tabiiy natyurmortlari ishlanish texnikasining nafisligi bilan sovuq natyurmortlardan ajralib turadi. Buyumlar aniq qilib, keng ko'lamda, sovuq moviy kulrang gammada yozilgan. Fon esa yorqin feruza rangda tasvirlangan. Oradan 4 yil o'tib yozilgan "Chiroqlar" (1981) natyurmortida ma'no aniq bo'lib, uslub sezilmaydi. Undagi qalin surtmalar dag'al ko'rinadi. Kartinada iliq tim qora-jigarrangda fon esa sarg'ish qizil tusda berilgan. Jigarrang ma'naviylikni ifodalashda qo'l kelishi nemis faylasuflari tomonidan XIX asr oxiri XX asr boshida qayd etilgan. A.Ikromjonovning mazkur natyurmorti ushbu ranglar vositasida his-tuyg'ular ifodalangan"*[4].

XX asr II yarmida O'zbekiston rangtasvirida natyurmort janri ijtimoiy-tarixiy jarayonlar natijasida, davriy o'zgarishlar va turli badiiy tendensiyalarni boshdan kechirib, rassomlarni ijodiy eksperimentlar jarayonida yangi badiiy kontsepsiyalar vujudga kelishi bilan izohlanadi. Milliy rangtasvirda natyurmort janri alohida o'rin tutib, unda metaforik, simvolik va milliylikning gavdalanishi jarayoni aniqlangan.

---

[4] Ҳакимов А. Акмаль Икрамджанов: художник, время, судьба (Книга-альбом). – Ташкент: "Санъат", 2012 г. С.16.

**Malohat TUROBOVA,**
**O‘zR FA San’atshunoslik instituti tayanch doktoranti**

# O‘ZBEK QO‘G‘IRCHOQ TEATRI RIVOJIDA IJODIY EKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri san’ati rivojida ijodiy tajribalarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *qo‘g‘irchoq teatri, tajriba, rejissura, an’ana, postqo‘g‘irchoq, spektakl, ssenografiya, modernizm, postmodernizm, aktyorlik san’ati.*

# ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЭКПЕРИМЕНТЫ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА КУКОЛ

**Аннотация.** *В статье говорится о роли и значении творческого опыта в развитии искусства узбекского театра кукол.*

**Ключевые слова:** *кукольный театр, эксперимент, режиссура, традиция, посткукольный, перформанс, сценография, модернизм, постмодернизм, актерское искусство.*

# THE IMPORTANCE OF CREATIVE EXPERIMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK PUPPET THEATER

**Abstract.** *Among other things, the article talks about the importance of creative experiments in the development of the art of Uzbek puppet theater.*

**Key words:** *puppet theater, experiment, directing, tradition, post-puppet, performance, scenography, modernism, postmodernism, acting.*

Teatr tarixiga nazar tashlasak, nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda ham qo‘g‘irchoq tomoshalarining an’anaviy xarakteri turli yoshdagi tomoshabinlar uchun dolzarb va ahamiyatli bo‘lganini guvohi bo‘lamiz. Bu borada mamlakatimizda XIX asr oxiri, XX asr boshlariga qadar yashab kelgan ***“Chodir jamol”, “Chodir xayol”*** *va* ***“Fonus xayol”*** qo‘g‘irchoq tomoshalarini eslash kifoya.

Biz bilgan hozirgi bolalar qo‘g‘irchoq teatri, xususan, MDH davlatlari misolida o‘tgan asrning boshlarida, o‘sha davrda yaratilgan sobiq sovet davlati san’atga vosita sifatida katta e’tibor qaratgan paytda shakllana boshladi. Yangi hukumatga zarur bo‘lgan g‘oyalarni bolalarga yetkazishning yaxshi usuli sifatida qo‘g‘irchoq tomoshalari tanlandi va professional qo‘g‘irchoq teatrlarini yaratish, ularning e’tiborini yosh tomoshabinlarga qaratish vazifasi belgilandi. XX asrning yarmiga qadar qo‘g‘irchoq teatri mahalliy jamoatchilik tomonidan bolalar teatri yoki eng bolalarcha teatr sifatida qabul qilindi.

O‘tgan asrning 60-yillariga kelib, jahon bolalar qo‘g‘irchoq teatrlarida biroz tushkunlik yuzaga keldi. Bu tangsizlikning kelib chiqish sababi sifatida, qo‘g‘irchoq teatri spektakllari asosan bolalarga qaratilgani va qo‘g‘irchoqning yetakchi vosita ekanligi bilan izohlandi. Aslida bu jarayon multiplikatsion filmlarning paydo bo‘lishi va kichik tomoshabinni yo‘qotib qo‘yish qo‘rquvi bilan bog‘liq edi. Birxillikdan zerikkan ijodkorlar yoppasiga jiddiy va murakkab mavzularda katta yoshdagi tomoshabinlar uchun eksperimental spektakllarni sahnalashtirishga kirishdi. Sobiq sovet qo‘g‘irchoq teatrida ham yuzaga kelgan tushkunlik parallel ravishda rivojlanib kelayotgan o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri san’atiga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Bu jarayonlarga befarq bo‘lmagan o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissyorlari bolalar teatrini inkor etmagan holda yoshi katta tomoshabinlar uchun ham spektakllar yaratishga intildi. Bu jarayonlar qo‘g‘irchoq teatri san’atida postqo‘g‘irchoq davrini boshlab berdi.



1970-yillarda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida F.Sheyn, V.Iogelson, L.Xayt, M.Korolev, A.Belinskiy, I.Yakubov, V.Kamishev kabi rejissyorlar bu borada ko‘plab tajribalarni amalga oshirdi. Avvaliga jahon adabiyoti

namunalari, jumladan, I.Shtokning ***“Iblis tegirmoni”,*** I.Ilf va E.Petrovning ***“12 stul”,*** B.Gador va S.Darvashning ***“Maftunkor Galateya”,*** V.Dixovichniy va L.Slabodskiyning ***“Guriy Lvovich Sinichkin”,*** V.Polyakovning ***“Ham kulgi, ham ko‘z yoshi, ham muhabbat”,*** U.Shvarsning ***“Yalang‘och qirol”,*** A.Ribnikov, P.Grushkoning ***“Xoakin Muryettaning yulduzi va o‘limi”*** rok operasi, G.Borvikning ***“Agent 00”*** siyosiy pamfleti, Karlo Gotssining ***“Baxtli gadolar”*** komediyasi, M.Roshenning ***“Geraklning ettinchi jasorati”*** kabi asarlar bilan boshlangan bo‘lsa-da, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi, aktyorlik san’ati, ssenografiyasining keng rivojlanishiga imkon yaratdi.

Bu davrga kelib, *“niqobsiz animatsiya”* – niqobsiz sahna tushunchasi paydo bo‘la boshladi. Odamlar va qo‘g‘irchoqlar dunyosini, haqiqat va xayolotni ajratib turadigan parda (ekran)dan tashqariga chiqish jarayonlari boshlandi. Aktyor va qo‘g‘irchoq yonma-yon harakatlana boshladi. Aktyorning jonli planda rol ijro etish orzusi ushbu tajribalarda amalga oshdi va an’anaga aylandi. Endilikda ulardan obrazga kirish, ovoz intonatsiyasi va qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasini egallashdan tashqari plastik xatti-harakat, yuz ifodalari va raqs elementlarini puxta egallash talab etila boshladi.

Bu davrda samarali ijod qilgan I.Yakubov, T.Mahramov, M.G‘ulomova, Sh.Zuhurova, Sh.Rahimova, F.Xo‘jayev, Mehribonu, V.Yusupova kabi aktyorlar o‘z tajribalarida bu talablarga katta ahamiyat qaratdi.

Aktyorlarga berilgan keng imkoniyat rejissyorlarni adabiyotning boshqa turlari nasr, drama, she’riyatga murojaat etish, hayotning turli jabhalari, jumladan, ijtimoiy, ekologik va siyosiy masalalariga tegishli muammolarga ham munosabat bildirishga undadi. Shu zaylda milliy adabiyotning durdona namunalari ham qo‘g‘irchoq teatri sahnasiga moslashtirildi. Bu borada o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrlarida A.Navoiy, H.H.Niyoziy, Ch.Aytmatov kabi ko‘plab zabardast klassik adiblar asarlari sahnalashtirildi.



Xususan, mahoratli rejissyor I.Yakubovning H.H.Niyoziyning ***“Maysaraning ishi”*** asari asosidagi ***“Kul, Oyxon”*** (1980-y.) spektakli qo‘g‘irchoq teatri uchun nafaqat yangi tajriba sifatida qabul qilindi, balki ushbu asarning teatr sahnasidagi ilk hayotini boshlab berdi. Ya’ni ushbu komediyaning sahnaviy talqini qo‘g‘irchoq teatri sahnasida tug‘ildi. Mehribon, harakatchan, dadil, hayotni sevuvchi, o‘z erki va qadr-qiymatini himoya qiluvchi o‘zbek ayoli Oyxon obrazi (Maysara) ilk bor qo‘g‘irchoq qahramon timsolida gavdalandi. Spektakl milliy urf-odat, qadriyatlarni tarannum etish, shu bilan birga milliy qahramonlarni kashf etish borasidagi sobit qadamlardan biri bo‘ldi.

Rejissyorning ***“Farhod va Shirin”*** (1975-y.) spektakli esa, qo‘g‘irchoq teatrining A.Navoiy asarlariga ilk murojaati bo‘lib, dramatik teatrlardan farqli ravishda ilk marta doston to‘liqligicha sahnalashtirildi. Rejissyor katta yoshdagi tomoshabinlarni inobatga olib dostonning ko‘p hollarda xayoliy sahnalarini tushurib qoldirdi, asosan muhabbat mavzusi va u bilan bog‘liq holda Arman o‘lkasida ro‘y bergan voqealarni aks ettirishga intildi [1].

Murakkab janr va jiddiy mavzudagi asarlarga murojaat etish jarayonlari nafaqat yangi rejissyorlik tamoyillarini shakllanishiga, balki qo‘g‘irchoq teatri ssenografiyasini rivojlanishiga imkon yaratdi. Xususan, V.Akudin, N.Sultonov, V.Apuxtin kabi rassomlarning tajribalarida ramziylikka intilish, qo‘g‘irchoq turlari va texnologiyasida yangi plastik yechimlar izlash va postmodernizmning tasviriy-ifodaviy usullaridan keng foydalanish jarayonlari ko‘zga tashlandi. Xususan, Samarqand viloyati qo‘g‘irchoq teatrida V.Kamishev tomonidan sahnalashtirilgan Ch.Aytmatovning ***“Asrga tatigulik kun”*** romani asosidagi ***“Manqurt afsonasi”*** (1989-y.) spektakli ssenografiyasi rassom N.Tursunov tomonidan mohirona yaratildiki, murakkab g‘oya va jiddiy mavzu kichik sahna uchun bo‘ysuna oldi. Spektaklda g‘ayrioddiy oq va qora ranglar siluetiga asoslangan siyrak sahna dekoratsiyasida kamalak jilosi, oy va yulduzlar tasviri, chiroqlarning shiddatli o‘yinlaridan unumli foydalanib, oqshomdan to yorug‘likkacha manqurtning tafakkur fojiasi ochib beriladi. Spektakl tomoshabinni inson mavjudligini anglashga o‘tmishsiz odamga aylanib qolmaslikka chaqirdi.

Shu tariqa teatrga mavzu va janrdagi jiddiy dramaturgiyaning kirib kelishi, sahna talqinining murakkabligi badiiy ifodaning yangi vositalari va shakllarini izlashga undadi. Bu esa klassik texnikaning asl namunalaridan uzoqlashishni taqozo etdi. Bu jarayon birinchi galda qo‘g‘irchoqlar va ularni boshqarish texnikasida namoyon bo‘ldi. Barmoqlar yordamida boshqariladigan “qo‘lqopli” an’anaviy qo‘g‘irchoqlardan voz kechmagan holda ko‘z, og‘iz, qosh va quloqlari harakatga keladigan murakkabroq “simli” qo‘g‘irchoqlardan foydalana boshlandi. Bir necha aktyorlar boshqaruviga asoslangan ulkan qo‘g‘irchoqlar kashf etildi. Asta-sekin tajribalar murakkablashib bordi va bugungi kunga kelib, robot qog‘irchoqlar ham spektakl qahramoniga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmida qo‘g‘irchoq teatri san’ati aynan eksperimental spektakllar asosida bir muncha rivojlandi va ommalashdi. Rejissyorlar

o‘z mahoratlarini erkin namoyon etishlari natijasida ko‘plab ijodiy tamoyillar kashf etildi va asta-sekin bolalar spektakllarida ham qo‘llanila boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida istiqlol g‘oyalarini yosh avlodga yetkazishga qaratilgan jarayonlar qo‘g‘irchoq teatrining bolalar hayotidagi ishtirokini yanada mustahkamladi. Shu boisdan jodiy tajribalar o‘tkazish asosan bolalar spektakllarida amalga oshirildi. Bu davrda milliy o‘ziga xoslik, vatanparvarlik, insoniylik mavzulari yetakchilik qilishi, tarixiy, afsonaviy va etnografik qahramonlar, jahon adabiyoti durdonalariga murojaat etish jarayonlari yanada jadallashdi.

Asta-sekin bu jarayonlar eksperimental spektallarda noodatiy yechimlarda namoyon bo‘la boshladi. Xususan, ***“Yurt tumori”, “To‘maris”, “Bahrom va Dilorom”, “Farhod va Shirin”, “Hamlet”*** (Sh.Yusupov), ***“Yana Andersen”, “Qarsildoq”, “Yulduzli bola”, “Oh, bu Xo‘ja Nasriddin”, “Soya”*** (D.Yuldasheva), ***“Cho‘p qo‘g‘irchoq”*** (F.Xo‘jayev) kabi ko‘plab muvaffaqiyatli spektakllar yaratildi. Ushbu ijodiy tajribalarda yangidan-yangi ifoda vositalari ko‘zga tashlanib, spektakllarni nafis raqslar bilan bezash, plastik harakatlar orqali g‘oya va mavzu, qahramonlar kechinmalarini yorqin bo‘yoqlarda ifoda etish, yangi qo‘g‘irchoq turlari va boshqarish texnikasining kashf etilishi, ssenografiyada yangi formalar topish va ramziylikka katta ahamiyat qaratish jarayonlari ko‘zga tashlandi. Xususan, qo‘g‘irchoq teatri ssenografiyasida an’anaviy, modernizm va postmodernizmning tasviriy-ifodaviy usullaridan foydalanilmoqda. Yangi qo‘g‘irchoq turlari va texnologiyasida yangi plastik izlanishlar, dekoratsiya yechimlarida postmodernizmning (simulyakr, metasan’at, dekonstruksiya, artefakt, universal gumanizm, universalizm) keng qo‘llanilishi ko‘proq kattalar auditoriyasiga moslangan spektakllarda ko‘zga tashlanmoqda[3]. Sahnada hayratlanarli va sehrli effektlar yaratish uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, kompyuter animatsiyasi va proeksiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Bu borada rejissyor Sh.Yusupovning bir qancha spektallarini misol keltirish mumkin. Rejissyor o‘z tajribalarida zalvorli, tomoshabinga ma’naviy ozuqa bera oladigan asarlarga murojaat etishga va ularni noodatiy yechimlar bilan kichik va katta yoshdagi tomoshabinlarga yetkazishga intiladi. Shu bilan birga o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrini jahon talablari asosida rivojlanishga imkon yaratish zarurligini o‘z tajribalarida ko‘p bor ta’kidlaydi va isbotlaydi. Xususan, “Bahrom va Dilorom” spektaklini olaylik. Dramatik teatr va qo‘g‘irchoq teatri spetsifikasini uyg‘unlashtirgan holda shunday yechimlar topadiki, Navoiyning so‘fiyona g‘oyalarini shundoqlikcha ifodalashning imkoni yo‘qligini ta’kidlaydi. Shu boisdan ham rejissyor ramziylikka katta ahamiyat qaratadi.

Spektakl voqealarining almashinuvi, plastik xatti-harakatlar, aktyorlarni turli xoreografik chiqishlari orqali muhabbat va nafrat, manmanlik va kamtarlik kabi tushunchalar ifoda etiladi. Aktyorlar qo‘g‘irchoqlarni turli geometrik shakllar doirasida ijro etadi va qo‘g‘irchoq uchun tanlangan libos rangi shu to‘rtburchak yoki doira shakl gardishi ham shu rang bilan ko‘rsatiladi. Bu o‘z navbatida shakl ichidagi ijro va rang aynan shu qo‘g‘irchoq obrazi liniyasi, xarakterini ochishda, shuningdek, qo‘g‘irchoq teatri mizanssenasini o‘ziga xos yechimi bo‘lib, aktyorlarga qo‘g‘irchoqni boshqarishda yaratilgan imkoniyat hisoblanadi [2]. Bu kabi murakkab yechimlarga ega eksperimental spektakllar talaygina. Va ular o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining zamonaviy qiyofasini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda qo‘g‘irchoq teatrida bolalar va katta yoshdagi tomoshabinlar uchun amalga oshirilayotgan tajribalar parallel ravishda rivojlanmoqda. Ammo novatorlik ishlari asosan eksperimental spektakllarda amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalarda ishlab chiqilgan sahna yechimlari asta-sekin bolalar spektakllariga singib bormoqda. E’tiborlisi shundaki, zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida rejissura yetakchi omilga aylandi. Jahondagi ayrim mamlakatlarda mahoratli rejissyorlar teatr rassomi vazifasini ham o‘z zimmasiga olmoqda. Afsuski, ayrim rejissyorlik izlanishlarida tobora dramatik teatrga intilish, qo‘g‘irchoqdan mutlaqo voz kechishga urunish jarayonlari ko‘zga tashlanayotganligi bois, ko‘plab mamlakatlarda bu jarayonlar ekperimental tarzda amalga oshirilmoqda. Garchi bu tajribalar dunyo qo‘g‘irchoq teatrida birdek tan olinmaganiga qaramay, qo‘g‘irchoq teatri san’ati kelajagi ufqlarini belgilab berishi aniq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov M. Navoiy va sahna san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000-y. 114-b.
2. Qobilova F. Mustaqillik davrida O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlari ssenografiyasi (dissertatsiya avtoreferat). – T.: 2023-y. 4-b.
3. Abduxoliqov A. Navoiy asarlari qo‘g‘irchoq tetari sahnasida. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. Pgs.41.
4. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: “Talqin”, 2006-y.

# VIII BO'LIM
# E'TIROF

**Севар МАЛИКОВА,**
**кандидата педагогических наук, профессора кафедры «Вокал» ГИИКУз**

## ЖЕМЧУЖИНЫ МУЗЫКИ

### *(Статья посвящена к 80-летию Зумрад Туйчиевой)*

**Аннотация.** *Статья посвящена светлой памяти Зумрад Туйчиевой, заслуженного наставника педагога Республики Узбекистан, члена союза композитров, талантливый женщины композитора, доцента, преданного своей професси педагога.*

**Ключевые слова:** *романс, песня, оркестр, кантата, увертюра, симфония, сюита, струнный квартет, пьеса.*

## МУСИҚА ДУРДОНАЛАРИ

### *(Мақола Зумрад Тўйчиеванинг 80 ёшига бағишланади)*

**Аннотация.** *Ушбу мақола ўз касбининг фидойиси, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, Бастакорлар уюшмаси аъзоси, истеъдодли ўзбек аёл композитори, доцент, педагог-устоз Зумрад Туйчиеванинг хотирасига бағишланади.*

**Калит сўзлар:** *романс, қўшиқ, оркестр, кантата, увертюра, симфония, сюита, торли квартет, пьеса.*

## GEMS OF MUSIC

### *(The article is dedicated to the 80th anniversary of Zumrad Tuychieva)*

**Abstract.** *The article is dedicated to the blessed memory of Zumrad Tuychieva an honored mentor of a teacher of the Composer's Union, an associate professor didacted to her profission as a teacher.*

**Key words:** *romance, song, orchestra, cantata, overture, symphony, suite, string, quartet, play.*

Человеческая жизнь… Не уместить на страницах одной статьи эту жизнь. Однако есть в жизни такие мгновения и яркие встречи, воспоминания, которые остаются в памяти навсегда.

Мудрецы подразделяли жизнь человека на три периода и каждый из них характеризовали следующим образом. На первом этапе человек учился, овладевал профессией, на следующем этапе полученные знания и умения направлял на добрые дела, а на последнем этапе все прожитое, жизненный опыт и познания записывал на бумагу, чтобы оставить их благодарным потомкам. Однако есть люди, которые оставляют за собой столь яркий след, что невольно стремишься быть похожим на них и брать с них пример во многих делах.

Эта статья посвящена яркой и достойной всяческого подражания жизни, неустанному труду, интересную, многогранную, богатую творчеству Зумрад Туйчиевой, Заслуженного наставника молодого поколения Республики Узбекистан, одну из первых талантливой узбечку-женщину композитору, музыковеду, ученному и устоз-наставника сотних учеников-шогирдов. О которой можно писать книги, воспоминание, вести научные исследование посвященные её богатому творчеству, многогранным музыкальным произведениям в разных жанрах, начиная детских песен, романсах и песнях для солистов в сопровождениях оркестра народных и симфонического оркестра, кантаты, увертюры и симфонии, сюиты и произведения для струнного квартета, пьесы для фортепиано. Ее разностороннему знанию, неугомонной позитивной энергии, трудолюбие, заслуженному авторитету, созданной ею прекрасной семьей, разумными детьми и внуками и ее активной жизненной позицией восхищались коллегии и ее ученики. К ней все стремились, с любовью беседуя с ней учились многому… В этой небольшой статье хотим рассказать о ее неустанном труде, ознакомить широкий круг читателей со страницами этой яркой и достойной всяческого подражания жизни, а также чтобы через много лет благодарные по-



томки, смогли узнать и чтить своего учителя-наставника, о творчестве первого женщину композитора, которая внесла вклад в развитию узбекского музыкального искусства.

«Время – это беспрерывное бесконечное движение», – писал Л.Толстой. В интеллигентной семье города Ташкента росла очень любознательная, музыкальная девочка Зумрад. Родители всегда радовались способностям дочки и несмотря на пересуды некоторых родственников, решили отдать ее учиться музыке в специальную музыкальную школу имени Рейнгольда Глиэра. Сначала Зумрад училась в классе кашгар-рубаба у известного педагога Бурибай Мирзаахмедова и играла в оркестре узбекских народных музыкальных инструментов под руководством талантливого дирижёра – наставника Фарруха Мирусманова. Помимо обучения исполнительскому мастерству она изучала музыкальную композицию под руководством профессора консерватории Бориса Зейдмана в недавно открытом классе композиции. В 1961 году Зумрад окончила школу с отличием, с 1961 по 1966 годы продолжила обучение на композиторском факультете Ташкентской государственной консерватории, а с 1966 продолжила обучение в ассистентуре-стажировке в классе профессора Б.И. Зейдмана и в 1970 году успешно окончила.

Познавший во время учёбы секреты композиторской деятельности, Зумрад Туйчиева, представила музыкальной публике вокально-симфонический цикл, написанный на поэму Эркина Вахидова «Нидо». Это произведение было исполнено на втором пленуме Союза композиторов и было оценено меломанами по достоинству. Принимавший участие в пленуме известный композитор Арам Хачатурян высказал свое мнение о произведении и подчеркнул широту мышления автора, ясность музыкального языка, умелое соединение современного и национального стилей.

Свою преподавательскую деятельность Зумрад Туйчиева начала в Ташкентской консерватории с 1970 года. А с 1974 по 2001 гг. вновь открывшем Ташкентском государственном институте культуре им. А Кадыри, достойна возглавляя кафедру “Теории и истории музыки”, а также, в течении 1975–1980 годы являлась ученым секретарем Совета Института. С годами институт, кафедра стала вторым домом для Зумрад, она воспитала и дала знание сотням студентам по теории музыки, гармонии и сольфеджио, писала научные работы, статьи и учебные пособие. За ряд научных трудов и самоотверженную работу в образовании в 1991 году получила диплом доцента.

В дальнейшем, с 1996 года заведовала музыкально-теоретическим отделом Ташкентского колледжа эстрадного искусства, а с 1998 по 2001 годы – заведовала теоретическим отделом Республи-

канской музыкальной академической лицеи им. Глиэра.

Совмещая педагогическую и творческую деятельность Зумрад Туйчиева создала масштабные и сложные произведения, проникнутые национальным духом, в различных жанрах и формах. ***«Аёл мадҳияси», «Байрам увертюраси»*** на слова Зульфии для солиста, хора и симфонического оркестра. И сегодня в концертах исполняются кантата на слова Х.Шарипова «Ода благословенной земле», шести частная симфоническая сюита. Среди его камерных произведений: пьеса для струнного квартета, ария с вариациями для скрипки и фортепиано, сонатина; пьеса, прелюдии и фуги для фортепиано. Эти произведения отличаются силой и очарованием, свойственными узбекским народным мелодиям.

З.Туйчиева знала природу узбекских музыкальных инструментов и умело ими пользовалась. Её песни и романсы, написанные для оркестра узбекских народных инструментов и певца, наполнены национальным духом, звучат естественно. Песня ***«Ҳур Ватан»,*** написанная на стихи Н.Орифджанова, составлена из народных мелодий и маршевых напевов. Оно написано для детского хора, солиста и оркестра и звучит в радостном, весёлом настроении.

Не будет преувеличением сказать, что Зумрад Туйчиева является почетным преподавателем специальности «Теория музыки». За свою 50-летнюю педагогическую деятельность она воспитала для нашей республики несколько поколений артистов и педагогов.

Зумрад Туйчиева, помимо педагогической деятельности, вела также научно-методическую работу: «Интонационные упражнения сольфеджио», «Гармонический метод проведения индивидуальных занятий», «Развитие навыков многоголосного диктанта», «Полифоническое сольфеджио» по произведениям узбекских композиторов. Пособия до сих пор помогают студентам в освоении теоретических предметов.

При жизни Зумрад Туйчиева осуществляла композиторскую деятельность наряду с педагогической деятельностью. Она внесла значительный вклад в развитие и популяризацию музыкального искусства Узбекистана. Её произведения разных жанров, проникнутые национальным духом, отличаются привлекательностью, народностью, избранной темой, богатством красочных образов. Репертуар коллектива обогащают произведения композитора для солистов, хоров, симфонических и народных оркестров, песни, романсы, кантаты, пьесы для скрипки и фортепиано. Это сюита ***«Табаррук тупроққа қасида», «Аёл мадҳияси»*** на слова Зульфии, ***«Фарзанд меҳри»*** на слова Туроб Тўла, вокально-симфонический ряд, созданный к эпосу ***«Нидо»*** Эркина Вохидова, ***«Прелюдия», «Танец радости»,*** созданный для фортепиано и профессионального мастерства молодых исполнителей, служит повышению и формированию художественно-эстетического вкуса.

Память... Иногда кажется, что она очень далеко, осталась позади... мы помним ее за тусклым туманом. Иногда мы закрываем глаза и вспоминаем вещи, учителей, которые давали нам уроки и знания, когда мы были молодыми, и чувствуем, будто они стоят рядом с нами. В то время нам не хватает наших страстных учителей, которые давали нам знания, свои мудрые советы и даже их выговоры и нежные уроки, как наши родители. Позже мы обнаружим, что мы такие же, как они. Неудивительно, что воспитание, знания и даже, их образцовая жизнь и деятельность определили наше место в жизни в будущем.

Зумрад Туйчиевна, всегда находилась в поискеи творчества, через узбекское радио и телевидение дает концерты и встречи, посвященные творчеству узбекских композиторов. Победители международных и республиканских конкурсов Республиканской специализированной музыкальной школы имени Глиэра, авторы передач под названием «Музыка в мире», посвященных достижениям юных школьников.

У каждого человека есть свои убеждения, святыни, во которые он верит, к которым стремится и почитает в своей жизни. Оно связано с нашими невинными мечтами, нашими жизненными видениями и даже с выбранной нами профессией. Женщины нашего времени, такие как Надирабегим, Увайси, Анбар Атын, Зульфия чьи имена и творения никогда не сотрутся из нашей памяти, от прошлого до наших дней, качали в одной руке колыбель, а другой творили. Как и такие женщины Зумрад Туйчиева прекрасно выполнила свои обязанности заведующей кафедрой, преподавателя, автора учебников и учебных пособий, композитора и матери. Супруги Туйчиевы вырастили трех умных дочерей высокообразованными и зрелыми людьми. До последнего дня своей жизни, она обучала учеников и не прекращала своего творчества. Их ученики знакомят мир с искусством Узбекистана, побеждая не только на республиканских и международных конкурсах в различных областях искусства. В этой статье мы осветили некоторые человеческие стороны и качества Зумрада Туйчиева, многогранного, замечательного человека, и некоторые страницы его творчества. Пусть конец учителя будет благополучным.

**Татьяна СЕДЫХ,**
**доцент,**
**доктор философии (PhD) кафедры «Инструментального исполнительства и музыкально-теоретических дисциплин» ГИИКУз**

# «ВОСХОДЯЩАЯ ЗВЕЗДА»

**Аннотация.** *В данной статье раскрывается новый образ узбекистанской молодой певицы, участвовавшей в Международном музыкальном фестивале, которой мы можем гордиться за приобретённую заслуженную победу.*

**Ключевые слова:** *музыка, искусство, педагог, певица, актриса, драматургия, мастерство, артикуляция, акцент, микрофон.*

# “TONG YULDUZI”

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, Xalqaro musiqa festivalida ishtirok etib, yutuqlar bilan qo‘shiqchilik san’atida munosib o‘ringa ega bo‘lgan yosh o‘zbek xonandasining ijodiy faoliyati ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *musiqa, san’at, ustoz, qo‘shiqchi, aktrisa, drama, mahorat, artikulyatsiya, urg‘u, mikrofon.*

# "RISING STAR"

**Abstract.** *This article reveals a new image of an Uzbek young singer who participated in the International Music Festival, whom we can be proud of for her well-deserved victory.*

**Key words:** *music, art, teacher, singer, actress, drama, skill, articulation, accent, microphone.*

В Узбекистане 2024 год объявлен «Годом поддержки молодежи и бизнеса». Творческая деятельность молодого и целеустремленного поколения Нового Узбекистана активно развивается, так как этому способствует отношение и высказывание главы государства Ш.Мирзиёева на расширенном заседании Республиканского совета по духовности и просветительству в декабре 2023 года: *«В настоящее время, когда наша страна вступает на новый, высокий этап своего развития, нам как вода и воздух необходимы такие, как предки-джадиды, зрелые кадры, которые наряду с освоением достижений западной науки также воспитаны в духе национальных ценностей»* [1.С.1].

Одной из ярких представительниц перспективного поколения Нового Узбекистана является Малика Хакимова. Будучи студенткой 3 курса кафедры «Эстрадное пение» Института национального эстрадного искусства имени Батыра Закирова при Государственной консерватории Узбекистана, стала участником большого количества конкурсов, фестивалей, которые послужили определенной ступенью в подготовке к престижному Международному музыкальному конкурсу, ставшему крупнейшим в Восточной Европе, под названием «Славянский базар в Витебске» – Белоруссия.

История фестиваля начинается с 1992 года, по разным жанрам музыки, кино, театра, народных ремёсел и изобразительного искусства. Участники приезжают из: Австралии, Америки, Африки, Греции, Грузии, Канады, Киргизии, Латинской Америки, России, Центральной Азии, Швейцарии, других стран. Девизом фестиваля является основная идея: «через искусство – к миру и взаимопониманию». Несмотря на юный возраст, имея талант и колоссальное трудолюбие, в 2023 году молодая



*Малика Хакимова*

певица с достоинством представила нашу страну и стала победительницей на ежегодном Международном фестивале искусств – «Витебск – XXXII». Следует отметить, что это – первая награда нашего артиста за 20 лет. Да-да, именно столько лет Малике Хакимовой. В этом прослеживается некая символика, что фестиваль ждал именно выступление нашей певицы.

В открытом летнем амфитеатре концертного зала, расположилось почтенное жюри, около семи тысяч зрителей, а также операторы, телевизионные камеры, запечатлевающие торжественную атмосферу музыкального празднества. На сцене разместился Президентский симфонический оркестр Белоруссии под руководством Виталия Кульбакова, сопровождавший выступление каждого исполнителя.

Данный Международный конкурс вокального искусства, привлекший внимание музыкантов многих стран, в очередной раз прошел на высоком про-



*На фото справо налево: Аваз Мансуров, Дилором Амануллаева, Малика Хакимова, Ольга Матвеева.*

фессиональном уровне. Согласно установленным требованиям, первой должна прозвучать песня на языке страны, представителем которой является исполнитель. Таким образом, была выбрана песня «Сен эдинг», созданная Заслуженным деятелем искусств Республики Узбекистана, профессором, композитором Дилором Амануллаевой на слова Шавката Туроба, прозвучала особенно искренно и трепетно. Строгий, современный костюм из Маргиланского хан атласа, цветовая гамма, рисунок, орнамент, украшения, дополняли сценический образ молодой восточной красавицы.

На I туре участники исполняют славянский хит (на русском, белорусском языке). По результатам жеребьёвки, ведущие конкурса объявили очередного участника: «Под номером 13, выступает Малика Хакимова – Узбекистан». Всё замерло, на сцену вышла невысокого роста, хрупкая девушка и запела. Началась «магия высокого искусства». Зазвучала песня из репертуара Российской певицы Ирины Понаровской – «Реквием. (Исповедь артиста)», авторами которой являются А.Лебедев и И.Палиашвили. Отрадно, что талантливая, артистичная молодая певица, очень тонко прочувствовала драматургию песни, которая раскрывает театральную жизнь актёра – труд, переживания, боль и радость – все объединено в едином порыве.

Малика Хакимова, которой только исполнилось 20 лет, предстала перед слушателями зрелой драматической Актрисой, достоверно раскрывающая образ своей героини. Мощный, сильный голос, столь хрупкой девушки, раскрыл весьма широкий диапазон. Каждая произносимая фраза, четкая, прекрасная артикуляция, чистая дикция на русском языке, правильно расставленные в словах смысловые акценты, дыхание, колоссальная внутренняя сила, эмоциональность, умение правильно «работать» с микрофоном – все это свидетельствовало об удивительном мастерстве певицы. Единение с сопровождавшим оркестром, искренность, сценическое движение, мимика – всё было воссоединено в целостное исполняемое произведение.

В подготовке II тура (зарубежный хит), кураторами конкурса из двух представленных, была выбрана песня «Stand up» из репертуара Cynthia Erivo, которую талантливая певица, Малика Хакимова исполнила с правильным произношением на английском языке. В композиции, для полного раскрытия образа афро-американских рабов закованных в цепи и работающих на плантациях, раскрывая драматургию песни, Малика дополнила условный образ держа в руках связки цепей. Согласно образу исполняемой песни, звучащей 3 минуты, на сцене была организована группа из шести молодых людей с кубами и подтанцовкой, которые

старательно поддерживали узбекистанскую певицу. Так была создана своеобразная «защитная стена», раскрывающая «воплощение» этой песни.

Среди многочисленных участников конкурса, Малика Хакимова сразу завоевала симпатию жюри и зрителей, получив Третью Премию. За 5 месяsев, прошедших после конкурса, зафиксировано более двух миллионов просмотров ее выступления на каналах интернета.

В интереснейшей беседе Малика Хакимова, Лауреат ряда Республиканских и Международных и вузовских конкурсов, сказала: «Все, что я делаю и умею – это заслуга моего педагога Ольги Михайловны Матвеевой. Мы, с первых дней творческой работы, являемся одной «командой», эта победа, наша победа, победа нашего вокального исполнительства Узбекистана, Института национального эстрадного искусства имени Батыра Закирова при Государственной консерватории Узбекистана, кафедры «Эстрадное пение». Подготовка к этому конкурсу шла постепенно, репетировать могли до 3-х, 4-х утра». Малика считает, что: «При исполнении песни необходимо принять образ и раскрыть его, чтобы передать через эмоциональное состояние своей души, донести до слушателя».

Действительно, Малика Хакимова и ее педагог Ольга Матвеева – это одна команда. Следует отметить, что в прошлом О.Матвеева выпускница Государственной консерватории Узбекистана, перенимала опыт и мастерство, обучаясь у ведущих педагогов. Первоначально занималась в классе Павла Михайловича Борисова, бакалавриат окончила в классе Мавлюды Уринбаевны Уринбаевой. Спустя годы она поступила и окончила магистратуру по классу вокала у Дилором Дарвиновны Амануллаевой, внёсшей значительный вклад в развитие вокального искусства Узбекистана.

В беседе с автором статьи, профессор Д.Д.Амануллаева поведала, что: «О.Матвеева свои знания музыканта-педагога, многолетний опыт искренно передает молодёже. Из «нулевого» студента она – чуткий профессионал, создает яркую студенческую личность, помогает проявить и раскрыть глубоко таившиеся индивидуальные способности, имеет «свой взгляд» в выборе репертуара для студентов». Так и неоднократные достижения Малики Хакимовой в области вокального искусства, постепенно раскрыли уникальность ее талантливой личности, профессиональное и психологическое умение смены одного образа другим, способствовали получить «путевку» на большую сцену.

Достигнутый успех на Международном конкурсе «Славянский базар в Витебске», не позволил расслабиться и успокоиться Малике Хакимовой. Он стал результатом трудоемкой работы над собой и репертуаром, подготовкой и осуществлением новых программ и проектов. Ее колоссальное трудолюбие свидетельствует о «восходящей звезде» Малики Хакимовой, несущей свет людям, развитию узбекской вокальной школы, пополняющейся новыми талантами.

**Список литературы:**


1. Мирзиёев Ш.М. «Сфера духовности должна опережать на десять шагов другие сферы, духовность должна превращаться в новую силу, новое движение». «Правда Востока», №267 (30304) – С.1, от 23 декабря 2023 года.
2. Гафурбеков Т.Б. «Эстрадизация» узбекского фольклора: Pro et contra (Сайланма). – Тошкент: «Мусиқа». 2009 г. С.75.
3. Конен В.Д. Пути американской музыки. – Москва: «Советский композитор», 1977 г. С.447.
4. Вахидов С.В. Эстрадная песня. // Узбекская музыка на современном этапе. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977 г. С.123–138.
5. Кадыров Р.Г. Музыкальная педагогика. – Т.: «Мусиқа», 2012 г. С.87.
6. Абидова Л.Т. История джаза и современных эстрадных музыкальных стилей. Издательско-полиграфический творческий дом «Ўқитувчи». – Т.: 2007 г. С.128.
7. Амануллаева Д.Д., Аманова Н.А. История джаза и эстрадной музыки. – Т.: «Санъат», 2010 г. С.236.
8. Amanullayeva D.D. Estrada va jaz vokalizlari (Эстрадно-джазовые вокализы). – Т.: «Musiqa». 2014-y. 152-b.
9. Аманова Н.А. Узбекская поп культура и общество. // Материалы Первой Международной научно-практической конференции «Процессы реформирования системы музыкального образования». – Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси таҳрир-нашриёт бўлими, 2009 г. С.173–177.
10. Ньютон Ф. Джазовая сцена. – Новосибирск: Сибирское университетское издательство, 2007 г. С.224.

**Feruza XAKIMOVA,**
**O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi dotsenti**

# USTOZ VA USTA
## (Professor Tohir Yuldashevning hayoti va ijodiga bir nazar)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada benazir ustoz, sozanda, O‘zbekiston musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan professor Tohir Yuldashevning hayoti va ijodi haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *pedagog, sozanda, iste’dod, mohir, usta, shogird, ijod, iqtidor, mahorat, hunarmand.*

# УЧИТЕЛЬ И МАСТЕР
## (Взгляд на жизнь и деятельность профессора Тахира Юлдашева)

**Аннотация.** *В данной статье рассказывается о жизни и деятельности невероятного преподавателя, музыканта, профессора, внесшего большой вклад в развитие музыкальной культуры Республики Узбекистан, талантливого педагога Тахира Юлдашева.*

**Ключевые слова:** *педагог, музыкант, талант, гений, мастер, ученик, творчество, мастерство.*

# TEACHER AND MASTER
## (A look at the life and work of Professor Takhir Yuldashev)

**Abstract.** *This article talks about the life and work of Tahir Yuldashev, a teacher, musician, professor, who made a great contribution to the development of the musical culture of Uzbekistan, an expert teacher.*

**Key words:** *teacher, musician, talent, genius, master, student, creativity, skill, master.*

Insonning komil shaxs bo‘lib shakllanishida, yetuk kasb egasi bo‘lib jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ustoz-murabbiylarning o‘rni beqiyosdir. *“Fidoyi, zahmatkash muallim-o‘qituvchilar o‘z shogirdlariga bilim berish barobarida ular qalbiga insonga xos eng go‘zal ezgu xislatlarni, mehr-oqibat va odamiylik tuyg‘ularini singdirib boradi. Turli yo‘nalishlar qatori san’at va madaniyat sohasida o‘z iqtidori, mahorati va bilim salohiyati bilan yuqori natijalarga erishib kelayotgan yoshlarning muvaffaqiyatlari zamirida, avvalo, aziz ustozlarning zahmatli mehnatlari mujassam”* [1.70-b.].

Shunday ustozlardan biri san’at va madaniyat sohasida uzoq yillar ishlab, o‘zining sozandalik va ilmiy-amaliy faoliyati bilan samarali hissa qo‘shib, ko‘plab shogirdlarni tarbiyalab kelayotgan fidoyi ustoz, mohir pedagog Tohir Yuldashev 1947-yil 30-iyunda Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tavallud topgan. U 1964-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirib, qashqar rubobi cholg‘usi bo‘yicha professor Feoktist Nikiforovich Vasilyev sinfida saboq oladi. 1968–1974-yillarda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasining hozirgi (O‘zbekiston davlat konservatoriyasi) “Xalq cholg‘ulari” fakultetida afg‘on rubobi cholg‘usi bo‘yicha professor Karimjon Azimov sinfida tahsil oladi. U o‘zining ijrochilik faoliyatini 1972-yil Muxitdin Qori-Yoqubov nomidagi O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Go‘zal” ansamblida sozandalikdan boshlagan.

1974-yildan Toshkent madaniyat instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) “Xalq cholg‘ulari” kafedrasiga ishga taklif qilinadi. Pedagoglik faoliyati bilan birga To‘xtasin Jalilov nomidagi O‘zbekiston davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestrida sozandalik faoliyatini ham birgalikda davom ettirib kelgan.

Ustozning “Go‘zal” ansamblida orttirgan tajribasi tufayli institut rahbariyati unga iqtidorli talabalardan “Ashula va raqs” ansambli tuzishni taklif qiladi. Ustoz tomonidan “Nilufar” ansambli tashkil etiladi hamda bu ansambl respublikamizning shahar va qishloqlarida ko‘plab konsertlar berib, tez orada tilga tushib, 1982-yilda Toshkent shahar “Yoshlar ittifoqi” mukofoti sovrindori bo‘ladi.

Ijodiy faoliyati mobaynida “Nilufar” ansambli bilan Bolgariya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yaponiya, Hindiston va bir necha xorijiy mamlakatlarda bo‘lib o‘zbek milliy ijrochilik san’atini namoyish qiladi. O‘zbekiston xalq artisti Ma’murjon To‘xtasinov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar G‘iyos Boytoyev, Anvar G‘aniyev, Erkin Qaytarovlar, Oybek Sultonov, Diloram Himmatova kabi respublikamizning taniqli xonandalari o‘z ijodiy faoliyatini aynan shu ansamblda boshlaganlar.

Jamiyatni ma’nan yuksaltirishda musiqaning o‘rni beqiyos. Musiqa san’ati va qo‘shiq insonni tarbiyalaydi, ohang va unga mos kayfiyat, ruhni shod etuvchi vosita va omildir. Madaniy meros bo‘lib kelgan xalq kuylari, Shashmaqomlarning an’anaviy ijrochilik yo‘llarini uzluksiz o‘rganish, uzviylikka erishish muhim vazifa hisoblanadi. Madaniyat va san’at sohasidagi talaba-yoshlarga madaniy meros bo‘lib kelgan o‘zbek xalq kuylari, maqomlarni ijro etishda an’anaviy ijrochilik yo‘llarini o‘rgatishda Tohir Yuldashev yillar davomida to‘plagan nazariy va amaliy bilimlarini, tajriba va mahoratini yosh avlod talabalarga singdirib kelayotgan ustozlardan biridir.

Ustozning ijodiga nazar solsak, bu yil yarim asrdan

buyon shu institut "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida Qashqar rubobi, Afg'on rubobi, soz va ud cholg'ulari bo'yicha talabalarga saboq berib, qadimiy cholg'u bo'lmish ud cholg'usi tarixini o'rganish bilan bir qatorda ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'ygan holda qator shogirdlar yetkazib kelmoqda. Orif Hakimov, To'lqin Otaqulov, Javlon Berdiyev, Uyg'un To'xtasinov, Baxtiyor Rizayev, Bahodir Xolmurodov kabi qator talabalar ustoz qo'lida ud sirlarini o'rganib, konsert dasturlarini namoyish etishdi. Qashqar rubobi, Afg'on rubobi ansambllari bilan bir qatorda udchilar ansambli tashkil etilib, ud sinfi rivojlantirildi.

Ustoz boshchiligida har o'quv yilida konsert dasturlari o'tkazilishi an'anaga aylangan. Shu bilan birga bu tadbirlarning alohida jihatlaridan biri ustozning o'zlari tomonidan ijro qilinadigan cholg'ular va asarlarning xilma-xilligidir. Ustoz ulug' yoshda bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunga qadar sahnada o'z mahoratini ko'rsatib, "Ustoz-shogird an'anasi"ni davom ettirgan holda 60dan ortiq sahnaviy chiqishlar (konsertlar)da talaba yoshlarga namuna bo'lib kelmoqda.



2021-yil O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi ovoz yozish studiyasining "Oltin fond"iga ustoz tomonidan afg'on rubobida ijro qilingan o'zbek xalq kuyi "Kurd", afg'on xalq kuyi "Afg'oncha raqs" asarlari hamda Qashqar rubobida 30dan ortiq asarlari jumladan: o'zbek xalq kuylari "Surnay navosi", "Nasri segoh", "Tanbur navosi", "Adol tanovar" va boshqa bir qancha asarlari yozib olindi. Bu asarlar kelajak avlodga madaniyat va san'at sohasida cholg'u ijrochiligini rivojlantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Professor Tohir Yuldashev ijodiy ishlar bilan bir qatorda cholg'u ijrochiligiga oid qator ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, yaratdi. Jumladan, Afg'on rubobi uchun ***"Xrestomatiya"*** (1994-yil), Afg'on rubobi ijrochiligi bo'yicha ***"Kurd"*** qo'llanmasi (2001-yil), ***"Ud saboqlari"*** darsligi (2008-yil) nashr etildi. Shu bilan birga bir qator ilmiy maqolalari Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda, shuningdek, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari to'plamlarida chop etilgan.

Tohir Yuldashev san'at va madaniyat sohasida olib borgan ishlari uchun 2002-yilda dotsent, 2010-yilda esa professor ilmiy unvonlariga sazovor bo'ldi. Ustozdan saboq olgan shogirdlar bugungi kunda turli jamoalarda yuqori lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqdalar. Ulardan professor Sobirjon Jumayev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Faxriddin Ikromxo'jayev O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi (sirtqi ta'lim bo'lim boshlig'i, dotsent), Shavkat Umarov O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi (kafedra mudiri, dotsent), Feruza Hakimova O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (dotsent), Orif Hakimov Termiz davlat universiteti (kafedra mudiri, katta o'qituvchi), Shuhrat Qoraboyev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (o'qituvchi), Zafar Hayitov Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti (katta o'qituvchi), Baxtiyor Xoljigitov Bekobod ixtisoslashtirilgan san'at maktabi (katta o'qituvchi), Saule Xo'jamjarova Qozog'iston Respublikasi Chimkent shahri musiqa maktabi (o'qituvchi) hamda Umida Toshmatova, O.Patxullayev, I.Yusupov, A.Nazarov, T.Rahmonova, A.Mamatova, Sh.Yo'ldoshev, S.Javlonov va boshqalar respublikamizning turli viloyatlarida Bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat yuritib kelishmoqda. Bularning hammasi ustoz Tohir Yuldashevning ko'p qirrali ijodkorligidan dalolat beradi.

Ustoz cholg'u ijrochiligi bilan bir qatorda hunarmandchilik (taroq ustasi) bilan ham shug'ullanib kelmoqda. Suhbatda: *"Taroqchilik kasbi bizning ota-bobolarimizdan qolgan merosdir. Bu hunar bilan mashhur bo'lgan otamiz Muhammadkarim, akalarim Olimjon, Abbosjon, Ilyosjon va men shug'ullanib kelamiz. Taroqchilik hunari O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Qo'qon shaharlarida o'ziga xos uslubda keng tarqalgan. Taroqni tayyorlashda o'rik, yong'oq, nok daraxtlaridan foydalaniladi. Dastgoh (stanok) asbob-uskunalar, ya'ni tesha, arra, va egovlar yordamida xalqimiz ehtiyoji uchun taroqlar tayyorlaymiz. Taroq sartaroshlik tarixida eng qadimiy qurol. Taroqning turlari ko'p, ammo ulardan mosini tanlash soch va bosh terisi salomatligi uchun muhim. Shu bois taroq tanlayotganda anchayin e'tiborli bo'lgan maq'ul.*



*Birinchidan, u bosh terisiga shikast yetkazmasligi zarur. Taroq tishlarining uchi sayqallangan, qiyalama*




*bo'lishi, biroq o'tkir bo'lmasligi kerak. Chunki ular bosh terisini tirnashi mumkin. Yaxshi taroqning tishlari gugurt donachalarini eslatadi. Ikkinchidan, taroq tishlari orasidagi masofa ham ahamiyatga ega. Agar tishlarining masofasi kichkina bo'lsa, bunday taroq bilan qalin sochlarni tarash mumkin emas. Uchinchidan, taroq nimadan yasalganligiga ham ahamiyat berish lozim. Yog'och taroq sochlarga ziyon yetkazmaydi. Ammo uning tishlari tez sinishi mumkin. Plastmassadan yasalgan taroqning tishi o'tkirligi bois, bosh terisiga jarohat yetkazadi. Temirdan yasalgan taroqning tishlari sinmaydi, ammo bosh terisiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

*Taroqning tishlari ikki xil: mayda va yirik donalardan iborat bo'lib, bir o'lchamda kesiladi. Yon tarafidan yo'laklari yoysimon tekislanib sochni tarashda qulay bo'lishiga mo'ljallangan. Tishlari maxsus ikki yog'lama egov bilan uchlanib sochni tarashga, siliqlanishga moslangan. Taroqni tayyorlashda an'anaviy o'ymakorlik uslublaridan foydalaniladi. Shundan so'ng uni jilvir qog'oz bilan tekislanib, taroqlar suvga tushganda hamda sochni taraganda muloyim bo'lishi uchun qushlar pati bilan moylanadi. Men ham ota-bobolarimdan qolgan shu hunarimni sulolamiz davomchilari o'g'illarim va nevalarimga o'rgatmoqdaman",* – deydi ustoz.

Tohir Yuldashev biz shogirdlar uchun nafaqat mohir sozanda, balki qattiqqo'l va mehribon ustozdir. 1991–1996-yillar Abdula Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) Xalq ijodiyoti fakultetida o'qish davrida maxsus cholg'u, ya'ni mutaxassisligim Afg'on rubobi sinfi bo'yicha ustozdan ta'lim olganman. Ustoz dars jarayonida nafaqat bilim bergan, balki o'sha vaqtdanoq bizdagi pedagogik qobilyatni shakllantirish, cholg'u ijrochiligiga bo'lgan qiziqishimizni oshirish uchun o'zining bor mahoratini ayamagan. Dars jarayonida talabaga juda sinchikovlik bilan e'tibor berar, vazifa to'liq bajarilmagunicha qoniqish hosil qilmasdi. Hattoki, dars davomida nota daftarimga: 100 marotaba chalish kerak, deb mustaqil shug'ullanishim uchun eslatma yozib qo'yardi. Asarlarim ustiga yozilgan bu yozuvlarni hozirgacha saqlab kelaman va talabalarga namuna sifatida ko'rsataman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Xakimova F. "Farhod Alimov ijodi xususida" (1947–2014). "O'zDSMI xabarlari" jurnali, 2021/1(17), 70-bet.
2. Tohir Yuldashev "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi professori bilan suhbatdan.
3. Beknazarov K. Pedagogical conditions for developing musical competence of future music teachers using uzbek folk instruments //Current research journal of Pedagogics. – Tashkent: 2023. № 6. Pg.101–107.
4. Javohir G. Musiqa ta'limida metod va usullardan dars jarayonida foydalanish // Oriental Art and Culture. – T.: 2022. № 4. 954–957-b.
5. Elbek A.S., Turatov S.T. Afg'on rubob cholg'usining genezisi. // World scientific research journal. – T.: 2023. 14. № 1. 49–52-b.
6. https://www.lex.uz/

Nigora ARZIMURODOVA,
O‘zDSMI “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi o‘qituvchisi

# O‘ZBEK MUSIQASINING BETAKOR “KOMMUNA”SI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, o‘zbek mumtoz musiqasiga ulkan hissa qo‘shgan betakror ovoz sohibasi, jarangdor, go‘zal ovozi bilan an‘anaviy ijrochilikda “Kommunacha” yo‘lini, hofizalik maktabini yaratib ketgan ustoz san‘atkor Kommuna Ismoilovaning hayot va ijod yo‘llari, ovoz imkoniyati va uslubi haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *xonanda, san‘at, ovoz, uslub, musiqa, ijod, ijro.*

# «КОММУНА» УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКИ

**Аннотация.** *В данной статье рассказывается о жизненном пути, творчестве, вокалных возможностях и стиле Коммуны Исмаиловой, уникальной обладательницы голоса, внесшей большой вклад в узбекскую музыку, создавшей своим звонким и красивым уклад “Коммунача”, школу памяти в традиционном исполнении голос.*

**Ключевые слова:** *певица, арт, голос, стиль, музыка, творчество, выступление.*

# "COMMUNE" OF UZBEK MUSIC

**Abstract.** *This article talks about the life path, creativity, vocal possibilities and style of Kommuna Ismailova, a unique voice owner who made a great contribution to Uzbek music, created the “Kommunacha” way, the school of memory in traditional performance with her sonorous and beautiful voice.*

**Key words:** *singer, art, voice, style, music, creativity, performance.*

O‘zbek mumtoz maqom san’atining yetuk hofizasi, O‘zbekiston xalq artisti, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, o‘zining ijrosi bilan ayol xonandalar orasida yuksak mavqeiga ega san’atkor Kommuna Ismoilova 1927-yil 15-dekabrda Xorazm viloyati Xiva shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topgan. Otasi Qurbon Ismoilov Xiva shahridagi “Xiva kommunasi” gazetasida muharrir lavozimida faoliyat yuritgan. Onasi Bekajon Ismoilova esa, o‘sha davrdagi xotin-qizlar maktabida tahsil olgan. Kommuna Ismoilova dunyoga kelgach, avvaliga, ota-ona unga Ullibibi deb nom berishadi. Ammo shahar hokimi Qurbon Ismoilovning farzand ko‘rganidan xabar topadi va unga o‘zi muharrirlik qilayotgan gazetaning nomiga mos qilib, qizini Kommuna deb atashni maslahat beradi. Bu fikr esa hammaga ma’qul bo‘ladi. Shu bahona Ismoilovlar oilasining to‘ng‘ich farzandi bo‘lmish qizaloqqa Kommuna ismi beriladi.

Yosh Kommuna otasining xizmat vazifasi tufayli 1934-yilda Urganchga ko‘chib o‘tishadi va qizaloq shu yildan boshlab Urganchdagi o‘rta maktabda o‘qiy boshlaydi. Kommunaning iste’dodi maktabda o‘qib yurgan paytlarida namoyon bo‘la boshlaydi. U o‘rtoqlaridan o‘tkir zehni, va qolaversa, qo‘ng‘iroqdek ovozi bilan ajralib turardi. Maktabda tahsil olar ekan, konsertlarga, turli xil teatr tomoshalariga tez-tez qatnab, san’atkorlar bilan tanisha boshlaydi. 1935-yilda Tamaraxonim Xorazm teatrida bir yil davomida faoliyat yuritadi. U bilan birga o‘z davrining yetuk san’atkorlari ham ijod qilishadi. Teatrda “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” spektakllari namoyish etiladi va yosh Kommuna ham ularga qo‘shilib kichik rollarni ijro etadi. Spektakllarda rol o‘ynash, san’atkorlar davrasida yurish Kommunaning iste’dodini yanada oshiradi. Ashula ijrochiligida esa u o‘zini yanada erkin seza boshlaydi. Tamaraxonim Kommunaning otasiga: *“Qizingiz Kommuna san’atga judayam qiziqar ekan. Ovozi ham shirali, nolali. Hali ko‘rasiz, u butun respublikaga dong‘i ketgan mashhur san’atkor bo‘ladi. Uning kelajagi porloq, sizlarning nomingizni butun dunyoga taratadi…”* deydi[1].

Kommuna Ismoilova 1942-yil o‘qituvchilar tayyorlaydigan 6 oylik muallimlik kursida tahsil oladi. Shu davrda Ikkinchi jahon urushi boshlanib, Toshkentda harbiy ansambl tashkil etiladi va muntazam tarzda konsert gastrollari tashkil etila boshlaydi. Ansamblga taniqli san’atkor Gavhar Rahimova boshchilik qiladi. 1943-yilda ushbu ansambl Xorazmga konsert gastrol safari bilan keladi va Kommuna o‘qiyotgan binoning yonidagi mehmonxonaga joylashadi. Binoning ikkinchi qavatidagi deraza oldida Kommuna To‘xtasin Jalilovning Sobir Abdulla so‘zi bilan “Qurbon Umarov” spektakliga yozgan qo‘shig‘ini xirgoyi qilib turardi. Xuddi shu paytda gastrolga kelgan san’atkorlar mehmonxonadan chiqib, bino yonidan o‘tib borardilar. Kommunaning ijrosini tinglab, ustoz sozanda Faxriddin Sodiqov bilan Gavhar Rahimova binoga kirib, uni so‘roqqa tuta boshlaydilar va unga yaxshigina ovozi borligini, zarur tarbiya va bilim berilsa, risoladagidek san’atkor bo‘lishini aytib o‘zlari bilan birga Toshkentga ketish taklifini beradilar. Kommuna Ismoilova esa ixtiyori ota-onasida ekanligini, agar ular rozi bo‘lsalar jon-dili bilan bu taklifni qabul qilishini aytadi. Kommunadagi bebaho iste’dodni ko‘rgan ustoz Faxriddin Sodiqov uning otasi bilan suhbatlashib, qizining betakror iste’dod egasi ekanligini tushuntiradi. Ota-ona ustozlar taklifiga rozi bo‘lishadi.

Ushbu voqea xususida R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” nomli monografiyasida yozadi: *“Bir muddat*

[1] Jalilov A. Kommuna Ismoilova. – Toshkent: “Musiqa”, 2009-y. 5-b.



*o'tgandan so'ng harbiylashgan san'atchilar guruhi Xorazm tomon xizmat safariga otlanadi. Bu yerda ko'plab konsertlar uyushtiriladi, ijodiy uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Berilgan tomoshalarda mahalliy yosh havaskor xonanda va sozandalar ham o'z mahoratlarini namoyish etishga oshiqardi. Ular orasida Kommuna Ismoilova o'zining musiqiy iqtidori, shirador ovozi va jasur fe'li orqali G.Rahimova bilan F.Sodiqov nazariga tushadi"[2].*

1943-yilning 11-fevralida Kommuna Ismoilova Gavhar Rahimova rahbarligidagi front brigada ansambliga qo'shilib, Toshkentga keladi va ustoz san'atkorlar bilan bir safda ijrochilik faoliyatini boshlaydi. Kommunaning ansambldagi ilk qadamlari ish faoliyati emas, balki ko'proq ijrochilik an'analarini o'rganish, mahoratini oshirish, ijro uslubini o'zlashtirish kabi ijrochilik mezonlari bilan bog'liq bo'lgan, desak to'g'ri bo'ladi.

Ustoz Kommuna Ismoilovaning aytishicha, ushbu taklif uning taqdirini hal qilgan. Chunki u bu yerda yetuk ustozlar qo'lida tarbiyalanadi, ijrochilik mezonlarini puxta o'zlashtiradi hamda o'zbek mumtoz musiqa san'atiga qalbida yanada chuqur muhabbat uyg'onadi. Yosh xonanda ushbu ansamblda Faxriddin Sodiqov qo'liga shogird tushadi.

D.Mullaqandov o'zining tadqiqotlarida o'zbek xalq musiqasi ijrochiligida ovoz ishlatish uslubining tasnifotini keltiradi[3]. Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarida xonandalik san'atida o'ziga xos ovoz chiqarish uslublari qadimdan mavjud. Qadimda bu uslublarni shunday nomlashgan ekan: binnigi, gulligi, ishkami va gumbazi xonaqoi[4]. Xonanda Kommuna Ismoilovaning ovoz chiqarish uslubini gulligi uslubida, deyishimiz mumkin.

Gulligi ovoz chiqarish uslubi – tovush hosil qilishning bu usulida ko'proq tovush o'pka tebrantiruvchilaridan chiqishi va tomoq bilan og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga yo'llanishi natijasida yuzaga keladi. Ovozning yuqori pardalarida ham bosh tebrantiruvchilar va tanglay deyarli ishlamaydi. Bunday uslubda yuqori ovoz pardalarini olish uchun tomoqqa zo'r berib, tomoq qon tomirlari bo'rtib chiqadi hamda shishadi. Ustozlarning aytishicha, bunday ovoz chiqarish uslubidagilar tovushlarining yuqori registrlarida tomog'i shishib, tomirlari bo'rtib chiqqanida chetdan kuzatilganda xonandaning bo'yin qismi gullaganga o'xshab ko'rinar ekan, shuning uchun ham bu uslubni gulligi, deyishar ekan.

Shu bilan birgalikda Kommuna Ismoilovaning ovoz turini messo soprano, deyishimiz mumkin. Bu turdagi ovozlar haqiqiy hissiyotga to'la, asl jozibali ayol ovozidir. Bunday ovoz turi jamiki ayol zoti ovozlarini o'z ichiga jamlagan, desak xato bo'lmaydi. Chunki unda ayollarga xos noziklik, o'ta hissiyotlilik, nafislik mujassamdir. Bundan tashqari alt ovoz turlariga o'xshash kuchlilik, jarangorlik, to'liqlik, yuqori soprano ovoz turlariga xos mayinlik, nozik tabiatlilik kabi sifatlari aynan messo soprano ovoz turlari sifatlaridir. Bu ovoz turi lirik hamda dramatik turlarga bo'linadi. Lirik messo soprano harakatchan, nisbatan yumshoq, ruhiyatli va quyuq bo'ladi. Dramatik messo soprano esa nisbatan harakatchanligi sustroq, to'liq, baquvvat va sokin bo'ladi. Bu ikkala ovoz turlari bir-biridan diapazon jihatidan ham bir xil emas. Dramatik messo soprano ovoz turining ko'lami birinchi oktava mi dan uchinchi oktava mi pardalari oralig'ida bo'lsa, lirik messo soprano ovoz turi birinchi oktava fa dan uchinchi oktava fa pardalari oralig'ida bo'lishi mumkin.

Kommuna Ismoilovaning ovozi bir so'z bilan aytganda, soprano tipida bo'lib, yuqori registrdagi uchinchi oktavaning re-re diez pardalarigacha yetadi. Xonanda ovozini mohirona ishlata olgan. U ashulachilik an'analariga xos qochirimlar, nolishlar va nolalardan me'yorida foydalana olgan. Kommuna Ismoilova har bir qo'shiqni she'r mazmuniga va kuy ruhiga jiddiy e'tibor bergan holda ijro etgan. Kommuna Ismoilova bastakorlik ashulalari va qo'shiqlarini, ayniqsa, Xorazm xalq qo'shiqlarini ehtiros bilan ijro etgan, lirik qo'shiqlarga xos qochirimlardan juda o'rinli va ustalik bilan foydalangan, natijada eshituvchi qalbida chuqur taassurot qoldirgan.

Xonanda Kommuna Ismoilovaning yutug'i nafaqat uning mukammal ijro uslubida, balki ashula so'zlarini tushunarli qilib, go'zal talqinda yetkazib berishidadir. Ustoz san'atkor ijrochilik faoliyati bilan birgalikda ko'plab yosh ashulachilarni tarbiyalab yetishtirishda ham tinmay mehnat qilgan. Ostrovskiy nomidagi pionerlar uyi, «8 март» fabrikasi huzuridagi havaskorlar to'garagi uning rahbarligida qizg'in ijodiy ish olib borgan. Ustozning xalq oldida ko'rsatgan xizmatlari hukumat tomonidan yuksak taqdirlangan. Unga 1950-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan

---

[2] Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – T.: 2005-y. 46-b.

[3] Isroilova-Qosimova H. An'anaviy hofizlik san'ati. – T.: "Voris-nashriyot", 2007-y. 5-b.

[4] O'sha manba.13-b.



artist, 1967-yilda esa O‘zbekiston SSR xalq artisti faxriy unvoni berilgan.

Kommuna Ismoilova 1993-yildan to umrining oxirigacha ustozlik faoliyatini Toshkent Madaniyat kollejida davom ettirdi. Ustoz ijrosidagi 470dan ortiq qo‘shiq va ashulalar O‘zbekiston Radiosining oltin fondiga yozib olingan. Shulardan 170ta asar o‘zbek xalq cholg‘u orkestri jo‘rligida yozib olingan. San’atkor qaysi uslubda qo‘shiq kuylamasin, qaysi xalq qo‘shig‘i bo‘lmasin, o‘zining betakror ovozi bilan, “Kommunacha” talqini bilan ajralib turadi. Uning ashula va qo‘shiqlari xalqimiz qalbidan chuqur joy olib ulgurgan, chunki o‘tmish san’atimiz darg‘alari Kommunaxonim Ismoilova siymosida, ijrosida o‘z aksini topgan. Qolaversa, 1943-yildan boshlab ustozlik va rahnamolik qilib kelgan Faxriddin Sodiqov, Gavhar Rahimova va Boborahim Mirzayevlar, 1946-yildan maslakdosh ustozi Komiljon Otaniyozov, o‘zbek raqs san’ati malikasi Mukarrama Turg‘unboyeva, shuningdek, ustoz san’atkorlar Halima Nosirova va Doni Zokirov, 1959-yildan boshlab maqom ijrosi bo‘yicha ustozi Yunus Rajabiylarning sabog‘ini olib, mukammal ijro uslubini yarata olgan va el nazariga tushgan.

Ustoz K.Ismoilova ko‘plab durdona asarlarni xalqimizga taqdim etdi. Ayol xonandalar uchun o‘zining yo‘lini, o‘zining maktabini yaratib ketdi. Uning ijodidagi ***“O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani”, “Shifokorlar”, “Ey, chehrasi tobonim”, “Tong yellari”, “O‘ylanma”, “Ey, sohibi dil”, “Tokay”*** kabi ashulalari o‘zbek mumtoz ijrochiligining shoh asarlari hisoblanadi.

# O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal*

***Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi***

**Nashrga tayyorlovchi:**
Ozoda Shobilolova

**Sahifalovchi-dizayner:**
Abdug‘ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 30.08.2024-yil
Ofset bosma usulda bosildi.
“Arial” garniturasi. Bichimi 60×841/8.
Shartli bosma tabog‘i 12,25.
Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: